

Алишер АЙМАТЛИ

*Кўнгал  
ҳикматлари*

Тошкент  
«Akademnashr»  
2016

УЎК: 821.512.133-84

КБК: 84(5Ў)7

А 38

**А 38 Айматли, Алишер**

Кўнги́л ҳикматлари [Матн] / А.Айматли. – Тошкент: Akadem-nashr, 2016. – 352 б.

ISBN 978-9943-4533-4-0

УЎК: 821.512.133-84

КБК: 84(5Ў)7

*Халқ тилидаги мақол ва маталлар, нақл ва ривоятлар инсон турмушининг янада гўзал ва сермазмун бўлиши учун одамларни эзгулик ва яхшиликка, улкан бунёдкорликларга ундаб, илҳомлантириб келаётганлиги билан ҳам қадрлидир.*

*Алишер АЙМАТЛИнинг янги китобида ҳам сиз шоир қалбининг туб-тубида ётган ҳикмат жавоҳирлари билан танишасиз. Бу назмий ва насрий ижод намуналари фикратингизга озгина нур, чеҳрангизга ним табассум ҳадя этади, деган умиддамиз.*

ISBN 978-9943-4533-4-0

© Алишер Айматли

«Кўнги́л ҳикматлари»

© «Akademnashr», 2016

## ШОИРНИНГ ҲАҚИҚАТИ

Аслида, ҳаёт узун шеърга ўхшайди. Шунингдек, ҳамма одам ҳам шоир. Фақат кимдир ўз ҳаётини, умрини, яхши-ёмон кунларини сўзга ишонади, яна кимдир барча дарду шодлигини кўнглида кўтариб юради...

Ҳали-ҳануз эсимда... 80-йиллар ўрталарида Навоий вилоятининг «Дўстлик байроғи» газетасига мухбир бўлиб ишга кирдим. Энди менга адабиёт, сўз, шеър ўзининг нақшинкор дарвозасини очгандек эди. Ўшанда бўлим мудир Алишер АЙМАТЛИ (Эсиргап Болиев)ни яқиндан танишга мушарраф бўлганман. Алишер ака жуда кам гапирар, икки-уч оғиз сўзи билан қилинажак ишимизнинг бор моҳиятини очиб берарди. Адабиётни, халқ оғзаки ижодини шу қадар чуқур билардики, анча-мунча олимни чангида қолдириб кетарди. Шунча билим, шунча шавқ, туйғу билан нега шеър ёзмас экан деб ўйлардим гоҳо. «Сиз шеър ёзмайсизми?» – деб ҳам сўраган пайтларим бўлган. Шунда у ўзига ярашган нурли жилмайиш билан: «Шоирларнинг нонига шерик бўлиб нима қиламан?» – деганди. Албатта, бу унинг беғубор ҳазили эди. Алишер аканинг тийнатида ҳозиржавоблик ва донишмандлик мудом манаман деб турарди. Ўшанда ички дунёси эзгуликка тўла бу инсондан қайсидир маънода ҳаёт фалсафасини ўргандим. Ҳа, Алишер ака адабиёт оламига чуқурроқ, зийракроқ нигоҳ солишимга, инсонлар кўнглини нозикроқ англашимга устозлик қилди десам ҳақ гапни айтган бўламан...

Шоирнинг «Омад» номли тўртлигида катта бир шеърнинг юки бор десак хато бўлмайди:

*Гарчанд тик бўлса-да менинг қоматим,  
Ич-ичидан синган, асли, қанотим.  
Билмайсиз, туянинг гўштини еган  
Ҳаётдан туғилмас ҳануз омадим...*

Алишер АЙМАТЛИнинг ҳар бир тўртлигида тириклик фалсафаси мужассам. У ҳеч кимни такрорламайди, нозик ташбеҳлар ўрнига ўзининг дўлвор ҳақиқатини айтади. Буни адабиётда ўзига хослик дейдилар.

Шоирнинг шеърлари ҳам ўзгача олам. Улардан бахшиёна нафас уфуриб туради. Халқона қочирим, ўткир донишмандлик ила битилган бу шеърлар қайсидир маънода ибрат намунаси вазифасини ўтайди.

Энг муҳими, шоирнинг айтадиган жунунвор сўзи, ҳаёт офтобида пишган ўз ҳақиқати бор. Бу ҳақиқат кўнглингизга шеър нафасида кириб келар экан, юзингизга беихтиёр ширин табассум югуради, дилингиз дарахтини эса ҳақ сўзининг эпкинни титратгандек бўлади.

Алишер аканинг кўнгли катта хазина беркитилган қонга ўхшайди. Яхши биламизки, кўнгил хазинаси туганмасдур. Шу маънода ундан янада мавжлироқ, янада авжи банд шеърлар кутиб қоламиз.

**Ҳалима АҲМЕДОВА,**  
*шоира*

# Термалар

*Күксимдан бүгзимга бир сүз ўрмалар,  
Унга суркамадим ўсма, сурмалар.  
Эл оғзидан териб олганларим бу –  
Шу боис атадим уни ТЕРМАЛАР...*



**ИЗҲОР**

Билганимни сўзладим – ошиғини айтмадим,  
Тийилдим ноҳақ сўздан, тошиғини айтмадим.  
Хатоимми, ютуғим: аравага чиқдим-у,  
Аммо аравакашнинг қўшиғини айтмадим.

**ОРЗУ**

– Бугун хушми ё ўтган кун,  
Қувонч келиб, ғам кетган кун?  
– Ҳаммасидан авло эрур  
Ҳаққа овозим етган кун.

**КАЛИТ**

Кимки улус аро ширин сўз сочар,  
Эзгуликлар келгай, фалокат қочар.  
Хушфезълликни умринг калити билгил,  
Кичик калит катта эшикни очар.

## **ЮК**

Бир пайтлар зор эдинг мошу сўкка ҳам,  
Бугун қўл узатсанг, етар кўкка ҳам.  
Омадингни берсин, аммо унутма:  
Туя тиз чўккайдир кичик юкка ҳам.

## **ТОЙМАСИН**

Тақдирдан рўз тоймасин,  
Кўзлардан кўз тоймасин.  
Оқибат – дунёга файз,  
Кўнгилдан сўз тоймасин.

## **ҲУРРИЯТ**

Иншооллоҳ, қиш ўтиб, тутга етдик,  
Ризққа етдик, барака-қутга етдик.  
Онаси даладан қайтган гўдакдек  
Тамшаниб, гўё яна сутга етдик.

**БИЛГИН**

Билдинг қайда қулиш-қулмасликни ҳам,  
Ким билан дўст бўлиш-бўлмасликни ҳам.  
Нима қиларингни биласан энди,  
Ўрган, бўтам, нима қилмасликни ҳам.

**ЧИГИТ**

Ким айтар тупроқни ўғит енггуси?  
Ўғитмас, аслида, чигит енггуси.  
Мен сенга чигитдек сабр тилайман,  
Шерни шербардошли йигит енггуси!

**ҚАНИЙДИ**

Барча дўстим сирдош бўлса қанийди,  
Жондан азиз, қурдош бўлса қанийди.  
Тиригимда иззатим осмон қадар,  
Тобутим ҳам талош бўлса қанийди...



## **ВАЛИ**

Айблимиз – хоҳ кампир, чоли бўлади,  
Ёлғиз Аллоҳ айбдан холи бўлади.  
Ўзганимас, аввал ўзингни англа,  
Ўз айбини билган вали бўлади.

## **ТАРОҚ**

Не бир кунларимга яради тароқ,  
Санамлар сочини таради тароқ.  
Ўзгалар юмуши дея менингдек,  
Тишлари тўкилиб, қариди тароқ.

## **КЎМИР**

Камситмагил кўмирни,  
Эритади темирни.  
Сен ҳам иситолдингми,  
Ҳеч қурса, бир умрни?!

### **КЎРМАЙДИ**

Менинг кўзёшимни ҳеч ким кўрмайди,  
Пайқамас, кўксимни эзса қайғулар.  
Дилим оғриганда юз ҳам бурмайди,  
Хатоимни дарров кўришар улар.

### **ЙИҚАР**

Ёлғизлик бир куни инсонни йиқар,  
Яқдиллик шубҳаю гумонни йиқар.  
Гап кўп эл бўлишда кўнгилдан, дўстлар!  
Бирлашса чумоли чаённи йиқар.

### **ТАВБА**

Ақлни туйғуга бош этаман мен,  
Кўзни кўр, юракни тош этаман мен.  
Эллик йил яшадим шу тахлит – ТИЙРАК,  
Энди ўз-ўзимни фош этаман мен.

### **МАОШ**

Дўст бошингга қарайди,  
Ёт ошингга қарайди.  
Ёлғиз шўрлик хотининг  
Маошингга қарайди.

### **САҚЛАР**

Инсон шаънин сўзи сақлар  
Ҳамда ўғил-қизи сақлар.  
Ҳар иккиси мисли илдиз,  
Дарахтни илдизи сақлар.

### **ЯХШИ ВА ЁМОН**

Ёмон иймонидан кечгай,  
Яхши ўз нонидан кечгай.  
Мол дўстингга моли азиз,  
Жон дўстинг жонидан кечгай.

**ҚИСМАТ**

Тўрт ёнинг зирҳланган, гўёки қамал –  
Ўзингча ўлимдан бўлолдинг йироқ.  
Паймонанг тўлса гар, билиб қўй, ажал  
Тутун бўлиб кирар тирқишдан бироқ.

**РАҲМ**

Ҳасадгўй кетмоқда – тунд, кўрсбашара,  
Яна кимга гўр қазмоққа шошар-а?  
Унга раҳмим келар, ахир, бир умр  
Безбашара бўлиб қандай яшар-а?

**ВАЪДА**

Давраларни тўлдириб гап берасан,  
Гап билан шайтонга ҳам чап берасан.  
Жаннат ваъда этдинг менга, билмадим,  
Уни қачон ва қайдан об берасан?!

### **МАХСИ**

Махсининг пошнаси йўқ,  
Нокасинг ошнаси йўқ.  
Дунёга ҳирс қўйганнинг,  
Билинги, дунёси йўқ.

### **ҚУЛЛУҚ**

Яшаяпман ичга ютиб аламини,  
Қўй, болам, тирнама битган ярамни.  
Аллоҳга минг қуллуқ, шўр манглайимга  
Лойиқ этди шифобахш шул қаламини.

### **АФСУС**

Нодон ҳоримадим дер,  
Кўса қаримадим дер.  
Нафси ўпқон бой: «Афсус,  
Қишда қор емадим», – дер.

**КУЛАР**

Бу қавм гоҳ борга, гоҳ йўққа кулар,  
Тўкис ё манглайи тиртиққа кулар.  
Ўзини билмасдан ўтар дунёдан,  
Орти очиқ шими йиртиққа кулар.

**ВАҲМ**

Гоҳида қалбимни босади ваҳм,  
Унутгум, қайда ул она даргоҳим?  
Қандай одамманки, бошга иш тушса,  
Эсимга тушасан Ўзинг, Аллоҳим!

**КЕТДИ**

Сен келдинг! Дард кетди, ғам кетди,  
Кўздан оққан жола – нам кетди.  
Абри найсон тегди гиёҳга, сўғин  
Офтоб чиқиб, гўё шам кетди.

**ҚАСД**

Ё Раб, дўстим ёвга оғар,  
Биргалашиб қоним соғар.  
Қордан қочдим, энди бошга  
Дўл аралаш ёмғир ёғар.

**ТОВУШ**

«Тўқсон молнинг терисидан ковуши»,  
Бир қизиса, жуда қийин совуши.  
Ё Раб, қаранг, бугун шундай полвоннинг  
Лайчадай акиллаб чиқар товуши.

**ЎХШАР**

Ул санамнинг феъли ёмонга ўхшар,  
Кўкси тортилган қўш камонга ўхшар.  
Энди омонлик йўқ фақир жонимга,  
Ҳайҳот, нишон бизнинг томонга ўхшар.

**КИМ ЭШАК?**

Кўп юк ортди, эшак ҳолин танглади,  
Ҳатто уриб оёғини ланглади.  
Юк кўтариш ўз бўйнига тушганда  
Эшакдан-да баттар нолиб ҳангради.

**ҚАЙНОНА**

Келин дили шавқдан гупиргусидир,  
Қайнона-чи? Унга тупургусидир.  
У ўйлар, келини – ўғлига соя,  
Келин қайнонанинг супургусидир.

**МАҚТАР**

Косиб мақтар тикканини,  
Деҳқон мақтар экканини.  
Ишёқмаснинг дарди бошқа –  
Мақтар қўлга текканини.



### **ҚАЙЧИ**

Умрим қайчи-қайчи бўлар,  
Бўлганича, кўй-чи, бўлар.  
Бир кун шоир бўлсам, не тонг,  
Дерлар, куйган куйчи бўлар.

### **КОСОВ**

Майдафеъллиларни жиним суймайди,  
Қалби ҳам майдадир, дардинг туймайди.  
Дасти дароз дўстинг кўп бўлсин экан –  
Косов узун бўлса, қўлинг куймайди.

### **ОМАД**

Гарчанд тик бўлса-да менинг қоматим,  
Ич-ичидан синган, асли, қанотим.  
Билмайсиз, туянинг гўштини еган  
Ҳаётдан туғилмас ҳануз омадим...

**СОЯ**

Бир кун емирилар улкан қоянг ҳам,  
Ўткинчи мартаба пиллапоянг ҳам.  
Бошинг узра сузса қора булутлар,  
Ҳатто тарк этгуси сени соянг ҳам.

**ЧЎПОН**

Кирдим санамнинг ўйига,  
Солди санам ўз қўйига.  
Кеч англадим – унга ёрмас,  
Чўпон керакдир қўйига.

**СИНДИРАР**

Ҳовлиқма паҳлавон билак синдирар,  
Уқувсиз келинчак элак синдирар.  
Оғзи полвонликдан Худо асрасин,  
Кучи йўқ мақтанчоқ курак синдирар.

### **ШЎР**

Биламан, кўзларинг – нурнинг уяси,  
Биламан, дилгинанг – сирнинг уяси.  
Нур ва сирга томон ошиқавериб  
Пешонам бўлди-ку шўрнинг уяси.

### **ҚИСМАТ**

Қисмат юки эзди, ундай элади,  
Биров раҳми келар, биров кулади.  
Сен қайдан биласан, дўстим, ҳолимни?  
Тутуннинг аччиғин мўри билади.

### **СЕН ДОНИШСАН...**

Сен донишсан мукамал, гирдинг тўла, бўш бўлмас,  
Аммо бари бирдайин, дардларингга эш бўлмас.  
Сен барчасин бошингда кўтарасан, биласан –  
Кучук томга чиқса-да, эгасидан пеш бўлмас.

**ДИЛОЗОР**

Билдирмай чақасан, изинг кўринмас,  
Ҳамма қочар – ўғил-қизинг кўринмас.  
Кимсага соянг ҳам тушмасин, билки,  
Кўзгуга дам урсанг, юзинг кўринмас.

**ОҒИР ЮК**

Меҳрсиз қалб яғир бўлар,  
Яғир савоб сағир бўлар.  
Кун қолмасин қарздорликка,  
Қарзнинг юки оғир бўлар.

**ТЎТИ**

Илоннинг бути бўлмас,  
Товуқнинг сути бўлмас.  
Чумчуққа гап ўргатма,  
Барибир, тўти бўлмас.

**БЕДА**

Ярашади қиз қувса боши очиқ бўйдоқлар,  
Афсус, кекса дўстимни шундай бир дард қийноқлар.  
Ташла бу қилиғингни десам, уялмай дерким:  
Кўк бедани кўрганда қари от ҳам ўйноқлар.

**ЧЕЛАК**

Ҳаётим сув тўла челакка ўхшар,  
Дилдаги топ-тоза тилакка ўхшар.  
Шуни-да чайқатар, лойқатар, демак,  
Ағдариш кимгадир керакка ўхшар.

**МУҲОЖИР**

Саранжомсан. Тўзиб ўтиролмайсан,  
Бир дам оёқ чўзиб ўтиролмайсан.  
Сендан умидини узган дунёдан  
Умидингни узиб... ўтиролмайсан.

### УЧИРМА

Мол-дунё деб обрўйингни туширма,  
Қўлингдан келмаган ишга куч урма.  
Маҳлиё бўб осмондаги ўрдакка,  
Қўлингдаги тўрғайингни учирма.

### ТЎР

Қоралайман ненидир. Шеър ёзаман, шекилли,  
Одамлар-чи, ўқимас, ғўр ёзаман, шекилли.  
Абдулла Ориф сўзнинг лаққасин илиб кетди,  
Мен ҳам қармоғим ташлаб, тўр ёзаман, шекилли.

### НАФС

Нафс ёмон, мен айтай, ёзиб ол оққа,  
Мисол келтираман бормаи узоққа –  
Нафс йўлида қоплон жарга йиқилди,  
Лайлак ҳам бир дон деб тушди тузоққа.

**ОТ**

Бу дунёда ҳар бир зот меҳнатидан ризқ топар,  
Кимдир буғдой ўради, кимдир ундан нон ёпар.  
Аммо оний омаддан мағрурланма, дерларким:  
От кўрмаган от кўрса отхонада от чопар.

**БИЛМАСКИ...**

Бир санам келмоқда оппоқ паридай,  
Гўё дарду ситам ундан наридай.  
У билмаски, доим бол тутмас ҳаёт,  
Гоҳида таларлар ёппа аридай.

**ТАСКИН**

Туяси бор овулда тут бўлмайди, укажон,  
Болали уйда идиш бут бўлмайди, укажон.  
Хотини уқувсизу тежамсиз хонадонда  
Ҳеч қачон баракаю қут бўлмайди, укажон.

### **ҚАДАМ**

Босган ҳар қадаминг ҳисобда бўлсин,  
Меҳрингни пеш этма, ҳижобда бўлсин.  
Камолингдан дўст шод, душманинг куйиб –  
Умрининг қолгани азобда бўлсин.

### **ЙЎЛ**

Йўлимиз чинакам мушфиқ йўлидир,  
Ҳидоят йўлидир, ошиқ йўлидир.  
Мағрибга суқланма, аслида, бизни  
Аршга элтар йўл ҳам Машриқ йўлидир.

### **ТУШОВДАГИ ОТ**

Умринг ўтмоқдадир бедард, беқизгин,  
Оёғингда тушов, бўйнингда тизгин.  
Етар шунча ситам, хурриятга чиқ,  
Жиловингни узиб, оғилни бузгин!



### **МУСОФИР ҚЎШИҒИ**

Тақдир мени дарбадар қилди,  
Ота юртдан-да бадар қилди.  
Билмам, балки, эрта қайтарман,  
Балки, Қиёмат қадар қилди.

### **ҚИШЛОҚ**

Аймат кичик, аммо боғ-роғли қишлоқ,  
Қавми ҳам бор-йўғи юз чоғли қишлоқ.  
Биламан, мен дайди фарзанди учун  
Боши ҳам, рафтори юз доғли қишлоқ.

### **КЕНГАШ**

Эр йигитнинг сараси эли билан кенгашар,  
Хотинларнинг доноси эри билан кенгашар.  
Оқила қайноналар пухта қилар ишини,  
Қизларидан аввалроқ келин билан кенгашар.

**ТУЗАЛМАС**

Сайёд, сен отганинг жайрон тузалмас,  
Менинг кўнглимдаги армон тузалмас.  
Айбни сен замондан излама, нодон,  
Замон тузалару ёмон тузалмас.

**МАНГЛАЙ**

Заҳар кўшилмасин десанг ошима,  
Кўзларим тўлмасин десанг ёшима,  
Мард бўл, етти ўлчаб бир кесгин, болам,  
Майдонга тушдингми, манглай қашима.

**КЕТАР**

Боғингга эчки тушса, қувсанг кетар,  
Кўйлагингдаги доғни ювсанг кетар.  
Жигарларнинг ораси бузилмасин,  
Унинг ҳасрати, доғи ўлсанг кетар.

### **ҲИЖРАТ**

Ишляяпсан, ҳатто дам оладурсан,  
Ким айтар маошни кам оладурсан?  
Фақат жигарларинг ва юртни эслаб  
Баъзан кўзларингга нам оладурсан.

### **ДАВЛАТ**

Ёруғ юзим, пок дилим, савлатим – болаларим,  
Хоруннинг ганжи етмас давлатим – болаларим.  
Қаридинг, кучинг кетди деб мени камситмагил,  
Тоғни талқон қилгувчи ғайратим – болаларим.

### **ИШ**

– Бола иши нима?  
– Чувламоқ, билсанг.  
Ҳансираб, бир-бирин қувламоқ, билсанг.  
– Катта иши недур?  
– Айб қилиб қўйиб,  
Сўнг устин пинҳона сувамоқ, билсанг.

**ТАНГЛИК**

Бойнинг ҳоли танг бўлса, гадони ахтаради,  
Гадо ҳам шу, бир лақма садони ахтаради.  
Қаранг, Чарх ўйинига: ғирт қаллоб, худосиз ҳам,  
Бошига кулфат тушса, Худони ахтаради.

**ОМОНЛИК**

Мен сенга тилайман омонлик, дўстим,  
Бир ёрки, қошлари камонлик, дўстим.  
Яхшилик илмини пухта ўргансанг,  
Қочар сендан нари ёмонлик, дўстим!

**АМАЛДОР**

Амр қилди, жаҳлга минди,  
Қаҳридан кўп йўғонлар синди.  
Ажаб, қариб, ўз кампирининг  
Буйруғи-ла яшайди энди.

### **УНУТМАНГ**

Унутманг, хоҳ қизу йигит бўлади,  
Сизга бу сўзларим ўгит бўлади.  
Пахтани машҳури замон айлаган  
Тупроқ остидаги чигит бўлади.

### **КУЙГАЙ**

Қўли эгрининг бир кун қўли куйгай,  
Саёқ юрган кимсанинг йўли куйгай.  
Ўтрик билан тикланган иморатда  
Ҳақиқатни айтганинг тили куйгай.

### **САБР**

Бардошли эл хирмон уяр,  
Сабрлини Аллоҳ суяр.  
Кўп бетоқат бўлма, болам,  
Нон пишгунча кулча куяр.

## **ЎЙИН**

Амалпараст эл дардини назарига илмайди,  
Кўриб турар барчасини, гўё улар билмайди.  
Ўнгда ўйин, сўлда ўйин, ўйин олду ортингда,  
Бу дунёда фақатгина Аллоҳ ўйин қилмайди.

## **ШАЙТОН**

У – шайтон. Қаршингга нолиб чиқади,  
Ҳар қайси ўйинда ғолиб чиқади.  
Тегирмонга солсанг, наинки бутун,  
Ҳатто бир қоп ун ҳам олиб чиқади.

## **ТАНИШГАЙ**

Ҳидлашиб ҳайвон танишгай,  
Сўзлашиб инсон танишгай.  
Эгри йўлдан юрма, болам,  
Сен билан шайтон танишгай.

### **ҚАТТИҚ**

– Тош қаттиқми, бош қаттиқ  
Ё кўздаги ёш қаттиқ?  
– Тош не бўпти, биродар,  
Миннат тўла ош қаттиқ!

### **КЎТАРОЛМАС**

Бургут кўтаргани зоғ кўтаролмас,  
Нафақат нимжони, соғ кўтаролмас.  
Аmmo зоғ нухали кимсалар қўйган  
Елкамдаги юкни тоғ кўтаролмас.

### **ХОРИЖДА**

Бу юртнинг қизлари ўғлонлашгандир,  
Бетининг териси йўғонлашгандир.  
Сохтадир хотиннинг нозу фироғи,  
Эрининг эрлиги ёлғонлашгандир.

### ЎТАР ДУНЁ

Дўст ҳам қочар, агар ишинг чап бўлар,  
Ёв дўстлашар, магарким бир наф бўлар.  
Болам, эски чориғингни унутма,  
Ўтар дунё, қолгани бир гап бўлар.

### ҚАРАДИМ

Ёшлиқда онажоним сабоғига қарадим,  
Тўймай қолсам акамнинг товоғига қарадим.  
Ҳайҳот, бугун ақлим ҳам, қорним ҳам тўқ, во ажаб,  
Қариганда хотиннинг қовоғига қарадим.

### ЯХШИ ЭКАН

Висол инсон қувончи, нақши экан,  
Ҳижрон ичра соқов ҳам бахши экан.  
Ўзга элнинг чағалай, булбулидан  
Ўз юртингнинг қарғаси яхши экан.



### **ДУР**

Яхшини йўқотган озар, чўп бўлар,  
Ёмон ўлса, моли талотўп бўлар.  
Яхшини ёмондан ажрата билгин,  
Дурнинг ясамаси жуда кўп бўлар.

### **ЧАҚАДИ**

Шоирга кун йўқ, ёш-қари чақади,  
Мунаққид, таржимон – бари чақади  
Ва ҳатто бошини деворга урса,  
Уяси бузилган ари чақади.

### **УНАР**

Олгани унар берганнинг,  
Отгани тегар мерганнинг.  
Тўхтаб қолма бир жойда –  
Омади келар юрганнинг.

**ПИЧОҚ**

Олтин зиракни отвор – қулоқ оғритса,  
Зардўзи махсидан кеч – оёқ оғритса.  
Аммо дўстнинг баҳридан ўтиб бўлмайди,  
Ҳатто бўғзингда турган пичоқ оғритса.

**УСТУН**

Хайр қил паймонанг тўладигандек,  
Худди эрта-индин ўладигандек.  
Аммо иморатни шундай қургилки,  
Бу дунёга устун бўладигандек.

**БУЮРМАДИ**

Қолмоқчийди адабиётда,  
Туя бўлсин ва ёки отда.  
Буюрмади унга ҳеч қайси,  
Ҳанграб турар энди бир четда.

**ЖАЗО**

Олмоқнинг миқдори бермоғича бор,  
Лафзи ҳалолида турмоғича бор.  
Унча катта эмас жазои мутлақ,  
Бор-йўғи, Худонинг урмоғича бор.

**АЖРАТА БИЛ**

Иймонлининг юзида нур бўлади,  
Ор-номусни билмаган сур бўлади.  
Ажрата бил, болам, олтинни мисдан,  
Дур балчиққа тушса ҳам дур бўлади.

**РИЁ**

Душман қолиб, дўстнинг иши риёдир,  
Қувончимни кўрса қовоқ уёдир.  
Неки кўргилик бор, ичимга ютдим,  
Агар ёзсам, қоғозгина куёдир.

**БИЛКИ...**

Бу мантиқнинг гарчи доим баҳси бўлар,  
Фикринг, балки, тўғри, балки, акси бўлар.  
Билки, аблаҳ ўзгармайди тож кийса ҳам,  
Яхши жулдур кийимда ҳам яхши бўлар.

**«ДЎСТЛАР»**

Ортидан бир-бирин кўзини ўяр,  
Бисотида неки қора ранг – бўяр.  
Ногаҳон дуч келса, ачомлаб, ҳатто  
Тўн ёпиб, уйига кузатиб қўяр.

**ЭГАДИ**

Дарахт шохин ерда ки мол эгади,  
Тевада маймуни дажжол эгади.  
Йигит бошин эса ноқобил фарзанд  
Ҳамда хиёнаткор аёл эгади.

## ЁРОНЛАР

Дўмбирамни қўлга олдим, ёронлар,  
Чор атрофга назар солдим, ёронлар.  
Онгда қолдирмоқчи эдим дунёни,  
Афсус, ўзим онгда қолдим, ёронлар.

## БЕЧОРА

Дард қурғур ҳам тез-тез йўқлаб турибди,  
Юрак гоҳ уриб, гоҳ тўхтаб турибди.  
Ёвдан ранжиб, дўстга юз тутсам, ё Раб,  
Дўст ҳам милтиғини ўқлаб турибди.

## ДУНЁ

Биров шовқин солар, биров ўтар жим,  
Дунёга устунман дейди аллаким.  
Доя туғдирган он янги меҳмонни,  
Гўрков бир қабрга босар янги чим.

### **ШИРИН**

Ҳалолликда топган нонинг шириндир,  
Ёр билан ўтказган онинг шириндир.  
Дўст учун дийдоринг шириндир сенинг,  
Душманга ҳар томчи қонинг шириндир.

### **ЙЎЛГА ТУШДИМ**

Туғилдим шу заҳот йўлга тушдим, ёронлар,  
Гоҳ тўғри, гоҳ эгри қўлга тушдим, ёронлар.  
Бу дунёда топганим жуда-жуда кам бўлди,  
Йўқотишда барчадан мўлга тушдим, ёронлар.

### **ТУҒИЛАЖАК НАБИРАМГА**

Зурриётим давом этар, билсин олам,  
Йиғлаб туғил, йиғлашингдан қулсин олам.  
Шундай яша, бу оламдан кетар чоғи  
Сен жилмайгин, сочларини юлсин олам!

### **ОДДИЙ МАСЛАҲАТ**

Ўлса одам бир фахрни туйиб ўлсин:  
Ўз юртини неварадек суйиб ўлсин!  
Душманингга дўқ-давора солиб юрма,  
Бахтли яша! Бахтинг кўриб куйиб ўлсин!

### **СОТМАС**

Зўр келганда одамлар нени сотмас,  
Ким айтар ошнам бир кун мени сотмас?!  
Бир вафодор дўст бордир бу дунёда,  
Унинг номи сукутдир – сени сотмас!

### **КЎРАСАН**

Дунё кенг, гоҳ тоғ, гоҳ сойни кўрасан,  
Дам шод, дам аҳволи войни кўрасан.  
Оламни кездим деб мақтанма, нодон,  
Ҳамма жойда битта Ойни кўрасан!

**ҒАФЛАТ**

Уйқу – ғафлат, қоч у офатдан,  
Тезроқ қутул тавқи лаънатдан.  
Қариликдан ўлмайди одам,  
Ўлса ўлар фақат ғафлатдан!

**ЎЙЛА**

Бўйингга қараб бўйла,  
Ҳаддингни билиб сўйла.  
Ўйлаганинг сўйлама,  
Сўйлаганингни ўйла!

**ВО АЖАБ**

Одамга ўхшайди ман ила сандай,  
Лек гапи осмонни ушлаб тургандай.  
Во ажаб, ўтрикни чиндайин айтар,  
Чини эса худди Худо ургандай!



### **ТИШ**

Қаридик. Кўзларнинг нури қолдими,  
Ўттиз икки тишнинг бири қолдими?  
Айт, дўст, дилингдагин яширма зинҳор,  
Бу дунёнинг менга сири қолдими?

### **ҚАРЗ**

Ҳаёт бизга берар дарс:  
Пул ўлсин-а, ўлсин қарз.  
Берсанг ҳам, бермасанг ҳам,  
Дўстлигинга кетар дарз!

### **БЎМ-БЎШ**

Чўнтакка қўлимни соламан – бўм-бўш,  
Чўнтақдан қўлимни оламан – бўм-бўш.  
Бир қарасам, қариб дониш бўлганман,  
Бир қарасам, ҳали боламан бўм-бўш.

**ЭШИК**

Излансанг, албатта, имкон топилар,  
Интилсанг, йўлингга ризқинг сочилар.  
Умидлига Аллоҳ ёр бўлгай доим,  
Тортаверсанг, бир кун эшик очилар.

**ПОЛВОН**

Мушаги тош, юзлари алвон,  
Кучлиман деб қичқирар полвон.  
Аmmo ҳозир билмас у шўрлик,  
ВАҚТ кучлидир ундан юз чандон!

**ЧУМЧУҚ**

Чумчуқ қумурсқага шафқат қилмайди,  
Қуртни эса назарига илмайди.  
Эрта ўлса, қурту қумурсқаларга  
Ўзи ем бўлишин, афсус, билмайди.

### **ОМОНАТ**

Соҳибликни истар отлиғ-пиёда,  
Гарчанд у юпундир, гарчанд у тўқдир.  
Донишлар айтмишдир, фақат дунёда  
Амал ва тобутнинг эгаси йўқдир!

### **МЎРТ**

Дўст деди. Ишондим. Ҳомуза тортди.  
Яна такрорладики, шубҳам ортди  
Ва яна, ва яна айтаверди ул,  
Демак, гапи ёлғон, дўстлиги мўртдир!

### **МАҚТАНЧОҚ**

Яхшиларга қилмаймиз ҳавас,  
Мақтанчоқмиз, хўп мақтанамиз.  
Ўзимизни яхши билмасдан  
Ўзгалардан айб ахтарамиз.

**ИҒВО**

Иғвогарнинг болидан тотма,  
Тотиб, кейин гуноҳга ботма.  
Парво қилма, сасийверсин хўп,  
Ўлик итга қараб тош отма.

**ДЕМАДИМ**

Туядирсан, қуш деганим йўқ,  
Нарвонингдан туш деганим йўқ.  
Кўп қаҳрли боқма менга, дўст,  
Мушугингни «пишт» деганим йўқ.

**АЛДА ДЕДИ**

Бақирмадим сираям, паст гапирдим,  
Ҳадису оятларга мос гапирдим.  
Алда деди, кул деди, унамадим,  
Бу ёлғончи дунёда рост гапирдим.

## **МЕНГ**

Ясама хол Худо берган менг бўлмас,  
Бахил ҳеч вақт сахий билан тенг бўлмас.  
Ичи тор ҳам, ичи кенг ҳам Аллоҳдан,  
Тор кўнгилни чўзган билан кенг бўлмас.

## **ҲЕЧ ҚАЧОН**

Ёмон насиҳатни уқмас ҳеч қачон,  
Яхши иродасин букмас ҳеч қачон.  
Қизиқ, яхшилиқни тез унутамиз,  
Лек ёмонлик эсдан чиқмас ҳеч қачон!

## **ЎЛЧАМА**

Ким бойлик, ким тожу тахтдан бахтлидир,  
Ким бировлар чеккан оҳдан бахтлидир.  
Бахтни давлат, амал билан ўлчама,  
Соғлом гадо касал шоҳдан бахтлидир.

**ИТ**

Меҳмонга эшигин ёпиб олади,  
Ёнидан ўтганни қопиб олади.  
Унга тўғри йўлни кўрсат, Аллоҳим,  
Эгри йўлни ўзи топиб олади.

**НАДОМАТ**

Гарчанд хунари йўқ, талъати йўқдир,  
Панду ўғитга ҳам рағбати йўқдир.  
Фурсат бўлганида илм олмади,  
Энди илм керак, фурсати йўқдир.

**ЧЎП**

Қонун унга айланма чўпдир,  
Бобом ўтмас чўпдан нарига.  
Сўзни биздек исроф ҳам қилмас,  
«Йўқ» ва «хўп»дан ўтмас нарига.

**АРЗ**

«Қози, порахўрлик еди миллатни,  
Ота ўз боласига пора бермиш...» –  
Арз қипти фуқаро. У: «Бу иллатни  
Тугатсам, айт, қанча берасан?» – дермиш.

**ҚЎРҚ**

Бир мантиқ ўзгармас, неча тонг отар,  
Қуёш неча чиқиб, неча бор ботар.  
Душманингдан эмас, дўстларингдан қўрқ,  
Сени, энг аввало, ўз дўстинг сотар.

**ИРОДА**

Фисқу фужур, иллатдан бироз йироқ юр, болам,  
Яхши билан ошно бўл, дилдан суҳбат қур, болам.  
Иродангни метин тут, донишлар айтганидек,  
Етти марта йиқилсанг, саккиз марта тур, болам.

**ШОИР**

Сўзлар бўйсунмайди то тонгга қадар,  
Зоҳири кулади, йиғлар ботини.  
Дунёда ҳеч нарса бўлмаган каби,  
Ёнида хурракни урар хотини.

**АСАЛАРИ**

Эҳ, заҳматкаш асалари,  
Соғ бўл, бўлма касал, ари.  
Сени доим сархуш этсин  
Алишернинг бўсалари.

**ЭР-ХОТИН**

Эру хотин қўл ва кўз янглиғ,  
Кўз оғриси, югуради қўл.  
Қўлинг синса ёки кесса тиғ,  
Кўз бечора ёш тўкар мўл-мўл.



### **ЛОЧИН**

Бир санамки Шому Чин-Мочинда йўқ,  
Чин-Мочин демагилки, очунда йўқ.  
Они кўрсам кўкка парвоз айларам,  
Бу каби парвоз бирор лочинда йўқ.

### **СИНОАТ**

Синоатли эрур бу кўҳна дунё,  
Баъзан кучи етмас унга илмнинг.  
Гарчанд режамизда ўлим йўқ, аммо,  
Афсус, режасида бормиз ўлимнинг.

### **САБР**

Хор қилган бир кун хордир,  
Кўзи кўр жаҳолатнинг.  
Сабрнинг хайри бордир,  
Ажри бор саховатнинг.

**ҚИЗЛАР ВА КОНФЕТ**

«Қишлоқ жуда зўр-да, – дер  
Бола суяниб толга. –  
Аmmo, айтинг, бобожон,  
Тушунмайман бир ҳолга.  
Қизлари нега кўйлак-  
Лозим кийиб олишар?  
Кўчада юрганда ҳам  
Бошин қуйи солишар?  
Бошларида рўмоли,  
Енглари узун-узун.  
Сал тикилиб қарасанг,  
Олиб қочади кўзин.  
Шаҳарда эса қизлар  
Очиқ юрар бемалол.  
Сирин айтинг, бобожон,  
Мени лол этар бу ҳол...»  
Бобоси унинг барча  
Гапин тинглаб, кутибди.  
Сўнг иккита конфет об  
Неварага тутибди.  
Бири қоғози билан,  
Бири эса беқоғоз.  
«Ол бирини, айт, сенга  
Қайси маъқул, қайси соз?»  
Бола ҳам беихтиёр  
Қоғозлига чўзди қўл.

Бобо дер: «Нега айнан  
Сенга шу бўлди маъқул?»  
«Чунки, – дейди болакай, –  
Бу қоғозга ўралган.  
Ифлос бўлмаслик учун  
Икки ёндан буралган.  
Бунинг тозалигига  
Асло шубҳа қилмайман.  
Тозами, нотозами –  
Наргисини билмайман».  
Бобо кулди ва деди:  
«Ҳар кимнинг ҳар таъбидир.  
Билсанг, болам, қизлар ҳам  
Худди конфет кабидир».

**БОБО ВА НЕВАРА**

«Бобо, – деди невара, – нега  
Камбағал хўп сахий бўлади,  
Бировларнинг омади чопса,  
Ёш боладай қувнаб-кулади,  
Афсус, бойиб боргани сайин  
Бахиллашар, ёлғон сўйлайди,  
Бошқаларни кўрмас кўзлари,  
Фақатгина ўзин ўйлайди?»  
«Болам, – деди бобо ҳам маҳзун, –  
Кўп туз ошни бузар, шўр қилар.  
Тилла билан кумуш ҳам шундай,  
Одам кўзин бойлар, кўр қилар.  
Ойнага боқ, дунёни кузат,  
Қара, қандай кўркама ташқари.  
Кумуш суртсанг унинг ортига,  
Кўрмассан ўзингдан бошқани!»

**БЕДАВО ДАРД**

Қарилиқдан сиз учун  
Бир ҳикоя айтайин.  
Айтсам, оғир, айтмасам,  
Бағрим яғир, қайтайин.  
Кексайганда ҳеч кимга  
Боқмасин-да қиё дард.  
Аслида, қарилиқнинг  
Ўзи бир бедаво дард.  
Гоҳ у ёғинг оғрийди,  
Гоҳ оғрийди бу ёғинг.  
Шохингга чертар бўлса,  
Зирқирайди туёғинг.  
Эҳ, бу кексалик қурсин,  
Мана, қиёс ўзимдан.  
Нима демоқчи эдим?..  
Адашдимов сўзимдан.  
Ҳатто лаббай топилмас  
Одам бироз шошганда.  
Хуллас, эшитмай қолди  
Бир чол юздан ошганда.  
Алам қилади чолга,  
Тингламайди ҳеч бири.  
Менсимас уни ҳатто  
Саксон йиллик кампири.  
Ниҳоят, уни бир кун  
Дўхтирга оборишди.

Дўхтирнинг таскинидан  
Чолнинг дили ёришди.  
Кесдими, ёрдиларми –  
Нимадир этди ғир-ғир.  
Не бўлганин билмайди,  
Ухлаб қолди чол тушгур.  
Кўзин очса, бошида  
Кампири – кўз-қароғи.  
Ҳатто шивир-шивирни  
Эшитяпти қулоғи.  
Ҳамширалар атрофда  
Қилади югур-югур.  
Қўли гул дўхтирларнинг  
Борлигига минг шукр.  
Чол-кампир кетмоқ бўлиб  
Фарзандларин кутдилар.  
Шунда дўхтирлар унга  
Тўлов патта тутдилар.  
Ҳисобчи хизмат ҳаққин  
Саркитоб қилган эди.  
Паттада жуда катта  
Маблағ ёзилган эди.  
Чол кўрдию паттани  
Йиғлаб юборди хўнг-хўнг.  
Ҳаммага эшиттириб  
Шу гапларни айтди сўнг:  
– Болаларим, сиз мени  
Нотўғри англамангиз.  
Маъқул келса, эшитинг,  
Аксинча, тингламангиз.  
Йиғлаганим боиси  
Тўлов паттаси эмас

Ёки унда ёзилган  
Пулнинг каттаси эмас.  
Юзга кириб ҳали ҳам  
Ғўрлигимга йиғладим.  
Икки кўзим бут бўлиб,  
Кўрлигимга йиғладим.  
Фарзандимга тезроқ чоп,  
Югур дебман дўхтирга.  
Қулоғимни очдинг деб,  
Шукр дебман дўхтирга.  
Ваҳоланки, Аллоҳим  
Юз йил имтиёз берди.  
Ҳам кўрдим, ҳам эшитдим,  
На тўлов қоғоз берди.  
Беминнат бу эҳсонни  
Қандай фикр қилдим мен?  
На саждага бош қўйдим,  
На бир шукр қилдим мен.  
Ҳа, мени ҳам титратди  
Чолнинг айтган ҳар сўзи.  
Унинг қулоғи эмас,  
Очилган эди кўзи!

## ИЙМОН ВА ИХЛОС

Бир куни денг, бир бола  
Мачитга кириб қолди.  
Ийманибгина имом  
Ҳузурига йўл олди.  
Оддийгина кийимда  
Телбага ҳам ўхшарди.  
Ҳамма ҳайрон, имомда  
Бор экан қандай дарди?  
«Ҳазрат, – деди болакай, –  
Рухсат берсангиз агар,  
Шу мачитда ўқисам  
Намозимни бу сафар».  
Имом дебди болага:  
«Ҳов бурчакка бора қол,  
Намозингни ўқию  
Ҳеч кимга берма халал».  
Бола қувонганидан:  
«Хўп», – дебди, йўталибди.  
Имом айтган бурчакка  
Тезликда йўналибди.  
Намоз олдидан бироз  
Оёгин узатибди,  
Сўнг термилиб бирма-бир  
Барчани кузатибди.  
Шунда унинг лаблари  
Қимтинибди гезариб.  
Ранг-рўйи ҳам бирпасда  
Кетди дарров ўзгариб.



Чиқди зумда мачитдан,  
Ўтин терди ва тахлаб,  
Қайтди даста ўтинни  
Елкасига ортмоқлаб.  
Саждага бош қўйганда  
Пешонаси ярақлаб  
Елкасидан бир ўтин  
Ерга тушар тарақлаб.  
Мачит аҳли безовта,  
Бу қандайин ҳол бўлди?  
Бир ярамас бола деб  
Ибодат увол бўлди.  
Асли, ушбу соқолтой  
Мойилмасман имомга.  
Болага рухсат берган  
Қойилмасман имомга».  
Ибодат ҳам тугабди,  
Барча дилгир, хафақон.  
Кимдир имомга дебди:  
«Бу не ўйин, акахон?!»  
Имом ҳам хижолатда,  
Қизариб, йўталибди.  
Сўнгра болага томон  
Оҳиста йўналибди.  
«Болам, мачитга нега  
Олиб келдинг ўтинни?»  
Кимдир орқада шу пайт  
Жуда ёмон сўкинди.  
Бола деди мўлтираб:  
«Ахир, мен ёлғиз эмас.  
Аллоҳдан кўрқмагани  
Аллоҳим қулим демас.  
Ҳазратим, узр, аммо  
Қилинг бироз эътибор.

Мачит аҳлининг ярми  
Елкасида юки бор.  
Майли, хожам, – дер бола, –  
Келди айтиш хонаси.  
Қаранг, манов одамга,  
Елкасида онаси.  
Бу амакига боқинг,  
Эй сиз марду ботирлар!  
Унинг гардани узра  
Бир тўп товуқ потирлар.  
Манов киши умрининг  
Ярмини юттирибди.  
Қаранг, унинг бошида  
Бир жувон ўтирибди».  
Жоме бўйлаб, во ажаб,  
Ғала-ғовур бошланди.  
Кимдир деди эси паст,  
Кимнинг кўзи ёшланди.  
«Тўғри, – деди бир киши, –  
Босган мени катта ғам.  
Анчадан бери бетоб  
Тўқсонга кирган онам.  
Ҳам уйда, ҳам мачитда  
Доим ўйга чўмаман.  
Камхаржман, онам ўлса,  
Қандай қилиб кўмаман?!»  
Бошқа бир амаки ҳам,  
Сакраб туриб ўрnidан,  
Бир даста пулни шартта  
Чиқарди-ку қўйnidан.  
«Эргашиб кирдим, асли,  
Қўшним манов Назарга.  
Шошаяпман, тўғриси,  
Ҳозир товуқбозорга».

Хуллас, бола бирма-бир  
Ҳамма сирни очибди.  
Бошда жувон бор киши  
Пана жойга қочибди.  
Мачитга борар одам  
Кўнги́л истови билан.  
Лек у, маймун, келганди  
Дўстнинг қистови билан.  
Молу давлат, хирс-ҳавас  
Деб санарди дунёни.  
Жувонни ўйлар эди,  
Ўйламасди Худони!  
Иймонсиз қалби бўйлаб  
Бадбўй ҳидлар тошарди.  
Шу боис у номахрам  
Жувон сари шошарди.  
«Воҳ, – дебди аҳли Расул, –  
Бари тўғри, бари рост.  
Наҳотки, дилимизда  
Болачалик йўқ ихлос».  
Имом ёриб тўдани  
Болага яқин кепти.  
«Менинг елкамда ҳам, айт,  
Борми бирор юк?» – дебди.  
Болага бўб ноқулай,  
Кўзини олиб қочди.  
«Албатта, – деб жим бўлди,  
Кейин секин лаб очди: –  
Маърузангизни ҳамма  
Жим турганда тинглашиб  
Сизнинг елкангиз узра  
Бир қўй турар мингашиб.

Унинг залворлигидан  
Гоҳ очилиб-сўлдингиз.  
Ибодатнинг ўрнига  
Қўй билан банд бўлдингиз».  
Болага жим тикилиб  
Фарёд урди имом ҳам.  
Бу одил башоратдан  
Бўлди имом тамом ҳам.  
Ўзинг кечир, Аллоҳим,  
Бизлар гумроҳ бандамиз.  
Қусур ақлимиз билан  
Ҳар бир ишда тамбамиз.  
Бошланди боз ғалаён,  
Ким йиғлар, ким куларди.  
Имом эса чўк тушиб:  
«Ўзинг кечир!» – деярди.  
Сўнгра аён бўлдики,  
Имом дарди бор эди.  
Елкасига мингашган  
Қўй эмас, кўчқор эди.  
Қурбонликка аталган  
Семизгина жонивор.  
Эрталаб турса имом,  
Йўталар такрор-такрор.  
Намоз чоғи ҳам имом  
Минг бир режа тузарди.  
«Боргунча ўлиб қолса...»  
Деган ташвиш эзарди.  
Алқисса, шу: унутма,  
Хоҳ эрта, бугун бўлсин,  
Иймонингни тоза тут,  
Ихлосинг бутун бўлсин!

## ЮЗ ДОЛЛАР

Шаҳардан бир тадбиркор  
Қишлоққа келиб қопти.  
Дастлаб у меҳмонхона  
Томон секин йўл опти.  
Бойвачча бу қишлоқда  
Уч кун қолмоқчи экан.  
Бир лойиҳа бўйича  
Дўкон қурмоқчи экан.  
Юз долларни чиқариб,  
У нозирга тутибди.  
Ўзи сўнг хоналарни  
Кўриш учун кетибди.  
Пулни кўриб соҳибнинг  
Чорсу эсга тушибди  
Ва қассобдан юз доллар  
Қарзи эсга тушибди.  
Пулни олиб Чорсуга  
Югурибди-елибди.  
Қассобга зудлик билан  
Қарзин бериб келибди.  
Елкадан юк тушганда  
Дам олади асаб ҳам.  
Юз долларни олдию  
Ўйлаб қолди қассоб ҳам.  
Қўли калталиқ қурсин,  
Одам ҳолин танг қилар.  
Бир ҳафтаки фермер ҳам  
Пулдин қисталанг қилар.  
Бундай бўлишин қассоб  
Сираям кутмаганди.  
Тунов кунги буқага  
Юз доллар етмаганди.

Эҳ, одамлар... Майлига,  
Бирозгина шоширди.  
Қассоб бориб фермерга  
Омонатин топширди.  
Куни кеча фермерга  
Сим қоққан эди уста,  
Таъмирталаб «Тико»си  
Тайёр бўпти бирпасда.  
Ресторанда устага  
«Эриб» келди фермер ҳам.  
Устига юз долларни  
Бериб келди фермер ҳам.  
Уста қўли гул эди,  
Лекин сал суюқоёқ.  
Шу боис топгани ҳеч  
Икки бўлмасди мутлақ.  
Ўзингиз ҳам гувоҳсиз,  
Салда қанча пул топди.  
Аммо пулни олдию  
Фоҳиша томон чопти.  
Қадамини тезлатди,  
Гарчи йўллар қор эди.  
Фоҳишадан юз доллар  
Чунки қарзи бор эди.  
Фоҳишанинг ҳам, ахир,  
Етар эди ўз дарди.  
Гоҳида меҳмонхона  
Эшигини қоқарди.  
Гарчи тўламаса-да  
Ейиш-ичиш, чой учун,  
Нозирга пул берарди  
Фақатгина жой учун.  
Пулни бериб қутулди  
Қарз аталмиш кулфатдан.

Нозир пулни олдию  
Лол қолди бу ҳолатдан.  
Ярим соат илгари  
Шу пул кўлида эди.  
Фалакнинг бу ишидан:  
«Астафурилло», – деди.  
Юз ўйласин тополмас  
Калаванинг учини.  
Аммо сезиб турарди  
Бу занғарнинг кучини.  
У хаёлнинг домига  
Турганида бойланиб  
Сайр этди юз доллар  
Қишлоқни бир айланиб.  
Ҳеч ким қарзмас бировдан,  
Муҳими, ҳамма рози.  
...Шу пайт бузди хаёлин  
Бойваччанинг овози:  
«Хоналарни кўрдим мен,  
Менга маъқул, жуда соз.  
Афсус, мени шаҳардан  
Йўқлаб қолишди ноҳос».  
Шундай дея бойвачча  
Бирозгина тин олди.  
Долларни қайтиб олиб,  
Шаҳарга жўнаб қолди.  
Билмадим, бу ўйинда  
Ким ютди, ким ютилди.  
Лекин бир қишлоқ аҳли  
Ўз қарзидан қутулди.

## ДОНИШ ЎГИТИ

Дониш ҳаёт завқидан  
Масрурланиб турган дам  
Елкасида оғир юк  
Ўтиб борар бир одам.  
Юкнинг залворлигидан  
Унинг қадди дол бўпти.  
Қирққа кирмасдан туриб  
Шўрлик қариб чол бўпти.  
Дониш дебди: «Ҳой инсон,  
Бунча юкни нетасан?  
Шунча қайғу, ташвишни  
Қайга олиб кетасан?»  
«Бу қайғумас, биродар, –  
Дебди ҳалиги киши. –  
Бу – фарзандим севинчи,  
Неваралар ташвиши.  
Шулар учун ташийман  
Топганимни, неки бор.  
Мен бахтли бўлолмадим,  
Улар бўлсин бахтиёр.  
Мен шуларни ўйласам,  
Тушар боболар ёдга.  
Бу одат ўтмоқдадир  
Авлодлардан авлодга.  
Бобом учун қайғурган  
Бобожоним бобоси.  
Фақат ўғлига қолган



Бутун молу дунёси.  
Бобом яшамаса-да  
Гарчанд ўхшаб одамга,  
Умрин бахшида этган  
Фақатгина отамга.  
Отам ҳам ишонмасди  
Мени на еру кўкка.  
Ўғлим олим бўлсин деб  
Чопарди лўкка-лўкка.  
Ахир, шундай отани  
Қандай қилиб суймайин.  
Емайин едиртирди,  
Кийинтирди киймайин.  
Ўқитди такрор-такрор,  
Мендан олим чиқмади.  
Дунёларни кездирди,  
Аmmo Колумб чиқмади.  
Нася экан бу дунё,  
Нақд кўрмай кетди отам.  
Бахтли бўлсин ўғлим деб  
Бахт кўрмай кетди отам.  
Ҳаммалари ўтишди  
Тўкишиб қўру савлат.  
Юк кўтариб чопишга  
Келди менга ҳам навбат.  
Энди фарзанд, неварам  
Кулиб шавққа тўлсинлар.  
Биз бахтли бўлолмадик,  
Шулар бахтли бўлсинлар».  
Донишманд кулиб деди:  
«Дуд чиқади додингдан.  
Бахтли яшаб ўтганми,  
Айт, кимдир аждодингдан?»

«Афсуски, йўқ, – деди у, –  
Шундан бағрим тиламан.  
Лекин фарзандларимнинг  
Бахтин орзу қиламан».  
Дониш дебди: «Мен айтай  
Гапнинг индаллосини.  
Танлаб ол, хулоса қил,  
Сен ўзингга мосини.  
Нодон ҳарф ўргатурми  
Бировларга ҳеч қачон?  
Бургутга парвоз илмин  
Бера олурми сичқон?  
Жоҳиллик инсон қонин  
Доим зулукдай сўрган.  
Бахтли бўлиш илмини,  
Аввало, ўзинг ўрган.  
Устингдан қоқиб ташла  
Сен нодонлик чангини.  
Шундагина англарсан  
Бахтнинг шукуҳ, рангини».  
Алқисса, ҳар бир оқил  
Шижоат-шаҳдли бўлур.  
Бахтли инсоннинггина  
Фарзанди бахтли бўлур.

## ЛЎЛИ ҚИЗ ҲАНГОМАСИ

Бир куни денг, бир йигит  
Севиб қопти лўлини.  
Орадан бир оз ўтгач  
Сўрабди қиз қўлини.  
Қиз гирдида бетиним  
Юраверди куйманиб.  
«Онам билади», – деди,  
Ниҳоят, қиз ийманиб.  
Йигит дебди: «Сен учун  
Маккагача чопаман.  
Айтгил, жоним, онангни  
Қайдан излаб топаман?»  
Қиз ҳам деди: «Онамни  
Ҳамма танир, билади.  
Бозор дарвозасида  
Тиланчилик қилади».  
Гарчанд бу гап йигитни  
Қилса-да бироз мулзам,  
У сирни бой бермади,  
Бозорга чопди илдам.  
Ҳа, дарвоза олдида  
Турар эди бир аёл.  
Ўтган-кетган одамга  
Қўл чўзарди бемажол.  
Офтобда хўп қорайган,  
Зўрға чиқар товуши.  
Устида жулдур кийим,  
Оёғида ковуши.  
Йигит қалби ишқ майи  
Билан лим тўлган эди.

Муҳаббат кўзларини  
Тамом кўр қилган эди.  
Шу боис аёл пухта,  
Саришта бўб кўринди.  
Гўё осмондан тушган  
Фаришта бўб кўринди.  
Аёллар ҳам севади  
Одамзоднинг мардини.  
Йигит ҳам шартта-шартта  
Айта қолди дардини.  
Она, ахир, она-да,  
Тинглаб юзи ёришди.  
Сўнг икковлон хилватроқ  
Жойга томон боришди.  
«О, ўғлим, озиб-тўзиб,  
Батамом адо бўбсан.  
Кўраяпман, оғир бир  
Дардга мубтало бўбсан.  
Бу дарддан гоҳо одам  
Роса шавққа тўлгайдир.  
Гоҳо эса ғам чекиб  
Адо бўлиб қолгайдир.  
Мен билмайман ишқ сени  
Не кўйга солганлигин.  
Қизимга муҳаббатинг  
Чинми ё ёлғонлигин.  
Тўғри, қиз бола деган  
Бировларнинг хасмидир.  
Аммо куёвни синаш  
Аждодларнинг расмидир.  
Гарчи лўли бўлсак-да,  
Ўзга бекмиз, тўрамыз.

Хафа бўлма, сени ҳам  
Бирров синаб кўрамиз.  
Меҳнатга тобинг қалай,  
Покмисан, ҳалолмисан?  
Сўзида субути йўқ,  
Паришонхаёлмисан?  
Шартим шуки, синайман  
Сени бир ойда, ўғлим.  
Тиланчилик қиласан  
Мен турган жойда, ўғлим.  
Қизимга ҳам айтаман,  
Гарчанд у хафа бўлсин.  
Бир ой эмас, майли, кел,  
Синов бир ҳафта бўлсин!»  
«Майли, – дебди йигит ҳам, –  
Барча шартга кўнгайман.  
Тақдиримда бор экан,  
Пешонамдан кўргайман».  
Хуллас, йигит шартни деб  
Ўз ишини ташлабди.  
Бозор дарвозасида  
Янги ишин бошлабди.  
Она дебди қизига:  
«Аҳди чинга ўхшайди.  
Тараддудинг кўравер,  
Тўй яқинга ўхшайди.  
Сўзанангни тугатгил,  
Лўла-такя тайёрми?  
Кўёвга сарпо керак,  
Сенда ўлчами борми?»  
Шундай қилиб, она-қиз,  
Эҳ, неларни қилмабди.

Югур-югур, чопа-чоп,  
Вақт ўтганин билмабди.  
Икки ҳафта ўтибди,  
Қаранг, зумда орадан.  
Аммо хабар йўқ эди  
Ҳали-ҳануз боладан.  
Тағин ишни бошлади  
Она-бола хотиржам.  
Тўй деганни биласиз,  
Гоҳо у йўқ, гоҳ бу кам.  
Хуллас, тахтдир барчаси –  
Тайёр сепу тугунча.  
Тўрт ҳафта ҳам ўтибди,  
Мана, ҳаш-паш дегунча.  
Она олиб хавотир  
Бозор томон борибди.  
Бўлажак куёвини  
Узоқданоқ танибди.  
Ярашибди, қаранг-а,  
Янги касби ўзига.  
Баданлар жимирлайди  
Унинг айтган сўзига.  
Гапирар гоҳ Мағрибдан,  
Гоҳ Машриқдан сўз очар.  
Оломон ўраб олган,  
Тинимсиз пуллар сочар.  
Она бозорга борган  
Пайти айни туш эди.  
Кўрди, йигит касбидан  
Жудаям сархуш эди.  
«Ҳорманг, – деди онахон, –  
Ҳар вақт шундай кун бўлсин.  
Пешонангиз ярқираб,

Ризқингиз бутун бўлсин!»  
«Раҳмат, – деди йигит ҳам, –  
Узр, хаёл сурибман.  
Қайда кўрганман сизни?  
Танимайроқ турибман».  
Она деди: «Мен хурсанд,  
Уддабурон экансиз.  
Лўлидан ҳам пишиқроқ,  
Асл ўғлон экансиз.  
Қойил қолдим, бу ишда  
Сиз бўри, мен тозиман.  
Энди сизга қўшқўллаб  
Қиз беришга розиман».  
«Э, э, – депти йигитча, –  
Бу қандай тухмат, ўйин?  
Қизинг, ҳатто ўзинг ҳам  
Энди менга бир тийин.  
Йўқол, ҳозир ўласан,  
Қўлимни бир сермайман.  
Бор, пошшойинг келса ҳам,  
Бу жойимни бермайман!»  
Ҳикоямиз шу жойда  
Тамом бўб турсин экан.  
Алқисса, кўрмаганнинг  
Кўргани қурсин экан.

## ҒИЙБАТ БАНДАЛАРИ

Қимматбаҳо пўстинни  
Кийиб олиб Афанди  
Кетаётса, гузарда  
Ўтирар икки анди.  
– Пўстинига қаранглар,  
Одмиси ҳам бўларди.  
– Ҳа, ўғирлик қилмаса,  
Буни қайдан оларди?  
Бу гаплар Афандининг  
Бурдалабди жонини.  
Эртасига кийибди  
Эски бир чопонини.  
– Туппа-тузук бир одам  
Жулдур чопон, бу не ҳол?  
– Бу кунингдан кўчада  
Садақами... сўрай қол.  
Индамабди Афанди,  
Бўлса-да бағри куюк.  
Сўнгги кун улар билан  
Сўрашибди жа куюк.  
Юрса, юриб, ўтирса,  
Ўтириб-ётишибди.  
У кетгач, орқасидан  
Яна гап отишибди:  
– Ёпишгани-ёпишган,  
Кетмас мисли оч кана.  
– Нарроқ юрсанг бўлмасми,  
Сермулозим, бачкана?  
Бу ҳолатдан Афанди



Роса боши қотибди.  
Дори ичиб уйида  
Уч кун касал ётибди.  
Тишни босиб тишига,  
Чимирибди қошини.  
Сўнгги сафар узоқдан  
Ирғаб ўтди бошини.  
– Во баччағар, – дер бири, –  
Бурни осмон-ку бунинг.  
Сўрашгиси келмайди,  
Шайтон, афсус, йўқ думинг.  
Баччағарлар на совуқ,  
На иссиққа кўнади.  
– Э, бор-э, – деб Афанди  
Қўлин силтаб жўнади.  
Гарчанд яхши, ёмон бўл,  
Уларнинг кўнгли тўлмас,  
Бу икки ўлимсикдан  
Тирик қутулиб бўлмас.  
Неча бор қуёш ботиб,  
Неча бор тонг отибди.  
У бир куни ўзини  
Ўлганга соб ётибди.  
Маҳалла-кўй тўпланиб,  
Уни ювиб-тарабди.  
Жанозасин ўқитиб,  
Қабр сари жўнабди.  
Тобут борар лапанглаб,  
Қўлдан қўлга ўтади.  
Кимдир қўлин ва кимдир  
Елкасини тутади.  
Кунлар иссиқ. Афанди  
Роса терлаб кетибди.  
Кўтариш гали икки  
Андига ҳам етибди.

Бири дермиш: «Еб-ичиб,  
Бўкиб ўлган, ҳойнаҳой.  
Ёки ароқ шишага  
Чўкиб ўлган, ҳойнаҳой».  
Иккинчиси дер: «Ҳали  
Сал ўйнаб-кулмасмиди?  
Гар яхши одам бўлса,  
Жума кун ўлмасмиди?»  
Ҳайҳот, наҳотки, улар  
Сассиқ гапдан тўймайди.  
Тирик, майли, тирикдир,  
Ўлганни ҳам қўймайди.  
Афанди қичқирибди:  
«Эй зукко, эй топқирлар,  
Сиздан қачон қутулгум,  
Ҳов барака топгурлар?!»  
Мурданинг қичқириви  
Қулоқларни тешибди.  
Икки анди шу заҳот  
Ерга қулаб тушибди.  
Ҳамма ҳангу ҳамма лол  
Фалакнинг бу ишидан,  
Бу дунёда ҳар бир кас  
Топгай ўз қилмишидан.  
Икки анди дастидан  
Барча ёниб-куйганди.  
Сўнгги кунлар ўзидан  
Ажратиб ҳам қўйганди.  
Бехос ўлимдан улар  
Бир нарсани уқишди.  
Андиларни бир зумда  
Тайёр гўрга тиқишди.  
Алқисса, шу эл аро  
Битта матал юради:  
«Ғийбатчининг ҳамиша  
Гўри тайёр туради».

**ЧОҲ**

Афандини бир куни  
Қувишибди саройдан.  
Шўрлик иш излайвериб  
Тополмабди ҳеч жойдан.  
Қайга борса, эшик берк,  
Заҳар сўзлар сочибди.  
«Э бор-э», – деб Афанди  
Янги фирма очибди.  
Фирманинг эшигига  
Бир эълон оширибди  
Ва эълонга тахминан  
Шундай деб ёздирибди:  
«Азизлар, биз сизларни  
Даволаймиз бенуқсон.  
Бизга келиб сираям  
Бўлмагайсиз пушаймон.  
Даволай олмасак гар,  
Эллик минг пулингизга  
Кетар чоғи юз мингни  
Тутамиз қўлингизга!»  
Уни ўқиб бир табиб  
Бироз муддат кутибди.  
Буларни бир боплай деб  
Қитмирилиги тутибди.  
«Мен таъмни сезмаяпман, –  
Дебди табиб, боши хам. –  
Нонми, гўштми, фарқи йўқ,  
Нима есам, бир хил таъм.  
Афанди беморининг  
Эшитиб иқрорини,  
Ҳамширага дебдики,  
Келтир суюқ дорини.  
Дорига тил тегизиб,  
Бужмайиб кетди бети.

Бироз ўйланиб табиб:  
«Ахир, бу бензин», – деди.  
«Табрик, – деди Афанди, –  
Тикланди таъм толаси.  
Энди нон билан гўштни  
Яхши фарқлай оласиз».  
Алам қилса-да, табиб  
Эллик мингни тўлади.  
Деди: «Шошмай турларинг,  
Сирларинг фош бўлади!»  
Орадан уч кун ўтиб  
Яна келди ул табиб:  
«Энди ҳид сезмаяпман,  
Борми шифои ҳабиб?!  
Тушунолмай ҳайронман  
Бу фалакнинг чархини.  
Ажратолмай сарсонман  
Гўнг ва гулнинг фарқини».  
Афанди беморининг  
Эшитиб иқрорини.  
Ҳамширага дебдики:  
«Келтир суюқ дорини».  
Дорини ичиб табиб,  
Чиқди юздан олови.  
Деди бирдан: «Бензин-ку  
Анов кунги, анови!»  
«Яна бир бор қутлайман,  
Бошингиздан тушди тоғ.  
Хайр, – деди Афанди, –  
Тўрт мучангиз соппа-соғ.  
Энди иқрор бўласиз  
Оёқдан то бошгача:  
Гўнгнинг ҳиди ўзгаю  
Гул ифори бошқача!»  
Жаҳли чиқди табибнинг,

Заҳарханда кулади.  
Сўнг ноилож кассага  
Эллик мингни тўлади.  
Уйга кетмоқда табиб  
Ҳорғин, пою пиёда,  
Яна бир бор чув тушди,  
Алам ҳаддан зиёда.  
Пушаймондан фойда йўқ,  
Энди бари кеч эди.  
Учинчи бор келганда:  
«Кўзим кўрмайди», – деди.  
«Афсус, – деди Афанди, –  
Бизда бунга чора йўқ,  
Пулингизни оласиз  
Шартномага мувофиқ».  
Бир дам ҳамма жим бўлди,  
Сукутга тўлди хона.  
Табиб сал бош кўтариб  
Кулди такаббуруна.  
Ҳамшира кеб табибга  
Эллик мингни узатди.  
Табиб эса норози  
Кайфиятда сўз қотди:  
«Бу қандай ўйин бўлди,  
Эллиги қани, Саркор?  
Шартномага биноан  
Юз минг бўлиши даркор».  
«Табрик, – деди Афанди, –  
Ташланг турфафеълликни!  
Кўзингиз ярқ очилди,  
Тўлаб кўйинг элликни!»  
Шундай қилиб, табибнинг  
Қувлиги ўтмай қолди.  
Ўзи қазиган чоғга  
Тушганин билмай қолди.

### ҚИЗИМ ҲИКОЯСИ

Хулкар қизим менга бир  
Ривоят айтиб берди.  
Ривоятмас, Аллоҳга  
Ишорат айтиб берди.  
Уни сен ҳам тинглагин,  
Дам бер сабр отига.  
Яна бир бор ишонгин  
Аллоҳ марҳаматига.  
Ўтмишда Покистонда  
Битта доктор бор экан.  
Хусайний экан оти,  
Эл аро донгдор экан.  
Холис хизматлари-чун  
Аллақайси ташкилот  
Унга тайин этибди  
Жуда катта мукофот.  
Таклиф қипти докторни  
Айнан шу тақдимотга.  
Ўша томон учибди  
Ўтириб «пўлат от»га.  
Гарчи доктор хушчақчақ,  
Гарчи шодумон эди.  
Лекин ҳавонинг турқи  
Жуда ҳам ёмон эди.  
Чақмоқ само бағрини  
Қилич каби ёрарди.  
Самолёт туман ичра  
Зўрға учиб борарди.

Йўловчилар муз қотиб,  
Безовта ўтирарди.  
Кимдир эса бир четда  
Калима ўгирарди.  
Шукрки, бундай ҳолат  
Давом этмади узоқ.  
Яқин бир қўналғага  
Амаллаб қўнди учоқ.  
Тунми дейман, ҳойнаҳой,  
Тўрт ён зимистон эди.  
Аммо докторнинг дили  
Тун каби хуфтон эди.  
Навбатдаги учоқнинг  
Узоқ эди муддати.  
Ўн соатлаб кутишга  
Етмас сабр-қуввати.  
Наилож, неки бўлса,  
Пешонадан кўради.  
Борар манзилин айтиб  
У-бу кимдан сўради.  
Қўналға ва манзилнинг  
Ораси бир кўл экан.  
Жадал юрса қайиқда,  
Беш соатлик йўл экан.  
Аммо то кўлга қадар  
Юриш керак бир соат.  
Ижарага машина  
Олди доктор, ниҳоят.  
Ҳар бир инсонда, ахир,  
Орзу-ният бўлади.  
Тақдимотга бормаса,  
Жуда уят бўлади.  
Йўлга тушди, ёмғирда  
Ҳайдаш ҳам қийин эди.

Ё Раббим, бир ён жала,  
Бир томон қуюн эди.  
Кўлга яқин қолганда  
Жала қуйди пишқириб.  
Доктор ҳалак, кўлгача  
Етса бўлди, ишқилиб.  
У билмасди, кўлнинг ҳам  
Аҳволи бундан баттар.  
Тўфонда сакрар эди  
Тўлқинлар осмон қадар.  
Бора-бора, эҳ, доктор  
Йўлни-да кўрмай қолди.  
Селнинг тошқинлигидан  
Машина юрмай қолди.  
Доктор боқиб олисда  
Кўзи тушди чироққа.  
Машинани қолдириб  
Югурди ўша ёққа.  
Уйга етди, ниҳоят,  
Билмайди қанча юрди.  
Тақиллатиб ўтирмай  
Ўзин эшикка урди.  
Уйнинг ичкарасида  
Ўтирарди бир аёл.  
Уни чирмаб олганди  
Ё қайғу, ёки хаёл.  
«Ассалому алайкум,  
Онажон, ҳорманг, – деди. –  
Безовта қилдим, нетай,  
Ўтиринг, турманг, – деди. –  
Зудлик билан бир жойга  
Сим қоқмоқчийдим, узр.  
Фойдалансам майлими  
Телефонингиздан бир?»



Кампир жилмайиб деди:  
«Кир ичкари, кир, ўғлим.  
Бу ерда на электр,  
На телефон бор, ўғлим.  
Ундан кўра устингни  
Қуритиб ол, ичгин чой.  
Борадиган манзилинг  
Қочиб кетмас, ҳойнаҳой».  
Доктор ҳам энди сезди  
Ҳансираб қолганини.  
Чарчаб ва қорни очиб,  
Шалаббо бўлганини.  
У чорасиз кампирнинг  
Айтганига бўйсунди.  
Сандал ёнига келиб,  
Овқат еди, исинди.  
Бу фурсатда аёл ҳам  
Намозин ўқиб олди.  
Узоқ дуолар қилиб,  
Яна хаёлга толди.  
Бешик тебратар эди,  
Гарчи сурса-да хаёл.  
Бешикдаги ул гўдак  
Ётар эди бемажол.  
Чидай олмади доктор  
Кузатиб бу ҳолатни.  
«О, онажон, аллангиз  
Эритади пўлатни,  
Айтингиз, ким бу гўдак,  
Нечун мунгли нолангиз?  
Бағримни чил-чил қилди  
Кўздан оққан жолангиз.  
Дуоларингиз узун,  
Ё Раб, намоз пайтингиз.

Неларни сўрадингиз  
Аллоҳимдан, айтингиз». Кампир хўрсиниб деди:  
«Бу умрим шонасидан.  
Бир оқшомда айрилди  
Ота ва онасидан.  
Оғир дардга чалинган,  
Эҳ, неварам бечора.  
Бу ердаги табиблар  
Топишолмади чора.  
Дедиларки, узоқда  
Битта табиб бор эмиш,  
Исми эмиш Хусайний,  
Машхур шифокор эмиш.  
Қўли калтанинг умри  
Савол-сўроқда экан.  
Табибнинг манзили ҳам  
Жуда узоқда экан.  
Аллоҳдан сўраганим –  
Неварамни омон эт.  
Табиб билан учраштир,  
Мушкулимни осон эт». Оҳ десинми Хусайний,  
Воҳ десинми Хусайний?  
Бу кампирни офтоб ё  
Моҳ десинми Хусайний?  
У суҳбатни тўхтатди,  
Кўтарди ҳам бошини.  
Аммо тўхтатолмади  
Кўздан оққан ёшини.  
Бу пайт бадани қизиб,  
Танасига туз чўқди.  
Йиғлаб келиб онанинг  
Оёғига тиз чўқди.

«О, онажон, нолангиз  
Етти осмонни ёрди.  
Дуои илтижонгиз  
Аллоҳга етиб борди.  
Сиз излаган Хусайний  
Мен бўламан, онажон!  
Неварангизнинг умри  
Узун бўлар бегумон.  
Дуоингиз осмонни  
Чақмоқ бўлиб синдирди.  
Улкан учоқни ерга  
Эсон-омон қўндирди.  
Фақат Аллоҳ билгуси  
Таваллуд ва ўлимни.  
Сизнинг уйингиз томон  
Бурди менинг йўлимни.  
Аллоҳ бизга биродар,  
Яқин қўшни, хеш доим.  
Бандасининг орзую  
Истагига эш доим!  
Гарчанд йўлларингиз берк,  
Гарчанд умидингиз пуч.  
Фақат Унга сиғининг,  
Фақат Ундан олинг куч!»

\* \* \*

Ривоятни эшитиб  
Мағрурландим қизимдан.  
Аммо шашқатор бўлиб  
Ёшлар оқди кўзимдан.  
Бу қисса дил яралаб,  
Бағримни тиғлар эди.  
Бир қарасам, Хулкарнинг  
Ўзи ҳам йиғлар эди.

## ОНА СУТИ

Аллақайси замонларда  
Бир насоро шаҳарда  
Икки аёл фарзанд кўрар  
Айни бир кун саҳарда.  
Бириники қиз туғилди,  
Икки юзи анордай.  
Айни дамда иккинчиси  
Ўғил кўрди қўчқордай.  
Чақалоқлар туғилгандан  
Патта осиб қўярлар.  
Бу паттага онасининг  
Исмин ёзиб қўярлар.  
Ҳамширалар айби билан  
Чалкаш бўлар паттаси.  
Ундан кейин бошланади  
Можаронинг каттаси.  
Айтинг, ахир, ярашмагай  
Қайси қизга бекалик?  
Ҳар иккиси ўғилтойга  
Чиқиб қолди эгалик.  
Бири деди: «Ўғил бола  
Меники, ҳой тартибсиз».  
Униси дер: «Қочинг нари,  
Бекорларни айтибсиз».  
Бири дейди: «Ўғиллигин  
Аён қилганди дарди.  
Қорнимда ҳам полвонгинам  
Қаттиқ-қаттиқ тепарди».

Униси дер: «Ўғил бўлса,  
Дил кетар кўк ўрикка.  
Дўхтирлар ҳам ўғил деган,  
Қачон борсам кўрикка».  
Бу тортишув, ушбу жанжал  
Эрларга ҳам ўтдилар.  
Қариндошлар – тулки, айиқ,  
Шерларга ҳам ўтдилар.  
Ортиб борди бора-бора  
Бу жанжалнинг кўлами.  
Гапга кўнар на у томон,  
На бу томон кўнади.  
Қонлар бир-бир текширилди,  
Текширилди сўлак ҳам.  
Юрак, жигар, ўпка, талоқ  
Ва қолмади буйрак ҳам.  
Билгирларнинг билганлари  
Шубҳали, мубҳам эди.  
Чунки барча таҳлилларнинг  
Фарқи жуда кам эди.  
Можарога туман, шаҳар,  
Мамлакат ҳам қўшилди.  
Овруподан чақирилган  
Адвокат ҳам қўшилди.  
Бу тилсимнинг қаршисида  
Барчаси лол қолдилар.  
«Ҳал қилинг», – деб икки она  
Оёқ тираб олдилар.  
Масъуллар ҳам жам бўлишди,  
Барча ўйга толдилар.  
Текшир-текшир, югуру чоп,  
Охир чарчаб қолдилар.  
Биров деди: «Худонинг бу  
Синовини дарс этинг.

Бу жумбоқни ечар қавм –  
Муслимларга арз этинг».  
Насоролар у ён чопди,  
Бу томонга елишди  
Ва, ниҳоят, қаторлашиб  
Бир мачитга келишди.  
«О, тақсирим, – деди улар, –  
Доим эл ғамин ейсиз.  
Динингизда ҳар чигалнинг  
Ечимини бор дейсиз».  
Шундай дея ёлворишди,  
Ўтинди, бўзлаб берди.  
Сўнгра икки аёл сирин  
Бирма-бир сўзлаб берди.  
«Ечим оддий, – деди имом, –  
Энди сиз қулоқ солинг.  
Ҳар икки аёл сутидан  
Икки-уч томчи олинг.  
Текширингиз уни обдан,  
Эй сиз, ақли соддалар.  
Билинглар-чи, қайсида кўп  
Озуқавий моддалар.  
Ҳақиқатни айтай сизга  
Келганда гап хонаси.  
Озуқа кўп бўлса кимда,  
Ўша ўғил онаси».  
Бу жуда ҳам осон ишдир,  
Уни топса бўлади.  
Энди қозон қопқоғини  
Секин ёпса бўлади.  
Текширишди, топишди ҳам,  
Масала тез ҳал бўлди.  
Бир тўп олим бир имомнинг  
Олдида ўсал бўлди.

«Жуда тўғри, – деди улар, –  
Сиз айтган мантиқ-маъно.  
Бу жумбоқнинг ечимини  
Қайдан биласиз аммо?»  
Имом деди: «Қуръондаги  
Ҳар сатрда ҳаёт бор.  
Хусусан, унда бир гўзал,  
«Нисо» деган оят бор.  
Унда айтар: «Бергайдирман,  
Хоҳ ўғил, хоҳ қиз қидир.  
Бир ўғилнинг насибаси  
Икки қизнинг ризқидир».  
Дарҳақиқат, Аллоҳ улуғ,  
Ундан ўзга илоҳ йўқ.  
Унга иймон келтирмаслик,  
Севмасликка илож йўқ.  
Ақлимиздан ҳар хил шубҳа-  
Гумонни соқит қилсин.  
Барча ўғил-қизимизни  
Ҳақ динда собит қилсин!

**БАШАР ЎГИТИ**

Қўлида бир қадаҳ сув,  
Сўради устоз Башар:  
«Шогирдларим, айтинг-чи,  
Шу сув қанча тош босар?»  
Биров деди: «Юз грамм»,  
«Икки юз», – деди кимдир.  
Баҳс анча этди давом,  
Устоз сукутда, жимдир.  
Ниҳоят, устоз деди  
Шогирдларга шошмасдан:  
«Ҳеч ким аниқ айтолмас  
Тарозига тортмасдан.  
Лекин гап унда эмас,  
Бошқа ёқда хаёлим.  
Ўзга мазмун касб этар  
Сизга берар саволим.  
Қаранг, ушбу митти жом  
Сувга лим-лим тўладир.  
Беш минут ушлаб турсам,  
Қўлим нима бўладир?»  
«Ҳеч нарса содир бўлмас», –  
Деди болалар бардам.  
«Тўғри жавоб айтдингиз», –  
Тасдиқлади устоз ҳам.  
«Хўш, – давом этди устоз, –  
Икки соат мунтазам  
Қўлимни чўзган ҳолда



Не бўлар ушлаб турсам?»  
«Қўлларингиз оғригай», –  
Деди болалар тушкун.  
«Нима бўлар, – дер устоз, –  
Ушлаб турсам уззуккун?»  
«Унда донг қотиб қолар  
Олдга чўзган қўлингиз.  
Мушаклар ишдан чиқар,  
Устоз, хушёр бўлингиз.  
Бош айланар, кўз тинар,  
Иссиқ тошар танага.  
Ҳатто тушиб қоласиз  
Бехос шифохонага».  
«Яхши, – деди муаллим, –  
Қани, Ашур, ўзинг айт,  
Қадаҳнинг оғирлиги  
Ўзгарурми бундай пайт?»  
«Йўқ, устоз, – деди Ашур, –  
Ўзгармасдан қолади».  
Шундан кейин устоз ҳам,  
Бир дам ўйга толади.  
Сўнг дер: «Ҳар дард тузалар,  
Яралар битиш мумкин.  
Аммо бу муаммони  
Қандай ҳал этиш мумкин?»  
«Бу жуда осон, – деди  
Шогирдларнинг бўйчани. –  
Муаммо ҳал, столга  
Гар қадаҳни қўйсангиз».  
«Жуда тўғри, – қувониб  
Жавоб қилди муаллим. –  
Ҳаётдаям ғолибдир  
Ўйлаб иш юритса ким.

Дейлик, бир муаммони  
Дақиқа этсанг хаёл,  
У сени ўраб олгай  
Гўё чирмовуқ мисол.  
Бир соат ўйлар бўлсанг,  
Тушдим деявер чоҳга.  
У сени тортиб кетар  
Ғам аталмиш ботқоққа.  
Агар бу муаммони  
Кун бўйи ўйлар бўлсанг,  
Ўтган-кетган, қари-ёш,  
Барчага сўйлар бўлсанг,  
Биргина шу муаммо  
Кўзларингни ёшлагай.  
Ўю онгу ақлингни  
Фалаж қилиб ташлагай.  
Муаммолар устида  
Гарчанд қотирсанг-да бош,  
Ўз-ўзидан йўқолмас  
Йўлингдаги чағир тош.  
Ҳаттоки муаммонинг  
Камаймас оғирлиги.  
Бирдан тузала қолмас  
Елкангнинг яғирлиги.  
Муаммонгни ҳал этгай  
На аза, на-да базм.  
Бунинг учун катта куч,  
Улкан ҳаракат лозим.  
Шунинг учун ҳар ишни  
Ҳал эт, ортиқ сурма ўй.  
Бу қўлингдан келмаса,  
Кўтарма, бир четга қўй.  
Дилингда олиб юрма

Бу қадар оғир тошни.  
Турфа хил балоларга  
Гирифтор этма бошни.  
Хуллас, азиз болалар, –  
Деди муаллим Башар, –  
Ақл билан иш тутинг,  
Оқиллар минг йил яшар!»

### КИМ ЯХШИ?

Қадим ўтган замонда,  
Аймат деган томонда,  
Атрофида тоғу қир,  
Яшар экан бир кампир.  
Бор экан тўрт фарзанди –  
Дилбанди, шакар-қанди.  
Фарзандлари бир куни  
Қуршаб олибди уни.  
Дейишибди: «Онажон,  
Ростини айтинг шу он,  
Қайси биримизни сиз  
Кўпроқ яхши кўрасиз?»  
Ҳеч кимдан қилмай гина,  
Кампир турди жимгина.  
Келтириб гугурт ва шам,  
Шамни ёқди хотиржам.  
«Сиз бор – шавққа тўламан,  
Асли, шам мен бўламан.  
Ёниб турган олови –  
Муҳаббатим ялови», –  
Дея оҳиста кампир  
Шам келтирди яна бир.  
Ёниб турган оловдан,  
Муҳаббатли яловдан,  
Бу шамни ҳам тутатди,  
Бирозгина кузатди.  
«Бу – биринчи фарзандим,

Биринчи шакар-қандим,  
Топдингиз қандай маъни,  
Энди айтингиз, қани:  
Оловим пасайдими  
Ё бироз сусайдими?  
Олов ёниб жўшадир,  
Шашти ўша-ўшадир».  
Шундай қилиб, кампиршоҳ  
Ирғиб туриб баногоҳ,  
Олиб ўзин шамини,  
Ёқди қолганларини.  
Кампирнинг шами бироқ  
Қолди иссиқ ва порлоқ.  
Ҳа, оналар шундайин,  
Осмондаги кундайин,  
Тугамас муҳаббати,  
Шафқатию раббати.  
Она учун фарзанднинг  
Йўқдир совуқ-илиғи.  
Ўн бўлса, ўрни бошқа,  
Қирқта бўлса, қилиғи.

## ГЎЗАЛЛАР

Фақирлик билан Бойлик  
Учрашиб қолган маҳал  
Бир инсондан сўрашди:  
«Айт-чи, қайсимиз гўзал?»  
Қозонда неки бўлса,  
Илинади капгирга.  
Аmmo бундай дам оғир  
Ҳар қандайин топқирга.  
Ахир, кимга ҳам ёқмас  
Бўлмоқ гўзал, чиройли.  
Фақирни мақтаса гар,  
Хафа бўлади Бойлик.  
Инсон қалбини бир дам  
Ғаму ташвиш босади.  
Бойликни гўзал деса,  
Фақир қовоқ осади.  
Инсон, ахир, инсон-да,  
Ўйлаб топди йўлини.  
«Яқинроқ келинлар», – деб  
Имо қилди қўлини.  
Яқин келгач, инсон ҳам  
Секин турди оёққа  
Ва деди: «Энди юринг  
Гоҳ у ёқ, гоҳ бу ёққа.  
Токи мен диққат билан  
Сизга разм солайин.  
Қайси бирингиз гўзал,  
Секин фарқлаб олайин.

Фақирлик ҳам, Бойлик ҳам  
Хўп товланиб юрдилар.  
Ўсмаю сурма кўйиб,  
Оловланиб юрдилар.  
Бироз томошадан сўнг  
Инсон деди: «Бас, тамом!  
Ҳар иккалангизга ҳам  
Мендан чуқур эҳтиром.  
Гўзаллик бошингизда  
Парвонадек чарх қилар.  
Аммо бу чиройлилик  
Бир-биридан фарқ қилар.  
Фарқи шуки, Фақирлик,  
Мендан кетишинг гўзал,  
Бойлик, айланай сендан,  
Менга келишинг гўзал!  
Айтганимни қилсангиз,  
Қувонч, шавққа тўлгайсиз.  
Элда эътибор топиб,  
Мангу гўзал бўлгайсиз!»

## ФАҚИРНИНГ БОЙЛИГИ

Бир камбағал ҳар қуни  
Нолир экан Худога:  
«Аллоҳим, нега мени  
Келтирдинг бу дунёга?  
Оқармади косам ҳеч,  
Ҳаммадан кам яратдинг.  
Бир умр бировларнинг  
Қўлларига қаратдинг».  
Ўтаётиб бир дониш  
Камбағални кўради.  
«Чекканинг нечун нолиш?» –  
Дея ундан сўради.  
«Айтаверсам агарда,  
Ҳасратларим битмайди.  
Ўлай деб ундирганим  
Бир қорнимга етмайди».  
«Яхши, – дебди у киши, –  
Камбағалсан, биламан.  
Бир кўзингни ҳадя эт,  
Беш минг тилла бераман».  
«Эсингиз борми ўзи? –  
Дебди бетоқат фақир. –  
Бир кўз билан бир умр  
Қандай яшайман, ахир?»  
«Майли, кўзинг керакмас,  
Ўн мингга қўлингни бер», –  
Деса, фақир айтибди:  
«Бермайман, тошингни тер».



«Майли, қўл ва кўз керак  
Тинчгина юрмоғинга.  
Рози бўл, бешта бергум  
Бир дона бармоғинга».  
«Йўқ, бўлмайдим, – дебди у  
Маҳкам ушлаб қўлини. –  
Ундан кўра айт менга  
Наф, даромад йўлини».  
Ҳалиги дониш дебди:  
«Йўқса, нега нолирсан?  
Ношукрчилик қилиб,  
Бунча шовқин солурсан?  
Қара, Аллоҳим сенга  
Қоматни тик берибди.  
Оёқ, қўл, бармоқ ва бош –  
Шунча бойлик берибди.  
Фақирман деб нолима,  
Чуқур ўйла, фикр қил.  
Тўрт мучанг ҳам соғ экан,  
Аллоҳимга шукр қил.  
Сен соғломсан – сен бойсан,  
Бу Аллоҳ улгусидир.  
Бошингни кўтар, нолиш  
Ожизлик белгисидир.  
Қара, бу ҳаёт гўзал,  
Унинг куйи, сози бўл!  
Шундай кун инъом этган  
Аллоҳимдан рози бўл!»

## САМУРАЙ

Жуда қадим замондан  
Қолган бу бир ақида.  
Сўзлар умр мантиғи,  
Моҳияти ҳақида.  
Бир куни денг, бир одам  
Кепти дониш олдига  
Ва дептики: «Улғайдим,  
Кирдим ўттиз олтига.  
Дунёларни кездим мен,  
Кўрдим яхши-ёмонни,  
Беҳад китоб ўқидим,  
Уқдим Вақт ва Маконни.  
Ахир илму урфоннинг  
Йўқдир асло зиёни.  
Фақат менга қоронғи  
Самурайлик забони.  
Яхшиларга ёндашдим,  
Қочдим ёмон зулмидан.  
Илтимос, огоҳ этинг  
Самурайлик илмидан».  
«Ўғлим, – дебди самурай, –  
Бу илм хўп тийрақдир.  
Самурайлик, аслида,  
Мантиқ илми демақдир.  
Зоҳрига боқмагил,  
Ботинига разм сол.  
Майли, синаб кўраман,

Берурман уч-тўрт савол.  
Икки киши мўридан  
Тушиб келар бирма-бир.  
Бирининг юзи оппоқ,  
Иккинчиси қора-кир.  
Синаб кўр, ўғлим, ақлинг  
Қай сарҳадга етади?  
Улардан қайси бири  
Юз ювишга кетади?»  
Йигит деди: «Бу савол  
Арзимас жон койишга.  
Албатта, кирлангани  
Кетар юзин чайишга».  
«Нотўғри, – деди дониш, –  
Ўзинг бундоқ ўйлаб кўр.  
Саволнинг энига боқ,  
Бўйларини бўйлаб кўр.  
Юзи кир одам дастлаб  
Шеригига бўйлайди.  
Унинг юзига боқиб  
Тозаман деб ўйлайди.  
Аксинча, тоза одам  
Қараб дўстин афтига  
Ўзи биринчи бўлиб  
Сув олади кафтига».  
«Қизик экан, – дер йигит, –  
Ўйламабман бу ёғин».  
Дониш кетмоқчи бўпти  
Олиб ҳасса-таёғин.  
«Устоз, – дебди йигитча, –  
Илтимос, кетмай тулинг.  
Яна саволлар бериб  
Мени боз синаб кўринг».

«Хўп-хўп, – дебди самурай, –  
Майли, сазанг ўлмасин.  
Сен билан шуғуллангум,  
Кўзинг ёшга тўлмасин.  
Икки киши мўридан  
Тушиб келар бирма-бир.  
Бирининг юзи оппоқ,  
Иккинчиси қора-кир.  
Синаб кўр, ўғлим, ақлинг  
Қай сарҳадга етади?  
Улардан қайси бири  
Юз ювишга кетади?»  
«Устоз, ахир, бунини биз  
Ҳозиргина этдик ҳал.  
Ювинишга кетади  
Юзи тозаси аввал».  
«Нотўғри, – деди дониш, –  
Ўзинг бундоқ ўйлаб кўр.  
Саволнинг энига боқ,  
Бўйларини бўйлаб кўр.  
Бирининг юзи оппоқ,  
Иккинчиси қорадир.  
Ҳойнаҳой, ювинишга  
Ҳар иккиси борадир.  
Чунки бири юз ювгач,  
Шеригин шубҳа босар.  
У ҳам дўстин ортидан  
Юзин ювишга шошар».  
«О, мен ақли қосирни  
Кечиринг, майли, уринг.  
Аммо, устоз, илтимос,  
Яна бир синаб кўринг!»  
«Хўп-хўп, – дебди донишманд, –

Майли, сазанг ўлмасин.  
Фақат чуқурроқ ўйла,  
Сени Худо қўлласин.  
Икки киши мўридан  
Тушиб келар бирма-бир.  
Бирининг юзи оппоқ,  
Иккинчиси қора-кир.  
Синаб кўр, ўғлим, ақлинг  
Қай сарҳадга етади?  
Улардан қайси бири  
Юз ювишга кетади?»  
«Оббо, бошқаси йўқми?  
Пичоқ бўғзингга етар.  
Жавоб шу: иккиси ҳам  
Юзин ювишга кетар».  
«Афсус, – деди самурай, –  
Билмам, нени ўйладинг?  
Иккиси ҳам бормайди,  
Сен нотўғри сўйладинг.  
Мантиқан бир ўйлаб кўр,  
Бети қорайган одам  
Шеригига боқиб, юз  
Ювишни ўйламас ҳам.  
Юзи тозаси эса  
Ичида чиқарар сас:  
«Шеригим бормадим,  
Демак, юзим кир эмас».  
О, нақадар чуқурдир  
Самурайлик ҳикмати.  
Шогирднинг, наҳот, етмас  
Ўрганишга қудрати?!  
Бироз саросимада  
Ва бироз суриб хаёл

Дедики: «Устоз, майли,  
Беринг бошқа бир савол.  
«Майли, – дебди устоз ҳам, –  
Яна бир бор ўйлаб кўр.  
Икки киши мўридан  
Тушиб келар бирма-бир...»  
«Вой Худойим, – дер шогирд, –  
Бошқа бир савол йўқми?  
Иккиси ҳам бормайди,  
Энди кўнглингиз тўқми?»  
«Нотўғри, – дейди устоз  
Қирққа бўлгувчи қилни. –  
Самурай бўлиш учун  
Етмас бир Суқрот илми.  
Ўзинг ҳам шоҳид бўлдинг  
Моҳияту мантиққа.  
Самурайлик ейишмас  
Нонни булаб қатиққа.  
Бир қувур, икки киши,  
Мумкинми, ахир, ўртоқ,  
Бирининг юзи қора,  
Бирисиники оппоқ?!  
Наҳотки, англамадинг,  
Мантиқсиз эди савол.  
Иккимизнинг шунча вақт  
Урмимиз бўлди увол.  
Ҳар битта ишда, болам,  
Мантиқ таянч, тиргақдир.  
Самурайлик, аслида,  
Мантиқ илми демақдир».

**ТАЛАБА ВА ФАРИШТА**

Бир кун зулмат чекиниб,  
Отганида энди тонг  
Хориждаги мамлакат  
Матбуоти урди бонг.  
Ўтган куни шаҳарнинг  
Қайси бир кўчасида  
Фожа рўй берибди  
Нақ ярим кечасида.  
Бу хабар кўзни ёшлаб,  
Қоматларни эгибди.  
Кимдир иккита аёл  
Номусига тегибди.  
Бутун бир шаҳар аро  
Бу шум хабар кезган он  
Бир қизча коллежидан  
Қайтар эди уй томон.  
Анча кеч бўлиб қолган,  
Устига, ёппа-ёлғиз.  
Онаси хавотирда,  
Шошар эди уйга қиз.  
Аммо унинг олдида  
Бор эди иккита йўл.  
Ўнгга юрса, кўп узоқ,  
Зулмат ва тор эди сўл.  
Нима бўлса бўлар деб  
Бурилди тор кўчага.  
Осмондаги хира ой  
Ҳоким эди кечага.  
Онани хавфга қўймоқ  
Тириклайн ўлгани.  
Йиқилсаям, қўрқсаям,

Тезроқ борса бўлгани.  
Ойнинг ним ёғдусида  
Неча бора суринди.  
Ё Раб, шу пайт олдинда  
Қора шарпа кўринди.  
Қарасаки, баҳайбат  
Бир кимса келаётир.  
Кўзлари ола-кула  
Ўлакса келаётир.  
Неларнидир гапирар,  
Сўзлари юлуқ-узуқ.  
Афтию ангоридан  
Хаёллари ҳам бузуқ.  
Афсус, қизнинг қўлида  
Таёғи ҳам йўқ эди.  
Аллоҳдан имдод сўраб  
«Оятул»ни ўқиди.  
Кўзлари ола-кула,  
Яқин келар эди ул.  
Қиз эса такрор-такрор  
Ўқир эди «Оятул».  
Қизнинг илтижолари  
Аллоҳга бориб етди.  
Бадбашара у шайтон  
Индамай ўтиб кетди.  
Хайрият, қиз соғ-омон  
Етди уй-хонасига.  
Йўлдаги саргузаштни  
Айтди у онасига.  
Онаси ҳам эшитди  
Тонг ва туш орасида  
Номуслари топталган  
Аёллар борасида.



Онаю қиз шу заҳот  
Маҳкамага борибди.  
Қиз тунда кўрганини  
Бир-бир айтиб берибди.  
Бечора қиз безовта,  
На ебди, на ухлабди.  
Уч кундан кейин қизни  
Полиция йўқлабди.  
Қиз борса, ўнта кимса  
Тик турар симёғочдай.  
Бурни бўйинтуруғу  
Тишлари занг омондай.  
Қиз ҳам ва жабрдийда  
Аёллар ҳам бечора  
Сездирмай бир одамга  
Қилишдилар ишора.  
Полициячилар ҳам  
Елка қисди бу ҳолга.  
Сўнгра у зўравонни  
Тутишдилар саволга:  
«Анови икки аёл  
Қоматини қилдинг дол.  
Нега бу ёлғиз қизга  
Тегинмадинг, айт, баттол».  
Зўравон айтибдики:  
«Ҳа, у қиз қанддай эди.  
Ёлғиз эди, менинг ҳам  
Иштаҳам карнай эди.  
Ўша иштаҳа билан  
Яқин келганда шитоб  
Пайдо бўлди ёнида  
Баҳайбат икки жаноб».  
Воҳ, бу гапни эшитиб

Барча лолу жим эди.  
Алҳол, муслима қизни  
Кўриқлаган ким эди?  
Ким эди бир қизчага  
Ҳам паноҳ ҳамда масъул?  
Наҳот, шунча қудратга  
Эга бўлса «Оятул»?!  
Шубҳасиз, бизга Аллоҳ  
Мададкордир ҳар ишда.  
Қизга ҳам юборганди  
Икки нафар фаришта.  
Чунки қиз ўқир эди  
«Оятул»ни шошилиб.  
Ўзин тўлиқ Аллоҳнинг  
Паноҳига топшириб!  
Ҳа, Аллоҳнинг каломи  
Ишончингни оқлагай.  
Аллоҳим деганларни  
Унинг ўзи сақлагай!

**ГҲРКОВ**

Бир киши, денг, иш излаб  
Роса чарчаб-толибди.  
Кечроқ бир идорага  
Ногоҳ бориб қолибди.  
Дебдики: «Гўрковлик бор,  
Ишлайсизми, қадрдон?  
Фақат савол-сўроқдан  
Ўтиш керак кадрдан».  
«Маили, – дебди бечора, –  
Энг муҳими, иш бўлсин.  
Тинмасдан тер тўккайман,  
Хоҳи ёз, хоҳ қиш бўлсин».  
Кадрлар бўлими ҳам  
Хўп сўроққа тутибди.  
Лекин у синовлардан  
Эсон-омон ўтибди.  
Сўнг шартнома беришиб:  
«Тўлдилинг, – дебди шуни. –  
Имзо қўйиб кўрсатинг,  
Қайси йил, қайси куни».  
Бу ҳолатдан у одам  
Салгина қизарибди.  
Икки кўзи жавдираб,  
Лаблари гезарибди.  
Илм эслатар игна  
Билан қудуқ қазишни.  
Бизнинг қаҳрамон эса  
Билмас эди ёзишни.  
Етим ўсди, турмуш деб  
Асло тиним билмади.  
Унга мактабда ўқиш,  
Афсус, насиб қилмади.

Аммо меҳнаткаш эди,  
Камтар эди чинакам.  
Ёзишни билмаса-да,  
Ҳисоб-китобда маҳкам.  
Дедиларки: «Гўрковлик –  
Жуда масъул вазифа.  
Оддий касбмас, биродар,  
Оламшумул вазифа.  
Ана, хафа бўлдингиз,  
Буни биз ҳам биламиз.  
Ёзишни ўргансангиз,  
Ишга қабул қиламиз».  
Уйга қандай боради,  
Нима дейди хотини?  
Энди ким ҳам тингларди  
Бечоранинг додини.  
Идорадан чиқди у  
Дили хуфтон, боши ҳам,  
Ўқиш керак ва лекин  
Ўтиб қолди ёши ҳам.  
Фақат Аллоҳ силжитгай  
Инсон тақдир тошини.  
Қаранг, учратиб қолди  
Йўлда қишлоқдошини.  
Билсаки, у кўп жойда  
Тарвуз ўстирган экан.  
Уни сотишга одам  
Қидириб юрган экан.  
Дўстлар бирга ишлашга  
Шартлашди – қўл ташлади.  
Эртаси у бозорда  
Тарвуз сота бошлади.  
Саводи бўлмаса-да,  
Асли, бизнинг қаҳрамон

Хушмуомала эди,  
Оёқ-қўллари чаққон.  
Бир-икки сўм тўпласа,  
Саводини оширар.  
Кейин ҳужжатларини  
Гўрковликка топширар.  
Азамат тарвузларни  
Тезда сотиб ташлади  
Ва тўплаган пулига  
Гул об сота бошлади.  
Савдоси қизигандан-  
Қизиб борар эди-я.  
Гўё пул денгизида  
Сузиб борар эди-я.  
Секин-секин бозорда  
Дўконлар қурди қатор  
Ва ҳатто чет элларда  
Ҳамкорлар топди бисёр.  
Қайда муаммо бўлса,  
Тепасида турди у.  
Қишда мева сақларга  
Омборлар ҳам қурди у.  
Хуллас, бизнинг қаҳрамон  
Қолди бойлик комида.  
Ўнлаб супермаркетлар  
Турар унинг номида.  
Турфа марка мошиннинг  
Сони йўқ, саноғи йўқ.  
Ҳамма нарса бор, лекин  
Фақат суянч тоғи йўқ.  
Суянч тоғинг бўлмаса,  
Жуда қийин бўларкан.  
Йиллаб топган бойлигинг  
Зумда тийин бўларкан.

Ўйлай-ўйлай охир у,  
Тўплаб ақлу эсини,  
Суғурта қилмоқ бўпти  
Жамики бизнесини.  
Минг бир ўй, ҳаяжонда,  
Ҳам қўрқув, ҳам энтика  
Эртаси учрашибди  
Суғурта агентига.  
«Яхши, – дебди агент ҳам, –  
Шов-шувли парвозингиз.  
Ҳамкорликда ишлаймиз,  
Тез ариза ёзингиз».  
«Оббо, яна ариза,  
Ҳал қилинг ёза-ёзсиз».  
«Мумкин эмас, – дер агент, –  
Иш битмайди қоғозсиз».  
«Аризангни қўй, – дер у, –  
Қийнама мен ғарибни.  
Ростин айтсам, савод йўқ,  
Танимайман ҳарфни».  
«Ундай деманг, – дер агент, –  
Нурга тўлсин кулбангиз.  
Ишонмайман, устимдан  
Бунақа деб кулмангиз.  
Уйларингиз ҳайбатли,  
Молу дунё бир денгиз.  
Саводингиз бўлганда,  
О, қайда ишлардингиз?!»  
Шунда бизнинг қаҳрамон  
Деди: «Тушун, э мардум.  
Гар саводим бўлганда,  
Гўрков бўлган бўлардим».

**МАЧИТ ҲАНГОМАСИ**

Муаззиннинг овози  
Маҳаллани тутган пайт  
Уни йўлда учратдим  
Ва дедим: «Ортингга қайт,  
Бугун жума, биродар,  
Юр, намозга борамиз.  
Аллоҳ марҳаматига  
Нойил бўлсак, зора, биз».  
У айтдики: «Биласан,  
Мен бормайман мачитга.  
Ҳар хил сафсатаң билан,  
Қўй, миямни ачитма».  
«Хўп-хўп, – дедим, – майлига,  
Сени мажбур қилмайман.  
Аммо бормаслигининг  
Сабабини билмайман!»  
«Мачитга бормасам ҳам,  
Тозаман, зангламасман.  
Рости, дўст, сабабини  
Ўзим ҳам англамасман.  
Тўғри, баъзи-баъзида  
Кўнглим ҳам эзилади.  
Бир сабаби... шимимнинг  
Дазмоли бузилади».  
Узр, мен бу мардумни  
Танитмадим сизларга.  
Чиндан, тоза кийинар  
Ва бироз ўч қизларга.  
Дўстнинг яна бир феълин  
Айтай қилмай андиша.  
Негадир яшил рангни

Севар эди ҳамиша.  
Шу боис дўпписидан  
Туфлисига қадар то  
Яшил рангда бўларди,  
Кўзойнаги ҳам ҳатто.  
Юрар пўрим кийимда,  
Ёнда тўрт-беш шотири.  
Ўн қадамдан сезилар  
Унинг сепган атири.  
Дедим: «Ҳаётингда ҳеч  
Борганмисан мачитга?»  
Дер: «Бобом оборманлар  
Бир неча бор ҳайитга.  
Бола эдим у пайтлар,  
Биров билар-билмасди.  
У вақтларда шимимнинг  
Дазмоли ҳам бўлмасди».  
«Кўй, – дедим, – ҳазилингни,  
Бўлурми шу баҳона?»  
Дер: «Биласан, севаман  
Кийинишни шоҳона».  
Унинг мантиқ-фикрати  
Солди мени ҳайратга.  
Шу жойда совуққина  
Хайрлашдик, албатта.  
Албатта, ҳар кимсанинг  
Аллоҳ берган йўли бор.  
Йўлдаги тош-кесакни  
Олиб ташлар қўли бор.  
Қайда ризқинг сочилса,  
Ўша жойдан тергайсан.  
Аллоҳим, ҳар мўминга  
Ўзинг инсоф бергайсан.



Орадан кунлар ўтди,  
Тунлар ўтди қувлашиб.  
Ҳафталар ҳам ўтдилар  
Бир-бирига мингашиб.  
Бир куни денг, айтишди:  
«Ўша дўстингиз, битта,  
Тезроқ боринг, кутяпти  
Сизни интиқ мачитда».  
О, бу қандай мўъжиза,  
Қаршисида лол турдим.  
Оёқни олиб қўлга  
Мачит томон югурдим.  
Мачит одамга тўла,  
Мен ҳам бир сафда турдим.  
Олдинги сафда ногоҳ  
Ўша дўстимни кўрдим.  
Устида ўзи севган  
Яшил кийим, қарадим.  
Яқинлаб, паст овозда  
Секингина сўрадим:  
«Биродар, ҳою ҳавас  
Билан сархуш, маст эдинг.  
Бу даргоҳга мутлақо  
Келмоқчи эмас эдинг.  
Сени, билмам, келтирди  
Қайси тақдир шамоли.  
Бузилар энди, ҳайҳот,  
Шимгинангнинг дазмоли».  
...Қимир этмас эди у,  
На овоз бор, на дарди.  
Яшил ёпинчиқли дўст  
Тобут ичра ётарди...

## ҲИКМАТ БИЛАН ИШ ТУТИНГ

Бир кун толиби илм  
Устозига дер: «Раҳмат,  
Ҳамма илмни олдим,  
Менга берсангиз рухсат.  
Энди мен ҳам мустақил  
Фаолият бошлайин.  
Сиз каби ҳар чигални  
Ўзим ҳал қип ташлайин».  
«Бўтам, жиндай эртадир, –  
Дебди оҳиста устоз. –  
Ҳикмат билан ишлашнинг  
Илмини олгин бироз.  
Ҳикмат билан нурафшон  
Хоҳ чашм, хоҳ фикратдир.  
Дунёнинг суянчиғи,  
Билсанг, бўтам, ҳикматдир».  
Афсус, устоз кўрсатган  
Йўлдан шогирд юрмади.  
Сўнги ўгити ҳатто  
Қулоғига кирмади.  
Шоша-пиша шу куни  
Мадрасадан жўнабди.  
Кечга томон қандайдир  
Бир қишлоқда тунабди.  
Эрталаб деразадан  
Катта мачитни кўрди.  
Жума эди. Пешинда

У ҳам намозга борди.  
Одам жуда кўп эди,  
Имом келди керилиб.  
Маърузани бошлади,  
Ҳамма тинглар берилиб.  
Астағфурилло, воиз  
Бидъат сўзларди фақат.  
Одамлар бу ёлғонга  
Қандай қилмоқда тоқат?!  
Хурофотга булғади  
Воиз жума хутбасин.  
Толиб чидай олмади,  
Ҳарчанд ўзин тутмасин.  
«Ҳой мўминлар, – деди у, –  
Фарқланг чин ва ёлғонни.  
Нега тингламоқдасиз  
Бу бесавод нодонни?  
У сизни алдамоқда,  
Сал ишлатинг ақлни.  
Ҳозироқ бу даргоҳдан  
Қувиб солинг жоҳилни!»  
Афсус, бу ёш йигитни  
Танимабди оломон.  
Аксинча, талабага  
Ташланибди беомон.  
«Келдингми номаъқулнинг  
Бунда нонин егани?  
Уял бизнинг домлани  
Нодон, жоҳил дегани».  
Уни судраб-сўкишиб  
Ҳамда роса уришди.  
Ҳатто бу етмагандай,  
Қишлоқдан ҳам қувишди.

Мадрасага қайтибди  
Талаба уст-боши қон.  
Во ажаб, бу ҳолатдан  
Ҳамма лол, ҳамма ҳайрон.  
Талабанинг боши ҳам,  
Қўзларини ёшлабди.  
Сўнг ўзини устознинг  
Оёғига ташлабди.  
«Мен гумроҳни кечиринг,  
Кечиринг, пири мумтоз.  
Ҳикматнинг қудратини  
Билмас эканман, устоз.  
Айтдингиз, ҳикмат тишдир.  
Мен билмасман тишлашни.  
Устоз, менга ўргатинг  
Ҳикмат билан ишлашни».  
Хуллас, у бу илмни  
Билгунча хўп толибди.  
Икки йилда бутунлай  
Бошқа одам бўлибди.  
Ҳикмат билан иш қўриб  
Роса зафар қучибди.  
Бир кун ўша мачитга  
Яна йўли тушибди.  
Воиз ёлғон сўзларди,  
Минг буралиб, эшилиб.  
У ҳам тинглаб ўтирди  
Одамларга қўшилиб.  
Маъруза тамом бўлгач,  
Ўрнидан турди секин  
Ва дедики: «Мўминлар,  
Домла зўр экан лекин.  
Наҳотки, ёнингизда

Шундай доно зот яшар.  
Унга сиғинса арзир  
Дунё, жумлаи башар.  
Соқолига қаранглар,  
Хизр, асли, ўшадир.  
Бир тук юлса кимда-ким,  
Нақ жаннатга тушадир.  
Бу гапдан сўнг одамлар  
Боқишибди домлага  
Ва соқол юлиш учун  
Ташланибди ҳамлага.  
Бирпасда бутун соқол  
Айланибди ёртига.  
Воиз кўрқиб қочибди  
Қарамасдан ортига.  
Шу-шу кўринмас эмиш  
Домла мачитда тамом.  
Воизликни талаба  
Эттирмоқдадир давом!

## ҲАЗРАТИ УМАР

Закот молларин тўплаб  
Роса чопиб-елдилар.  
Сўнгра ҳазрат Умарнинг  
Ҳузурига келдилар.  
Умар дер: «Мискинларнинг  
Ишлатинглар корига».  
Улар дер: «Бир фақир йўқ  
Ислоннинг диёрида».  
Умар дер: «Унда қўю  
Туяларни сўйдилинг.  
Энг аввало, ислоннинг  
Аскарларин тўйдилинг».  
Улар дер: «Ҳаммаси тўқ,  
Тўкин яшарлар бари.  
Дунё кезиб юрибди  
Ислоннинг аскарлари».  
Умар дер: «Уйлаб қўйинг  
Йигитларни, эҳтимол».  
Улар дер: «Уйлантирдик,  
Ортиб қолди лекин мол».  
Умар дер: «Қарзимизни  
Тўлаб қўйинглар, илло».  
Улар дер: «Ҳеч кимсадан  
Қарзимиз йўқ мутлақо».  
Умар дер: «Тингланг яхуд,  
Насоролар арзини.  
Қолмасин, тўлаб қўйинг

Уларнинг ҳам қарзини».  
Улар дер: «О, ҳазратим,  
Кўнглингизни қилинг тўқ.  
Ортиб қолди молимиз,  
Кимсадан қарзимиз йўқ».  
Умар дер: «Тарқатинглар  
Аҳли илмга обдан».  
Улар дер: «Бердик, аммо  
Ортиб қолди ҳисобдан».  
Умар дер: «Агар келса,  
Бу юмушга эпинглар.  
Қолган пулга буғдой об,  
Тоғлар узра сепинглар.  
Қолмасин тепаликлар,  
Терскай, беткай, қир-адир.  
Молингизни аяманг,  
Барча савоб шундадир.  
Токим амалларингиз  
Аллоҳимга келсин хуш.  
Мусулмонлар юртида  
Оч қолмасин бирор қуш.  
Сепинг, донни аяманг,  
Майли, есин-емасин.  
Биров молин қушлардан  
Қизғанибди демасин».  
Улар дер: «Ё Аллоҳим,  
Бу қандайин ҳол бўлди?  
Бу не буюк адолат,  
Қай лафзи ҳалол бўлди?!»  
Эй одамлар, ҳазратнинг  
Сўзин айланг туморлар.  
Ҳар кун туғилаверсин  
Бизнинг юртда Умарлар!

## САРТАРОШ

Соқол олдирмоқ бўлиб,  
Бир куни денг, бир инсон  
Секин бурди йўлини  
Сартарошхона томон.  
Бу маскан ҳангомага  
Қулай фурсат, қулай жой.  
Ип эшолмас олдида  
Интернет ҳам, ҳойнаҳой.  
Мавзулар ҳам ранг-баранг,  
Ҳар ким дер билганини.  
Рейганнинг Горбачевдан  
Миннатдор бўлганини.  
Свет ҳар куни ўчар,  
Жонга тегди югури.  
Ҳар йил эгиз туғармиш  
Асомтойнинг сигири.  
Биров келганин айтар,  
Биров-чи кетганини.  
Рости, билмай қоласан  
Бунда вақт ўтганини.  
Хуллас, уста билан ҳам  
Роса суҳбат курдилар.  
Бироз ўтгач мавзуни  
Дин йўлига бурдилар.  
Уста дер: «Фақат менга  
Худо бор деб сўйламанг.  
Бу гапим учун мени



Кофир деб ҳам ўйламанг».  
«Хўш, нега?» – деб ҳайратда  
Мижоз устага боқди.  
Уста ҳам дилин ёриб,  
Хўп куйинди, тутақди:  
«Ана, чиқинг кўчага  
Хоҳ кундузи, хоҳ оқшом.  
Ҳар кунжакда бир гадо,  
Ҳар йўлакда бир бадном.  
Очинг сал кўзингизни,  
Қаранг, ана оломон.  
Ярми қашшоқ, исқирти,  
Ярми эса ногирон.  
Болалари ташландиқ,  
Кексаларин босган ғам.  
Худо бор деманг менга,  
Бесоҳибдир бу олам.  
Эгаси бўлса эди,  
Сал эътибор қилгулик,  
Бўлмас эди бу азоб,  
Бўлмасди бу кўргулик».  
Мижоз эса ғазабдан  
Бироз ўзин ушлади.  
Баҳсга кириб кетмай деб,  
Тилин қаттиқ тишлади.  
Бу орада уста ҳам  
Тугатди ўз ишини.  
Мижоз кўчага чиқиб,  
Учратди бир кишини.  
Кишики, соч-соқоли  
Паталак босган қора.  
Гўё минг йилдан буён  
Тиғ тегмаган бир бора.

Қайтиб боз устахона  
Эшигига урди бош.  
Кўрди, ўз иши билан  
Машғул эди сартарош.  
У деди сартарошга,  
Дилини тилиб тикан:  
«Э уста, бу дунёда  
Сартарош ҳам йўқ экан».  
Сартарош ҳайрон: «Нега?  
Ахир, биз устамиз-ку!  
Адашмасам, шаҳарда  
Қарийб юзтамиз-ку!  
Сизни қандай жин урди,  
Ошно, ўзингизми бу?  
Ё хизматим ҳақиға  
Айтар сўзингизми бу?»  
Мижоз деди: «Дунёда  
Бўлса эди сартарош,  
Бундай ғариб аҳволга  
Тушмас эди пахмоқ бош!  
Эҳҳе, оламда қанча  
Соқол ўсган, соч патак.  
Бўлганда, олдирадди,  
Сартарош йўқдир, демак».  
Уста дер: «Кўп қайғурманг,  
Буни биз ҳам биламиз.  
Гар ўзлари келмаса,  
Бизлар нима қиламиз?».  
Мижоз дер: «Уста, энди  
Келдингиз ўзингизга.  
Айнан ушбу воқеа  
Жавобдир сўзингизга.  
Дедингиз Худо йўқдир,

Дедингиз чор тараф ғам.  
Худони қайдан топар  
Худо демаса одам?!  
Худо йўқ эмас, бордир,  
Биз уни изламаймиз.  
Борию йўғимизда  
Аллоҳ деб бўзламаймиз.  
Ҳаммамиз Аллоҳимнинг  
Бандасимиз, фирқамиз.  
Аммо негадир унга  
Дуч келишдан кўрқамиз.  
Ҳар кимки Аллоҳ деса,  
Бу ҳам тоат бўлгайдир.  
Жамики ниятлари  
Тез ижобат бўлгайдир.  
Шунда муҳтожлик бўлмас,  
Бизни қийнамас кулфат.  
Ерда низолар тугар,  
Пайдо бўлгуси жаннат!»

**ТЕМИРЧИ**

Аймак деган қишлоқда  
Бир темирчи бор эди.  
Қўли гул, моҳир уста,  
Ҳақиқий меъмор эди.  
Кампири билан тоғнинг  
Этагида яшарди.  
Ўроқ, теша, белкурак,  
Кетмон, кишан ясарди.  
Уни устахонадан  
Топардилар ҳар маҳал.  
Отларнинг туёғига  
Қоқар эди наҳал ҳам.  
Оғир эди меҳнати,  
Ишларди чўғ ичида.  
Кечга томон бу чолнинг  
Куч қолмасди кучида.  
Болалик хотиримда  
Бари ёзилиб қолган,  
Босқонини босай деб  
Тилим осилиб қолган.  
Асло тиним билмасди,  
Билмас эди на роҳат.  
Меҳнатига яраша  
Мўмай эди даромад.  
Бир кун келди ёнига  
Қишлоқнинг оқсоқоли.  
Деди: «Жўра, ўзбекнинг

Бордир шундай мақоли:  
Қўли очиқнинг доим  
Йўли очиқ дейдилар.  
Бундай каснинг ҳар жойда  
Ризқи сочиқ дейдилар.  
Қара, Наби қассобнинг  
Иши доим беш эрур.  
Чунки унинг амали  
Иймонига эш эрур.  
Ҳа, у юрса бўлади  
Ҳамма жойда кериб тўш.  
Ҳар жумада тарқатар  
Муҳтожларга текин гўшт.  
Ахир, сен ҳам эҳсонни  
Унутма, жўра, зинҳор.  
Агар билсанг, нарёғда  
Эҳсон учун ажр бор.  
Беваю бечорага  
Боққин-да сен ҳам андак.  
Бошқани қўй, Набидан  
Олсанг бўлмасми ўрнак?»  
Уста ўз одатича  
Тер босиб ишлар эди.  
Ортиқча гапирмасди,  
Тилини тишлар эди.  
«Хўп, майлига», – деди у,  
Баттар ишга киришди.  
Оқсоқол ҳам жўнади,  
Пешонаси тиришди.  
Орадан йиллар ўтди,  
Устадан чиқмади сас.  
Ҳамма атай бошлади  
Уни бахил ва нокас.

Бундай гапу сўзлардан  
На йиғлади, кулди у.  
Бир кун жимгина ётди  
Ва жимгина ўлди у.  
Қарангки, жанозага  
Одам роса тўпланди.  
Уста кетди! Шу кундан  
Устахона қулфланди.  
Ўша жума қассоб ҳам  
Тарқатмади текин гўшт.  
Бечора ва бевалар  
Уйга қайтдилар бўм-бўш.  
Қассобхона ёнида  
Уч-тўртга чол кўринди.  
Дедиларки: «Набивой,  
Сени қандай жин урди?  
Бу ишингдан дилимиз  
Қаҳрга тўлиб кетди.  
Қара, эҳсонни билмай  
Хусан ҳам ўлиб кетди.  
Савоб ишни қилишдан  
Бир нафас тўхтамагин.  
Мол-давлатга ҳирс қўйиб,  
Устага ўхшамагин».  
Қассоб дер: «Тош отмангиз  
Марҳум устага томон.  
Аллоҳ ҳисоб қилгувчи  
Ким яхшию ким ёмон.  
Уста ҳар пайшанбада  
Хузуримга келарди.  
Икки кило гўшт учун  
Ақча бериб кетарди.  
Дерди, ҳеч ким йўқликдан

Бош ёриб, соч юлмасин.  
Яна дерди, бу сирни  
Бирор кимса билмасин.  
Ана шундай жимгина  
Яшаб ўтди устажон.  
Сизлар эса шўрликни  
Сўқдиларинг беармон.  
Айтолмасдим бу сирни,  
Турса-да тил учида.  
Умр бўйи яширди  
Ҳимматни енг ичида.  
Пул топса-да, йўқ эди  
Ҳовлисида дарвоза.  
Ёқтирмасди савобнинг  
Қилинишин овоза.  
Умр бўйи тер тўқди,  
Меҳнатидан хуррам, шод.  
Аллоҳим у дунёсин,  
Илоҳо, қилсин обод!

## ЭР ВА ХОТИН ҚИССАСИ

Яшар эди эр-хотин  
Шаҳарнинг бир четида.  
Егани олдидаю  
Емагани кетида.  
Бир ўғли бешга кирган,  
Иккинчиси кичикроқ.  
Каттаси бийрон сўзлар,  
Кичкинаси чучукроқ.  
Фарзандлар бирам ширин,  
Гўё бир жуфт қўзичоқ.  
Ҳамма дер, қўлларига  
Тақиб қўйинг кўзмунчоқ.  
Қунлар ҳам ана шундай  
Ўтарди шоду хуррам.  
Уй бекасини ногоҳ  
Ўраб олди ташвиш-ғам.  
Эр бечора парвона,  
Ботмас ичга егани.  
Тасалли топа олмас  
Бирор нарса дегани.  
Хотин эса тимма-терс,  
Ёрмас эрга дилини.  
Нобелга муносиб, ким  
Билса хотин тилини!  
Иккаласи бир куни  
Дўхтир сари боришди.  
«Унинг боши қоронғи»,



Эрнинг кўнгли ёришди.  
«Табриклайман, азизам,  
Не кўямиз отини?» –  
Дейиши билан, ё Раб,  
Йиғлаворди хотини.  
Дер: «Ичдаги дардимни  
Сиз қаердан биласиз  
Ёки билиб устимдан  
Масхаралаб куласиз.  
Шуни билинг, бу сафар  
Қолгайдирсиз армонда.  
Оёқ-қўлимга кишан  
Бўлолмас бу зорманда.  
Истамайман бўлишни  
Хотинларнинг уккиси.  
Учинчиси керакмас,  
Етар анов иккиси.  
Бас, жаҳдимни чиқарманг  
Менга кўп ола боқиб.  
Ўтказмоқчи эмасман  
Умримни бола боқиб».  
«Ё Раб, – дейди, – эр ҳайрон,  
Хотинига не бўлди?  
Тушунмас, зоҳирию  
Ботинига не бўлди?  
Чин бахтдан ўгириб юз,  
Наҳот, бошлар кулфатни,  
Наҳот, у йўқотмоқчи  
Аллоҳ берган неъматни?!»  
«Аборт! Тамом! Гапирманг!»  
Хотини жаҳд қилади.  
Унинг айтган ҳар гапи  
Эрнинг бағрин тилади.

Шом маҳал бошланган баҳс  
То тонггача уланди.  
Бомдодда эр Аллоҳга  
Тавба қилди – тиланди:  
«Хотинимга инсоф бер,  
Шафқат солгин дилига.  
Мен бандангни чўктирма  
Кўзларимнинг селига».  
Балки, хотини алдар,  
Балки, уни синади.  
Икки гўдагин ўпиб  
Тонгда ишга жўнади.  
Эр кетдию хотиннинг  
Шайтон кирди ичига.  
Икки боласин ташлаб  
Чиқиб кетди кўчага.  
Дилидаги кир ният  
Сиғмас эди танага.  
Иккиланиб ўтирмай  
Борди дўхтирхонага.  
Энди фарзандларидан  
Тингланг гап икки оғиз.  
Ҳайҳотдай уйда икков  
Қолиб кетдилар ёлғиз.  
Бирови бешга кирган,  
Иккинчиси кичикроқ.  
Каттаси бийрон сўзлар,  
Кичкинаси чучукроқ.  
Қўй дейдиган хўжа йўқ,  
Ўйнадилар, кулдилар.  
Бир-бировин қувлашиб  
Роса шавққа тўлдилар.  
Тойчоқ бўлиб кишнашди,

Бўридек увладилар.  
Сакраб мушук боладек  
Бир-бирин қувладилар.  
Бекинмачоқ маҳали  
Шовқин бир нафас тинди.  
Чунки ука кир ювгич  
Машинага бекинди.  
Ака излаб укасин  
Хонама-хона чопди  
Ва, ниҳоят, жигарин  
Ваннахонадан топди.  
Укаси машинага  
Олган эди бекиниб.  
Акаси кетди бехос  
Мурватига тегиниб.  
Машина ишлаб кетди,  
Моторчаси пориллаб.  
Ичкарида укаси  
Дод соларди зориллаб.  
Бола, ахир, бола-да,  
Бу ҳолатдан тош қотди.  
Бирпас боши айланиб,  
Эс-хушини йўқотди.  
Сўнгра: «Ойижон», – дея  
Ўзин эшикка урди.  
Ҳовли узра зор йиғлаб  
Тўрт тарафга югурди.  
«Дада», – дея чопди у,  
«Ойи», – дея йиқилди.  
Кўзда ёши шашқатор  
Дарвозага тикилди.  
Аммо садо йўқ эди  
На осмондан, на ердан.

Болакайнинг эсига  
Телефон тушди бирдан.  
Ўргатганди дадаси,  
Бир тугмани босса гар,  
Ҳар қандай шароитда  
Дадаси жавоб айлар.  
Афсус, эшик қулф эди,  
Деразадан ошди у.  
Шошилиб телефоннинг  
Тугмачасин босди у.  
Дарров жавоб ҳам келди:  
«Алло, ким бу? Нима гап?»  
Дадасин таниб бола  
Бирдан юборди йиғлаб.  
«Дада, укам...» – дедию  
Баттар кўнгли бузилди.  
Шу заҳоти нарёғдан  
Телефон ҳам узилди.  
Болани энди буткул  
Қамраб олди изтироб.  
Тугмани босаверди,  
Аммо бўлмади жавоб.  
«Ойижон», – деб йиғлади,  
«Дадажон», – деб қичқирди.  
Садо йўқ, бола дилгир,  
Шошиб ўрнидан турди.  
Деразадан ошдию  
Югурди ванна томон.  
Айланарди машина,  
Ҳаммаёқ қип-қизил қон.  
Қўрқиб кетди болакай,  
Энди нима қилади?  
Бориб эшикни очди,  
Нима бўлса бўлади!

Билмайди укасининг  
Қайда оёғи, боши.  
Машинага қўшилиб  
Фақат айланар лоши.  
Бир-икки бор чўзди қўл  
Олмоқ учун шайланиб.  
Аммо қип-қизил мурда  
Кетаверди айланиб.  
Чир-чир айланишлардан  
Кўрмай қолди кўзи ҳам.  
Энгашганди, гирдобга  
Тушиб кетди ўзи ҳам.  
Олдин боши айланди  
Ва бўғилди нафаси.  
Бирпас додлади, сўнгра  
Чиқмай ҳам қолди саси.  
Икки бегуноҳ гўдак,  
Бетиним айланарди.  
Балки руҳи равони  
Кўк сари шайланарди.  
Оҳ, ер айланар эди  
Офтобнинг теграсида.  
Айланарди қўшилиб  
Икки беайб расида.  
Бири бешга кирганди,  
Иккинчиси кичикроқ.  
Бири бийрон сўзларди,  
Кичкинаси чучукроқ.  
Отаси келганда ҳам  
Айланар икки бола.  
Чор атроф қип-қизил қон,  
Гўё тоғдаги лола.  
Уларнинг жажжи руҳи  
Кетса-да гар узоқлаб,

Вужудлари айланар  
Бир-бирини кучоқлаб.  
Тўпланишди бир зумда  
Қўни-қўшни, қариндош.  
Танлар титроққа тушди,  
Худди селдай оқди ёш.  
Даданинг телефони  
Шу пайт жиринглаб қолди.  
Шўрлик шошиб, қалтираб  
Зўрға қўлига олди.  
Овоз келди нарёғдан:  
«Табриклангиз, дадаси,  
Бажарилди, ниҳоят,  
Хотинингиз ваъдаси.  
Дўхтирларга минг раҳмат,  
Елкамиздан тушди тоғ,  
Зормандадан қутулдим,  
Ўзим эса соппа-соғ».  
«Касофат!»  
Шу сўз унинг  
Томоғига тиқилди.  
Осмон гир-гир айланиб,  
Ерга гум-гурс йиқилди.  
Тиллари ичга тортиб,  
Вужуд тушди музларга.  
Овоз келди қайдандир:  
«Етиб олинг бизларга!  
Дада, дада, дадажон,  
Сизга бор бир муждамиз:  
Энди бизлар икковмас,  
Энди бизлар учтамыз.  
Жажжи укажонимиз  
Чорлади ўзи томон.

У худди сизга ўхшар,  
Худди сиздек меҳрибон!»  
Яшар эди эр-хотин  
Шаҳарнинг бир четида...

\* \* \*

О, ўқувчим, сабоқдир  
Ҳаётнинг ҳар бир они!  
Раҳмат, бўлдингиз бирпас  
Алишернинг меҳмони.  
Сиз билан қувончим бир,  
Сиз билан бир ғуссам ҳам.  
Айнан худди шу жойда  
Яқун топди қиссам ҳам.

### ДАҲРИЙНИНГ СОВҒАСИ

Яшар эди бир аёл  
Камбағалгина, ночор.  
Аммо иймони собит,  
Аллоҳдан умиди бор.  
Болаларин қолдириб  
Ҳар кун ишга кетарди.  
Ишлаб топгани зўрға  
Овқатига етарди.  
Бир куни иситмалаб  
Ётиб қолди бечора.  
На юришга ҳоли бор,  
На ишлашга бор чора.  
Озиб кетган, кўрсангиз,  
Ўйлайсиз тирик мурда.  
Уйида қолмагани  
Ҳатто нон ҳам бир бурда.  
Соппа-соғ эди кеча,  
Бугун не бало боқди...  
Ноиложликдан аёл  
Радиога сим қоқди.  
Шукр қилиб кўз тикди,  
Бир мужда бўлса, шояд.  
Аллоҳдан мадад сўраб  
Қолдирди мурожаат.  
Ҳаттоки таҳририят  
Ходимлари ачинди.  
Аммо битта тингловчи




Бу аҳволдан ғижинди.  
У ўта даҳрий эди,  
Ишонмасди Худога.  
Кўзини парда қоплаб,  
Ҳирс қўйганди дунёга.  
Шу боис у аёлни  
Синаб билмоқчи бўлди.  
Аникроғи, устидан  
Мазах қилмоқчи бўлди.  
Котибасин жўнатди  
Супермаркетга шошиб.  
Котиба тезда қайтди  
Бозордан тўлиб-тошиб.  
Сумкаси тўла гўштга,  
Нон, қатиқ ила қаймоқ,  
Турли хил ширинликлар  
Ва қайноққина қуймоқ.  
Дори-дармон аёлга  
Ҳам иссиққина таом.  
Болаларга ўйинчоқ,  
Хуллас, зўр совға-салом.  
Котибага дедики:  
«Тезда бориб-қайтасан.  
Кимдан бу деб сўраса,  
Шайтондан деб айтасан.  
Шунда аён бўлғуси  
Аллоҳга муҳаббати.  
Иймони неча пулу  
Ихлосининг қиймати».  
Совғани олиб аёл,  
Кўкларга етди боши.  
Ёқасини ҳўл қилди  
Кўзидан оққан ёши.

Шукр дерди тинмасдан,  
Қизни дуо қиларди.  
Минг бор ўпиб-ўргилиб,  
Яхшиликлар тиларди.  
Қайтар чоғи котиба  
Аёлга деди: «Балким,  
Билишни хоҳлайдирсиз  
Совғанинг соҳиби ким?»  
Аёл деди: «Аслида,  
Бу муҳим нарса эмас.  
Илтижойимни Аллоҳ  
Эшитди, шу менга бас.  
Аллоҳим деганларга  
Аллоҳ сояси тегар.  
Аллоҳдан амр бўлса,  
Шайтон ҳам бўйин эгар!»

# Мувозанат

Дурустбой ўша куни ҳовлига тўшак солдирди. Даштнинг мусаффо ҳавосини симириб-симириб, юлдузларга тикилди. Ана Темир қозик, ана унинг атрофида айланаётган Етти қароқчи. Кўзлари жимирлашиб кетди. Дунё бунчалик суйимли, олам бунчалик кенг ва батартиб. Ернинг, осмоннинг мувозанати борми? Менга қайта ҳаёт бахш этган, карам кўрсатган ким ўзи?..



## ХУДОГА ШУКР!

Яратганга шукрона айтиб яшайдиган халқмиз. Орзу қилиб шукр деймиз. Армонда қолиб шукр деймиз. Қувонганда шукроналар айтамыз, ранжиб туриб ўзингга шукр деймиз. Топиб олиб шукр деймиз, йўқотиб қўйиб яна шукур-эй деб ўзимизга тасалли берамиз.

Аймат қишлоғи хўжалик марказидан 12 км узоқликда, тоғ бағрида жойлашган. Ўтган асрнинг 70 – 80-йилларида шаҳарга тушган айматлик автобусдан кейин шунча масофани яёв босиб ўтиши лозим эди. Онда-сонда ўтиб қоладиган мотоциклчи ёки тракторчи хуши келса тўхтар, йўқса, орқада сўкиниб қолаверардингиз. Асрақул акамнинг айтишича, йўлда кўп азият чеккан айматликлардан бири уйдаги мол-ҳолию майизларини сотиб, етмаганига қарз-қавола қилиб мотоцикл олибди.

– Худога шукр, – дебди у, – энди яёв юрмайман, бировнинг хизматига муҳтож ҳам бўлмайман. Қолаверса, йўлда бир-иккитасини миндириб раҳматини эшитаман, дуосини оламан. Етказганига шукр!

Орадан бирор ҳафта ўтиб бизнинг қахрамон мотоциклни катта бир дарахтга бориб урибди ва ўзи тўрт-беш қадам нарига учиб кетибди. Мотоцикл қаттиқ шикастланибди. Ўрнидан туриб қараса, ўзи соппа-соғ.

– Худога шукр, – дебди у бошидаги ғуррасини ушлаб. – Тўрт мучам бутун, келган бало шу темирга келсин, ишқилиб.

Орадан чамаси бир ойча муддат ўтгач у қарз эвазига мотоциклини тузаттирибди. Бу матоҳ менга бўлмас экан деб уни бозорга олиб чиқибди ҳамда ярим пулига зўрға пуллабди. Пулни олгач:

– Э, Худога шукур-эй, шу зормандадан қутулдим-эй, – деган экан.

## САМИМИЙЛИКНИНГ НОСАМИМИЙ ИЗҲОРИ

Бу воқеани менга Асрақул акам айтиб бергандилар. Ну-ротадан бориб, Бухорода ўқиб юрганларида юртдош ҳам-курси касалхонага тушиб қолади. Уларнинг Аймак қиш-лоғидаги (Бухородан 250 км узоқликда, қолаверса, ўтган асрнинг телефон ва машиналар ўта танқис 60-йилларида) қалин ўртоғи касал кўришга келади. Кўнгил сўраб кел-ган инсоннинг далдаси фақатгина касалхонага тушган одамгагина маълум. Бемор қишлоқдан келган жўрасини кўриб йиғлаб юборади. Уни бағрига қаттиқ босиб ҳаяжон-да шундай дейди:

– Жўражон, катта раҳмат сенга, қанча мазорларни бо-сиб мени кўргани келибсан, бунга ҳеч қачон унутмайман. Илойим, сен ҳам больницага туш, мен ҳам сени кўргани борайин.

## ШИРГУРУЧ

Уйда қачон ширгуруч тайёрланса, Асрақул ака айтиб берган ушбу воқеа ёдимга тушади.

Узоқ йиллар учрашмаган дўсти меҳмонга келганида мезбон уни ширгуруч (шир – форсча, сут дегани) билан сийлайди. Одатда, ширгуруч катта лали товоққа (лаганга) сузилиб, унинг ўртасига эритилган сариеғ қуйилади. Тамадди чоғи луқма ўша сариеғга ботириб ейилади. Меҳмон ҳам бу таомни яхши кўрар экан, жуда хурсанд бўлибди. Таом ўртага қўйилганида мезбон оғайнисидан ўпкалай кетибди:

– Эй дўст, биродарлигимиз қаерда қолди, отам ўлди, келмадинг, бир, онам ўлди, келмадинг, икки, аммам қазо қилди, хабар олмадинг, уч...

Меҳмон қарасаки, дўсти ҳар санаганда бармоғи билан товоқнинг ўртасидан ўзига қараб чизиқча тортяпти. Ўртадаги ёғнинг ҳаммаси уй эгаси томонга оқиб кетмоқда. Мезбоннинг қитмирлигини сезиб қолган меҳмон:

– Эй жўражон, ҳаммасини эшитдим, ҳамдардман, аммо ўша пайтда бизнинг томонлар мана бундай алғов-далғов эди, – дея товоқдаги ширгуручни бармоғи билан ўртадаги ёққа аралаштириб ташлаган экан.

## ДЎСТНИ... СОТИШ МУМКИН

Ажойиб кунларнинг бирида чошгоҳ маҳали ишхонам («Халқ сўзи» газетаси)га кўнғироқ бўлиб қолди. «Аббосхон борми?» – сўради кимдир. «Бош муҳарриримиз Вазирлар Маҳкамасида эди, кечирасиз, у кишини ким йўқлапти?» – деб сўрадим.

– Мен Абдулла акангизман, бу ким?

Шунда телефоннинг нариги чеккасидаги одам улуғ шоиримиз Абдулла Орипов эканлигини англадим ва шошганимдан: «Абдулла ака, мен Эсиргапман (гувоҳномадаги исмим), нима хизмат?» – дедим.

– Э, бу сенмисан, яхшимисан? – бирдан сенсирашга ўтди Абдулла ака. – Больницадан телефон қиляпман, салгина шамоллабман, шекилли, янги шеърларимни обормоқчи эдим.

– Об келинг, Абдулла ака, – дедим, – эртагаёқ берворамиз.

Дарҳақиқат, Тўра Сулаймоннинг ибораси билан айтганда, ўша пайтларда мен ҳам таҳририятда «катта итлардан бири» эдим. Қолаверса, у дамлар Абдулла аканинг қиличининг дами жуда ўткир эди. Ҳеч бир бош муҳаррир унинг олдига кўндаланг чиқа олмасди.

Орадан ярим соатлар ўтгач, компьютерхонадалигимда айтишдики, хонамда мени Абдулла ака кутяпти экан. Борсам, шоири замон қўлини манглайига қўйиб, узун хонанинг у четидан бу четига бориб келаётган экан. Саломлашиб, ҳол-аҳвол сўрашгач Абдулла ака қўлини деворга ниқтаб манавинг яхши гап экан деди.

Мен хонамга ҳар хил ҳикматларни ёзиб қўяр ва уларни тез-тез алмаштириб турардим. Бу сафар деворда «Дўстни сотиб олиб бўлмайди, аммо... сотиш мумкин» деган ҳикмат ёзилганди. Абдулла акани безовта қилаётган фикр шу экан.

Хуллас, шеърларни газетага эртага чоп этиш учун олиб қолдим, Абдулла ака кетаётганида телефонингни ёзиб бер деди.

Орадан бир соатлар ўтгач у киши телефон қилиб қоз-қалам олишимни сўради ва қуйидаги тўртликни айтиб турди:

*Дунё кенг, шаталоқ отиш мумкиндир  
Ёки харсангтошдай ётиш мумкиндир.  
Эсирган айтгандай, ҳақиқий дўстни  
Сотиб олиб бўлмас... сотиш мумкиндир.*

Нима дейишимни билмай, бир муддат қотиб қолдим. Сўнгра тасаннолар айтиб, бу тўртликни нима қилиш кераклигини сўрадим. Бошқа шеърлар билан биргаликда газетага бервор деди шоир. Худди шундай бўлди. Газета босмахонага топширилгунча Абдулла ака, адашмасам, 5-6 маротаба қўнғироқ қилди ва ҳар сафар шеърларига тузатишлар киритди. Ҳозирги тўртликка ҳам «Мутойиба» деб сарлавҳа қўйдирди ва изоҳ берди:

– Янганг ўқиб одамлар чиндан ҳам дўстни сотса бўларкан-да, мана, Абдулла шоир фатво берибди-ку деб ўйлаши мумкин деяпти. Халқ билади-да, халқ билади, халқ доно!

Хаёлимдан Абдулла ака «халқ» билан ҳам маслаҳатлашиб турар экан-да деган фикр ўтди ва дарҳол тузатишни киритдим.

Ҳаммаси эртасига бошланди. Телефоним ўша куни тинимсиз жиринглади; таниш-билиш, дўст-биродарлар табриклар ҳамда улуғ шоирнинг эътиборига тушганим билан қутлашарди. Айримлар энди «ўсиб» кетишим ҳақида кароматлар ҳам қилишарди. Албатта, бу камина учун жуда ёқимли эди. Шу куни бўйим бир газ ўсди. Ташаккур билдириш учун Абдулла акага роса телефон қилдим, аммо гўшакнинг нариги томонида сукунат ҳукмрон. Чамамда, Абдулла ака касалхонадаги муолажалар билан банд эди.

Хуллас, кечга томон Абдулла аканинг ўзи телефон қилиб қолди. Овозидан кайфияти чоғ эди.

– Қалайсан, шоир, одамлар безовта қилмаяптими?



– Э, Абдулла ака, бормисиз? Раҳмат, ака, одамни машҳур қивордингиз. Тарихда қоп кетадиган бўлдим. (Дарҳақиқат, бу шеър кейинчалик шоирнинг китобларидан ҳам ўрин олди). Бугун телефоним дам олмади.

– Қўявер, бу яхши, бу ёғини айтсанг, бу ёқда мен ҳам дам олганим йўқ, телефонлар, йўқловчилар, табрик устига табрик. Демак, биз яхши иш қилибмиз. Фақат бир нарсага кулгим қистайди. Ҳол сўрагани келган министрлар, академиклар сўрашяпти: «Эсиргап ким бу? Қайси асрда яшаб ўтган аллома?» – Абдулла ака мириқиб кулади ва қўшимча қилади: – Мен уларга Эсиргап замонамиз файласуфларидан бири деб айтдим, қалай?

– Раҳмат, Абдулла ака.

Шу пайт хаёлимга яна бир фикр келди ва устозга мурожаат этдим:

– Яқинда Хоразмга боргандим, бир мақол ўрганиб келдим. Айнан сизбоп экан, яхши нарса чиқиши мумкин.

– Нима экан у, айт-чи.

– Етти марта эмас, етмиш марта ўлчагин, аммо... Ёшулли айтган жойидан кес!

Абдулла ака мазза қилиб кулди. Ёнимда ушбу суҳбатга гувоҳ бўлиб турган таниқли журналист Шухрат Жабборов ҳам қаҳқаҳа отиб юборди.

Кулиша-кулиша Абдулла ака билан хайрлашдик.

Эртаси куни Абдулла ака яна телефон қилди ва қўлимга қоғоз-қалам олишимни айтди. Оҳиста диктовка қила бошлади:

### **Келинга**

*Мана, ўтиб олдинг асал ойдан,  
Энди сув ичгайсан турмуш сойдан.  
Етти ўлчаб бир кес, етмиш ўлчаб кес,  
Аммо кес... Ёшулли айтган жойидан.*

– Офарин, Абдулла ака, офарин! – дедим. – Жуда ажойиб!  
Нима қиламиз, газетага босворайми?

– Шошма, тўрт-бешта бўлсин, бирга берамиз.

Абдулла ака шундай деди-ю, аммо тўртлик бу куниси-га «Ўзбекистон овози»да чиқиб кетди. Маълум бўлишича, Абдулла аканинг «айби» янги шеърни касалхонага келган Сафар Остоновга ўқиб бергани, холос.

Бу тўртлик орадан бир ойлар ўтгач Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг биринчи очилиш йиғилишида ҳам улуғ шоиримиз томонидан ўқиб берилди. Албатта, бу ерда урғу келинга эмас, Ёшуллининг маслаҳатига амал қилишга қаратилган эди!

Шу воқеалардан кейин биламанки, Абдулла Орипов қарийб бир йил жуда кўп тўртликлар ёзди ва шоирнинг бу жавоҳирларини «Ўзбекистон овози» ҳар бир сонидан битта-лаб бериб борди.

### «УНИНГ АЁЛИ ИШЛАМАЙДИ»

Яқинда Хулкар қизимдан СМС олдим. «Дада, бир нарсага ҳайрон қоламан, – деб ёзибди қизим. – Бир ўзингиз ишлаб бизни қандай боққансиз? Битта ойликка тўртта фарзандни ўқитгансиз, ичиргансиз, едиргансиз, кийдиргансиз... Биз куёвингиз билан ишлаб, минг тежаб-тергаб, қизимга кеча зўрға пальто обертдим».

– Худо берган, қизим, Худо берган, – дейман унга. Лекин ичимдаги гапни унга айтмайман. Биз ҳам битта эмас, иккита бўлиб ишлаганмиз демайман. Деёлмайман. Ишонмайди, лоф деб ўйлайди. Хаёл узоқларга олиб қочади...

«Мен давлат идорасида 133 сўм ойлик олардим, – дея ичимда қизим билан гаплашаман, – кейинчалик у 150 – 200 га кўтарилди. Ойлик олган куним уйга бозор қилсам, онанг қувониш асносида дакки берарди: «Картошкани қиммат опсиз, сабзи Қўйлиқда ярим баҳосида сотиляпти, шолғомнинг юпқа пўстлисидан олинг, чиқитга камроқ чиқади». Табиийки, бу гаплардан кейин бозор ҳам онангнинг зиммасига тушади. Чунки онанг биладики, менинг бойваччафеълим билан ойнинг иккинчи ярмида қўни-қўшнидан қарз кўтаришга тўғри келади. Уйимизда гилам бўлмаса-да, шолчамиз бор эди, лекин тўртта боланинг тўп-тўпидан кейин ҳам уйимиз озода турарди. Ошхонадан тортиб балконгадовур чиннидай ярақларди. Ҳамма нарса батартиб эди, ҳозиргача шундай.

Ваҳолонки, уйимизда чўримиз йўқ эди. Ўша сен, шунингдек, бошқалар ҳам пешонасига «ишламайди» деган тамға босган Онанг бор эди.

Акангнинг кийимини уканг, сенинг кийимингни синглинг кийиб катта бўлди. Кийимларингнинг ямоғи бўлиши мумкин, лекин кири йўқ эди. Ички кийимлар қарийб сотиб олинмас, машинкада онангнинг ўзи тикарди. Неваралар

туғилганида онанг бўхчадан акангнинг болалигидан қолган эски кийимларини, гарчанд кеннойинг бурнини жийирса-да, чақалоққа кийдирганди. Онанг тиккан кўрпачаю ёстиқлар, дарпардаю дастурхонлар эндиликда эскилик сарқити бўлиб қайсидир тоқчаларда ётибди.

Ваҳолонки, ортиқча кийим сотиб олишга бизнинг қурбимиз етмасди, тикувчию кўрпачига беришга ойлигим камлик қиларди.

Биласан, уйимиздан меҳмон аримасди. Вилоятлардан йўли адашиб Тошкентга келган борки бизникида меҳмон бўларди. Улар вақт ҳам, имконият ҳам танлашмасди, тўғри бостириб келаверишарди. Ярим оқшом бўлишига қарамай, қарангки, худди меҳмон кутиб ўтиргандай бирпасда дастурхон безаларди, қанд-қурс, пирожка-сомса дегандай... Дастурхондаги таом ва ширинликларнинг ярми «Made in Mom», аниқроғи, ишламайдиган онангнинг «иши» эди.

Чунки ошпаз ёллашга менинг ойлигим етмасди.

Укаларинг бугун кийган кийимини мактабдан йиртиб ёки кир-чир қилиб келарди. Афсуски, ўшанда бизнинг шахсий тикувчимиз ҳам, кир ювиш машинамиз ҳам йўқ эди. «Ишламайдиган» онанг кийимларни тикиб, ювиб, эрталабгача қуритиб, дазмоллаб фарзандларига кийдириб, мактабга жўнатарди. Чунки укангнинг иккита қўйлаги йўқ эди. Бор-йўғи битта бўларди, уям акасининг эскиси.

«Ишламайдиган» онанг дарсдан кейин тўртта фарзандининг ҳар бири билан индивидуал дарс қиларди. Қўзининг нуруни тўкиб сизларга эртақлар ўқиб берарди, қайта-қайта машқлар бажартирарди. Ана шуларнинг ҳосиласи ўлароқ ҳаммаларинг ўқиб, касб-хунарли бўлдинглар. Ҳа, бугун игнага ип ўтказолмай қолган онангнинг кўз нурлари сизларнинг болалигингиз қат-қатларига сочилиб кетган.

«Худо берган» деган сўзларимнинг маънисига энди тushунгандирсан. Худо менга бойлик бермади, Худо менга сен

айтган «ишламайдиган» онангни берди! Онангга қўшиб ҳамма нарсани инъом этди менга Аллоҳим!

Қатор-қатор фарзандлар берди! Уларнинг ҳар бирига яраша ақл-идрок берди. Эл-юрт ўртасида обрў-эътибор берди, бировдан кам қилмади.

Топганимга барака ато этди! Қатор-қатор тўйлар қилдим, бирин-кетин машиналар миндим. Бировнинг қўлига қараб қолмадим. Онанг билан шаҳарма-шаҳар, ижарама-ижара юрган кунларим эвазига Аллоҳим кўша-кўша уйлар берди. Ҳаммасига секин-секин, сабр-қаноат билан эришдик, аммо бировнинг ҳақиқага хиёнат қилмадик, кимсани ранжитмадик, ёлғон гапирмадик, Худодан қўрқдик. Мен нимаики мартабага эришган бўлсам, унинг тўқсон фоизида қарийб бир умр «уй бекаси» тамғаси остида яшаган Онангнинг хизматлари бор! Ваҳолонки, онанг ҳам олий маълумотли педагог, бир муддат боғчада тарбиячи, мактабда ўқитувчи бўлган. Аммо ҳаммасини ташлаб, фарзандларининг келажаги учун ана шу йўлни танлади, яъни ўзининг шарафли муаллимлик либосини ечиб, «уй бекаси» деган жандани кийволиб, оилавий жамғармамизга менадан-да кўпроқ ва самаралироқ улуш қўшди.

Шу туфайли «Унинг аёли ишламайди» деган гапни жуда-жуда ёмон кўраман.

## «СВОЙ»

Карманада Одилжон Аминжонов деган машхур киши бор. У узоқ йиллар савдо ва маиший хизмат тизимида раҳбарлик лавозимларида ишлаган. Жуда дилкаш инсон. Бир куни денг, қайсидир бир тўйга бордик. Табиийки, яхшигина майхўрлик ҳам бўлди. Суҳбат, латифабозлик қизигандан-қизиди. Биз ҳам анча «қизиб» қолган эканмиз, вақт ўтганини ҳам билмабмиз. Ўша оқшом Одилжоннинг машинасида унинг уйига бордик. Каттагина ҳовли экан, ҳовлидан ҳовлига ўтдик, назаримда. Дарвоқе, дарвозани очиши билан 4-5 та ит олдимизга югуриб келди. Каттакон ит менга қараб ириллади. Одилжон унинг номини атаб, «свой-свой» деб қўйди. Итлар жимгина тарқалди. Хуллас, меҳмонхонага кирдим ухлаб қолдим. Тонг отиб-отмай уйғониб кетдим. Бошим зирқираб оғрирди. Столнинг устида турган совуқ чойни ичиб сал ўзимга келдим. Ташқарига чиқмоқчи бўлдим. Ҳаммаёқ жимжит. Зоғ кўринмайди. Ҳовлининг бир чеккасига тусмоллаб юрдим. Адашмабман, ҳожатхона шу ёқда экан. Ҳожатхонанинг ичида таҳоратхонаси ҳам бор экан. Ювиниб-тараниб эшикни очдим у шу заҳоти яна ёпдим. Чунки ҳожатхона эшиги олдида 15 чоғли ит турарди. Кўзларимга ишонмай эшикни қия очиб, яна қарадим. Ростдан ҳам итлар! Жуссаси мушукдайидан тортиб баҳайбат эшакдайи ҳам бор эди. Озроқ кутдим, бўлмади. Эшитармикин деган умидда: «Одилжон, Одилжон!» – деб товуш бердим. Жавоб йўқ. Итлар ҳам қимир этмайди. Улар мени кутишяпти, ҳойнаҳой. Танг аҳволда қолдим. Ҳожатхонада ҳам узоқ туrolмадим, нима бўлса бўлар, балки, уй эгалари уйғониб қолар деган ўйда эшикни баралла очдим, ташқарига биринчи қадамимни қўйдим. Итлар ҳушёр тортди, ҳаммасининг кўзи менда. Иккинчи қадамимдан кейин улар менга «коридор» очди – икки томонга ажралишди. Одам сиққулик бу оралиқдан

ўтишим керак эди. Олдинга қараб юришдан бошқа йўл қолмаган эди. Ё ўтиб кетаман, ё итлар мени шу ерда тилка-пора қилади. Ниҳоят, йўлакка кирдим, оҳиста қадам ташлаяпману итларнинг кўзига қарашга қўрқаман. Оғир-оғир нафас олаётганим ўзимга сезилади. Сиз Михаил Шолоховнинг «Инсон тақдири» номли ҳикояси асосида суратга олинган машҳур фильмни кўргансиз. Унда кино қаҳрамони Соколовни немис офицерлари ароқ билан «сийлашади». Эсингизга тушдими, Соколов: «Мен биринчисидан кейин закуска қилмайман!» – дейди ва иккинчи қадаҳдан кейин ҳам закуска қилмайди. Соколовнинг бу жасурлигига қойил қолган фашистлар унга бир буханка нон ва сариёғ совға қилишади, бор казарманга кетавер дейишади. Буханка ва ёғни кучоқлаб ортига қайтаётган Соколов «Ҳозир отиб ташлайди, ҳозир орқамдан отиб ташлайди» деган ўй билан жиққа терга ботиб, эшикдан чиқиб олади. Итлар орасидан ўтяпману мени «Ҳозир тишлайди, ҳозир тишлайди» деган ўй босган. Бор-йўғи икки дақиқалик муддат мен учун бир ойга чўзилдиёв ўзиям. Бир амаллаб «коридор»дан ўтиб олдим. Аммо ортга қарашга журъат йўқ. Қадам босиш маромини ҳам тезлатиб бўлмайди. Лекин сезяпманки, улар мени қадамба-қадам кузатиб келяпти. Уй эгалари ётган хонанинг олдидан ўтяпману нажот йўқ, бақиролмайман, кимдир чиқиб қолишини, итларни қувиб солишини жуда-жуда истаяпман. Мен ётган айвонгача ўн қадамлар қолди. Шу пайт нимадир тарақлаб кетди, мен энди тамом деб ўйладим. Биринчи бор журъат этиб ортга қарадим. Энг орқадаги кучукбачча бехосдан супадаги тоғорани тушириб юборган экан, айбдордай бўйнини қисиб, жавдираб турибди. Ниҳоят, бир амаллаб айвонга етиб келдим ва ўзимни шиддат билан эшикка урдим. Эшикни ортидан ёпиб, ерга йиқилдим. Бироз муддат ётгач ойнадан ҳовлига қарасам, мени кузатиб келган «гвардия»дан асар ҳам йўқ. Ҳовли жимжит. Бош оғриғидан асар ҳам қолмаган бўлса-да, тонггача мижжа қоқмадим.

Эрталаб чой устида оқшомги воқеани Одилжонга айтиб берсам, кулимсираб: «Мен келган пайт сизни уларга та-ништиргандим-ку, – деди. – Йўқса, бегонани қўйишмайди».

Нонуштадан кейин катта-кичик «свой»ларим билан хайрлашиб хонадонни тарк этдим.



## ОЛАПАР

Шўролар замонининг халқ қадамини ўлчайдиган қонун-қоидалари кўп эди. Ўтган асрнинг 60-йилларида оилаларда биттадан ортиқ мол сақлаганларга яхшигина солиқ солинадиган бўлди. Бу қарор қишлоқ аҳлини анча дилгир қилиб қўйди. Жўжабирдай жонга битта мол нима бўларди? Айниқса, ейишию ичиши чорвачиликка боғлиқ тоғ қишлоқлари аҳли бундан жуда норози бўлди. Текширувчилар келиши олдидан қишлоқ одамлари ортиқча мол-ҳолини тоғдаги яширин тошқўра ва тошқўтонларда сақлаганлигини элас-элас эслайман. Майли, бу алоҳида мавзу. 70-йилларда кимнинг кучуги бўлса, отиб кетармиш деган миш-миш тарқалди. Бизнинг ҳовлида ҳам ўта ақлли сариқ олапаримиз бор эди. Гарчанд егани сарқит бўлса-да, олапар ҳовли қўриқлашдан тортиб ҳар куни кечқурун қишлоқнинг уч юзга яқин ушоқмолининг ичидан бизнинг 20 – 30 та қўй-эчкимизни беҳато ажратиб, уйга ҳайдаб келишгача бўлган барча вазифаларни адо этарди. Айниқса, укам Неъматулла билан жуда иноқ эди. Неъматулла тоққа чиқсаям, хашак тўплаш учун пастга тушсаям, унга ҳамроҳлик қиларди. Ёлғондакам укамни урмоқчи бўлиб қўл кўтарсангиз, сизга ташланмоқчидай бўлиб қаттиқ ирилларди. Ҳамманинг ҳовлисида оқшом товуқларни қийратиб кетадиган тулки жаноблари ҳам бизникига йўл олмасди. Олапар жуда сергак қоровул эди. Хуллас, рўзғоримизда унинг ҳам оиламиз аъзолари каби ўз вазифалари, аниқроғи, ўз ўрни бор эди.

Бироқ... ана шундай садоқатли итни, итларни отиш учун «жаллод» келаётган эди. Келди ҳам! Халқ орасида «мантикрис» деб номланувчи «ТОЗ-8» милтиғини кўтариб Ай-матга келган «жаллод» қишлоқнинг ярим кучугини отиб ташлади. Бирдан хушёр тортиб олапарни излай бошладим.

У ҳеч қаерда йўқ эди. Кейин билсам, Неъматулла бу гапни аллақачон эшитиб олапарни тоққа олиб чиқиб кетган экан. Бир енгил тортдим. Навбат Ёрқул аканинг кучугини отишга келганида у итининг устига ётиб олди: «Олдин Баҳром ва Асрақулнинг кучугини отасан, кейин меникини!» Улар менинг акаларим эди. Хуллас, анча тортишув ва жанжаллардан кейин тоғдан Неъматуллани топиб келишди. Неъматулла уйга келди, аммо олапар ниманидир сезган, шекилли, ариқ ёқалаб катта тезликда ҳовлининг пастига қараб чошиб кетди. Аммо «жаллод» ҳақиқий жаллод экан, анча узоқда югуриб бораётган итни аниқ мўлжалга олди. Ўқ овозидан кейин олапар йиқилди, лекин бир юмалаб ҳовлининг пастига ўтиб кетди. Ҳам ҳовлига, ҳам чорбоққа эшиги бор даҳлиздан ўтиб, ўзи ётадиган уйчанинг олдига келдию бир акиллаб йиқилди. У юрган йўл, жумладан, даҳлиз ҳам қип-қизил қон эди. «Жаллод» келиб сўнгги ўқни унинг пешонасига бўшатди. Сўнгги ўқнинг овози ҳали-ҳануз миямда жаранглайди. Яхшиямки, янгам зор-зор йиғлаётган Неъматуллани кўрқмасин деб зўрлаб ичкарига олиб кириб кетган экан.

Ўшанда қишлоқда бирорта ит қолмади. Қолиши мумкин эди. Аммо кучугидан айрилганлар ҳаммани бирма-бир сотди. Ҳа, итлар қолмагани билан, афсуски, итфеъллилар... Шошманг, итфеъллилар деб ёзаяпману ўзимни олапарнинг руҳи олдида ноқулай сезаяпман. Итлардаги феълнинг нима си ёмон?! Олапар ҳам ит эди, аммо қани энди одамларда шу итнинг феълидан бир чимдим бўлса!

## ХУРМАНГНИ СИНДИР, СИГИРИМ

Улуғ инсонлар атрофида ҳамиша турфа хил гаплар юради. Бу ҳикоят ёки миш-мишни ким қандай қабул қилиши эса бутунлай бошқа гап.

Атоқли бахши, эл суйган халқ оқини Эргаш Жуманбулбул ўғли, айтишларича, оқинликдан ташқари эл орасида ўта илмли, форс ва араб тилининг мукаммал билимдони сифатида ҳам донг чиқарган. Шу билан бирга, дами ўтқир табиб ҳам бўлган. Илон, чаён, қорақурт чаққан кишиларни дам солиб даволар экан, аниқроғи, дами билан танадан захарнинг захрини чиқариб юборар экан.

Асрақул аканинг айтишича, Эргаш отани билган одамлар унинг ўта шўх, ҳазилкаш инсон бўлганлигини таъкидлашган. Буни ҳатто у куйлаган дostonлардаги қахрамонлар феъл-атворидан ҳам англаш мумкин.

Кунлардан бир куни Эргаш отанинг олдига бир аёл келади.

– Мулло бова, сигирим тепадиган бўлиб қолган, соғаман десам, ёнига йўлатмайди. Илтимос сиздан, бир дам солиб берсангиз, зора, яхши бўб кетса, – дейди ёзғириб.

Эргаш ота бу аёлнинг астойдил ёзғиришидан кулиб қўяди-да, бир парча қоғозга нималарнидир ёзиб, дам солади ва аёлга тутқазиб, тумор қилиб тикишини ҳамда сигирининг шохига осиб қўйишини тайинлайди. Аёл мулло бовасининг айтганини қилади ва кечқурун соғишга борса, не кўз билан кўрсинки, пишқариб ётган сигир бирам мулойим бўб қопти. У то соғиб бўлгунча сигир нафақат оёғини, ҳатто думини ҳам қимирлатмайди. Аёлнинг эса бу мўжизани айтмаган одами қолмайди, кимни кўрса ётиғи билан тушунтиради, ҳайратланади, одамларни ҳайратлантиради, бовани қайта-қайта дуо қилади.

Орадан йиллар ўтди. Бу орада мулло бова ҳам ёруғ оламни тарк этди. Лекин ундан яхши ишлар ва савобли амаллар қол-

ди. Аёлнинг сигири эса ҳали ҳам ўша-ўша – ювош. Авлиёнинг ўзи мулло бованинг кароматларини айтиб чарчамайди.

Инсон дегани қизиқ хилқат. Ҳамма сирли нарсаларга қизиқади, сабабини билгиси келади. Бу сафар ҳам шундай бўлди.

– Янга, – деди биттаси, – мулло бова туморга нима деб ёзган?

– Билмасам, ўқимабман ҳам қувонганимдан.

– Келинг, янга, бир ўқиб кўрайлик-чи, нима деган экан, қизиқ-да.

– Э, қўйинг, қайин, бу бир илоҳий нарса бўлса, яхшиси, тегинмайлик, – дейишга деди-ю, аммо аёлнинг ичида ҳам бир қизиқиш уйғонди: «Ростдан ҳам нима деб ёзган экан-а?»

Аёл бориб сигирнинг шохидан туморни ечиб келди. Уни оҳиста очдилар. Учбурчак қилиб букланган қоғозни текислаб кўрсалар, ёзув ўчмабди, аммо у араб алифбосида ёзилган эди – ҳеч кимнинг «тиши ўтмади». Қизиқишнинг кучлилиги шунчаки, қоғозни кўтариб қўшни қишлоқдаги Раҳматилла муллонинг олдига келишди.

Мулло хатни ўқиб, кулиб юборди. Ҳамма унинг оғзига тикилди. Мулло овоз чиқариб ўқиди:

*«Хурмангни синдир, сигирим,*

*Эгангни ўлдир, сигирим».*

Энди тўпланганларнинг барчаси қаҳқаҳа отиб юборишди. Дарвоқе, хурма – бу сигир соғадиган идиш. Хуллас, улар кула-кула тарқалишди ва қоғозни аёлга олиб бориб беришди. Аёл уни тумор шаклида тикиб, сигирнинг шохига илиб қўйди. Аммо...

Ҳа, аммо аёл эртага эрталаб хурмасини кўтариб соғишга келса, сигир худди аввалгидай ёнига яқинлаштирмас эмиш. Аёлнинг барча ҳаракатлари зое кетибди, бир қултум ҳам сут соғиб ололмабди.

## АВЛИЁНИНГ ЎГИТИ

Бир элда мартабаси улуг авлиё яшар экан. Кунлардан бир куни унинг хузурига бир йигит келиб, илтижо қилибди:

– Ҳазратим, ёрдам беринг, қўшхотинликдан дод, уйимда ҳам, ишимда ҳам ҳаловат йўқ, ажалимдан олдин ўлиб кетадиганга ўхшайман. Сизнинг маслаҳатингизга муҳтожман, илтимос, ёрдам беринг!

– Бу оилавий иш-ку! Мен оилавий ишларга аралашмайман, ўғлим, – дебди авлиё. Йигит бош эгиб чиқиб кетибди.

Орадан бир-икки йил ўтгач йигит яна авлиёнинг хузурига келибди ва арз қилибди:

– Ҳазратим, ёрдам беринг, гарчанд иккита хотиним бўлсада, болам йўқ, бир дуо қилинг, токи мен ҳам фарзандли бўлай.

– Ўғлим, – дебди авлиё, – фарзанд ато этиш – Аллоҳнинг иши, мен Аллоҳнинг ишига аралашмайман.

Йигит яна мулзам бўлиб хонадондан чиқиб кетибди.

Орадан яна уч-тўрт йил ўтибди. Йигит тағин ўша таниш авлиёнинг олдига йўл олибди.

– Ҳазратим, энди ёрдам бермасангиз бўлмайди, сизнинг дуоларингиз ижобат бўлаётганлигини кўриб турибмиз. Яқинда вазиримиз ишдан кетди. Мен кўпдан унга муовин бўлиб ишлаб келаман. Бир дуо қилингки, мени вазир қилиб тайинлашин...

– Э, болам, – дебди авлиё, – вазир тайинлаш – давлатнинг иши, мен давлатнинг ишига аралашмайман.

Не бир умидлар билан келган йигитнинг ҳафсаласи яна пир бўлибди ва жаҳл билан авлиёга дебди:

– Сиз қанақа авлиёсиз, ўзи? На у ишга аралашасиз, на бу ишга ёрдам берасиз!

– Жаҳлинг чиқмасин, болам, – дебди авлиё. – Агар шу учта ишга аралашмасанг сен ҳам менга ўхшаб авлиё бўласан...

## «ИРГАКЎРДИ»

Самарқанд тарафларда ана шундай ибора ишлатилади. Ирга дейилганида, менинг назаримда, уйнинг, ҳовлининг, умуман, турмушнинг рўзғорга дахлдор кўзга кўриниб-кўринмас, нозик жиҳатлари тушунилади. Бу ибора асосан оилавий муносабатларда, кўпинча аёллар ва қизлар, она-қиз, қайнона-келин ўртасида бўлган мулоқотларда ишлатилади. Айниқса, янги оила шаклланишида бу ибора биринчи ўринга чиқади. Ҳатто бу совчилик хизматининг энг муҳим, айтиш мумкинки, асосий тамойилини ҳам белгилайди. Совчиликнинг муҳим юмушларидан бири «Иргакўрди» ҳисобланади. Бу маросимда куёв томондан кайвони хотинлар келиннинг уйига боришади. Атайлаб текширишмаса-да, айёр кайвонилар кўз қири билан иргаларни назоратдан ўтказадилар. Айримлари сув ичиш баҳонасида ошхонага, қўл ювиш учун ваннага назар солсалар, бошқа бирлари турли сабаблар билан молхона, тандирхона, ҳатто ҳожатхонагача бориб кўрадилар. Баъзи бирлари ўтирган жойида гиламнинг бир четини кўтариб қарашади. Мақсад – оиланинг рўзғор юритиш тутумини кўриш.

Маълумки, халқимиз азалдан озодаликни, саронжом-саришталикни, орасталикни яхши кўради. Сариштали уй – фариштали уй. Табиийки, бу саришталикнинг бошида ҳамиша аёллар туришган. Аёл эса бўлажак оила бекасининг онаси, тарбиячиси, мураббийи. Қуш уясида кўрганини қилади. Инсон саронжом-саришталикка ҳам, палакат яшашга ҳам ўрганади. Олдин кўз ўрганади, кейин феъл шунга мослашади, алалоқибат пешона-да деб кўникишади. Айрим аёллар сирти ялтироқликка жуда ўч. Уйига меҳмон келса ҳам, у ёқ-бу ёқни номига супириб-артиб, дастурхонга зўр беришади. Бизнинг кайвониларимиз эса анойи эмас. Овқат келиши билан дастурхонига қарашади – доғи йўқми, кирмасми, коса-қошиғини кўради – ювганда ёғи қолмаганми, уйнинг

бурчакларини кузатади – болаларнинг кийим-кечаклари, ўйинчоқлари пала-партиш тиқиб ташланмаганми, васса-жуфтли шифтни мақтаб, шифтлардан тартанак уяси ахтаради. Ошхонада қозонини, молхонада сигирини, ҳовлидаги қучугини мақтай-мақтай оила тутумининг манфий ва мусбат томонларини мияда ёзиб бораверишади. Ҳатто боласининг туваги қай ҳолатда турганлигигача қолмайди.

Зиёфат тугаб, тугунчаклар тугилиб, хайр-хўшлашганида ҳам қиз томон кайвониларнинг қароридан беҳабар бўлади. Кайвониларнинг кув ёлмишнинг уйига ташрифи ҳамма нарсани ҳал қилади. «Қудамизнинг тутумидан айланай», – дея суюнганларию «Палакат рўзғор экан», – деб ранжиганлари қанча.

Иргакўрдининг аҳамияти ҳам шунда. Бу оила қурилишида асосий босқичлардан бири саналади. Бу бўлажак келиннинг оилани эплаб кетиш салоҳиятини белгилаб берувчи энг зарур тадбирдир. Онасини кўриб қизини ол деб бежизга айтишмаган. Шу боис илгарилари оилавий жанжаллар, қўйди-чиқдилар деяри бўлмаган.

Дарҳақиқат, келин овқат қилишни билмаса ўрганади, кир ювишни, сигир соғишни, хамир қилиб, нон ёпишни ҳам бора-бора билиб олиши мумкин. Аммо қиз бола саришталикни болалиқдан ўрганмаса, ёмон! Рўзғор юритиш илмини эгалламаса, эр шўрлик минг топиб келгани билан уйда барака бўлмайди! Иргага эътиборсиз аёлнинг ҳовлиси палакат, уйи исқирт, рўзғори бебурд бўлади. Бу аёл тарбиялаган фарзанд ҳам яна шу ҳолатни такрорлайди.

Бу бир қадим дунёдир. Унда ҳамма нарса синовдан ўтган, сараги саракка, пучаги пучакка ажралган. Жумладан, иргакўрди сингари урф-одату таомилларимиз ҳам!

## ДУРУСТБОЙГА ДУРУСТ БЎЛМАДИ

Аёл ҳар бири сатилдай-сатилдай сийнасини селкилла-тиб келарди.

Дурустбой икки қўли билан унинг кўксидан итаради, дод солиб бошини чайқайди.

– Эм, эма қол, – дейди аёл. – Бу сенинг ризқинг-ку, ахир.

Дурустбой уялади:

– Йўқ, йўқ, мен ёш бола эмасман.

Аёл индамайди, орқасига ўгирилиб ўттиз қадамча юргач кўздан ғойиб бўлади.

Дурустбой сергак тортади: «Тушимми бу, ўнгимми?» Юзларини, бурунларини чимчилаб кўради – жони оғрийдди. Ўн-ўн беш дақиқа шу ҳолатда тургач қир ошиб кетган қўйларининг орқасидан югургилайди.

Дурустбой ўша пайтда ўн бешда эди.

Орадан йиллар ўтди, тоғаси унинг бошини иккита қилиб қўйди, келинчаги «кўзилади».

Саратон кунларининг бирида мизғиб, хаёлида яна ўша аёл пайдо бўлди. Тағин кўкрагини тутди. Дурустбой беихтиёр унинг кўксидан итарди. Панжалари сийнасига ботиб кетди.

Бу воқеадан сўнг қанча вақт ўтди – Дурустбой эслаёлмайди – қаттиқ оғриб қолди. На оёқ ишлайди, на қўл, тана фалаж. Аллоҳ унга фақатгина хона шифтига қараб хаёл суриш имкониятинигина қолдирган. Ўшанда йигирма ва ўттиз оралиғидаги бу норғул йигитнинг хотирига нималар келмади. Ўнга кирмасдан тоғдан ўтин ташиди, тезак терди. Отаси вафотидан кейин онаси ҳам уни тоғасиникига ташлаб, турмуш қуриб кетди. Ўзи билан синглиси Зубайдани ҳам олиб кетган. Дурустбой уларни жуда соғинади, кечалари йиғлаб чиқади. Тоғаси эса онаси ва синглиси олдига боришга қўймайди. Ишла дейди, пул топ, уйлантираман дейди. Дурустбой ишлай-ишлай топиб келган унча-мунча пулни ҳам тоғаси баъзан харжлаб қўяди.



Кунлар шу зайлда ўтаверади. Дурустбой уззуккун қўйнинг ортидан қолмайди. Ҳар қалай, катта энасининг қийин-қистовлари билан тоғасининг бўғини бўшади. Икки хотинни қишлоқдаги Оқбўта ҳукуматнинг эшигини «супуриб» келишга юборди. Қарз-қавола билан тўй ҳам бўлиб ўтди.

...Энди рўзғорининг каму кўстини тўғрилайман деб кечаю кундуз ишлаётган Дурустбой шу аҳволда ётибди. Яқин орада дўхтир ҳам йўқ. Узоққа боришни чўнтак кўтармайди. Катта энаси шу атрофдаги қушночу бахшиларни чақириб қаратди, чорёрларга шамлар ёқилди. Ҳатто қисир эчкига тескари миндириб ҳовли айлангирди – наф бўлмади. Ҳамон ўша-ўша – тилидан калима тушмайди, ўзини кўргани келган чолу кампирларнинг гангур-гангурини эшитади, холос.

Кунлардан бир куни қизиқ воқеа юз берди. Дурустбой кейин ҳисоблаб кўрса, тўшакка михланганининг қирқинчи куни экан. Олдида тоғаси ва яна уч-тўрт чол ўтирганди. Хаёл суриб англамабди – қараса, улар йўқ. Шу пайт эшик очилиб, уч киши кириб келди. Биттасининг қўлида китоб – катталиги хонтахтадай келади. Иккитаси эса совутга ўхшаш кийимда, қўлларида баҳайбат, ялтироқ дудама. Қарасангиз, сиртида одамнинг акси кўринади. Улардан бири Дурустбойга яқинлашиб қўлидаги дудамани унга қараб силкитди. Дурустбой шунда англадики, унинг устида ҳам тахта, тагида ҳам. Тепадаги тахтага санчилган дудаманинг учи унинг бўғзига тегиб турибди. У катта ариқнинг устида ётар, ариқ тўла қон эди. Дурустбой ажали етганлигини тушунди, шу жойнинг ўзида уни худди қўй каби бўғизлашади.

У яна тепага қаради. Ўша уч кимсанинг биринчиси нуқул китоб варақларди. Ҳар бир варақни синчковлик билан кузатар, аҳён-аҳёнда ҳовлига бир қараб кўярди. Вақт имиллаб ўтарди. Китобнинг ҳам санокли варақлари қолди. Шу пайт ҳовлидан ғала-ғовур овоз келди:

– Тезроқ бўлсаларинг-чи, намозга кечикияпмиз.

Дурустбой бир амаллаб ҳовлига қаради. Ҳовли тўла одам эди – чол-кампир, хотин-халаж, бола-бақра... Шунда

Дурустбойнинг кўзи ўзига эмчагини тутган хотинга тушиб қолди. У ҳам Дурустбойдан кўз узмай турарди. Негадир уни чақирмоқчи бўлди – овози чиқмади. Аёл эса тунд қиёфада тўданинг ичига кириб кетди. Ҳовлидагилар яна жонланиб қолишди, ичкаридагиларни шошилтирдилар.

Ниҳоят, китоб ёпилди, қазо дамлари ҳам етиб келди, шекилли. Бироқ китоб ушлаган киши бош чайқади:

– Китобда унинг исми йўқ экан.

– Ҳовлидаги кўзилардан бирини сўйинглар!

Фотиҳа қилишиб, кўзини қурбонликка аташди. Унинг қонидан олиб, Дурустбойнинг манглайига иккита чизиқ тортдилар. Сўнгра апил-тапил нарсаларини йиғиштирдилар-да, индамасдан чиқиб кетдилар. Ё Раб, улар эшикдан эмас, деворни ёриб ўтиб кетишди.

... Дурустбой кўзини очганида тоғаси ва ўша чоллар мириқиб чой хўплашарди. Ўзлари билан ўзлари овора – унга боқишгани ҳам йўқ. Жиққа терга тушган Дурустбой кафтлари билан пешанасини артди. Артдию ҳайрон қолди – кафтлари қон эди.

– Тоға, – дея олди у зўрға.

Тоғаси ҳам, чоллар ҳам унга қараб қўрқиб кетишди.

Унинг қўллари ҳам, кафтлари ҳам қон эди. Ҳаммаси ёпирилиб бемор тепасида чўнқайишди. Тоғаси сочиқ билан манглайини, кафтларини артди. Ҳеч жойи лат емаган. Қон қаердан пайдо бўлди? Астаффурулло, астаффурулло дейишди чоллар. Қон – ёруғлик деди тоғаси, тузалиш аломатидир, балки?

Дурустбой бўлган воқеани айтиб берди. Чоллар ёқа ушлашди, кимдир яктагини кўтариб, кўкрагига туфлаб қўйди. Иккитаси ҳовлига чиқиб келди – ҳеч ким йўқ. Шунда Сори мулла айтдики, туринглар, ҳовлига чиқайлик. Усуп (Дурустбойнинг тоғаси – Юсуф) сен кўрадаги кўзини олиб чиқ. Сўй, фариштаю арвоҳларнинг руҳига бир дуо қилайлик.

Кўзини сўйдилар. Пиширдилар. Тамадди қилдилар. Шундан сўнг Сори мулла бир қироат қилди, бир қироат қилди – Дурустбойнинг боши айланиб, этлари жимирлаб кетди.

Ҳамма овмин қилди, Дурустбой ҳам фотиҳага қўл кўтарди. Чолларнинг астаффуруллоси энди бошланди. Қирқ кечаю қирқ кундуз фалаж бўлиб ётган қўллар фотиҳага кўтарилди. Сўнг у қўлларига суяниб гавдасини кўтарди, оёқларини йиғиштириб олди, чордона қуриб ўтирди. Деворга суяниб турди, ҳовлига чиқди, ўчоқ бошида куймаланаётган келинчаги уни кўриб йиғлаб юборди. Дурустбой кўшилиб йиғлади. Уларнинг сафига катта энаси кўшилди. Дурустбой нима қилишини билмасди. Фақат кўзларидан юм-юм ёш оқар, жигарбандларини кучоқлаб-кучоқлаб инграрди.

– Яратганнинг каромати бу, – деди тоғаси, – бўлди, кинринглар ичкарига, бас қилинглари йиғини.

Дурустбой ўша куни ҳовлига тўшак солдирди. Даштнинг мусаффо ҳавосини симириб-симириб, юлдузларга тикилди. Ана Темир қозик, ана унинг атрофида айланаётган Етти қароқчи. Кўзлари жимирлашиб кетди. Дунё бунчалик суйимли, олам бунчалик кенг ва батартиб. Ернинг, осмоннинг мувозанати борми? Менга қайта ҳаёт бахш этган, қарам кўрсатган ким ўзи?..

Яна эски ташвишлар бошланди – қиш-ёз, кечаю кундуз қўй-қўзилар ортидан югургани-югурган. Кунларга суяниб ҳафталар, ойларга осилиб йиллар ўтаверди. Қизларини чиқарди, келин олди.

Энди унинг ташвишлари синглиси Зубайданинг бошига тушди. Уям қирқ кун касал ётди, охири қандайдир момоларига тавба-тазарру қилиб, қайсидир отинойидан қўл олди – бахши-қушноч бўлди. Худди Дурустбойга ўхшаб Зубайда ҳам бир ўлимдан қолди. Жонини сақлаш эвазига момолари унга зурриёт бермади. Синглиси (менинг опам Зубайда) нинг гапларини сўзлайверса, унинг ўзи бир тарих, ўзи бир тилсимот.

\* \* \*

Рости гап, ўн-ўн беш йил муқаддам Зубайда опамнинг бошига оғир кунлар тушганида катта шоирми-ей, олим-

ми-ей бўлиш илинжида шаҳарма-шаҳар тентираб юрардим. Кўп нарсалардан хабарим бўлмаган. Эшитганларимга ишонмаганман. Опам ҳам менга айтмаган. Айтиб нима ҳам қиларди: ён-атрофидаги кўриб-билиб турганларнинг боши гарангу мен нима каромат кўрсатардим.

Ҳар қалай, бугун ҳавойи истакларга қўл силтаб етти қат осмондан туғилган тупроғимга қайтдим – опамнинг ёнидаман. У ўтмиш хотираларини эзилиб-эзилиб сўзлайди. Кўнглим бузилиб-бузилиб тинглайвераман, тинглайвераман. Хотиралар у учун оғир, мен учун ҳам маҳзун, ҳам мароқлидир.

«Энди тамом бўлдим деб ўйлагандим. Жойимдан туролмайман. Тун бўйи алаҳсираб чиқаман. Раҳматли поччанг ҳам, Баҳромжон ҳам (дўхтир акам) бошимдан жилишмайди. Узоқ-яқин қариндошлар ҳам бирма-бир келиб-кетишмоқда. Энам-ку уззуккун ёнимда кўзёш тўқади. Кўзимга аллаббалолар кўринади. Уколдан баданларим илма-тешик бўлиб кетган. Ичмаган дорим, олмаган муолажам қолмади ҳисоб. Ҳеч қайсисидан наф бўлмади. Охири узоқдан бир мулла-табиб чақирдилар. У мени қирқ кун чиллага солди. Қирқинчи куними-ей, билмадим, бир қўй буюрган экан, сўйдилар. Табиб қўйнинг бир коса қонини олиб дераза рахига – парда ортига қўйганига кўзим тушди. Вужудимда аллақандай куч пайдо бўлди. Худонинг қудратини қарангки, бир йилдирки қимирламай ётган одам сакраб туриб дераза томон отилдим. Қаршиликларга қарамай, косадаги қонни тўла сипқордим. Ўшандаги ҳолатимни бир сезсангиз эди, укагинам, шунчалик енгил тортдимки, гўё оёқларим ерга тегмайди – учаётгандайман. Кейин ташқарига – ҳовлига чиқдим. Қўйни сўйган жойдаги қотиб қолган қонни яладим, тупроқлари билан қўшиб едим. У шунчалик тотли эдики, дунёда ҳали бунақа неъматни тановул қилган эмасман.

Тағин ичкарига қайтиб кирдим. Шунда кўксимга томдан бир нур тушди. Мовий нур. Илкис тепага қарадим. Оппоқ либосда тўрт нафар қиз кўринди. Танишдек туюлди, қаерда ва қачон кўрганман, эслаёлмайман».

Зубайда опам ҳикоясини тўхтатди. Анча муддат индамай ўтирди. Бевовталаниб бир-икки бор томоқ қирдим. Воқеа қизиқ эди, тезроқ эшитгим келарди. Аммо маъюсланиб ўтирган опамни қисташга ўзимда журъат топа олмадим. У чой дамлаш баҳонасида даҳлизга чиқиб кетди. Менинг кўз ўнгимда оқ либосли ўша тўртта қиз қотиб турарди. Тўсатдан «лента» алмашди – рўпарамда афтини буриштириб Ҳожибой Тожибоев пайдо бўлди:

- Танимадинг-а?
- Йўқ, ака, танимадим, эслолмаяпман.
- Шу-да. Танимайсан-да!

Эшик очилиб, опам кириб келади. Диққат билан унга тикиламан. Кўзлари қизарибди – йиғлабди. Ҳайратланиман. Тилим лол қолади. Эшитган воқеаларнинг юки қимирлатмай қўйган.

- Нима бўлди, опа, мазангиз йўқми? – дейман зўрға.

Қизиқиш барибир устунлик қилади. Мавзуга қайтишга ийманибгина яна ишора қиламан.

– Агар уларни эслай олмайсангиз, айтмай қўя қолинг, шартмас.

«Ҳа-я, эсим курсин, таниёлмадим уларни. Кейин ўзлари эслатишди. Биз сен билан ўн саккиз ёшингда ҳам учрашгандик дейишди улар. Аммо сен бизнинг айтганларимизни бажармадинг – йўлимизга кирмадинг. Бешиқдаги болангнинг жони эвазига ўзинг тирик қолдинг».

Момоларим-а, бунча бешафқат бўлмасангиз. Жазоингизнинг бунчалик қаттиқлиги тушига кирибдими опамнинг. Мен унинг олтмишга кириб бепушт ўтганлигини энди англаяпман. Тўғри, қайта турмуш қурган, ўғай бўлса-да, туққан фарзандларидан азиз ва меҳрибон ўғли, қизлари бор. Энам бечора ҳаммамиздан ҳам кўра шу опамни ўйлай-ўйлай ўтиб кетдилар ёруғ оламдан. Бу қилмишларингиз марҳаматингизми, мукофотингизми, жоҳиллик ёки жазоингизми, ақлим етмайди.

«Энди биздан бошқа марҳамат кутма, айтганларимизни бажар дейишди. Одамларга айт, сени довкар деб аташсин. Ўзинг бешикдаги боладан тортиб увада билан томоғига сув томизаётган нуронийгача сизлаб гапирасан. Уйдагиларга айт, чилдирма билан бир ойна келтиришсин. Чилдирмага ҳатто ясаган устанинг ҳам қўли тегмаган бўлсин. Ён-атроф-фингда дардмандлар кўпайиб кетишди. Ўшаларга қара, даво-ла. Чилдирма чалсанг, биз келиб сенга қарашиб турамыз. Биз отангга бир тош берганмыз. Ҳозир у Гавҳар аммангнинг сан-диғида турибди. Уни ол. Чайқаб, дардмандларга ичир.

Ҳамма машмашалар кейин бўлди. Дастлаб уйдагилар, кей-ин кўни-кўшнилар хатти-ҳаракатларимдан кула бошлашди. Акамга чилдирма топиб келасиз дедим. Ҳадеганда олиб ке-лавермади. Момоларим эса тинч қўйишмайди. Турли муола-жаларни бажаришни буюришади, акангга айт, чилдирмани тезроқ келтирсин дейишади. Охири акамнинг олдида йиғла-дим. Каттақўрғонга ўзим бораман дедим. Хуллас, акам эрта-сига янги чилдирма ва ойна олиб келди. Буюмларни тўрга – уйнинг бурчагига қўйдилар. Мен пойгакда ўтирибман, лекин кўзим чилдирмада, бутун вужудим билан унга интиляпман. Чидаёлмадим, ўрнимдан туриб қадам босишимни биламан, чилдирма учиб келиб қўлимга тушди. Қўрқиб кетдим. Юра-гим тушиб қолди (силжиди демоқчи, табобатда бу бор гап). Тағин табиб чақирдилар. У учта йўлдан учта тош ва отнинг кишанини топиб, оловда қиздиришни буюрди. Кишанни қи-дирмаган жойимиз қолмади – йўқ. Шунда яна ўша нур пайдо бўлди ва парилар кўринишди. Даҳлиздаги ўрага қара, кишан ўша ерда дедилар. Даҳлизимизда сабзи кўмилган ўра бор эди. Сабзи тугагач, ўрага ҳамма нарса ташланаверган. Хўжайи-нимга момоларим кишанни ўрада дейишяпти дедим. У ҳам мени ақлдан озганга йўйди. Қарангки, кишан ўша жойдан топилди. Уларни қиздириб тепамда сув қуйгач, бироз ўзимга келдим».

Сўнгра опам ўрнимдан туриб, кўрпаларининг қатида бир қоғоз олиб менга тутди. Бир парча қоғоз. Қанақадир ёзувлар

бор. Бизнинг ҳарфларга ўхшаш ҳарфлар ҳам учрайди. Арабчага ҳам ўхшамайди. Опамга қараб елка қисдим: тушунмадим.

«Парилар ўз номларини ёздиришган эди. Арабча ёзувни билмайман, аммо ўшанда ўнгдан чапга қараб ёзганлигим эсимда. Кейин уни Раҳматулла Махсумга олиб бордим, ўқиёлмади. Абдусалом муллага учрашдим, уям тушунмади. Лекин ўзим ўқийман: Санам пари, Бўғин пари...»

Ҳеч нарсага ақлим етмайди. Худди эртак тинглаётгандайман. Сўнгра опамдан Гавҳар амманинг сандиғидан топилган тошни сўрайман. Худди тухумга ўхшайди, тош эмас, шиша тухум. Фақат кичикроқ, худди какликнинг тухумидай. Шунда олимларимизнинг ер юмалоқ эмас, тухум шаклидадир деган гаплари ёдимга тушади. Унга синчиклаб қарай бошлайман. Учтўрт жойида қандайдир белгими-ей, ҳарфми-ей бор. Бояги хатни олиб солиштираман. Ундаги ҳарфларга ўхшаб кетади.

«Бир куни хўжайиним билан чой ичиб ўтиргандик. Бирдан пиқиллаб йиғлаб юбордим. Ўзимни ҳеч тўхтатолмайман. Хўжайиним ҳам кўрқиб қолди. Нима бўлди сенга, нега йиғлаяпсан, бирор жойинг оғрияптими дея у ҳалак. Мен эса баттар йиғлайман, осмонга ишора қилиб, момоларимнинг бобоси ўлди, Авлиё ота қазо қилди, қаранг дейман. У тўрт томонга аланглаб ҳеч нарсани кўрмайди. Мен эса кузатиб турибман: париларим зор қақшаб бобосини сўнгги йўлга кузатишяпти. Чидаб туролмайман, баттар йиғлайман. Поччанг эса ақлдан озибсан деб уйдан чиқиб кетди».

Мени хаёл домига тартади. Ўқиганларимни, эшитганларимни, кўрган-билганларимни ўйлайман. Тоз қишлоғидаги Очил момо, аймаклик синфдошим (бор-йўғи учинчи синфни битирди) Муҳаррам кушноч, самарқандлик Ҳасан табиб, илгирлар, бахшилар, турли гап-сўзлару тазйиқлар, биокуватли кишилар, ҳақиқий фолбинлару турфа найрангбозлар кўз олдидан ўтади. Дард жонингга бурув солиб турганидан кейин, шўро даврининг «юксак чўққига чиққан бепул медицинаси»нинг ожизу нотавонлигини билгандан сўнг, истайсанми, истаймайсанми, ана шуларнинг эшигини қоқиб борасан. Агар шифо

топсанг тўрт-беш биродарингга айтасан ана шу табибнинг қўли энгил экан деб. Айтмасанг, ўзлари сўраб олишади. Ишқилиб, найрангбозига учрамасанг бўлгани...

– Опа, сиз қанақа дардларни даволайсиз? Муолажангизнинг бошланиши қандай бўлган? – тўсатдан хаёлимга келган саволдан ўзимни тутиб туролмадим.

«Биласиз, Баҳром дўхтир. Шу атрофда ўзига яраша обрў-эътибори бор. Бундан ўн-ўн беш йил илгари аҳвол ёмон эди. Мен табиблик қилсам, укамга ёмон бўлмасин деб ёнига бордим. Момоларим қўйишмаяпти, бу ишни қилсам сизга ёмон гап-сўз бўлмайдами деб сўрадим. «Ҳечқиси йўқ, опа, жонингиз гаровда экан, қилаверинг, – деди у ярим ҳазил, ярим чин қилиб. – Топганингиздан бериб турсангиз бўлди». Шу-шу бошланиб кетди. Томоғи, юраги, буйраги оғриганларни даволайман. Аёлларнинг касалликларига қарайман. Атрофдаги туман ва вилоятлардан одамлар келиб туришади. Уларнинг келишини олдиндан сезаман. Ҳатто бошқа ёққа меҳмондорчиликка кетсам ҳам белги беради. Қайтиб келсам, уйга кимдир келиб кетган бўлади. Бир куни денг, Бўгин пари энди сен чиққан ва синганларни ҳам даволайсан деди. Сўнг даволаш усулларини кўрсатди, дуосини ўргатди. Қизингга айт деди у кейин, оқ товуғингнинг оёғини синдирдик, ҳовлида ётибди, олиб келсин. Қизимни чақириб воқеани тушунтирдим. Бекорларни айтибсиз деди у, ҳозиргина кўрдим ҳовлида юрибди. Олиб кел, бўлмаса, ўзим чиқаман дедим. У ноилож чиқиб кетди ва ҳайратланиб оёғи синган товукни олиб кирди. Шу-шу ҳозиргача чиққан ва синганларни ҳам даволаяпман. Момоларим фол очишга ҳам рухсат беришган.

– Сизни телба деб устингиздан кулганларида хафа бўлмаганмисиз?

– Иложим қанча. Хафа ҳам бўлганман, йиғлаганман ҳам. Бора-бора ҳаммаси тушунишди, кўникишди. Бир куни қайин укам: «Чеча, томоғим оғрияпти, қараб қўйинг», – деб 20 тийин тутяпти. Алам қилди. Мен сизнинг пулингизга



зормидим, қарамайман дедим. Раҳматли қайнонам куза-тиб турганди, нимадандир жаҳли чиқди. Қарамаса қарама-син, кел, томоғингни ўзим босиб қўяман деб муолажа қила кетди. Эртаси куни қайнонамнинг бош бармоғи ликиллаб қолди. Ҳеч тўхтамайди денг. Охири кечирим сўради. Париларингга қилган ишим ёқмади деди. Тавбасини момоларимга етказдим. Қабул қилишди».

– Париларингизнинг қаноти борми?

– Йўқ, айропланга ўхшаган юмалоқми-ей, чўзиқроқми-ей бир нарсада келишади.

– Опажон, бу чархи кажрафтор бетиним айланиб ётгани-ётган. Бугун офтоб шуъласи тегиб турган жойга эртага соя тушиши, зулмат чўкиши мумкин. Эрта-индин кимдир келиб: «Сен одамларни алдаяпсан, ҳеч қандай парилар ҳам, момоларинг ҳам йўқ, бор бўлса, бизга кўрсат уларни», – деса, қандай исбот қилган бўлардингиз?

– Билмасам, укам. Одамларни алдаб иймонимни ютибманми.

\* \* \*

Энди гапни яна Дурустбойдан эшитинг.

Дурустбой бора-бора буларнинг барчасини унутди. Аммо бир куни институтда ўқийдиган ўғли Абдуҳамид келиб қолди. Ота, мазам йўқ деди. Нега? Пахтада юриб босинқирадим, шекилли. Нима бўлди? Ухлаб ётганимда баҳайбат бир аёл келиб устимдан босди, сал бўлмаса, нафасим қайтиб кетай деди. Сирдарёда машинамни авария қилганимда ҳам шу аёл йўлимни тўсганди.

Дурустбойнинг кўз ўнгига тагин ўша кўкраги сатилдай-сатилдай аёл келади. Ичидагини сиртига чиқармайди.

– Ётган жойинг нотозароқ бўлгандир-да, ҳечқиси йўқ, адрасмон (исириқ) тутатиб юборсанг, ўтади-кетади.

Лекин кечалари унинг уйқуси қочиб кетади. Ётган жойида ўйлайди. Менинг гуноҳларимми бу? Мен нима гуноҳ қилдимки, синглим қийналса, жигаргўшам азобланса! Эй хотин, эй момолар, уларга тегинманглар, яхшиси, мени олиб кетинглар.

Аммо ҳеч қандай акс садо бўлмайди.

Буларнинг бари ҳолва экан. Икки йил бурун даҳшатли воқеа содир бўлди. Тўққизинчида ўқийдиган қизи ўзини томдан ташлади. Бирор жойи лат ейиш тугул, қизармаган ҳам. Онаси қизидан сўраган экан:

– Кўпдан буён бир хотин мени ўз ҳузурига чақираверади-чақираверади. Шунинг олдига кетаётгандим. Пастдан мени йўқлаган овозингизни эшитиб қолдим. Қолганини билмайман, – деб жавоб берибди.

Бир ҳафта ўтгач қизнинг ўлигини чайладан топиб олишди. У ўзини осиб қўйган экан. Ковушининг ичида бир энлик хат қолдирган: «Кечиринг, ота, мени қўйишмади, мен ўша хотиннинг олдига кетдим...»

Дод деган ким бўлди, фарёд деган ким бўлди. Одамларни ғам тутди, қишлоқни мотам тутди. Маййитни қўйиб келган кечаси Дурустбой тоққа чиқиб кетди. Узоқ юрди. Бир тепаликка чиқиб, самога юзланди-да, қўлларини чўзиб бақирди:

– Ҳой энағар хотин! Эшитяпсанми, туш пастга, олдимга кел. Нима ниятинг бор? Тинч қўясанми, йўқми? Сенга нима керак, ўзи? Сени эмишим керакмиди... туш пастга, эмчаларинг билан қўшиб ютиб юбораман. Нега индамайсан? Эҳтимол, сенга мана бу керакдир, – у қўллари билан хотини ушлаб кўрсатди. – Ма, ма, кесиб ол, е, тўй!

Бақиравериб унинг қўнгли бўшади, йиғлаб юборди.

Осмон узоқ, ер қаттиқ эди.

\* \* \*

Азизлар, буни бадийий ҳикоя деб ўйламанг, бу бўлган воқеа. Дурустбой менинг туғишган акам, ҳозир ҳам ҳаёт. Саккизта фарзанди, ўнлаб неваралари бор. Беш вақт намозини қанда қилмайди. Бу воқеалар ҳақида сўзласангиз, ҳеч нарса айтмайди, Яратганнинг иши-да деб қўя қолади. Бу воқеаларни шарҳлашга менинг ақлим ҳам ожизлик қилади. Шу туфайли ниманики эшитган бўлсам, ҳаммасини қоғозга тўқдим.

Ҳар қалай, Дурустбойга дуруст бўлмади...

## АЙМАТ ҚИШЛОҒИДАН ТАРАЛГАН САДО...

Алишер АЙМАТЛИ (Эсиргап Болиев) кўп йиллар журналистика соҳасида меҳнат қилди. Туман, вилоят, республика газеталарида фаолият олиб борди. Бу майдонда доимо ўзининг ўтли-шудлилиги билан ажралиб турди. Ҳар бир катта-кичик мақоласида, албатта, элга айтар зарур гапи бўлар эди. Камина бир ҳамкасб сифатида унинг публицистик ижодига тан бериб, ёзганларини доимо дилим яйраб ўқиб, завқланиб келганман. Ишончим комил – журналистика соҳаси Алишердай эҳтиросли, табиати тийрак, дадил, тўғрисўз ижодкорлар кучи ва шижоати билан ривожланади, юксалади, элда нуфузи ортади...

Бугунга келиб Алишер ўз шахсий ижодий имкониятларининг янги қирраларини намоён этяпти. 2010 йили унинг кўпгина шеърий тўртликлари ва қатра-қатра ҳикматли айтимларни ўз ичига олган «Юрак мезонлари» тўплами нашр этилди. Орадан икки йил ўтиб худди шундай бадий ижод намуналаридан таркиб топган «Арслон уяси» номли иккинчи китоби ёруғ олам юзини кўрди.

Одатда, бир-икки дастлабки китоби билан адабиёт майдонида кўринган қалам соҳибини «ёш ижодкор» деб аташ расмга кирган. Аммо ушбу атама Алишер АЙМАТЛИга тўғри келмайди. Унинг юқоридаги китобларидан ўрин олган тўртликлари ва ҳикматли насрий қатралари етук ҳаётгий тажрибали, оқил, доно инсоннинг дил сўзларидир. Ҳам шаклан, ҳам мазмунан бу митти ҳажмли асарлар руҳий-маънавий жиҳатдан анча балоғатга эришган бир ижодкорнинг адабиёт майдонига кириб келганлигидан далолат беради.

Алишер АЙМАТЛИ машҳур халқ бахшилари ва оқинлари яшаб ижод этган муҳитда дунёга келди. Унинг ўз ибораси билан айтганда, бобоси «Саримсоқ бахши Эргаш Жуманбулбул ўғлининг узангидоши» эди. Болалиги мана шу улус

бахшиларнинг дўмбиралари сирли ва маъноли садолар таратган муҳитда шаклланди. Халқ дostonлари ва термалари уни маҳлиё этди. Томирида халқ шоирларининг қони оқаётган Алишер АЙМАТЛИ ўша болалик кунларидан бошлаб оғзаки ва ёзма бадий ижодга меҳр-муҳаббатли бўлиб ўсди. Ҳар бирида бир дунё ҳаётий ва ижодий маънолар мужассамланган бахшиёна термалар, айниқса, мафтункор эди. Алишер АЙМАТЛИнинг китобларидан ўрин олган тўртликларда ана шу улуғ ижодий мактаб таъсири яққол сезилиб туради. Буни эътироф этиб шундай бир тўртликни битган:

*Кўксимдан бўғзимга бир сўз ўрмалар,  
Унга суркамадим ўсма, сурмалар.  
Эл оғзидан териб олганларим бу –  
Шу боис атадим уни ТЕРМАЛАР...*

Алишер АЙМАТЛИнинг ижодий уйғонишига туртки берган иккинчи ибратли мактаб ҳозирги ўзбек шеърятдаги устозлар ижодидир. Алишер, айниқса, Абдулла Орипов шеърятининг чин мухлиси. Ҳатто шу улкан шоир таъсирида ўз тўртликларини ёза бошлади. Устоз ва шогирдни илиқ-самимий ижодий ҳамкорлик боғлаб туради. Абдулла Орипов Алишердан (Эсиргапдан) эшитган бир неча ҳикматли айтимларни шу қадар нодир тўртликларга айлантирдики, Алишер уларни ҳайрат билан кутиб олди. Кейин у ўйлаб кўрди: бундай иборалар, ҳикматлар унинг хотирасида, қалбида булоқдай жўш уриб турибди. Ўзи ҳам машқ қилиб кўрса бўлмайдими? Хуллас, ишга киришди. Анча-мунча тўртликлар ёзди. «Термалар» деб аталган бу митти асарларда халқчил йўналишдаги истеъдод порлаб кўрина бошлади.

Бугун Алишер АЙМАТЛИ эллиқдан ошди. Ҳаёт нашъу намоларини ва синовларини бошдан кечирган оқил, доно инсон у. Дунё кезди, неча эллар ва халқлар ҳаёти билан

танишди. Анъанавий терма йўлларида замонанинг бой ва мураккаб нафасини ифодаловчи кўплаб тўртликлар битди. Балладалар, ҳикматли бадиалар, ҳикоялар яратди. Уларни «Кўнги́л ҳикматлари» деб аталган янги китобида жамлади. Қўлингиздаги ана шу янги китоб Алишер АЙМАТЛИнинг саноқ ҳисобида шунчаки учинчи китоби эмас. Ушбу тўплам билан танишгач ижодкорнинг маънавий ва ижодий жиҳатдан янги довонга кўтарилганлигига гувоҳ бўламиз.

Алишер Самарқанд вилоятининг Қўшработ туманидаги Аймак қишлоғида туғилган. Болалиги ва ўспиринлиги шу қишлоқда кечган. Адабий ижодни ният қилгач шу она остона ҳурмати ўзига АЙМАТЛИ тахаллусини танлади. Бу қишлоқ унга фақат тахаллус бермади, балки ижодий хаёлларига парвоз, асарларига мавзу ва маъно ҳам туҳфа этди. Аймакликлар тақдири, гўзал урф-одатлари, фикр-ўйлари, дунёқараши, мақсаду интилишлари, орзу-армонлари унинг насрий ва шеърий яратмалари дунёсига айланди. Аймак қишлоғининг тарихи, аجدодлардан мерос қолган донишмандликлар, унинг бугуни ва келажаги билан боғлиқ ўйлар Алишер АЙМАТЛИнинг ёзганлари орқали бутун юртимизда садо бермоқда. Шу қишлоқ ҳаётидан олинган мавзу ва масалалар асосида яратилган кўпгина шеърий новеллалар, халқона ҳикоялар «Кўнги́л ҳикматлари» китобининг салмоғини белгилаб турибди. Ушбу китобда Алишер АЙМАТЛИ фақат тўртликлар (термалар) ва қатра насрий айтимлар ижодкоригина эмас, балки ҳозирги адабиётимизда янгича маъно ва оҳанглар билан ўзига хос жаранглаб садо берадиган балладалар, бетакрор халқона руҳли ҳикоялар муаллифи сифатида ҳам ўзлигини намоён эта олган.

Азиз китобхон! Камина қанчалик таърифу тавсиф этмасин, «Кўнги́л ҳикматлари» китобининг ўзи сизга ато этадиган лаззат ва шавқ-завқнинг ўрнини боса олмайди. Халқона ҳикматлар, теран ва ҳаётий кузатишлар, муаллиф-

нинг доно, синчков нигоҳи илғаган ва кашф этган маънолару манзаралар билан безанган ушбу тўплам ҳозирги адабиётнинг кенг эътибор ва арзигулик ҳодисаларидан бири эканлигига, яхшиси, китобни ўқиб ўзингиз шахсан ишонишингизни истар эдик.

**Михли САФАРОВ,**

*адабиётшунос,*

*Ўзбекистон Республикасида хизмат*

*қўрсатган журналист*

## МУНДАРИЖА

Шоирнинг ҳақиқати .....	3	Сен донишсан.....	19
ТЕРМАЛАР		Дилозор.....	20
Изҳор .....	6	Оғир юк .....	20
Орзу .....	6	Тўти .....	20
Калит.....	6	Беда .....	21
Юк.....	7	Челак .....	21
Тоймасин .....	7	Муҳожир .....	21
Хуррият .....	7	Учирма .....	22
Билгин .....	8	Тўр.....	22
Чигит .....	8	Нафс .....	22
Қанийди.....	8	От .....	23
Вали.....	9	Билмаски .....	23
Тароқ.....	9	Таскин.....	23
Кўмир .....	9	Қадам .....	24
Кўрмайди .....	10	Йўл .....	24
Йиқар.....	10	Тушовдаги от .....	24
Тавба .....	10	Мусофир қўшиғи .....	25
Маош.....	11	Қишлоқ.....	25
Сақлар.....	11	Кенгаш.....	25
Яхши ва ёмон .....	11	Тузалмас .....	26
Қисмат .....	12	Манглай .....	26
Раҳм.....	12	Кетар.....	26
Ваъда.....	12	Ҳижрат.....	27
Махси.....	13	Давлат.....	27
Қуллуқ.....	13	Иш .....	27
Афсус.....	13	Танглик.....	28
Қулар .....	14	Омонлик .....	28
Ваҳм .....	14	Амалдор .....	28
Кетди .....	14	Унутманг .....	29
Қасд.....	15	Куйгай.....	29
Товуш.....	15	Сабр .....	29
Ўшар.....	15	Ўйин .....	30
Ким эшак?.....	16	Шайтон .....	30
Қайнона .....	16	Танишгай.....	30
Мақтар.....	16	Қаттиқ .....	31
Қайчи.....	17	Кўтаролмас .....	31
Косов.....	17	Хорижда .....	31
Омад.....	17	Ўтар дунё.....	32
Соя.....	18	Қарадим.....	32
Чўпон.....	18	Яхши экан .....	32
Синдирар.....	18	Дур.....	33
Шўр.....	19	Чақади .....	33
Қисмат .....	19	Унар.....	33
		Пичоқ.....	34

Устун.....	34	Синоат.....	49
Буюрмади.....	34	Сабр.....	49
Жазо.....	35	Қизлар ва конфет.....	50
Ажрата бил.....	35	Бобо ва невара.....	52
Риё.....	35	Бедаво дард.....	53
Билки.....	36	Иймон ва ихлос.....	56
«Дўстлар».....	36	Юз доллар.....	61
Эгади.....	36	Дониш ўгити.....	64
Ёронлар.....	37	Лўли қиз хангомаси.....	67
Бечора.....	37	Ғийбат бандалари.....	72
Дунё.....	37	Чоҳ.....	75
Ширин.....	38	Қизим ҳикояси.....	78
Йўлга тушдим.....	38	Она сути.....	84
Туғилажак набирамга.....	38	Башар ўгити.....	88
Оддий маслаҳат.....	39	Ким яхши?.....	92
Сотмас.....	39	Гўзаллар.....	94
Кўрасан.....	39	Фақирнинг бойлиги.....	96
Ғафлат.....	40	Самурай.....	98
Ўйла.....	40	Талаба ва фаришта.....	103
Во ажаб.....	40	Гўрков.....	107
Тиш.....	41	Мачит хангомаси.....	111
Қарз.....	41	Ҳикмат билан иш тутинг.....	114
Бўм-бўш.....	41	Ҳазрати Умар.....	118
Эшик.....	42	Сартарош.....	120
Полвон.....	42	Темирчи.....	124
Чумчуқ.....	42	Эр ва хотин қиссаси.....	128
Омонат.....	43	Даҳрийнинг совғаси.....	136
Мўрт.....	43		
Мақтанчоқ.....	43		
Иғво.....	44	<b>МУВОЗАНАТ</b>	
Демадим.....	44	Худоба шукр!.....	140
Алда деди.....	44	Самимийликнинг	
Менг.....	45	носамимий изҳори.....	141
Ҳеч қачон.....	45	Ширгуруч.....	142
Ўлчама.....	45	Дўстни.. Сотиш мумкин.....	143
Ит.....	46	«Унинг аёли ишламайди».....	147
Надомат.....	46	«Свой».....	150
Чўп.....	46	Олапар.....	153
Арз.....	47	Хурмангни синдир, сигирим.....	155
Қўрқ.....	47	Авлиёнинг ўгити.....	157
Ирода.....	47	«Ирғақўрди».....	158
Шоир.....	48	Дурустбойга дуруст бўлмади.....	160
Асалари.....	48	Аймат қишлоғидан	
Эр-хотин.....	48	таралган садод... ..	171
Лочин.....	49		



**Alisher AYMATLI**

# **KO'NGIL HIKMATLARI**

## SHOIRNING HAQIQATI

Aslida, hayot uzun she'rga o'xshaydi. Shuningdek, hamma odam ham shoir. Faqat kimdir o'z hayotini, umrini, yaxshi-yomon kunlarini so'zga ishonadi, yana kimdir barcha dard-u shodligini ko'nglida ko'tarib yuradi...

Hali-hanuz esimda... 80-yillar o'rtalarida Navoiy viloyatining «Do'stlik bayrog'i» gazetasiga muxbir bo'lib ishga kirdim. Endi menga adabiyot, so'z, she'r o'zining naqshinkor darvozasini ochgandek edi. O'shanda bo'lim mudiri Alisher AYMATLI (Esirgap Boliev)ni yaqindan tanishga musharraf bo'lganman. Alisher aka juda kam gapirar, ikki-uch og'iz so'zi bilan qilinajak ishimizning bor mohiyatini ochib berardi. Adabiyotni, xalq og'zaki ijodini shu qadar chuqur bilardiki, ancha-muncha olimni changida qoldirib ketardi. Shuncha bilim, shuncha shavq, tuyg'u bilan nega she'r yozmas ekan deb o'ylardim goho. «Siz she'r yozmay-sizmi?» – deb ham so'ragan paytlarim bo'lgan. Shunda u o'ziga yarashgan nurli jilmayish bilan: «Shoirlarning noniga sherik bo'lib nima qilaman?» – degandi. Albatta, bu uning beg'ubor hazili edi. Alisher akaning tiynatida hozirjavoblik va donishmandlik mudom manaman deb turardi. O'shanda ichki dunyosi ezgulikka to'la bu insondan qaysidir ma'noda hayot falsafasini o'rgandim. Ha, Alisher aka adabiyot olamiga chuqurroq, ziyrakroq nigoh solishimga, insonlar ko'nglini nozikroq anglashimga ustozlik qildi desam haq gapni aytgan bo'laman...

Shoirning «Omad» nomli to'rtligida katta bir she'rning yuki bor desak xato bo'lmaydi:

*Garchand tik bo'lsa-da mening qomatim,  
Ich-ichidan singan, asli, qanotim.  
Bilmaysiz, tuyaning go'shtini yegan  
Hayotdan tug'ilmas hanuz omadim...*

Alisher AYMATLIning har bir to'rtligida tiriklik falsafasi mujassam. U hech kimni takrorlamaydi, nozik tashbehlar o'rniga o'zining do'lvor haqiqatini aytadi. Buni adabiyotda o'ziga xoslik deydlar.

Shoirning she'rlari ham o'zgacha olam. Ulardan baxshiyona nafas ufurib turadi. Xalqona qochirim, o'tkir donishmandlik ila bitilgan bu she'rlar qaysidir ma'noda ibrat namunasi vazifasini o'taydi.

Eng muhimi, shoirning aytadigan jununvor so'zi, hayot of-tobida pishgan o'z haqiqati bor. Bu haqiqat ko'nglingizga she'r nafasida kirib kelar ekan, yuzingizga beixtiyor shirin tabassum yuguradi, dilingiz daraxtini esa haq so'zning epkini titratgandek bo'ladi.

Alisher akaning ko'ngli katta xazina berkitilgan kongra o'xshaydi. Yaxshi bilamizki, ko'ngil xazinasini tuganmasdur. Shu ma'noda undan yanada mavjliroq, yanada avji baland she'rlar kutib qolamiz.

**Halima AHMEDOVA,**  
*shoira*



# Termalar

*Ko'ksimdan bo'g'zimga bir so'z o'rmalar,  
Unga surkamadim o'sma, surmalar.  
El og'zidan terib olganlarim bu –  
Shu bois atadim uni TERMALAR...*



**IZHOR**

Bilganimni soʻzladim – oshigʻini aytmadim,  
Tiyildim nohaq soʻzdan, toshigʻini aytmadim.  
Xatoyimmi, yutugʻim: aravaga chiqdim-u,  
Ammo aravakashning qoʻshigʻini aytmadim.

**ORZU**

– Bugun xushmi yo oʻtgan kun,  
Quvonch kelib, gʻam ketgan kun?  
– Hammasidan avlo erur  
Haqqa ovozim yetgan kun.

**KALIT**

Kimki ulus aro shirin soʻz sochar,  
Ezguliklar kelgay, falokat qochar.  
Xushfeʻllikni umring kaliti bilgil,  
Kichik kalit katta eshikni ochar.

## **YUK**

Bir paytlar zor eding mosh-u so'kka ham,  
Bugun qo'l uzatsang, yetar ko'kka ham.  
Omadingni bersin, ammo unutma:  
Tuya tiz cho'kkaydir kichik yukka ham.

## **TOYMASIN**

Taqdirdan ro'z toymasin,  
Ko'zlardan ko'z toymasin.  
Oqibat – dunyoga fayz,  
Ko'ngildan so'z toymasin.

## **HURRIYAT**

Inshoolloh, qish o'tib, tutga yetdik,  
Rizqqa yetdik, baraka-qutga yetdik.  
Onasi daladan qaytgan go'dakdek  
Tamshanib, go'yo yana sutga yetdik.

**BILGIN**

Bilding qayda kulish-kulmaslikni ham,  
Kim bilan do'st bo'lish-bo'lmaslikni ham.  
Nima qilaringni bilasan endi,  
O'rgan, bo'tam, nima qilmaslikni ham.

**CHIGIT**

Kim aytar tuproqni o'g'it yenggusi?  
O'g'itmas, aslida, chigit yenggusi.  
Men senga chigitdek sabr tilayman,  
Sherni sherbardoshli yigit yenggusi!

**QANIYDI**

Barcha do'stim sirdosh bo'lsa qaniydi,  
Jondan aziz, qurdosh bo'lsa qaniydi.  
Tirigimda izzatim osmon qadar,  
Tobutim ham talosh bo'lsa qaniydi...



### **VALI**

Ayblimiz – xoh kampir, choli bo'ladi,  
Yolg'iz Alloh aybdan xoli bo'ladi.  
O'zganimas, avval o'zingni angla,  
O'z aybini bilgan vali bo'ladi.

### **TAROQ**

Ne bir kunlarimga yaradi taroq,  
Sanamlar sochini taradi taroq.  
O'zgalar yumushi deya meningdek,  
Tishlari to'kilib, qaridi taroq.

### **KO'MIR**

Kamsitmagil ko'mirni,  
Eritadi temirni.  
Sen ham isitoldingmi,  
Hech qursa, bir umrni?!

**KO'RMAYDI**

Mening ko'zyoshimni hech kim ko'rmaydi,  
Payqamas, ko'ksimni ezsa qayg'ular.  
Dilim og'riganda yuz ham burmaydi,  
Xatoyimni darrov ko'rishar ular.

**YIQAR**

Yolg'izlik bir kuni insonni yiqar,  
Yakdillik shubha-yugumonni yiqar.  
Gap ko'p el bo'lishda ko'ngildan, do'stlar!  
Birlashsa chumoli chayonni yiqar.

**TAVBA**

Aqlni tuyg'uga bosh etaman men,  
Ko'zni ko'r, yurakni tosh etaman men.  
Ellik yil yashadim shu taxlit – TIYRAK,  
Endi o'z-o'zimni fosh etaman men.

### **MAOSH**

Do'st boshingga qaraydi,  
Yot oshingga qaraydi.  
Yolg'iz sho'rlik xotining  
Maoshingga qaraydi.

### **SAQLAR**

Inson sha'nin so'zi saqlar  
Hamda o'g'il-qizi saqlar.  
Har ikkisi misli ildiz,  
Daraxtni ildizi saqlar.

### **YAXSHI VA YOMON**

Yomon iymonidan kechgay,  
Yaxshi o'z nonidan kechgay.  
Mol do'stingga moli aziz,  
Jon do'sting jonidan kechgay.

**QISMAT**

To'rt yoning zirhlangan, go'yoki qamal –  
O'zingcha o'limdan bo'lolding yiroq.  
Paymonang to'lsa gar, bilib qo'y, ajal  
Tutun bo'lib kirar tirqishdan biroq.

**RAHM**

Hasadgo'y ketmoqda – tund, qo'rsbashara,  
Yana kimga go'r qazmoqqa shoshar-a?  
Unga rahmim kelar, axir, bir umr  
Bezbashara bo'lib qanday yashar-a?

**VA'DA**

Davralarni to'ldirib gap berasan,  
Gap bilan shaytonga ham chap berasan.  
Jannat va'da etding menga, bilmadim,  
Uni qachon va qaydan ob berasan?!

### **MAXSI**

Maxsining poshnasi yo'q,  
Nokasning oshnasi yo'q.  
Dunyoga hirs qo'yganning,  
Bilingki, dunyosi yo'q.

### **QULLUQ**

Yashayapman ichga yutib alamni,  
Qo'y, bolam, tirnama bitgan yaramni.  
Allohga ming qulluq, sho'r manglayimga  
Loyiq etdi shifobaxsh shul qalamni.

### **AFSUS**

Nodon horimadim der,  
Ko'sa qarimadim der.  
Nafsi o'pqon boy: «Afsus,  
Qishda qor yemadim», – der.

**KULAR**

Bu qavm goh borga, goh yo'qqa kular,  
To'kis yo manglayi tirtiqqa kular.  
O'zini bilmasdan o'tar dunyodan,  
Orti ochiq shimi yirtiqqa kular.

**VAHM**

Gohida qalbinni bosadi vahm,  
Unutgum, qayda ul ona dargohim?  
Qanday odammanki, boshga ish tushsa,  
Esimga tushasan O'zing, Allohim!

**KETDI**

Sen kelding! Dard ketdi, g'am ketdi,  
Ko'zdan oqqan jola – nam ketdi.  
Abri nayson tegdi giyohga, so'g'in  
Oftob chiqib, go'yo sham ketdi.

### **QASD**

Yo Rab, do'stim yovga og'ar,  
Birgalashib qonim sog'ar.  
Qordan qochdim, endi boshga  
Do'l aralash yomg'ir yog'ar.

### **TOVUSH**

«To'qson molning terisidan kovushi»,  
Bir qizisa, juda qiyin sovushi.  
Yo Rab, qarang, bugun shunday polvonning  
Laychaday akillab chiqar tovushi.

### **O'XSHAR**

Ul sanamning fe'li yomonga o'xshar,  
Ko'ksi tortilgan qo'sh kamonga o'xshar.  
Endi omonlik yo'q faqir jonimga,  
Hayhot, nishon bizning tomonga o'xshar.

**KIM ESHAK?**

Ko'p yuk ortdi, eshak holin tangladi,  
Hatto urib oyog'ini langladi.  
Yuk ko'tarish o'z bo'yniga tushganda  
Eshakdan-da battar nolib hangradi.

**QAYNONA**

Kelin dili shavqdan gupirgusidir,  
Qaynona-chi? Unga tupurgusidir.  
U o'ylar, kelini – o'g'liga soya,  
Kelin qaynonaning supurgisidir.

**MAQTAR**

Kosib maqtar tikkanini,  
Dehqon maqtar ekkani.  
Ishyoqmasning dardi boshqa –  
Maqtar qo'lga tekkanini.



### **QAYCHI**

Umrin qaychi-qaychi bo'lar,  
Bo'lganicha, qo'y-chi, bo'lar.  
Bir kun shoir bo'lsam, ne tong,  
Derlar, kuygan kuychi bo'lar.

### **KOSOV**

Maydafa'llilarni jinim suymaydi,  
Qalbi ham maydadir, darding tuymaydi.  
Dasti daroz do'sting ko'p bo'lsin ekan –  
Kosov uzun bo'lsa, qo'ling kuymaydi.

### **OMAD**

Garchand tik bo'lsa-da mening qomatim,  
Ich-ichidan singan, asli, qanotim.  
Bilmaysiz, tuyaning go'shtini yegan  
Hayotdan tug'ilmas hanuz omadim...

**SOYA**

Bir kun yemirilar ulkan qoyang ham,  
O'tkinchi martaba pillapoyang ham.  
Boshing uzra suzsa qora bulutlar,  
Hatto tark etgusi seni soyang ham.

**CHO'PON**

Kirdim sanamning o'yiga,  
Soldi sanam o'z ko'yiga.  
Kech angladim – unga yormas,  
Cho'pon kerakdir qo'yiga.

**SINDIRAR**

Hovliqma pahlavon bilak sindirar,  
Uquvsiz kelinchak elak sindirar.  
Og'zi polvonlikdan Xudo asrasin,  
Kuchi yo'q maqtanchoq kurak sindirar.

### **SHO'R**

Bilaman, ko'zlaring – nurning uyasi,  
Bilaman, dilginang – sirning uyasi.  
Nur va sirga tomon oshiqaverib  
Peshonam bo'ldi-ku sho'rning uyasi.

### **QISMAT**

Qismat yuki ezdi, unday eladi,  
Birov rahmi kelar, birov kuladi.  
Sen qaydan bilasan, do'stim, holimni?  
Tutunning achchig'in mo'ri biladi.

### **SEN DONISHSAN...**

Sen donishsan mukammal, girding to'la, bo'sh bo'lmas,  
Ammo bari birdayin, dardlaringga esh bo'lmas.  
Sen barchasin boshingda ko'tarasan, bilasan –  
Kuchuk tomga chiqsa-da, egasidan pesh bo'lmas.

**DILUZOR**

Bildirmay chaqasan, izing ko'rinmas,  
Hamma qochar – o'g'il-qizing ko'rinmas.  
Kimsaga soyang ham tushmasin, bilki,  
Ko'zguga dam ursang, yuzing ko'rinmas.

**OG'IR YUK**

Mehrsiz qalb yag'ir bo'lar,  
Yag'ir savob sag'ir bo'lar.  
Kun qolmasin qarzdorlikka,  
Qarzning yuki og'ir bo'lar.

**TO'TI**

Ilonning buti bo'lmas,  
Tovuqning suti bo'lmas.  
Chumchuqqa gap o'rgatma,  
Baribir, to'ti bo'lmas.

### **BEDA**

Yarashadi qiz quvsa boshi ochiq bo'ydoqlar,  
Afsus, keksa do'stimni shunday bir dard qiynoqlar.  
Tashla bu qilig'ingni desam, uyalmay derkim:  
Ko'k bedani ko'rganda qari ot ham o'ynoqlar.

### **CHELAK**

Hayotim suv to'la chelakka o'xshar,  
Dildagi top-toza tilakka o'xshar.  
Shuni-da chayqatar, loyqatar, demak,  
Ag'darish kimgadir kerakka o'xshar.

### **MUHOJIR**

Saranjomsan. To'zib o'tirolmaysan,  
Bir dam oyoq cho'zib o'tirolmaysan.  
Sendan umidini uzgan dunyodan  
Umidingni uzib... o'tirolmaysan.

**UCHIRMA**

Mol-dunyo deb obro'yingni tushirma,  
Qo'lingdan kelmagan ishga kuch urma.  
Mahliyo bo'b osmondagi o'rdakka,  
Qo'lingdagi to'rg'ayingni uchirma.

**TO'R**

Qoralayman nenidir. She'r yozaman, shekilli,  
Odamlar-chi, o'qimas, g'o'r yozaman, shekilli.  
Abdulla Orif so'zning laqqasin ilib ketdi,  
Men ham qarmog'im tashlab, to'r yozaman, shekilli.

**NAFS**

Nafs yomon, men aytay, yozib ol oqqa,  
Misol keltiraman bormay uzoqqa –  
Nafs yo'lida qoplon jarga yiqildi,  
Laylak ham bir don deb tushdi tuzoqqa.

**OT**

Bu dunyoda har bir zot mehnatidan rizq topar,  
Kimdir bug'doy o'radi, kimdir undan non yopar.  
Ammo oniy omaddan mag'rurlanma, derlarkim:  
Ot ko'rmagan ot ko'rsa otxonada ot chopar.

**BILMASKI...**

Bir sanam kelmoqda oppoq pariday,  
Go'yo dard-u sitam undan nariday.  
U bilmaski, doim bol tutmas hayot,  
Gohida talarlar yoppa ariday.

**TASKIN**

Tuyasi bor ovulda tut bo'lmaydi, ukajon,  
Bolali uyda idish but bo'lmaydi, ukajon.  
Xotini uquvsiz-u tejamsiz xonadonda  
Hech qachon baraka-yu qut bo'lmaydi, ukajon.

**QADAM**

Bosgan har qadaming hisobda bo'lsin,  
Mehriningni pesh etma, hijobda bo'lsin.  
Kamolingdan do'st shod, dushmaning kuyib –  
Umrining qolgani azobda bo'lsin.

**YO'L**

Yo'limiz chinakam mushfiq yo'lidir,  
Hidoyat yo'lidir, oshiq yo'lidir.  
Mag'ribga suqlanma, aslida, bizni  
Arshga eltar yo'l ham Mashriq yo'lidir.

**TUSHOVDAGI OT**

Umring o'tmoqdadir bedard, beqizg'in,  
Oyog'ingda tushov, bo'yingda tizgin.  
Yetar shuncha sitam, hurriyatga chiq,  
Jilovingni uzib, og'ilni buzgin!



### **MUSOFIR QO'SHIG'I**

Taqdir meni darbadar qildi,  
Ota yurtdan-da badar qildi.  
Bilmam, balki, erta qaytarman,  
Balki, Qiyomat qadar qildi.

### **QISHLOQ**

Aymat kichik, ammo bog'-rog'li qishloq,  
Qavmi ham bor-yo'g'i yuz chog'li qishloq.  
Bilaman, men daydi farzandi uchun  
Boshi xam, raftori yuz dog'li qishloq.

### **KENGASH**

Er yigitning sarasi eli bilan kengashar,  
Xotinlarning donosi eri bilan kengashar.  
Oqila qaynonalar puxta qilar ishini,  
Qizlaridan avvalroq kelin bilan kengashar.

**TUZALMAS**

Sayyod, sen otganing jayron tuzalmas,  
Mening ko'nglimdagi armon tuzalmas.  
Aybni sen zamondan izlama, nodon,  
Zamon tuzalar-u yomon tuzalmas.

**MANGLAY**

Zahar qo'shilmasin desang oshima,  
Ko'zlarim to'lmasin desang yoshima,  
Mard bo'l, yetti o'lchab bir kesgin, bolam,  
Maydonga tushdingmi, manglay qashima.

**KETAR**

Bog'ingga echki tushsa, quvsang ketar,  
Ko'ylagingdagi dog'ni yuvsang ketar.  
Jigarlarning orasi buzilmasin,  
Uning hasrati, dog'i o'lsang ketar.

## **HIJRAT**

Ishlayapsan, hatto dam oladursan,  
Kim aytar maoshni kam oladursan?  
Faqat jigarlaring va yurtni eslab  
Ba'zan ko'zlaringga nam oladursan.

## **DAVLAT**

Yorug' yuzim, pok dilim, savlatim – bolalarim,  
Xorunning ganji yetmas davlatim – bolalarim.  
Qariding, kuching ketdi deb meni kamsitmagil,  
Tog'ni talqon qilguvchi g'ayratim – bolalarim.

## **ISH**

– Bola ishi nima?  
– Chuvlamoq, bilsang.  
Hansirab, bir-birin quvlamoq, bilsang.  
– Katta ishi nedur?  
– Ayb qilib qo'yib,  
So'ng ustun pinhona suvamoq, bilsang.

**TANGLIK**

Boyning holi tang bo'lsa, gadoni axtaradi,  
Gado ham shu, bir laqma sadoni axtaradi.  
Qarang, Charx o'yiniga: g'irt qallob, xudosiz ham,  
Boshiga kulfat tushsa, Xudoni axtaradi.

**OMONLIK**

Men senga tilayman omonlik, do'stim,  
Bir yorki, qoshlari kamonlik, do'stim.  
Yaxshilik ilmini puxta o'rgansang,  
Qochar sendan nari yomonlik, do'stim!

**AMALDOR**

Amr qildi, jahlga mindi,  
Qahridan ko'p yo'g'onlar sindi.  
Ajab, qarib, o'z kampirining  
Buyrug'i-la yashaydi endi.

### **UNUTMANG**

Unutmang, xoh qiz-u yigit bo'ladi,  
Sizga bu so'zlarim o'git bo'ladi.  
Paxtani mashhuri zamon aylagan  
Tuproq ostidagi chigit bo'ladi.

### **KUYGAY**

Qo'li egrining bir kun qo'li kuygay,  
Sayoq yurgan kimsaning yo'li kuygay.  
O'trik bilan tiklangan imoratda  
Haqiqatni aytganning tili kuygay.

### **SABR**

Bardoshli el xirmon uyar,  
Sabrlini Alloh suyar.  
Ko'p betoqat bo'lma, bolam,  
Non pishguncha kulcha kuyar.

**O'YIN**

Amalparast el dardini nazariga ilmaydi,  
Ko'rib turar barchasini, go'yo ular bilmaydi.  
O'ngda o'yin, so'lda o'yin, o'yin old-u ortingda,  
Bu dunyoda faqatgina Alloh o'yin qilmaydi.

**SHAYTON**

U – shayton. Qarshingga nolib chiqadi,  
Har qaysi o'yinda g'olib chiqadi.  
Tegirmonga solsang, nainki butun,  
Hatto bir qop un ham olib chiqadi.

**TANISHGAY**

Hidlashib hayvon tanishgay,  
So'zlashib inson tanishgay.  
Egri yo'ldan yurma, bolam,  
Sen bilan shayton tanishgay.

### **QATTIQ**

– Tosh qattiqmi, bosh qattiq  
Yo ko'zdagi yosh qattiq?  
– Tosh ne bo'пти, birodar,  
Minnat to'la osh qattiq!

### **KO'TAROLMAS**

Burgut ko'targanni zog' ko'tarolmas,  
Nafaqat nimjoni, sog' ko'tarolmas.  
Ammo zog' nusxali kimsalar qo'ygan  
Yelkamdagi yukni tog' ko'tarolmas.

### **XORIJDA**

Bu yurtning qizlari o'g'lonlashgandir,  
Betining terisi yo'g'onlashgandir.  
Soxtadir xotinning noz-u firog'i,  
Erining erligi yolg'onlashgandir.

**O'TAR DUNYO**

Do'st ham qochar, agar ishing chap bo'lar,  
Yov do'stlashar, magarkim bir naf bo'lar.  
Bolam, eski chorig'ingni unutma,  
O'tar dunyo, qolgani bir gap bo'lar.

**QARADIM**

Yoshlikda onajonim sabog'iga qaradim,  
To'ymay qolsam akamning tovog'iga qaradim.  
Hayhot, bugun aqlim ham, qornim ham to'q, vo ajab,  
Qariganda xotinning qovog'iga qaradim.

**YAXSHI EKAN**

Visol inson quvonchi, naqshi ekan,  
Hijron ichra soqov ham baxshi ekan.  
O'zga elning chag'alay, bulbulidan  
O'z yurtningning qarg'asi yaxshi ekan.



### **DUR**

Yaxshini yo'qotgan ozar, cho'p bo'lar,  
Yomon o'lsa, moli taloto'p bo'lar.  
Yaxshini yomondan ajrata bilgin,  
Durning yasamasi juda ko'p bo'lar.

### **CHAQADI**

Shoirlga kun yo'q, yosh-qari chaqadi,  
Munaqqid, tarjimon – bari chaqadi  
Va hatto boshini devorga ursa,  
Uyasi buzilgan ari chaqadi.

### **UNAR**

Olgani unar berganning,  
Otgani tegar merganning.  
To'xtab qolma bir joyda –  
Omadi kelar yurganning.

**PICHOQ**

Oltin zirakni otvor – quloq og'ritsa,  
Zardo'zi maxsidan kech – oyoq og'ritsa.  
Ammo do'stning bahridan o'tib bo'lmaydi,  
Hatto bo'g'zingda turgan pichoq og'ritsa.

**USTUN**

Xayr qil paymonang to'ladigandek,  
Xuddi erta-indin o'ladigandek.  
Ammo imoratni shunday qurgilki,  
Bu dunyoga ustun bo'ladigandek.

**BUYURMADI**

Qolmoqchiydi adabiyotda,  
Tuya bo'lsin va yoki otda.  
Buyurmadi unga hech qaysi,  
Hangrab turar endi bir chetda.

### **JAZO**

Olmoqning miqdori bermog'icha bor,  
Lafzi halolida turmog'icha bor.  
Uncha katta emas jazoyi mutlaq,  
Bor-yo'g'i, Xudoning urmog'icha bor.

### **AJRATA BIL**

Iymonlining yuzida nur bo'ladi,  
Or-nomusni bilmagan sur bo'ladi.  
Ajrata bil, bolam, oltinni misdan,  
Dur balchiqqa tushsa ham dur bo'ladi.

### **RIYO**

Dushman qolib, do'stning ishi riyodir,  
Quvonchimni ko'rsa qovoq uyodir.  
Neki ko'rgilik bor, ichimga yutdim,  
Agar yozsam, qog'ozgina kuyodir.

**BILKI...**

Bu mantiqning garchi doim bahsi bo'lar,  
Fikring, balki, to'g'ri, balki, aksi bo'lar.  
Bilki, ablah o'zgarmaydi toj kiysa ham,  
Yaxshi juldur kiyimda ham yaxshi bo'lar.

**«DO'STLAR»**

Ortidan bir-birin ko'zini o'yar,  
Bisotida neki qora rang – bo'yar.  
Nogahon duch kelsa, achomlab, hatto  
To'n yopib, uyiga kuzatib qo'yar.

**EGADI**

Daraxt shoxin yerda ki mol egadi,  
Tepada maymuni dajjol egadi.  
Yigit boshin esa noqobil farzand  
Hamda xiyonatkor ayol egadi.

**YORONLAR**

Do'mbiramni qo'lga oldim, yoronlar,  
Chor atrofga nazar soldim, yoronlar.  
Ongda qoldirmoqchi edim dunyoni,  
Afsus, o'zim ongda qoldim, yoronlar.

**BECHORA**

Dard qurg'ur ham tez-tez yo'qlab turibdi,  
Yurak goh urib, goh to'xtab turibdi.  
Yovdan ranjib, do'stga yuz tutsam, yo Rab,  
Do'st ham miltig'ini o'qlab turibdi.

**DUNYO**

Birov shovqin solar, birov o'tar jim,  
Dunyoga ustunman deydi allakim.  
Doya tug'dirgan on yangi mehmonni,  
Go'rkov bir qabrga bosar yangi chim.

**SHIRIN**

Halollikda topgan noning shirindir,  
Yor bilan o'tkazgan oning shirindir.  
Do'st uchun diydoring shirindir sening,  
Dushmanga har tomchi qoning shirindir.

**YO'LGA TUSHDIM**

Tug'ildim-u shu zahot yo'lga tushdim, yoronlar,  
Goh to'g'ri, goho egri qo'lga tushdim, yoronlar.  
Bu dunyoda topganim juda-juda kam bo'ldi,  
Yo'qotishda barchadan mo'lga tushdim, yoronlar.

**TUG'ILAJAK NABIRAMGA**

Zurriyotim davom etar, bilsin olam,  
Yig'lab tug'il, yig'lashingdan kulsin olam.  
Shunday yasha, bu olamdan ketar chog'i  
Sen jilmaygin, sochlarini yulsin olam!

### **ODDIY MASLAHAT**

O'lsa odam bir faxrni tuyib o'lsin:  
O'z yurtini nevaradek suyib o'lsin!  
Dushmaningga do'q-davora solib yurma,  
Baxtli yasha! Baxting ko'rib kuyib o'lsin!

### **SOTMAS**

Zo'r kelganda odamlar neni sotmas,  
Kim aytar oshnam bir kun meni sotmas?!  
Bir vafodor do'st bordir bu dunyoda,  
Uning nomi sukutdir – seni sotmas!

### **KO'RASAN**

Dunyo keng, goh tog', goh soyni ko'rasan,  
Dam shod, dam ahvoli voyni ko'rasan.  
Olamni kezdin deb maqtanma, nodon,  
Hamma joyda bitta Oyni ko'rasan!

**G'AFLAT**

Uyqu – g'aflat, qoch u ofatdan,  
Tezroq qutul tavqi la'natdan.  
Qarilikdan o'lmaydi odam,  
O'lsa o'lar faqat g'aflatdan!

**O'YLA**

Bo'yingga qarab bo'yla,  
Haddingni bilib so'yla.  
O'ylaganing so'ylama,  
So'ylaganingni o'yla!

**VO AJAB**

Odamga o'xshaydi man ila sanday,  
Lek gapi osmonni ushlab turganday.  
Vo ajab, o'trikni chindayin aytar,  
Chini esa xuddi Xudo urganday!



### **TISH**

Qaridik. Ko'zlarning nuri qoldimi,  
O'ttiz ikki tishning biri qoldimi?  
Ayt, do'st, dilingdaging yashirma zinhor,  
Bu dunyoning menga siri qoldimi?

### **QARZ**

Hayot bizga berar dars:  
Pul o'lsin-a, o'lsin qarz.  
Bersang ham, bermasang ham,  
Do'stligingga ketar darz!

### **BO'M-BO'SH**

Cho'ntakka qo'limni solaman – bo'm-bo'sh,  
Cho'ntakdan qo'limni olaman – bo'm-bo'sh.  
Bir qarasam, qarib donish bo'lganman,  
Bir qarasam, hali bolaman bo'm-bo'sh.

**ESHIK**

Izlansang, albatta, imkon topilar,  
Intilsang, yo'lingga rizqing sochilar.  
Umidliga Alloh yor bo'lgay doim,  
Tortaversang, bir kun eshik ochilar.

**POLVON**

Mushagi tosh, yuzlari alvon,  
Kuchliman deb qichqirar polvon.  
Ammo hozir bilmas u sho'rlik,  
VAQT kuchlidir undan yuz chandon!

**CHUMCHUQ**

Chumchuq qumursqaga shafqat qilmaydi,  
Qurtni esa nazariga ilmaydi.  
Erta o'lsa, qurt-u qumursqalarga  
O'zi yem bo'lishin, afsus, bilmaydi.

### **OMONAT**

Sohiblikni istar otlig'-piyoda,  
Garchand u yupundir, garchand u to'qdir.  
Donishlar aytmishdir, faqat dunyoda  
Amal va tobutning egasi yo'qdir!

### **MO'RT**

Do'st dedi. Ishondim. Homuza tortdi.  
Yana takrorladiki, shubham ortdi  
Va yana, va yana aytaverdi ul,  
Demak, gapi yolg'on, do'stligi mo'rtdir!

### **MAQTANCHOQ**

Yaxshilarga qilmaymiz havas,  
Maqtanchoqmiz, xo'p maqtanamiz.  
O'zimizni yaxshi bilmasdan  
O'zgalardan ayb axtaramiz.

**IG'VO**

Ig'vogarning bolidan totma,  
Totib, keyin gunohga botma.  
Parvo qilma, sasiyversin xo'p,  
O'lik itga qarab tosh otma.

**DEMADIM**

Tuyadirsan, qush deganim yo'q,  
Narvoningdan tush deganim yo'q.  
Ko'p qahrli boqma menga, do'st,  
Mushugingni «pisht» deganim yo'q.

**ALDA DEDI**

Baqirmadim sirayam, past gapirdim,  
Hadis-u oyatlarga mos gapirdim.  
Alda dedi, kul dedi, unamadim,  
Bu yolg'onchi dunyoda rost gapirdim.

**MENG**

Yasama xol Xudo bergan meng bo'lmas,  
Baxil hech vaqt saxiy bilan teng bo'lmas.  
Ichi tor ham, ichi keng ham Allohdan,  
Tor ko'ngilni cho'zgan bilan keng bo'lmas.

**HECH QACHON**

Yomon nasihatni uqmas hech qachon,  
Yaxshi irodasin bukmas hech qachon.  
Qiziq, yaxshilikni tez unutamiz,  
Lek yomonlik esdan chiqmas hech qachon!

**O'LCHAMA**

Kim boylik, kim toj-u taxtdan baxtlidir,  
Kim birovlar chekkan ohdan baxtlidir.  
Baxtni davlat, amal bilan o'lchama,  
Sog'lom gado kasal shohdan baxtlidir.

**IT**

Mehmonga eshigin yopib oladi,  
Yonidan o'tganni qopib oladi.  
Unga to'g'ri yo'lni ko'rsat, Allohim,  
Egri yo'lni o'zi topib oladi.

**NADOMAT**

Garchand hunari yo'q, tal'ati yo'qdir,  
Pand-u o'gitga ham rag'bati yo'qdir.  
Fursat bo'lganida ilm olmadi,  
Endi ilm kerak, fursati yo'qdir.

**CHO'P**

Qonun unga aylanma cho'pdir,  
Bobom o'tmas cho'pdan nariga.  
So'zni bizdek isrof ham qilmas,  
«Yo'q» va «xo'p»dan o'tmas nariga.

**ARZ**

«Qozi, poraxo'rlik yedi millatni,  
Ota o'z bolasiga pora bermish...» –  
Arz qipti fuqaro. U: «Bu illatni  
Tugatsam, ayt, qancha berasan?» – dermish.

**QO'RQ**

Bir mantiq o'zgarmas, necha tong otar,  
Quyosh necha chiqib, necha bor botar.  
Dushmaningdan emas, do'stlaringdan qo'rq,  
Seni, eng avvalo, o'z do'sting sotar.

**IRODA**

Fisq-u fujur, illatdan biroz yiroq yur, bolam,  
Yaxshi bilan oshno bo'l, dildan suhbat qur, bolam.  
Irodangni metin tut, donishlar aytganidek,  
Yetti marta yiqilsang, sakkiz marta tur, bolam.

**SHOIR**

Soʻzlar boʻysunmaydi to tongga qadar,  
Zohiri kuladi, yigʻlar botini.  
Dunyoda hech narsa boʻlmagan kabi,  
Yonida xurракni urar xotini.

**ASALARI**

Eh, zahmatkash asalari,  
Sogʻ boʻl, boʻlma kasal, ari.  
Seni doim sarxush etsin  
Alisherning boʻsalari.

**ER-XOTIN**

Er-u xotin qoʻl va koʻz yangligʻ,  
Koʻz ogʻrisa, yuguradi qoʻl.  
Qoʻling sinsa yoki kessa tigʻ,  
Koʻz bechora yosh toʻkar moʻl-moʻl.



### **LOCHIN**

Bir sanamki Shom-u Chin-Mochinda yo'q,  
Chin-Mochin demagilki, ochunda yo'q.  
Oni ko'rsam ko'kka parvoz aylaram,  
Bu kabi parvoz biror lochinda yo'q.

### **SINOAT**

Sinoatli erur bu ko'hna dunyo,  
Ba'zan kuchi yetmas unga ilmning.  
Garchand rejamizda o'lim yo'q, ammo,  
Afsus, rejasida bormiz o'limning.

### **SABR**

Xor qilgan bir kun xordir,  
Ko'zi ko'r jaholatning.  
Sabrning xayri bordir,  
Ajri bor saxovatning.

**QIZLAR VA KONFET**

«Qishloq juda zo‘r-da, – der  
Bola suyanib tolga. –  
Ammo, ayting, bobojon,  
Tushunmayman bir holga.  
Qizlari nega ko‘ylak-  
Lozim kiyib olishar?  
Ko‘chada yurganda ham  
Boshin quyi solishar?  
Boshlarida ro‘moli,  
Yenglari uzun-uzun.  
Sal tikilib qarasang,  
Olib qochadi ko‘zin.  
Shaharda esa qizlar  
Ochiq yurar bemalol.  
Sirin ayting, bobojon,  
Meni lol etar bu hol...»  
Bobosi uning barcha  
Gapin tinglab, kutibdi.  
So‘ng ikkita konfet ob  
Nevaraga tutibdi.  
Biri qog‘ozi bilan,  
Biri esa beqog‘oz.  
«Ol birini, ayt, senga  
Qaysi ma‘qul, qaysi soz?»  
Bola ham beixtiyor  
Qog‘ozliga cho‘zdi qo‘l.

Bobo der: «Nega aynan  
Senga shu bo'ldi ma'qul?»  
«Chunki, – deydi bolakay, –  
Bu qog'ozga o'ralgan.  
Iflos bo'lmaslik uchun  
Ikki yondan buralgan.  
Buning tozaligiga  
Aslo shubha qilmayman.  
Tozami, notozami –  
Nargisini bilmayman».  
Bobo kuldi va dedi:  
«Har kimning har ta'bidir.  
Bilsang, bolam, qizlar ham  
Xuddi konfet kabidir».

**BOBO VA NEVARA**

«Bobo, – dedi nevara, – nega  
Kambag'al xo'p saxiy bo'ladi,  
Birovlarning omadi chopsa,  
Yosh boladay quvnab-kuladi,  
Afsus, boyib borgani sayin  
Baxillashar, yolg'on so'ylaydi,  
Boshqalarni ko'rmas ko'zlari,  
Faqatgina o'zin o'ylaydi?»  
«Bolam, – dedi bobo ham mahzun, –  
Ko'p tuz oshni buzar, sho'r qilar.  
Tilla bilan kumush ham shunday,  
Odam ko'zin boylar, ko'r qilar.  
Oynaga boq, dunyoni kuzat,  
Qara, qanday ko'rkam tashqari.  
Kumush surtsang uning ortiga,  
Ko'rmassan o'zingdan boshqani!»

**BEDAVO DARD**

Qarilikdan siz uchun  
Bir hikoya aytayin.  
Aytsam, og'ir, aytmasam,  
Bag'rim yag'ir, qaytayin.  
Keksayganda hech kimga  
Boqmasin-da qiyo dard.  
Aslida, qarilikning  
O'zi bir bedavo dard.  
Goh u yog'ing og'riydi,  
Goh og'riydi bu yog'ing.  
Shoxingga chertar bo'lsa,  
Zirqiraydi tuyog'ing.  
Eh, bu keksalik qursin,  
Mana, qiyos o'zimdand.  
Nima demoqchi edim?..  
Adashdimov so'zimdand.  
Hatto labbay topilmas  
Odam biroz shoshganda.  
Xullas, eshitmay qoldi  
Bir chol yuzdan oshganda.  
Alam qiladi cholga,  
Tinglamaydi hech biri.  
Mensimas uni hatto  
Sakson yillik kampiri.  
Nihoyat, uni bir kun  
Do'xtirga oborishdi.

Do'xtirning taskinidan  
Cholning dili yorishdi.  
Kesdimi, yordilarmi –  
Nimadir etdi g'ir-g'ir.  
Ne bo'lganin bilmaydi,  
Uxlab qoldi chol tushgur.  
Ko'zin ochsa, boshida  
Kampiri – ko'z-qarog'i.  
Hatto shivir-shivirni  
Eshityapti qulog'i.  
Hamshiralalar atrofda  
Qiladi yugur-yugur.  
Qo'li gul do'xtirlarning  
Borligiga ming shukr.  
Chol-kampir ketmoq bo'lib  
Farzandlarin kutdilar.  
Shunda do'xtirlar unga  
To'lov patta tutdilar.  
Hisobchi xizmat haqqin  
Sarkitob qilgan edi.  
Pattada juda katta  
Mablag' yozilgan edi.  
Chol ko'rdi-yu pattani  
Yig'lab yubordi ho'ng-ho'ng.  
Hammaga eshittirib  
Shu gaplarni aytdi so'ng:  
– Bolalarim, siz meni  
Noto'g'ri anglamangiz.  
Ma'qul kelsa, eshiting,  
Aksincha, tinglamangiz.  
Yig'laganim boisi  
To'lov pattasi emas

Yoki unda yozilgan  
Pulning kattasi emas.  
Yuzga kirib hali ham  
G'o'rligimga yig'ladim.  
Ikki ko'zim but bo'lib,  
Ko'rligimga yig'ladim.  
Farzandimga tezroq chop,  
Yugur debman do'xtirga.  
Qulog'imni ochding deb,  
Shukr debman do'xtirga.  
Vaholanki, Allohim  
Yuz yil imtiyoz berdi.  
Ham ko'rdim, ham eshitdim,  
Na to'lov qog'oz berdi.  
Beminnat bu ehsonni  
Qanday fikr qildim men?  
Na sajdaga bosh qo'ydim,  
Na bir shukr qildim men.  
Ha, meni ham titratdi  
Cholning aytgan har so'zi.  
Uning qulog'i emas,  
Ochilgan edi ko'zi!

## IYMON VA IXLOS

Bir kuni deng, bir bola  
Machitga kirib qoldi.  
Iymanibgina imom  
Huzuriga yo'l oldi.  
Oddiygina kiyimda  
Telbaga ham o'xshardi.  
Hamma hayron, imomda  
Bor ekan qanday dardi?  
«Hazrat, – dedi bolakay, –  
Ruxsat bersangiz agar,  
Shu machitda o'qisam  
Namozimni bu safar».  
Imom debdi bolaga:  
«Hov burchakka bora qol,  
Namozingni o'qi-yu  
Hech kimga berma xalal».  
Bola quvonganidan:  
«Xo'p», – debdi, yo'talibdi.  
Imom aytgan burchakka  
Tezlikda yo'nalibdi.  
Namoz oldidan biroz  
Oyog'in uzatibdi,  
So'ng termilib birma-bir  
Barchani kuzatibdi.  
Shunda uning lablari  
Qimtinibdi gezarib.  
Rang-ro'yi ham birpasda



Ketdi darrov o'zgarib.  
Chiqdi zumda machitdan,  
O'tin terdi va taxlab,  
Qaytdi dasta o'tinni  
Yelkasiga ortmoqlab.  
Sajdaga bosh qo'yganda  
Peshonasi yaraqlab  
Yelkasidan bir o'tin  
Yerga tushar taraqlab.  
Machit ahli bezovta,  
Bu qandayin hol bo'ldi?  
Bir yaramas bola deb  
Ibodot uvol bo'ldi.  
Asli, ushbu soqoltoy  
Moyilmasman imomga.  
Bolaga ruxsat bergan  
Qoyilmasman imomga».  
Ibodat ham tugabdi,  
Barcha dilgir, xafaqon.  
Kimdir imomga debdi:  
«Bu ne o'yin, akaxon?!»  
Imom ham xijolatda,  
Qizarib, yo'talibdi.  
So'ngra bolaga tomon  
Ohista yo'nalibdi.  
«Bolam, machitga nega  
Olib kelding o'tinni?»  
Kimdir orqada shu payt  
Juda yomon so'kindi.  
Bola dedi mo'ltirab:  
«Axir, men yolg'iz emas.  
Allohdan qo'rqmaganni  
Allohim qulim demas.

Hazratim, uzr, ammo  
Qiling biroz e'tibor.  
Machit ahlining yarmi  
Yelkasida yuki bor.  
Mayli, xojam, – der bola, –  
Keldi aytish xonasi.  
Qarang, manov odamga,  
Yelkasida onasi.  
Bu amakiga boqing,  
Ey siz mard-u botirlar!  
Uning gardani uzra  
Bir to'p tovuq potirlar.  
Manov kishi umrining  
Yarmini yuttiribdi.  
Qarang, uning boshida  
Bir juvon o'tiribdi».  
Jome bo'ylab, vo ajab,  
G'ala-g'ovur boshlandi.  
Kimdir dedi esi past,  
Kimning ko'zi yoshlandi.  
«To'g'ri, – dedi bir kishi, –  
Bosgan meni katta g'am.  
Anchadan beri betob  
To'qsonga kirgan onam.  
Ham uyda, ham machitda  
Doim o'yga cho'maman.  
Kamxarjman, onam o'lsa,  
Qanday qilib ko'maman?!»  
Boshqa bir amaki ham,  
Sakrab turib o'rnidan,  
Bir dasta pulni shartta  
Chiqardi-ku qo'ynidan.  
«Ergashib kirdim, asli,  
Qo'shnim manov Nazarga.

Shoshayapman, to'g'risi,  
Hozir tovuqbozorga».  
Xullas, bola birma-bir  
Hamma sirni ochibdi.  
Boshda juvon bor kishi  
Pana joyga qochibdi.  
Machitga borar odam  
Ko'ngil istovi bilan.  
Lek u, maymun, kelgandi  
Do'stning qistovi bilan.  
Mol-u davlat, hirs-havas  
Deb sanardi dunyoni.  
Juvonni o'ylar edi,  
O'ylamasdi Xudoni!  
Iymonsiz qalbi bo'ylab  
Badbo'y hidlar toshardi.  
Shu bois u nomahram  
Juvon sari shoshardi.  
«Voh, – debdi ahli Rasul, –  
Bari to'g'ri, bari rost.  
Nahotki, dilimizda  
Bolachalik yo'q ixlos».  
Imom yorib to'dani  
Bolaga yaqin kepti.  
«Mening yelkamda ham, ayt,  
Bormi biror yuk?» – debdi.  
Bolaga bo'b noqulay,  
Ko'zini olib qochdi.  
«Albatta, – deb jim bo'ldi,  
Keyin sekin lab ochdi: –  
Ma'ruzangizni hamma  
Jim turganda tinglashib  
Sizning yelkangiz uzra

Bir qo'y turar mingashib.  
Uning zalvorligidan  
Goh ochilib-so'ldingiz.  
Ibodatning o'rniga  
Qo'y bilan band bo'ldingiz». Bolaga jim tikilib  
Faryod urdi imom ham.  
Bu odil bashoratdan  
Bo'ldi imom tamom ham.  
O'zing kechir, Allohim,  
Bizlar gumroh bandamiz.  
Qusur aqlimiz bilan  
Har bir ishda tambamiz.  
Boshlandi boz g'alayon,  
Kim yig'lar, kim kulardi.  
Imom esa cho'k tushib:  
«O'zing kechir!» – deyardi.  
So'ngra ayon bo'ldiki,  
Imom dardi bor edi.  
Yelkasiga mingashgan  
Qo'y emas, qo'chqor edi.  
Qurbonlikka atalgan  
Semizgina jonivor.  
Ertalab tursa imom,  
Yo'talar takror-takror.  
Namoz chog'i ham imom  
Ming bir reja tuzardi.  
«Borguncha o'lib qolsa...»  
Degan tashvish ezardi.  
Alqissa, shu: unutmam,  
Xoh erta, bugun bo'lsin,  
Iymoningni toza tut,  
Ixlosing butun bo'lsin!

**YUZ DOLLAR**

Shahardan bir tadbirkor  
Qishloqqa kelib qopti.  
Dastlab u mehmonxona  
Tomon sekin yo'l opti.  
Boyvachcha bu qishloqda  
Uch kun qolmoqchi ekan.  
Bir loyiha bo'yicha  
Do'kon qurmoqchi ekan.  
Yuz dollarni chiqarib,  
U nozirga tutibdi.  
O'zi so'ng xonalarni  
Ko'rish uchun ketibdi.  
Pulni ko'rib sohibning  
Chorsu esga tushibdi  
Va qassobdan yuz dollar  
Qarzi esga tushibdi.  
Pulni olib Chorsuga  
Yuguribdi-elibdi.  
Qassobga zudlik bilan  
Qarzin berib kelibdi.  
Yelkadan yuk tushganda  
Dam oladi asab ham.  
Yuz dollarni oldi-yu  
O'ylab qoldi qassob ham.  
Qo'li kaltalik qursin,  
Odam holin tang qilar.  
Bir haftaki fermer ham  
Pulin qistalang qilar.  
Bunday bo'lishin qassob  
Sirayam kutmagandi.  
Tunov kungi buqaga

Yuz dollar yetmagandi.  
Eh, odamlar... Mayliga,  
Birozgina shoshirdi.  
Qassob borib fermerga  
Omonatin topshirdi.  
Kuni kecha fermerga  
Sim qoqqan edi usta,  
Ta'mirtalab «Tiko»si  
Tayyor bo'пти birpasda.  
Restoranda ustaga  
«Erib» keldi fermer ham.  
Ustiga yuz dollarni  
Berib keldi fermer ham.  
Usta qo'li gul edi,  
Lekin sal suyuqoyoq.  
Shu bois topgani hech  
Ikki bo'lmasdi mutlaq.  
O'zingiz ham guvohsiz,  
Salda qancha pul topdi.  
Ammo pulni oldi-yu  
Fohisha tomon chopti.  
Qadamini tezlatdi,  
Garchi yo'llar qor edi.  
Fohishadan yuz dollar  
Chunki qarzi bor edi.  
Fohishaning ham, axir,  
Yetar edi o'z dardi.  
Gohida mehmonxona  
Eshigini qoqardi.  
Garchi to'lamasa-da  
Yeyish-ichish, choy uchun,  
Nozirga pul berardi  
Faqatgina joy uchun.

Pulni berib qutuldi  
Qarz atalmish kulfatdan.  
Nozir pulni oldi-yu  
Lol qoldi bu holatdan.  
Yarim soat ilgari  
Shu pul qo'lida edi.  
Falakning bu ishidan:  
«Astag'furillo», – dedi.  
Yuz o'ylasin topolmas  
Kalavanning uchini.  
Ammo sezib turardi  
Bu zang'arning kuchini.  
U xayolning domiga  
Turganida boylanib  
Sayr etdi yuz dollar  
Qishloqni bir aylanib.  
Hech kim qarzmas birovdan,  
Muhimi, hamma rozi.  
...Shu payt buzdi xayolin  
Boyvachchaning ovozi:  
«Xonalarni ko'rdim men,  
Menga ma'qul, juda soz.  
Afsus, meni shahardan  
Yo'qlab qolishdi noxos».  
Shunday deya boyvachcha  
Birozgina tin oldi.  
Dollarni qaytib olib,  
Shaharga jo'nab qoldi.  
Bilmadim, bu o'yinda  
Kim yutdi, kim yutildi.  
Lekin bir qishloq ahli  
O'z qarzidan qutuldi.

**DONISH O'GITI**

Donish hayot zavqidan  
Masrurlanib turgan dam  
Yelkasida og'ir yuk  
O'tib borar bir odam.  
Yukning zalvorligidan  
Uning qaddi dol bo'пти.  
Qirqqa kirmasdan turib  
Sho'rlik qarib chol bo'пти.  
Donish debdi: «Hoy inson,  
Buncha yukni netasan?  
Shuncha qayg'u, tashvishni  
Qayga olib ketasan?»  
«Bu qayg'umas, birodar, –  
Debdi haligi kishi. –  
Bu – farzandim sevinchi,  
Nevaralar tashvishi.  
Shular uchun tashiyman  
Topganimni, neki bor.  
Men baxtli bo'lolmadim,  
Ular bo'lsin baxtiyor.  
Men shularni o'ylasam,  
Tushar bobolar yodga.  
Bu odat o'tmoqdadir  
Avlodlardan avlodga.  
Bobom uchun qayg'urgan  
Bobojonim bobosi.  
Faqat o'g'liga qolgan



Butun mol-u dunyosi.  
Bobom yashamasa-da  
Garchand o'xshab odamga,  
Umrin baxshida etgan  
Faqatgina otamga.  
Otam ham ishonmasdi  
Meni na yer-u ko'kka.  
O'g'lim olim bo'lsin deb  
Chopardi lo'kka-lo'kka.  
Axir, shunday otani  
Qanday qilib suymayin.  
Yemayin yedirtirdi,  
Kiyintirdi kiymayin.  
O'qitdi takror-takror,  
Mendan olim chiqmadi.  
Dunyolarni kezdirdi,  
Ammo Kolumb chiqmadi.  
Nasya ekan bu dunyo,  
Naqd ko'rmay ketdi otam.  
Baxtli bo'lsin o'g'lim deb  
Baxt ko'rmay ketdi otam.  
Hammalari o'tishdi  
To'kishib qo'r-u savlat.  
Yuk ko'tarib chopishga  
Keldi menga ham navbat.  
Endi farzand, nevaram  
Kulib shavqqa to'lsinlar.  
Biz baxtli bo'lolmadik,  
Shular baxtli bo'lsinlar».  
Donishmand kulib dedi:  
«Dud chiqadi dodingdan.  
Baxtli yashab o'tganmi,  
Ayt, kimdir ajdodingdan?»  
«Afsuski, yo'q, – dedi u, –

Shundan bag'rim tilaman.  
Lekin farzandlarimning  
Baxtin orzu qilaman». Donish debdi: «Men aytay  
Gapning indallosini.  
Tanlab ol, xulosa qil,  
Sen o'zingga mosini.  
Nodon harf o'rgaturmi  
Birovlarga hech qachon?  
Burgutga parvoz ilmin  
Bera olurmi sichqon?  
Johillik inson qonin  
Doim zulukday so'rgan.  
Baxtli bo'lish ilmini,  
Avvalo, o'zing o'rgan.  
Ustingdan qoqib tashla  
Sen nodonlik changini.  
Shundagina anglarsan  
Baxtning shukuh, rangini». Alqissa, har bir oqil  
Shijoat-shahdli bo'lur.  
Baxtli insonninggina  
Farzandi baxtli bo'lur.

**LO'LI QIZ HANGOMASI**

Bir kuni deng, bir yigit  
Sevib qopti lo'lini.  
Oradan bir oz o'tgach  
So'rabdi qiz qo'lini.  
Qiz girdida betinim  
Yuraverdi kuymanib.  
«Onam biladi», – dedi,  
Nihoyat, qiz iymanib.  
Yigit debdi: «Sen uchun  
Makkagacha chopaman.  
Aytgil, jonim, onangni  
Qaydan izlab topaman?»  
Qiz ham dedi: «Onamni  
Hamma tanir, biladi.  
Bozor darvozasida  
Tilanchilik qiladi».  
Garchand bu gap yigitni  
Qilsa-da biroz mulzam,  
U sirni boy bermadi,  
Bozorga chopdi ildam.  
Ha, darvoza oldida  
Turar edi bir ayol.  
O'tgan-ketgan odamga  
Qo'l cho'zardi bemajol.  
Oftobda xo'p qoraygan,  
Zo'rg'a chiqar tovushi.  
Ustida juldur kiyim,  
Oyog'ida kovushi.  
Yigit qalbi ishq mayi  
Bilan lim to'lgan edi.  
Muhabbat ko'zlarini

Tamom koʻr qilgan edi.  
Shu bois ayol puxta,  
Sarishta boʻb koʻrindi.  
Goʻyo osmondan tushgan  
Farishta boʻb koʻrindi.  
Ayollar ham sevadi  
Odamzodning mardini.  
Yigit ham shartta-shartta  
Ayta qoldi dardini.  
Ona, axir, ona-da,  
Tinglab yuzi yorishdi.  
Soʻng ikkovlon xilvatroq  
Joyga tomon borishdi.  
«O, oʻgʻlim, ozib-toʻzib,  
Batamom ado boʻbsan.  
Koʻrayapman, ogʻir bir  
Dardga muhtalo boʻbsan.  
Bu darddan goho odam  
Rosa shavqqa toʻlgaydir.  
Goho esa gʻam chekib  
Ado boʻlib qolgaydir.  
Men bilmayman ishq seni  
Ne koʻyga solganligin.  
Qizimga muhabbating  
Chinmi yo yolgʻonligin.  
Toʻgʻri, qiz bola degan  
Birovlarning xasmidir.  
Ammo kuyovni sinash  
Ajdodlarning rasmidir.  
Garchi loʻli boʻlsak-da,  
Oʻzga bekmiz, toʻramiz.  
Xafa boʻlma, seni ham  
Birrov sinab koʻramiz.

Mehnatga tobing qalay,  
Pokmisan, halolmisan?  
So'zida subuti yo'q,  
Parishonxayolmisan?  
Shartim shuki, sinayman  
Seni bir oyda, o'g'lim.  
Tilanchilik qilasan  
Men turgan joyda, o'g'lim.  
Qizimga ham aytaman,  
Garchand u xafa bo'lsin.  
Bir oy emas, mayli, kel,  
Sinov bir hafta bo'lsin!»  
«Mayli, – debdi yigit ham, –  
Barcha shartga ko'ngayman.  
Taqdirimda bor ekan,  
Peshonamdan ko'rgayman».  
Xullas, yigit shartni deb  
O'z ishini tashlabdi.  
Bozor darvozasida  
Yangi ishin boshlabdi.  
Ona debdi qiziga:  
«Ahdi chinga o'xshaydi.  
Taradduding ko'raver,  
To'y yaqinga o'xshaydi.  
So'zanangni tugatgil,  
Lo'la-takya tayyormi?  
Kuyovga sarpo kerak,  
Senda o'lchami bormi?»  
Shunday qilib, ona-qiz,  
Eh, nelarni qilmabdi.  
Yugur-yugur, chopachop,  
Vaqt o'tganin bilmabdi.  
Ikki hafta o'tibdi,

Qarang, zumda oradan.  
Ammo xabar yo'q edi  
Hali-hanuz boladan.  
Tag'in ishni boshladi  
Ona-bola xotirjam.  
To'y deganni bilasiz,  
Goho u yo'q, goh bu kam.  
Xullas, taxtdir barchasi –  
Tayyor sep-u tuguncha.  
To'rt hafta ham o'tibdi,  
Mana, hash-pash deguncha.  
Ona olib xavotir  
Bozor tomon boribdi.  
Bo'lajak kuyovini  
Uzoqdanoq tanibdi.  
Yarashibdi, qarang-a,  
Yangi kasbi o'ziga.  
Badanlar jimirlaydi  
Uning aytgan so'ziga.  
Gapirar goh Mag'ribdan,  
Goh Mashriqdan so'z ochar.  
Olomon o'rab olgan,  
Tinimsiz pullar sochar.  
Ona bozorga borgan  
Payti ayni tush edi.  
Ko'rdi, yigit kasbidan  
Judayam sarxush edi.  
«Hormang, – dedi onaxon, –  
Har vaqt shunday kun bo'lsin.  
Peshonangiz yarqirab,  
Rizqingiz butun bo'lsin!»  
«Rahmat, – dedi yigit ham, –  
Uzr, xayol suribman.

Qayda ko'rganman sizni?  
Tanimayroq turibman».  
Ona dedi: «Men xursand,  
Uddaburon ekansiz.  
Lo'lidan ham pishiqroq,  
Asl o'g'lon ekansiz.  
Qoyil qoldim, bu ishda  
Siz bo'ri, men toziman.  
Endi sizga qo'shqo'llab  
Qiz berishga roziman».  
«E, e, – deпти yigitcha, –  
Bu qanday tuhmat, o'yin?  
Qizing, hatto o'zing ham  
Endi menga bir tiyin.  
Yo'qol, hozir o'lasan,  
Qo'limni bir sermayman.  
Bor, poshshoying kelsa ham,  
Bu joyimni bermayman!»  
Hikoyamiz shu joyda  
Tamom bo'b tursin ekan.  
Alqissa, ko'rmaganning  
Ko'rgani qursin ekan.

**G'IYBAT BANDALARI**

Qimmatbaho po'stinni  
Kiyib olib Afandi  
Ketayotsa, guzarda  
O'tirar ikki andi.

– Po'stiniga qaranglar,  
Odmisi ham bo'lardi.

– Ha, o'g'irlik qilmasa,  
Buni qaydan olardi?

Bu gaplar Afandining  
Burdalabdi jonini.

Ertasiga kiyibdi  
Eski bir choponini.

– Tuppa-tuzuk bir odam  
Juldur chopon, bu ne hol?

– Bu kuningdan ko'chada  
Sadaqami... so'ray qol.

Indamabdi Afandi,  
Bo'lsa-da bag'ri kuyuk.

So'nggi kun ular bilan  
So'rashibdi ja quyuq.

Yursa, yurib, o'tirsa,  
O'tirib-yotishibdi.

U ketgach, orqasidan  
Yana gap otishibdi:

– Yopishgani-yopishgan,  
Ketmas misli och kana.

– Narroq yursang bo'lmasmi,  
Sermulozim, bachkana?

Bu holatdan Afandi



Rosa boshi qotibdi.  
Dori ichib uyida  
Uch kun kasal yotibdi.  
Tishni bosib tishiga,  
Chimiribdi qoshini.  
So'nggi safar uzoqdan  
Irg'ab o'tdi boshini.  
– Vo bachchag'ar, – der biri, –  
Burni osmon-ku buning.  
So'rashgisi kelmaydi,  
Shayton, afsus, yo'q duming.  
Bachchag'arlar na sovuq,  
Na issiqqa ko'nadi.  
– E, bor-e, – deb Afandi  
Qo'lin siltab jo'nadi.  
Garchand yaxshi, yomon bo'l,  
Ularning ko'ngli to'lmas,  
Bu ikki o'limsikdan  
Tirik qutulib bo'lmas.  
Necha bor quyosh botib,  
Necha bor tong otibdi.  
U bir kuni o'zini  
O'lganga sob yotibdi.  
Mahalla-ko'y to'planib,  
Uni yuvib-tarabdi.  
Janozasin o'qitib,  
Qabr sari jo'nabdi.  
Tobut borar lapanglab,  
Qo'ldan qo'lga o'tadi.  
Kimdir qo'lin va kimdir  
Yelkasini tutadi.  
Kunlar issiq. Afandi  
Rosa terlab ketibdi.  
Ko'tarish gali ikki  
Andiga ham yetibdi.  
Biri dermish: «Yeb-ichib,

Bo'kib o'lgan, hoynahoy.  
Yoki aroq shishaga  
Cho'kib o'lgan, hoynahoy».  
Ikkinchisi der: «Hali  
Sal o'ynab-kulmasmidi?  
Gar yaxshi odam bo'lsa,  
Juma kun o'lmasmidi?»  
Hayhot, nahotki, ular  
Sassiq gapdan to'ymaydi.  
Tirik, mayli, tirikdir,  
O'lganni ham qo'ymaydi.  
Afandi qichqiribdi:  
«Ey zukko, ey topqirlar,  
Sizdan qachon qutulgum,  
Hov baraka topgurlar?!»  
Murdaning qichqirig'i  
Quloqlarni teshibdi.  
Ikki andi shu zahot  
Yerga qulab tushibdi.  
Hamma hang-u hamma lol  
Falakning bu ishidan,  
Bu dunyoda har bir kas  
Topgay o'z qilmishidan.  
Ikki andi dastidan  
Barcha yonib-kuygandi.  
So'nggi kunlar o'zidan  
Ajratib ham qo'ygandi.  
Bexos o'limdan ular  
Bir narsani uqishdi.  
Andilarni bir zumda  
Tayyor go'rga tiqishdi.  
Alqissa, shu el aro  
Bitta matal yuradi:  
«G'iybatchining hamisha  
Go'ri tayyor turadi».

**CHOH**

Afandini bir kuni  
Quvishibdi saroydan.  
Sho'rlilik ish izlayverib  
Topolmabdi hech joydan.  
Qayga borsa, eshik berk,  
Zahar so'zlar sochibdi.  
«E bor-e», – deb Afandi  
Yangi firma ochibdi.  
Firmaning eshigiga  
Bir e'lon ostiribdi  
Va e'longa taxminan  
Shunday deb yozdiribdi:  
«Azizlar, biz sizlarni  
Davolaymiz benuqson.  
Bizga kelib sirayam  
Bo'lmagaysiz pushaymon.  
Davolay olmasak gar,  
Ellik ming pulingizga  
Ketar chog'i yuz mingni  
Tutamiz qo'lingizga!»  
Uni o'qib bir tabib  
Biroz muddat kutibdi.  
Bularni bir boplay deb  
Qitmirligi tutibdi.  
«Men ta'mni sezmayapman, –  
Debdi tabib, boshi xam. –  
Nonmi, go'shtmi, farqi yo'q,  
Nima yesam, bir xil ta'm.  
Afandi bemorining  
Eshitib iqrorini,  
Hamshiraga debdiki,  
Keltir suyuq dorini.  
Doriga til tegizib,  
Bujmayib ketdi beti.

Biroz o'ylanib tabib:  
«Axir, bu benzin», – dedi.  
«Tabrik, – dedi Afandi, –  
Tiklandi ta'm tolasi.  
Endi non bilan go'shtni  
Yaxshi farqlay olasiz».  
Alam qilsa-da, tabib  
Ellik mingni to'ladi.  
Dedi: «Shoshmay turlaring,  
Sirlaring fosh bo'ladi!»  
Oradan uch kun o'tib  
Yana keldi ul tabib:  
«Endi hid sezmayapman,  
Bormi shifoi habib?!  
Tushunolmay hayronman  
Bu falakning charxini.  
Ajratolmay sarsonman  
Go'ng va gulning farqini».  
Afandi bemorining  
Eshitib iqrorini.  
Hamshiraga debdiki:  
«Keltir suyuq dorini».  
Dorini ichib tabib,  
Chiqdi yuzdan olovi.  
Dedi birdan: «Benzin-ku  
Anov kungi, anovi!»  
«Yana bir bor qutlayman,  
Boshingizdan tushdi tog'.  
Xayr, – dedi Afandi, –  
To'rt muchangiz soppa-sog'.  
Endi iqror bo'lasiz  
Oyoqdan to boshgacha:  
Go'ngning hidi o'zga-yu  
Gul ifori boshqacha!»  
Jahli chiqdi tabibning,  
Zaharxanda kuladi.

So'ng noiloj kassaga  
Ellik mingni to'ladi.  
Uyga ketmoqda tabib  
Horg'in, poy-u piyoda,  
Yana bir bor chuv tushdi,  
Alam haddan ziyoda.  
Pushaymondan foyda yo'q,  
Endi bari kech edi.  
Uchinchi bor kelganda:  
«Ko'zim ko'rmaydi», – dedi.  
«Afsus, – dedi Afandi, –  
Bizda bunga chora yo'q.  
Pulingizni olasiz  
Shartnomaga muvofiq».  
Bir dam hamma jim bo'ldi,  
Sukutga to'ldi xona.  
Tabib sal bosh ko'tarib  
Kuldi takabburona.  
Hamshira keb tabibga  
Ellik mingni uzatdi.  
Tabib esa norozi  
Kayfiyatda so'z qotdi:  
«Bu qanday o'yin bo'ldi,  
Elligi qani, Sarkor?  
Shartnomaga binoan  
Yuz ming bo'lishi darkor».  
«Tabrik, – dedi Afandi, –  
Tashlang turfafe'llikni!  
Ko'zingiz yarq ochildi,  
To'lab qo'ying ellikni!»  
Shunday qilib, tabibning  
Quvligi o'tmay qoldi.  
O'zi qazigan chohga  
Tushganin bilmay qoldi.

## QIZIM HIKOYASI

Hulkar qizim menga bir  
Rivoyat aytib berdi.  
Rivoyatmas, Allohga  
Ishorat aytib berdi.  
Uni sen ham tinglagin,  
Dam ber sabr otiga.  
Yana bir bor ishongin  
Alloh marhamatiga.  
O'tmishda Pokistonda  
Bitta doktor bor ekan.  
Husayniy ekan oti,  
El aro dongdor ekan.  
Xolis xizmatlari-chun  
Allaqaysi tashkilot  
Unga tayin etibdi  
Juda katta mukofot.  
Taklif qipti doktorni  
Aynan shu taqdimotga.  
O'sha tomon uchibdi  
O'tirib «po'lat ot»ga.  
Garchi doktor xushchaqchaq,  
Garchi shodumon edi.  
Lekin havoning turqi  
Juda ham yomon edi.  
Chaqmoq samo bag'rini  
Qilich kabi yorardi.  
Samolyot tuman ichra  
Zo'rg'a uchib borardi.

Yo'lovchilar muz qotib,  
Bezovta o'tirardi.  
Kimdir esa bir chetda  
Kalima o'girardi.  
Shukrki, bunday holat  
Davom etmadi uzoq.  
Yaqin bir qo'nalg'aga  
Amallab qo'ndi uchoq.  
Tunmi deyman, hoynahoy,  
To'rt yon zimiston edi.  
Ammo doktorning dili  
Tun kabi xufton edi.  
Navbatdagi uchoqning  
Uzoq edi muddati.  
O'n soatlab kutishga  
Yetmas sabr-quvvati.  
Nailoj, neki bo'lsa,  
Peshonadan ko'radi.  
Borar manzilin aytib  
U-bu kimdan so'radi.  
Qo'nalg'a va manzilning  
Orasi bir ko'l ekan.  
Jadal yursa qayiqda,  
Besh soatlik yo'l ekan.  
Ammo to ko'lga qadar  
Yurish kerak bir soat.  
Ijaraga mashina  
Oldi doktor, nihoyat.  
Har bir insonda, axir,  
Orzu-niyat bo'ladi.  
Taqdimotga bormasa,  
Juda uyat bo'ladi.  
Yo'lga tushdi, yomg'irda  
Haydash ham qiyin edi.

Yo Rabbim, bir yon jala,  
Bir tomon quyun edi.  
Ko'lga yaqin qolganda  
Jala quydi pishqirib.  
Doktor halak, ko'lgacha  
Yetsa bo'ldi, ishqilib.  
U bilmasdi, ko'lning ham  
Ahvoli bundan battar.  
To'fonda sakrar edi  
To'lqinlar osmon qadar.  
Bora-bora, eh, doktor  
Yo'lni-da ko'rmay qoldi.  
Selning toshqinligidan  
Mashina yurmay qoldi.  
Doktor boqib olisda  
Ko'zi tushdi chiroqqa.  
Mashinani qoldirib  
Yugurdi o'sha yoqqa.  
Uyga yetdi, nihoyat,  
Bilmaydi qancha yurdi.  
Taqillatib o'tirmay  
O'zin eshikka urdi.  
Uyning ichkarisida  
O'tirardi bir ayol.  
Uni chirmab olgandi  
Yo qayg'u, yoki xayol.  
«Assalomu alaykum,  
Onajon, hormang, – dedi. –  
Bezovta qildim, netay,  
O'tiring, turmang, – dedi. –  
Zudlik bilan bir joyga  
Sim qoqmoqchidim, uzr.  
Foydalansam maylimi  
Telefoningizdan bir?»  
Kampir jilmayib dedi:



«Kir ichkari, kir, o'g'lim.  
Bu yerda na elektr,  
Na telefon bor, o'g'lim.  
Undan ko'ra ustingni  
Quritib ol, ichgin choy.  
Boradigan manziling  
Qochib ketmas, hoynahoy».  
Doktor ham endi sezdi  
Hansirab qolganini.  
Charchab va qorni ochib,  
Shalabbo bo'lganini.  
U chorasiz kampirning  
Aytganiga bo'ysundi.  
Sandal yoniga kelib,  
Ovqat yedi, isindi.  
Bu fursatda ayol ham  
Namozin o'qib oldi.  
Uzoq duolar qilib,  
Yana xayolga toldi.  
Beshik tebratar edi,  
Garchi sursa-da xayol.  
Beshikdagi ul go'dak  
Yotar edi bemajol.  
Chiday olmadi doktor  
Kuzatib bu holatni.  
«O, onajon, allangiz  
Eritadi po'latni,  
Aytingiz, kim bu go'dak,  
Nechun mungli nolangiz?  
Bag'rimni chil-chil qildi  
Ko'zdan oqqan jolangiz.  
Duolaringiz uzun,  
Yo Rab, namoz paytingiz.  
Nelarni so'radingiz  
Allohimdan, aytingiz».

Kampir xo'rsinib dedi:  
«Bu umrim shonasidan.  
Bir oqshomda ayrildi  
Ota va onasidan.  
Og'ir dardga chalingan,  
Eh, nevaram bechora.  
Bu yerdagi tabiblar  
Topisholmadi chora.  
Dedilarki, uzoqda  
Bitta tabib bor emish,  
Ismi emish Husayniy,  
Mashhur shifokor emish.  
Qo'li kaltaning umri  
Savol-so'roqda ekan.  
Tabibning manzili ham  
Juda uzoqda ekan.  
Allohdan so'raganim –  
Nevaramni omon et.  
Tabib bilan uchrashtir,  
Mushkulimni oson et».  
Oh desinmi Husayniy,  
Voh desinmi Husayniy?  
Bu kampirni oftob yo  
Moh desinmi Husayniy?  
U suhbatni to'xtatdi,  
Ko'tardi xam boshini.  
Ammo to'xtatilmadi  
Ko'zdan oqqan yoshini.  
Bu payt badani qizib,  
Tanasiga tuz cho'kdi.  
Yig'lab kelib onaning  
Oyog'iga tiz cho'kdi.  
«O, onajon, nolangiz  
Yetti osmonni yordi.

Duoi iltijongiz  
Allohga yetib bordi.  
Siz izlagan Husayniy  
Men bo'laman, onajon!  
Nevarangizning umri  
Uzun bo'lar begumon.  
Duoringiz osmonni  
Chaqmoq bo'lib sindirdi.  
Ulkan uchoqni yerga  
Eson-omon qo'ndirdi.  
Faqat Alloh bilgusi  
Tavallud va o'limni.  
Sizning uyingiz tomon  
Burdi mening yo'limni.  
Alloh bizga birodar,  
Yaqin qo'shni, xesh doim.  
Bandasining orzu-yu  
Istagiga esh doim!  
Garchand yo'llaringiz berk,  
Garchand umidingiz puch.  
Faqat Unga sig'ining,  
Faqat Undan oling kuch!»

\* \* \*

Rivoyatni eshitib  
Mag'rurlandim qizimdan.  
Ammo shashqator bo'lib  
Yoshlar oqdi ko'zimdan.  
Bu qissa dil yaralab,  
Bag'rimni tig'lar edi.  
Bir qarasam, Hulkarning  
O'zi ham yig'lar edi.

## ONA SUTI

Allaqaysi zamonlarda  
Bir nasoro shaharda  
Ikki ayol farzand ko'rar  
Ayni bir kun saharda.  
Biriniki qiz tug'ildi,  
Ikki yuzi anorday.  
Ayni damda ikkinchisi  
O'g'il ko'rdi qo'chqorday.  
Chaqaloqlar tug'ilgandan  
Patta osib qo'yarlar.  
Bu pattaga onasining  
Ismin yozib qo'yarlar.  
Hamshiralar aybi bilan  
Chalkash bo'lar pattasi.  
Undan keyin boshlanadi  
Mojaroning kattasi.  
Ayting, axir, yarashmagay  
Qaysi qizga bekalik?  
Har ikkisi o'g'iltoyga  
Chiqib qoldi egalik.  
Biri dedi: «O'g'il bola  
Meniki, hoy tartibsiz».  
Unisi der: «Qoching nari,  
Bekorlarni aytibsiz».  
Biri deydi: «O'g'illigin  
Ayon qilgandi dardi.  
Qornimda ham polvonginam  
Qattiq-qattiq tepardi».

Unisi der: «O'g'il bo'lsa,  
Dil ketar ko'k o'rikka.  
Do'xtirlar ham o'g'il degan,  
Qachon borsam ko'rikka».  
Bu tortishuv, ushbu janjal  
Erlarga ham o'tdilar.  
Qarindoshlar – tulki, ayiq,  
Sherlarga ham o'tdilar.  
Ortib bordi bora-bora  
Bu janjalning ko'lami.  
Gapga ko'nar na u tomon,  
Na bu tomon ko'nadi.  
Qonlar bir-bir tekshirildi,  
Tekshirildi so'lak ham.  
Yurak, jigar, o'pka, taloq  
Va qolmadi buyrak ham.  
Bilgirlarning bilganlari  
Shubhali, mubham edi.  
Chunki barcha tahlillarning  
Farqi juda kam edi.  
Mojaroga tuman, shahar,  
Mamlakat ham qo'shildi.  
Ovrupodan chaqirilgan  
Advokat ham qo'shildi.  
Bu tilsimning qarshisida  
Barchasi lol qoldilar.  
«Hal qiling», – deb ikki ona  
Oyoq tirab oldilar.  
Mas'ullar ham jam bo'lishdi,  
Barcha o'yg'a toldilar.  
Tekshir-tekshir, yugur-u chop,  
Oxir charchab qoldilar.  
Birov dedi: «Xudoning bu

Sinovini dars eting.  
Bu jumboqni yechar qavm –  
Muslimlarga arz eting». Nasorolar u yon chopdi,  
Bu tomonga yelishdi  
Va, nihoyat, qatorlashib  
Bir machitga kelishdi.  
«O, taqsim, – dedi ular, –  
Doim el g'amin yeysiz.  
Diningizda har chigalning  
Yechimini bor deysiz». Shunday deya yolvorishdi,  
O'tindi, bo'zlab berdi.  
So'ngra ikki ayol sirin  
Birma-bir so'zlab berdi.  
«Yechim oddiy, – dedi imom, –  
Endi siz quloq soling.  
Har ikki ayol sutidan  
Ikki-uch tomchi oling.  
Tekshiringiz uni obdan,  
Ey siz, aqli soddalar.  
Bilinglar-chi, qaysida ko'p  
Ozuqaviy moddalar.  
Haqiqatni aytay sizga  
Kelganda gap xonasi.  
Ozuqa ko'p bo'lsa kimda,  
O'sha o'g'il onasi». Bu juda ham oson ishdir,  
Uni topsa bo'ladi.  
Endi qozon qopqog'ini  
Sekin yopsa bo'ladi.  
Tekshirishdi, topishdi ham,  
Masala tez hal bo'ldi.

Bir to'p olim bir imomning  
Oldida o'sal bo'ldi.  
«Juda to'g'ri, – dedi ular, –  
Siz aytgan mantiq-ma'no.  
Bu jumboqning yechimini  
Qaydan bilasiz ammo?»  
Imom dedi: «Qur'ondagi  
Har satrda hayot bor.  
Xususan, unda bir go'zal,  
«Niso» degan oyat bor.  
Unda aytar: «Bergaydirman,  
Xoh o'g'il, xoh qiz qidir.  
Bir o'g'ilning nasibasi  
Ikki qizning rizqidir».  
Darhaqiqat, Alloh ulug',  
Undan o'zga iloh yo'q.  
Unga iymon keltirmaslik,  
Sevmaslikka iloj yo'q.  
Aqlimizdan har xil shubha-  
Gumonni soqit qilsin.  
Barcha o'g'il-qizimizni  
Haq dinda sobit qilsin!

**BASHAR O'GITI**

Qo'lida bir qadah suv,  
So'radi ustoz Bashar:  
«Shogirdlarim, ayting-chi,  
Shu suv qancha tosh bosar?»  
Birov dedi: «Yuz gramm»,  
«Ikki yuz», – dedi kimdir.  
Bahs ancha etdi davom,  
Ustoz sukutda, jimdir.  
Nihoyat, ustoz dedi  
Shogirdlarga shoshmasdan:  
«Hech kim aniq aytolmas  
Taroziga tortmasdan.  
Lekin gap unda emas,  
Boshqa yoqda xayolim.  
O'zga mazmun kasb etar  
Sizga berar savolim.  
Qarang, ushbu mitti jom  
Suvga lim-lim to'ladir.  
Besh minut ushlab tursam,  
Qo'lim nima bo'ladir?»  
«Hech narsa sodir bo'lmas», –  
Dedi bolalar bardam.  
«To'g'ri javob aytdingiz», –  
Tasdiqladi ustoz ham.  
«Xo'sh, – davom etdi ustoz, –  
Ikki soat muntazam  
Qo'limni cho'zgan holda



Ne bo'lar ushlab tursam?»  
«Qo'llaringiz og'rigay», –  
Dedi bolalar tushkun.  
«Nima bo'lar, – der ustoz, –  
Ushlab tursam uzzukkun?»  
«Unda dong qotib qolar  
Oldga cho'zgan qo'lingiz.  
Mushaklar ishdan chiqar,  
Ustoz, hushyor bo'lingiz.  
Bosh aylanar, ko'z tinar,  
Issiq toshar tanaga.  
Hatto tushib qolasiz  
Bexos shifoxonaga».  
«Yaxshi, – dedi muallim, –  
Qani, Ashur, o'zing ayt,  
Qadahning og'irligi  
O'zgarurmi bunday payt?»  
«Yo'q, ustoz, – dedi Ashur, –  
O'zgarmasdan qoladi».  
Shundan keyin ustoz ham,  
Bir dam o'yga toladi.  
So'ng der: «Har dard tuzalar,  
Yaralar bitish mumkin.  
Ammo bu muammoni  
Qanday hal etish mumkin?»  
«Bu juda oson, – dedi  
Shogirdlarning bo'ychani. –  
Muammo hal, stolga  
Gar qadahni qo'ysangiz».  
«Juda to'g'ri, – quvonib  
Javob qildi muallim. –  
Hayotdayam g'olibdir  
O'ylab ish yuritsa kim.

Deylik, bir muammoni  
Daqiqa etsang xayol,  
U seni o'rab olgay  
Go'yo chirmovuq misol.  
Bir soat o'ylar bo'lsang,  
Tushdim deyaver chohga.  
U seni tortib ketar  
G'am atalmish botqoqqa.  
Agar bu muammoni  
Kun bo'yi o'ylar bo'lsang,  
O'tgan-ketgan, qari-yosh,  
Barchaga so'ylar bo'lsang,  
Birgina shu muammo  
Ko'zlaringni yoshlagay.  
O'y-u ong-u aqlingni  
Falaj qilib tashlagay.  
Muammolar ustida  
Garchand qotirsang-da bosh,  
O'z-o'zidan yo'qolmas  
Yo'lingdagi chag'ir tosh.  
Hattoki muammoning  
Kamaymas og'irligi.  
Birdan tuzala qolmas  
Yelkangning yag'irligi.  
Muammongni hal etgay  
Na aza, na-da bazm.  
Buning uchun katta kuch,  
Ulkan harakat lozim.  
Shuning uchun har ishni  
Hal et, ortiq surma o'y.  
Bu qo'lingdan kelmasa,  
Ko'tarma, bir chetga qo'y.  
Dilingda olib yurma

Bu qadar og'ir toshni.  
Turfa xil balolarga  
Giriftor etma boshni.  
Xullas, aziz bolalar, –  
Dedi muallim Bashar, –  
Aql bilan ish tuting,  
Oqillar ming yil yashar!»

**KIM YAXSHI?**

Qadim o'tgan zamonda,  
Aymat degan tomonda,  
Atrofida tog'-u qir,  
Yashar ekan bir kampir.  
Bor ekan to'rt farzandi –  
Dilbandi, shakar-qandi.  
Farzandlari bir kuni  
Qurshab olibdi uni.  
Deyishibdi: «Onajon,  
Rostini ayting shu on,  
Qaysi birimizni siz  
Ko'proq yaxshi ko'rasiz?»  
Hech kimdan qilmay gina,  
Kampir turdi jimgina.  
Keltirib gugurt va sham,  
Shamni yoqdi xotirjam.  
«Siz bor – shavqqa to'laman,  
Asli, sham men bo'laman.  
Yonib turgan olovi –  
Muhabbatim yalovi», –  
Deya ohista kampir  
Sham keltirdi yana bir.  
Yonib turgan olovdan,  
Muhabbatli yalovdan,  
Bu shamni ham tutatdi,  
Birozgina kuzatdi.  
«Bu – birinchi farzandim,

Birinchi shakar-qandim,  
Topdingiz qanday ma'ni,  
Endi aytingiz, qani:  
Olovim pasaydimi  
Yo biroz susaydimi?  
Olov yonib jo'shadir,  
Shashti o'sha-o'shadir».  
Shunday qilib, kampirshoh  
Irg'ib turib banogoh,  
Olib o'zin shamini,  
Yoqdi qolganlarini.  
Kampirning shami biroq  
Qoldi issiq va porloq.  
Ha, onalar shundayin,  
Osmondagi kundayin,  
Tugamas muhabbati,  
Shafqati-yu rag'bati.  
Ona uchun farzandning  
Yo'qdir sovuq-ilig'i.  
O'n bo'lsa, o'rni boshqa,  
Qirqta bo'lsa, qilig'i.

**GO'ZALLAR**

Faqirlik bilan Boylik  
Uchrashib qolgan mahal  
Bir insondan so'rashdi:  
«Ayt-chi, qaysimiz go'zal?»  
Qozonda neki bo'lsa,  
Ilinadi kapgirga.  
Ammo bunday dam og'ir  
Har qandayin topqirga.  
Axir, kimga ham yoqmas  
Bo'lmoq go'zal, chiroyli.  
Faqirni maqtasa gar,  
Xafa bo'ladi Boylik.  
Inson qalbini bir dam  
G'am-u tashvish bosadi.  
Boylikni go'zal desa,  
Faqir qovoq osadi.  
Inson, axir, inson-da,  
O'ylab topdi yo'lini.  
«Yaqinroq kelinglar», – deb  
Imo qildi qo'lini.  
Yaqin kelgach, inson ham  
Sekin turdi oyoqqa  
Va dedi: «Endi yuring  
Goh u yoq, goh bu yoqqa.  
Toki men diqqat bilan  
Sizga razm solayin.  
Qaysi biringiz go'zal,

Sekin farqlab olayin.  
Faqirlik ham, Boylik ham  
Xo'p tovlanib yurdilar.  
O'sma-yu surma qo'yib,  
Olovlanib yurdilar.  
Biroz tomoshadan so'ng  
Inson dedi: «Bas, tamom!  
Har ikkalangizga ham  
Mendan chuqur ehtiom.  
Go'zallik boshingizda  
Parvonadek charx qilar.  
Ammo bu chiroylilik  
Bir-biridan farq qilar.  
Farqi shuki, Faqirlik,  
Mendan ketishing go'zal,  
Boylik, aylanay sendan,  
Menga kelishing go'zal!  
Aytganimni qilsangiz,  
Quvonch, shavqqa to'lgaysiz.  
Elda e'tibor topib,  
Mangu go'zal bo'lgaysiz!»

## FAQIRNING BOYLIGI

Bir kambag'al har kuni  
Nolir ekan Xudoga:  
«Allohim, nega meni  
Keltirding bu dunyoga?  
Oqarmadi kosam hech,  
Hammadan kam yaratding.  
Bir umr birovlarining  
Qo'llariga qaratding».  
O'tayotib bir donish  
Kambag'alni ko'radi.  
«Chekkaning nechun nolish?» –  
Deya undan so'radi.  
«Aytaversam agarda,  
Hasratlarim bitmaydi.  
O'lay deb undirganim  
Bir qorninga yetmaydi».  
«Yaxshi, – debdi u kishi, –  
Kambag'alsan, bilaman.  
Bir ko'zingni hadya et,  
Besh ming tilla beraman».  
«Esingiz bormi o'zi? –  
Debdi betoqat faqir. –  
Bir ko'z bilan bir umr  
Qanday yashayman, axir?»  
«Mayli, ko'zing kerakmas,  
O'n mingga qo'lingni ber», –  
Desa, faqir aytibdi:



«Bermayman, toshingni ter».  
«Mayli, qo'l va ko'z kerak  
Tinchgina yurmog'ingga.  
Rozi bo'l, beshta bergum  
Bir dona barmog'ingga».  
«Yo'q, bo'lmaydi, – debdi u  
Mahkam ushlab qo'lini. –  
Undan ko'ra ayt menga  
Naf, daromad yo'lini».  
Haligi donish debdi:  
«Yo'qsa, nega nolirsan?  
Noshukrchilik qilib,  
Buncha shovqin solursan?  
Qara, Allohimga senga  
Qomatni tik beribdi.  
Oyoq, qo'l, barmoq va bosh –  
Shuncha boylik beribdi.  
Faqirman deb nolima,  
Chuqur o'yla, fikr qil.  
To'rt muchang ham sog' ekan,  
Allohimga shukr qil.  
Sen sog'lomsan – sen boysan,  
Bu Alloh ulgusidir.  
Boshingni ko'tar, nolish  
Ojizlik belgusidir.  
Qara, bu hayot go'zal,  
Uning kuyi, sozi bo'l!  
Shunday kun in'om etgan  
Allohimdan rozi bo'l!»

**SAMURAY**

Juda qadim zamondan  
Qolgan bu bir aqida.  
So'zlar umr mantig'i,  
Mohiyati haqida.  
Bir kuni deng, bir odam  
Kepti donish oldiga  
Va deptiki: «Ulg'aydim,  
Kirdim o'ttiz oltiga.  
Dunyolarni kezdim men,  
Ko'rdim yaxshi-yomonni,  
Behad kitob o'qidim,  
Uqdim Vaqt va Makonni.  
Axir ilm-u urfonning  
Yo'qdir aslo ziyoni.  
Faqat menga qorong'i  
Samuraylik zaboni.  
Yaxshilarga yondashdim,  
Qochdim yomon zulmidan.  
Iltimos, ogoh eting  
Samuraylik ilmidan».  
«O'g'lim, – debdi samuray, –  
Bu ilm xo'p tiyrakdir.  
Samuraylik, aslida,  
Mantiq ilmi demakdir.  
Zohiriga boqmagil,  
Botiniga razm sol.  
Mayli, sinab ko'raman,

Berurman uch-to'rt savol.  
Ikki kishi mo'ridan  
Tushib kelar birma-bir.  
Birining yuzi oppoq,  
Ikkinchisi qora-kir.  
Sinab ko'r, o'g'lim, aqling  
Qay sarhadga yetadi?  
Ulardan qaysi biri  
Yuz yuvishga ketadi?»  
Yigit dedi: «Bu savol  
Arzimas jon koyishga.  
Albatta, kirlangani  
Ketar yuzin chayishga».  
«Noto'g'ri, – dedi donish, –  
O'zing bundoq o'ylab ko'r.  
Savolning eniga boq,  
Bo'ylarini bo'ylab ko'r.  
Yuzi kir odam dastlab  
Sherigiga bo'ylaydi.  
Uning yuziga boqib  
Tozaman deb o'ylaydi.  
Aksincha, toza odam  
Qarab do'stin aftiga  
O'zi birinchi bo'lib  
Suv oladi kaftiga».  
«Qiziq ekan, – der yigit, –  
O'ylamabman bu yog'in».  
Donish ketmoqchi bo'пти  
Olib hassa-tayog'in.  
«Ustoz, – debdi yigitcha, –  
Iltimos, ketmay turing.  
Yana savollar berib  
Meni boz sinab ko'ring».

«Xo'p-xo'p, – debdi samuray, –  
Mayli, sazang o'lmasin.  
Sen bilan shug'ullangum,  
Ko'zing yoshga to'lmasin.  
Ikki kishi mo'ridan  
Tushib kelar birma-bir.  
Birining yuzi oppoq,  
Ikkinchisi qora-kir.  
Sinab ko'r, o'g'lim, aqling  
Qay sarhadga yetadi?  
Ulardan qaysi biri  
Yuz yuvishga ketadi?»  
«Ustoz, axir, buni biz  
Hozirgina etdik hal.  
Yuvinishga ketadi  
Yuzi tozasi avval».  
«Noto'g'ri, – dedi donish, –  
O'zing bundoq o'ylab ko'r.  
Savolning eniga boq,  
Bo'ylarini bo'ylab ko'r.  
Birining yuzi oppoq,  
Ikkinchisi qoradir.  
Hoynahoy, yuvinishga  
Har ikkisi boradir.  
Chunki biri yuz yuvgach,  
Sherigin shubha bosar.  
U ham do'stin ortidan  
Yuzin yuvishga shoshar».  
«O, men aqli qosirni  
Kechiring, mayli, uring.  
Ammo, ustoz, iltimos,  
Yana bir sinab ko'ring!»  
«Xo'p-xo'p, – debdi donishmand, –

Mayli, sazang o'lmasin.  
Faqat chuqurroq o'yla,  
Seni Xudo qo'llasin.  
Ikki kishi mo'ridan  
Tushib kelar birma-bir.  
Birining yuzi oppoq,  
Ikkinchisi qora-kir.  
Sinab ko'r, o'g'lim, aqling  
Qay sarhadga yetadi?  
Ulardan qaysi biri  
Yuz yuvishga ketadi?»  
«Obbo, boshqasi yo'qmi?  
Pichoq bo'g'zingga yetar.  
Javob shu: ikkisi ham  
Yuzin yuvishga ketar».  
«Afsus, – dedi samuray, –  
Bilmam, neni o'ylading?  
Ikkisi ham bormaydi,  
Sen noto'g'ri so'ylading.  
Mantiqan bir o'ylab ko'r,  
Beti qoraygan odam  
Sherigiga boqib, yuz  
Yuvishni o'ylamas ham.  
Yuzi tozasi esa  
Ichida chiqarar sas:  
«Sherigim bormadimi,  
Demak, yuzim kir emas».  
O, naqadar chuqurdir  
Samuraylik hikmati.  
Shogirdning, nahot, yetmas  
O'rganishga qudrati?!  
Biroz sarosimada  
Va biroz surib xayol

Dediki: «Ustoz, mayli,  
Bering boshqa bir savol».  
«Mayli, – debdi ustoz ham, –  
Yana bir bor o‘ylab ko‘r.  
Ikki kishi mo‘ridan  
Tushib kelar birma-bir...»  
«Voy Xudoyim, – der shogird, –  
Boshqa bir savol yo‘qmi?  
Ikkisi ham bormaydi,  
Endi ko‘nglingiz to‘qmi?»  
«Noto‘g‘ri, – deydi ustoz  
Qirqqa bo‘lguvchi qilni. –  
Samuray bo‘lish uchun  
Yetmas bir Suqrot ilmi.  
O‘zing ham shohid bo‘lding  
Mohiyat-u mantiqqa.  
Samuraylik yeyishmas  
Nonni bulab qatiqqa.  
Bir quvur, ikki kishi,  
Mumkinmi, axir, o‘rtoq,  
Birining yuzi qora,  
Birisiniki oppoq?!  
Nahotki, anglamading,  
Mantiqsiz edi savol.  
Ikkimizning shuncha vaqt  
Umrimiz bo‘ldi uvol.  
Har bitta ishda, bolam,  
Mantiq tayanch, tirkakdir.  
Samuraylik, aslida,  
Mantiq ilmi demakdir».

**TALABA VA FARISHTA**

Bir kun zulmat chekinib,  
Otganda endi tong  
Xorijdagi mamlakat  
Matbuoti urdi bong.  
O'tgan kuni shaharning  
Qaysi bir ko'chasida  
Fojia ro'y beribdi  
Naq yarim kechasida.  
Bu xabar ko'zni yoshlab,  
Qomatlarni egibdi.  
Kimdir ikkita ayol  
Nomusiga tegibdi.  
Butun bir shahar aro  
Bu shum xabar kezgan on  
Bir qizcha kollejidan  
Qaytar edi uy tomon.  
Ancha kech bo'lib qolgan,  
Ustiga, yoppa-yolg'iz.  
Onasi xavotirda,  
Shoshar edi uyga qiz.  
Ammo uning oldida  
Bor edi ikkita yo'l.  
O'ngga yursa, ko'p uzoq,  
Zulmat va tor edi so'l.  
Nima bo'lsa bo'lar deb  
Burildi tor ko'chaga.  
Osmondagi xira oy  
Hokim edi kechaga.  
Onani xavfga qo'ymoq  
Tiriklayin o'lgani.

Yiqilsayam, qo'rqsayam,  
Tezroq borsa bo'lgani.  
Oyning nim yog'dusida  
Necha bora surindi.  
Yo Rab, shu payt oldinda  
Qora sharpa ko'rindi.  
Qarasaki, bahaybat  
Bir kimsa kelayotir.  
Ko'zlari ola-kula  
O'laksa kelayotir.  
Nelarnidir gapirar,  
So'zlari yuluq-uzuq.  
Afti-yu angoridan  
Xayollari ham buzuq.  
Afsus, qizning qo'lida  
Tayog'i ham yo'q edi.  
Allohdan imdod so'rab  
«Oyatul»ni o'qidi.  
Ko'zlari ola-kula,  
Yaqin kelar edi ul.  
Qiz esa takror-takror  
O'qir edi «Oyatul».  
Qizning iltijolari  
Allohga borib yetdi.  
Badbashara u shayton  
Indamay o'tib ketdi.  
Xayriyat, qiz sog'-omon  
Yetdi uy-xonasiga.  
Yo'ldagi sarguzashtni  
Aytdi u onasiga.  
Onasi ham eshitdi  
Tong va tush orasida



Nomuslari toptalgan  
Ayollar borasida.  
Ona-yu qiz shu zahot  
Mahkamaga boribdi.  
Qiz tunda ko'rganini  
Bir-bir aytib beribdi.  
Bechora qiz bezovta,  
Na yebdi, na uxlabdi.  
Uch kundan keyin qizni  
Politsiya yo'qlabdi.  
Qiz borsa, o'nta kimsa  
Tik turar simyog'ochday.  
Burni bo'yinturug'-u  
Tishlari zang omochday.  
Qiz ham va jabrdiyda  
Ayollar ham bechora  
Sezdirmay bir odamga  
Qilishdilar ishora.  
Politsiyachilar ham  
Yelka qisdi bu holga.  
So'ngra u zo'ravonni  
Tutishdilar savolga:  
«Anovi ikki ayol  
Qomatini qilding dol.  
Nega bu yolg'iz qizga  
Teginmading, ayt, battol».  
Zo'ravon aytibdiki:  
«Ha, u qiz qandday edi.  
Yolg'iz edi, mening ham  
Ishtaham karnay edi.  
O'sha ishtaha bilan  
Yaqin kelganda shitob  
Paydo bo'ldi yonida

Bahaybat ikki janob». Voh, bu gapni eshitib Barcha lol-u jim edi. Alhol, musulima qizni Qo'riqlagan kim edi? Kim edi bir qizchaga Ham panoh hamda mas'ul? Nahot, shuncha qudratga Ega bo'lsa «Oyatul»?! Shubhasiz, bizga Alloh Madadkordir har ishda. Qizga ham yuborgandi Ikki nafar farishta. Chunki qiz o'qir edi «Oyatul»ni shoshilib. O'zin to'liq Allohning Panohiga topshirib! Ha, Allohning kalomi Ishonchingni oqlagay. Allohim deganlarni Uning o'zi saqlagay!

**GO'RKOV**

Bir kishi, deng, ish izlab  
Rosa charchab-tolibdi.  
Kechroq bir idoraga  
Nogoh borib qolibdi.  
Debdiki: «Go'rkovlik bor,  
Ishlaysizmi, qarddon?  
Faqat savol-so'roqdan  
O'tish kerak kadrдан».  
«Mayli, – debdi bechora, –  
Eng muhimi, ish bo'lsin.  
Tinmasdan ter to'k kayman,  
Xohi yoz, xoh qish bo'lsin».  
Kadrlar bo'limi ham  
Xo'p so'roqqa tutibdi.  
Lekin u sinovlardan  
Eson-omon o'tibdi.  
So'ng shartnoma berishib:  
«To'ldiring, – debdi shuni. –  
Imzo qo'yib ko'rsating,  
Qaysi yil, qaysi kuni».  
Bu holatdan u odam  
Salgina qizaribdi.  
Ikki ko'zi javdirab,  
Lablari gezaribdi.  
Ilm eslatar igna  
Bilan quduq qazishni.  
Bizning qahramon esa  
Bilmas edi yozishni.  
Yetim o'sdi, turmush deb  
Aslo tinim bilmadi.  
Unga maktabda o'qish,  
Afsus, nasib qilmadi.

Ammo mehnatkash edi,  
Kamtar edi chinakam.  
Yozishni bilmasa-da,  
Hisob-kitobda mahkam.  
Dedilarki: «Go'rkovlik –  
Juda mas'ul vazifa.  
Oddiy kasbmas, birodar,  
Olamshumul vazifa.  
Ana, xafa bo'ldingiz,  
Buni biz ham bilamiz.  
Yozishni o'rgansangiz,  
Ishga qabul qilamiz».  
Uyga qanday boradi,  
Nima deydi xotini?  
Endi kim ham tinglardi  
Bechoraning dodini.  
Idoradan chiqdi u  
Dili xufton, boshi xam,  
O'qish kerak va lekin  
O'tib qoldi yoshi ham.  
Faqat Alloh siljitgay  
Inson taqdir toshini.  
Qarang, uchratib qoldi  
Yo'lda qishloqdoshini.  
Bilsaki, u ko'p joyda  
Tarvuz o'stirgan ekan.  
Uni sotishga odam  
Qidirib yurgan ekan.  
Do'stlar birga ishlashga  
Shartlashdi – qo'l tashladi.  
Ertasi u bozorda  
Tarvuz sota boshladi.  
Savodi bo'lmasa-da,

Asli, bizning qahramon  
Xushmuomala edi,  
Oyoq-qo'llari chaqqon.  
Bir-ikki so'm to'plasa,  
Savodini oshirar.  
Keyin hujjatlarini  
Go'rkovlikka topshirar.  
Azamat tarvuzlarni  
Tezda sotib tashladi  
Va to'plagan puliga  
Gul ob sota boshladi.  
Savdosi qizigandan-  
Qizib borar edi-ya.  
Go'yo pul dengizida  
Suzib borar edi-ya.  
Sekin-sekin bozorda  
Do'konlar qurdi qator  
Va hatto chet ellarda  
Hamkorlar topdi bisyor.  
Qayda muammo bo'lsa,  
Tepasida turdi u.  
Qishda meva saqlarga  
Omborlar ham qurdi u.  
Xullas, bizning qahramon  
Qoldi boylik komida.  
O'nlab supermarketlar  
Turar uning nomida.  
Turfa marka moshinning  
Soni yo'q, sanog'i yo'q.  
Hamma narsa bor, lekin  
Faqat suyanch tog'i yo'q.  
Suyanch tog'ing bo'lmasa,  
Juda qiyin bo'larkan.

Yillab topgan boyliging  
Zumda tiyin bo'larkan.  
O'ylay-o'ylay oxir u,  
To'plab aql-u esini,  
Sug'urta qilmoq bo'пти  
Jamiki biznesini.  
Ming bir o'y, hayajonda,  
Ham qo'rquv, ham entika  
Ertasi uchrashibdi  
Sug'urta agentiga.  
«Yaxshi, – debdi agent ham, –  
Shov-shuvli parvozingiz.  
Hamkorlikda ishlaymiz,  
Tez ariza yozingiz».  
«Obbo, yana ariza,  
Hal qiling yoza-yozsiz».  
«Mumkin emas, – der agent, –  
Ish bitmaydi qog'ozsiz».  
«Arizangni qo'y, – der u, –  
Qiyname men g'aribni.  
Rostin aytsam, savod yo'q,  
Tanimayman harfni».  
«Unday demang, – der agent, –  
Nurga to'lsin kulbangiz.  
Ishonmayman, ustimdan  
Bunaqa deb kulmangiz.  
Uylaringiz haybatli,  
Mol-u dunyo bir dengiz.  
Savodingiz bo'lganda,  
O, qayda ishlardingiz?!»  
Shunda bizning qahramon  
Dedi: «Tushun, e mardum.  
Gar savodim bo'lganda,  
Go'rkov bo'lgan bo'lardim».

**MACHIT HANGOMASI**

Muazzinning ovozi  
Mahallani tutgan payt  
Uni yo'lda uchratdim  
Va dedim: «Ortingga qayt,  
Bugun juma, birodar,  
Yur, namozga boramiz.  
Alloh marhamatiga  
Noyil bo'lsak, zora, biz».  
U aytdiki: «Bilasan,  
Men bormayman machitga.  
Har xil safsatang bilan,  
Qo'y, miyamni achitma».  
«Xo'p-xo'p, – dedim, – mayliga,  
Seni majbur qilmayman.  
Ammo bormasligingning  
Sababini bilmayman!»  
«Machitga bormasam ham,  
Tozaman, zanglamasman.  
Rosti, do'st, sababini  
O'zim ham anglamasman.  
To'g'ri, ba'zi-ba'zida  
Ko'nglim ham eziladi.  
Bir sababi... shimimning  
Dazmoli buziladi».  
Uzr, men bu mardumni  
Tanitmadim sizlarga.  
Chindan, toza kiyinar  
Va biroz o'ch qizlarga.  
Do'stning yana bir fe'lin  
Aytay qilmay andisha.  
Negadir yashil rangni

Sevar edi hamisha.  
Shu bois do'ppisidan  
Tuflisiga qadar to  
Yashil rangda bo'lardi,  
Ko'zoynagi ham hatto.  
Yurar po'rim kiyimda,  
Yonda to'rt-besh shotiri.  
O'n qadamdan sezilar  
Uning sepgan atiri.  
Dedim: «Hayotingda hech  
Borganmisan machitga?»  
Der: «Bobom oborganlar  
Bir necha bor hayitga.  
Bola edim u paytlar,  
Birov bilar-bilmasdi.  
U vaqtlarda shimimning  
Dazmoli ham bo'lmasdi». «Qo'y, – dedim, – hazilingni,  
Bo'lurmi shu bahona?»  
Der: «Bilasan, sevaman  
Kiyinishni shohona». Uning mantiq-fikrati  
Soldi meni hayratga.  
Shu joyda sovuqqina  
Xayrlashdik, albatta.  
Albatta, har kimsaning  
Alloh bergan yo'li bor.  
Yo'ldagi tosh-kesakni  
Olib tashlar qo'li bor.  
Qayda rizqing sochilsa,  
O'sha joydan tergaysan.  
Allohim, har mo'minga  
O'zing insof bergaysan.



Oradan kunlar o'tdi,  
Tunlar o'tdi quvlashib.  
Haftalar ham o'tdilar  
Bir-biriga mingashib.  
Bir kuni deng, aytishdi:  
«O'sha do'stingiz, bitta,  
Tezroq boring, kutyapti  
Sizni intiq machitda».  
O, bu qanday mo'jiza,  
Qarshisida lol turdim.  
Oyoqni olib qo'lga  
Machit tomon yugurdim.  
Machit odamga to'la,  
Men ham bir safda turdim.  
Oldingi safda nogoh  
O'sha do'stimni ko'rdim.  
Ustida o'zi sevgan  
Yashil kiyim, qaradim.  
Yaqinlab, past ovozda  
Sekingina so'radim:  
«Birodar, hoy-u havas  
Bilan sarxush, mast eding.  
Bu dargohga mutlaqo  
Kelmoqchi emas eding.  
Seni, bilmam, keltirdi  
Qaysi taqdir shamoli.  
Buzilar endi, hayhot,  
Shimginangning dazmoli».  
...Qimir etmas edi u,  
Na ovoz bor, na dardi.  
Yashil yopinchiqli do'st  
Tobut ichra yotardi...

## HIKMAT BILAN ISH TUTING

Bir kun tolibi ilm  
Ustoziga der: «Rahmat,  
Hamma ilmni oldim,  
Menga bersangiz ruxsat.  
Endi men ham mustaqil  
Faoliyat boshlayin.  
Siz kabi har chigalni  
O'zim hal qip tashlayin».  
«Bo'tam, jinday ertadir, –  
Debdi ohista ustoz. –  
Hikmat bilan ishlashning  
Ilmini olgin biroz.  
Hikmat bilan nurafshon  
Xoh chashm, xoh fikratdir.  
Dunyoning suyanchig'i,  
Bilsang, bo'tam, hikmatdir».  
Afsus, ustoz ko'rsatgan  
Yo'ldan shogird yurmadi.  
So'nggi o'giti hatto  
Qulog'iga kirmadi.  
Shosha-pisha shu kuni  
Madrasadan jo'nabdi.  
Kechga tomon qandaydir  
Bir qishloqda tunabdi.  
Ertalab derazadan  
Katta machitni ko'rdi.  
Juma edi. Peshinda

U ham namozga bordi.  
Odam juda ko'p edi,  
Imom keldi kerilib.  
Ma'ruzani boshladi,  
Hamma tinglar berilib.  
Astag'furillo, voiz  
Bid'at so'zlardi faqat.  
Odamlar bu yolg'onga  
Qanday qilmoqda toqat?!  
Xurofotga bulg'adi  
Voiz juma xutbasin.  
Tolib chiday olmadi,  
Harchand o'zin tutmasin.  
«Hoy mo'minlar, – dedi u, –  
Farqlang chin va yolg'onni.  
Nega tinglamoqdasiz  
Bu besavod nodonni?  
U sizni aldamoqda,  
Sal ishlating aqlni.  
Hoziroq bu dargohdan  
Quvib soling johilni!»  
Afsus, bu yosh yigitni  
Tanimabdi olomon.  
Aksincha, talabaga  
Tashlanibdi beomon.  
«Keldingmi noma'qulning  
Bunda nonin yegani?  
Uyal bizning domlani  
Nodon, johil degani».  
Uni sudrab-so'kishib  
Hamda rosa urishdi.  
Hatto bu yetmaganday,  
Qishloqdan ham quvishdi.

Madrasaga qaytibdi  
Talaba ust-boshi qon.  
Vo ajab, bu holatdan  
Hamma lol, hamma hayron.  
Talabaning boshi xam,  
Ko'zlarini yoshlabdi.  
So'ng o'zini ustozning  
Oyog'iga tashlabdi.  
«Men gumrohni kechiring,  
Kechiring, piri mumtoz.  
Hikmatning qudratini  
Bilmas ekanman, ustoz.  
Aytdingiz, hikmat tishdir.  
Men bilmasman tishlashni.  
Ustoz, menga o'rgating  
Hikmat bilan ishlashni».  
Xullas, u bu ilmni  
Bilguncha xo'p tolibdi.  
Ikki yilda butunlay  
Boshqa odam bo'libdi.  
Hikmat bilan ish ko'rib  
Rosa zafar quchibdi.  
Bir kun o'sha machitga  
Yana yo'li tushibdi.  
Voiz yolg'on so'zlardi,  
Ming buralib, eshilib.  
U ham tinglab o'tirdi  
Odamlarga qo'shilib.  
Ma'ruza tamom bo'lgach,  
O'rnidan turdi sekin  
Va dediki: «Mo'minlar,  
Domla zo'r ekan lekin.  
Nahotki, yoningizda

Shunday dono zot yashar.  
Unga sig'insa arzir  
Dunyo, jumlai bashar.  
Soqoliga qaranglar,  
Xizr, asli, o'shadir.  
Bir tuk yulsa kimda-kim,  
Naq jannatga tushadir.  
Bu gapdan so'ng odamlar  
Boqishibdi domlaga  
Va soqol yulish uchun  
Tashlanibdi hamlaga.  
Birpasda butun soqol  
Aylanibdi yortiga.  
Voiz qo'rqib qochibdi  
Qaramasdan ortiga.  
Shu-shu ko'rinmas emish  
Domla machitda tamom.  
Voizlikni talaba  
Ettirmoqdadir davom!

**HAZRATI UMAR**

Zakot mollarin to'plab  
Rosa chopib-eldilar.  
So'ngra hazrat Umarning  
Huzuriga keldilar.  
Umar der: «Miskinlarning  
Ishlatinglar koriga».  
Ular der: «Bir faqir yo'q  
Islomning diyorida».  
Umar der: «Unda qo'y-u  
Tuyalarni so'ydiring.  
Eng avvalo, islomning  
Askarlarin to'ydiring».  
Ular der: «Hammasi to'q,  
To'kin yasharlar bari.  
Dunyo kezib yuribdi  
Islomning askarlari».  
Umar der: «Uylab qo'ying  
Yigitlarni, ehtimol».  
Ular der: «Uylantirdik,  
Ortib qoldi lekin mol».  
Umar der: «Qarzimizni  
To'lab qo'yinglar, illo».  
Ular der: «Hech kimsadan  
Qarzimiz yo'q mutlaqo».  
Umar der: «Tinglang yahud,  
Nasorolar arzini.  
Qolmasin, to'lab qo'ying

Ularning ham qarzini». Ular der: «O, hazratim, Ko'nglingizni qiling to'q. Ortib qoldi molimiz, Kimsadan qarzimiz yo'q». Umar der: «Tarqatinglar Ahli ilmga obdan». Ular der: «Berdik, ammo Ortib qoldi hisobdan». Umar der: «Agar kelsa, Bu yumushga epinglar. Qolgan pulga bug'doy ob, Tog'lar uzra sepinglar. Qolmasin tepaliklar, Terskay, betkay, qir-adir. Molingizni ayamang, Barcha savob shundadir. Tokim amallaringiz Allohimga kelsin xush. Musulmonlar yurtida Och qolmasin biror qush. Seping, donni ayamang, Mayli, yesin-emasin. Birov molin qushlardan Qizg'anibdi demasin». Ular der: «Yo Allohim, Bu qandayin hol bo'ldi? Bu ne buyuk adolat, Qay lafzi halol bo'ldi?!» Ey odamlar, hazratning So'zin aylang tumorlar. Har kun tug'ilaversin Bizning yurtida Umarlar!

**SARTAROSH**

Soqol oldirmoq bo'lib,  
Bir kuni deng, bir inson  
Sekin burdi yo'lini  
Sartaroshxona tomon.  
Bu maskan hangomaga  
Qulay fursat, qulay joy.  
Ip esholmas oldida  
Internet ham, hoynahoy.  
Mavzular ham rang-barang,  
Har kim der bilganini.  
Reyganning Gorbachevdan  
Minnatdor bo'lganini.  
Svet har kuni o'char,  
Jonga tegdi yuguri.  
Har yil egiz tug'armish  
Asomtoyning sigiri.  
Birov kelganin aytar,  
Birov-chi ketganini.  
Rosti, bilmay qolasan  
Bunda vaqt o'tganini.  
Xullas, usta bilan ham  
Rosa suhbat qurdilar.  
Biroz o'tgach mavzuni  
Din yo'liga burdilar.  
Usta der: «Faqat menga  
Xudo bor deb so'ylamang.  
Bu gapim uchun meni



Kofir deb ham o'ylamang». «Xo'sh, nega?» – deb hayratda Mijoz ustaga boqdi. Usta ham dilin yorib, Xo'p kuyindi, tutaqdi: «Ana, chiqing ko'chaga Xoh kunduzi, xoh oqshom. Har kunjakda bir gado, Har yo'lakda bir badnom. Oching sal ko'zingizni, Qarang, ana olomon. Yarmi qashshoq, isqirti, Yarmi esa nogiron. Bolalari tashlandiq, Keksalarin bosgan g'am. Xudo bor demang menga, Besohibdir bu olam. Egasi bo'lsa edi, Sal e'tibor qilgulik, Bo'lmas edi bu azob, Bo'lmasdi bu ko'rgulik». Mijoz esa g'azabdan Biroz o'zin ushladi. Bahsga kirib ketmay deb, Tilin qattiq tishladi. Bu orada usta ham Tugatdi o'z ishini. Mijoz ko'chaga chiqib, Uchratdi bir kishini. Kishiki, soch-soqoli Patalak bosgan qora. Go'yo ming yildan buyon Tig' tegmagan bir bora.

Qaytib boz ustaxona  
Eshigiga urdi bosh.  
Ko'rdi, o'z ishi bilan  
Mashg'ul edi sartarosh.  
U dedi sartaroshga,  
Dilini tilib tikan:  
«E usta, bu dunyoda  
Sartarosh ham yo'q ekan».  
Sartarosh hayron: «Nega?  
Axir, biz ustamiz-ku!  
Adashmasam, shaharda  
Qariyb yuztamiz-ku!  
Sizni qanday jin urdi,  
Oshno, o'zingizmi bu?  
Yo xizmatim haqiga  
Aytar so'zingizmi bu?»  
Mijoz dedi: «Dunyoda  
Bo'lsa edi sartarosh,  
Bunday g'arib ahvolga  
Tushmas edi paxmoq bosh!  
Ehhe, olamda qancha  
Soqol o'sgan, soch patak.  
Bo'lganda, oldirardi,  
Sartarosh yo'qdir, demak».  
Usta der: «Ko'p qayg'urmang,  
Buni biz ham bilamiz.  
Gar o'zlari kelmasa,  
Bizlar nima qilamiz?».  
Mijoz der: «Usta, endi  
Keldingiz o'zingizga.  
Aynan ushbu voqea  
Javobdir so'zingizga.  
Dedingiz Xudo yo'qdir,  
Dedingiz chor taraf g'am.

Xudoni qaydan topar  
Xudo demasa odam?!  
Xudo yo'q emas, bordir,  
Biz uni izlamaymiz.  
Bori-yu yo'g'imizda  
Alloh deb bo'zlamaymiz.  
Hammamiz Allohning  
Bandasimiz, firqamiz.  
Ammo negadir unga  
Duch kelishdan qo'rqamiz.  
Har kimki Alloh desa,  
Bu ham toat bo'lgaydir.  
Jamiki niyatlari  
Tez ijobat bo'lgaydir.  
Shunda muhtojlik bo'lmas,  
Bizni qiynamas kulfat.  
Yerda nizolar tugar,  
Paydo bo'lgusi jannat!»

**TEMIRCHI**

Aymat degan qishloqda  
Bir temirchi bor edi.  
Qo'li gul, mohir usta,  
Haqiqiy me'mor edi.  
Kampiri bilan tog'ning  
Etagida yashardi.  
O'roq, tessa, belkurak,  
Ketmon, kishan yasardi.  
Uni ustaxonadan  
Topardilar har mahal.  
Otlarning tuyog'iga  
Qoqar edi nahal ham.  
Og'ir edi mehnati,  
Ishlardi cho'g' ichida.  
Kechga tomon bu cholning  
Kuch qolmasdi kuchida.  
Bolalik xotirimda  
Bari yozilib qolgan,  
Bosqonini bosay deb  
Tilim osilib qolgan.  
Aslo tinim bilmasdi,  
Bilmas edi na rohat.  
Mehnatiga yarasha  
Mo'may edi daromad.  
Bir kun keldi yoniga  
Qishloqning oqsoqoli.  
Dedi: «Jo'ra, o'zbekning  
Bordir shunday maqoli:

Qo'li ochiqning doim  
Yo'li ochiq deydilar.  
Bunday kasning har joyda  
Rizqi sochiq deydilar.  
Qara, Nabi qassobning  
Ishi doim besh erur.  
Chunki uning amali  
Iymoniga esh erur.  
Ha, u yursa bo'ladi  
Hamma joyda kerib to'sh.  
Har jumada tarqatar  
Muhtojlarga tekin go'sht.  
Axir, sen ham ehsonni  
Unutma, jo'ra, zinhor.  
Agar bilsang, naryog'da  
Ehson uchun ajr bor.  
Beva-yu bechoraga  
Boqqin-da sen ham andak.  
Boshqani qo'y, Nabidan  
Olsang bo'lmasmi o'rnak?»  
Usta o'z odaticha  
Ter bosib ishlar edi.  
Ortiqcha gapirmasdi,  
Tilini tishlar edi.  
«Xo'p, mayliga», – dedi u,  
Battar ishga kirishdi.  
Oqsoqol ham jo'nadi,  
Peshonasi tirishdi.  
Oradan yillar o'tdi,  
Ustadan chiqmadi sas.  
Hamma atay boshladi  
Uni baxil va nokas.  
Bunday gap-u so'zlardan  
Na yig'ladi, kuldi u.

Bir kun jimgina yotdi  
Va jimgina o'ldi u.  
Qarangki, janozaga  
Odam rosa to'plandi.  
Usta ketdi! Shu kundan  
Ustaxona qulflandi.  
O'sha juma qassob ham  
Tarqatmadi tekin go'sht.  
Bechora va bevalar  
Uyga qaytdilar bo'm-bo'sh.  
Qassobxonada yonida  
Uch-to'rtta chol ko'rindi.  
Dedilarki: «Nabivoy,  
Seni qanday jin urdi?  
Bu ishingdan dilimiz  
Qahrga to'lib ketdi.  
Qara, ehsonni bilmay  
Husan ham o'lib ketdi.  
Savob ishni qilishdan  
Bir nafas to'xtamagin.  
Mol-davlatga hirs qo'yib,  
Ustaga o'xshamagin».  
Qassob der: «Tosh otmangiz  
Marhum ustaga tomon.  
Alloh hisob qilguvchi  
Kim yaxshi-yu kim yomon.  
Usta har payshanbada  
Huzurimga kelardi.  
Ikki kilo go'sht uchun  
Aqcha berib ketardi.  
Derdi, hech kim yo'qlikdan  
Bosh yorib, soch yulmasin.  
Yana derdi, bu sirni  
Biron kimsa bilmasin.

Ana shunday jimgina  
Yashab o'tdi ustajon.  
Sizlar esa sho'rlikni  
So'kdilaring bearmon.  
Aytolmasdim bu sirni,  
Tursa-da til uchida.  
Umr bo'yi yashirdi  
Himmatni yeng ichida.  
Pul topsa-da, yo'q edi  
Hovlisida darvoza.  
Yoqtirmasdi savobning  
Qilinishin ovoza.  
Umr bo'yi ter to'kdi,  
Mehnatidan xurram, shod.  
Allohim u dunyosin,  
Iloho, qilsin obod!

**ER VA XOTIN QISSASI**

Yashar edi er-xotin  
Shaharning bir chetida.  
Yegani oldida-yu  
Yemagani ketida.  
Bir o'g'li beshga kirgan,  
Ikkinchisi kichikroq.  
Kattasi biyron so'zlar,  
Kichkinasi chuchukroq.  
Farzandlar biram shirin,  
Go'yo bir juft qo'zichoq.  
Hamma der, qo'llariga  
Taqib qo'ying ko'zmunchoq.  
Kunlar ham ana shunday  
O'tardi shod-u xurram.  
Uy bekasini nogoh  
O'rab oldi tashvish-g'am.  
Er bechora parvona,  
Botmas ichga yegani.  
Tasalli topa olmas  
Biror narsa degani.  
Xotin esa timma-ters,  
Yormas erga dilini.  
Nobelga munosib, kim  
Bilsa xotin tilini!  
Ikkalasi bir kuni  
Do'xtir sari borishdi.  
«Uning boshi qorong'i»,  
Erning ko'ngli yorishdi.



«Tabriklayman, azizam,  
Ne qo'yamiz otini?» –  
Deyishi bilan, yo Rab,  
Yig'lavordi xotini.  
Der: «Ichdagi dardimni  
Siz qayerdan bilasiz  
Yoki bilib ustimdan  
Masxaralab kulasiz.  
Shuni biling, bu safar  
Qolgaydirsiz armonda.  
Oyoq-qo'limga kishan  
Bo'lolmas bu zormanda.  
Istamayman bo'lishni  
Xotinlarning ukkisi.  
Uchinchisi kerakmas,  
Yetar anov ikkisi.  
Bas, jahlimni chiqarmang  
Menga ko'p ola boqib.  
O'tkazmoqchi emasman  
Umrinni bola boqib».  
«Yo Rab, – deydi, – er hayron,  
Xotiniga ne bo'ldi?  
Tushunmas, zohiri-yu  
Botiniga ne bo'ldi?  
Chin baxtdan o'girib yuz,  
Nahot, boshlar kulfatni,  
Nahot, u yo'qotmoqchi  
Alloh bergan ne'matni?!»  
«Abort! Tamom! Gapirmang!»  
Xotini jahd qiladi.  
Uning aytgan har gapi  
Erning bag'rin tiladi.  
Shom mahal boshlangan bahs  
To tonggacha ulandi.

Bomdodda er Allohga  
Tavba qildi – tilandi:  
«Xotininga insof ber,  
Shafqat solgin diliga.  
Men bandangni cho'ktirma  
Ko'zlarimning seliga».  
Balki, xotini aldar,  
Balki, uni sinadi.  
Ikki go'dagin o'pib  
Tongda ishga jo'nadi.  
Er ketdi-yu xotinning  
Shayton kirdi ichiga.  
Ikki bolasin tashlab  
Chiqib ketdi ko'chaga.  
Dilidagi kir niyat  
Sig'mas edi tanaga.  
Ikkilanib o'tirmay  
Bordi do'xtirxonaga.  
Endi farzandlaridan  
Tinglang gap ikki og'iz.  
Hayhotday uyda ikkov  
Qolib ketdilar yolg'iz.  
Birovi beshga kirgan,  
Ikkinchisi kichikroq.  
Kattasi biyron so'zlar,  
Kichkinasi chuchukroq.  
Qo'y deydigan xo'ja yo'q,  
O'ynadilar, kuldilar.  
Bir-birovin quvlashib  
Rosa shavqqa to'ldilar.  
Toychoq bo'lib kishnashdi,  
Bo'ridek uvladilar.  
Sakrab mushuk boladek  
Bir-birin quvladilar.

Bekinmachoq mahali  
Shovqin bir nafas tindi.  
Chunki uka kir yuvgich  
Mashinaga bekindi.  
Aka izlab ukasin  
Xonama-xona chopdi  
Va, nihoyat, jigarin  
Vannaxonadan topdi.  
Ukasi mashinaga  
Olgan edi bekinib.  
Akasi ketdi bexos  
Murvatiaga teginib.  
Mashina ishlab ketdi,  
Motorchasi porillab.  
Ichkarida ukasi  
Dod solardi zorillab.  
Bola, axir, bola-da,  
Bu holatdan tosh qotdi.  
Birpas boshi aylanib,  
Es-hushini yo'qotdi.  
So'ngra: «Oyijon», – deya  
O'zin eshikka urdi.  
Hovli uzra zor yig'lab  
To'rt tarafga yugurdi.  
«Dada», – deya chopdi u,  
«Oyi», – deya yiqildi.  
Ko'zda yoshi shashqator  
Darvozaga tikildi.  
Ammo sado yo'q edi  
Na osmondan, na yerdan.  
Bolakayning esiga  
Telefon tushdi birdan.  
O'rgatgandi dadasi,  
Bir tugmani bossa gar,

Har qanday sharoitda  
Dadasi javob aylar.  
Afsus, eshik qulf edi,  
Derazadan oshdi u.  
Shoshilib telefonning  
Tugmachasin bosdi u.  
Darrov javob ham keldi:  
«Allo, kim bu? Nima gap?»  
Dadasin tanib bola  
Birdan yubordi yig'lab.  
«Dada, ukam...» – dedi-yu  
Battar ko'ngli buzildi.  
Shu zahoti naryog'dan  
Telefon ham uzildi.  
Bolani endi butkul  
Qamrab oldi iztirob.  
Tugmani bosaverdi,  
Ammo bo'lmadi javob.  
«Oyijon», – deb yig'ladi,  
«Dadajon», – deb qichqirdi.  
Sado yo'q, bola dilgir,  
Shoshib o'rnidan turdi.  
Derazadan oshdi-yu  
Yugurdi vanna tomon.  
Aylanardi mashina,  
Hammayoq qip-qizil qon.  
Qo'rqib ketdi bolakay,  
Endi nima qiladi?  
Borib eshikni ochdi,  
Nima bo'lsa bo'ladi!  
Bilmaydi ukasining  
Qayda oyog'i, boshi.

Mashinaga qo'shilib  
Faqat aylanar loshi.  
Bir-ikki bor cho'zdi qo'l  
Olmoq uchun shaylanib.  
Ammo qip-qizil murda  
Ketaverdi aylanib.  
Chir-chir aylanishlardan  
Ko'rmay qoldi ko'zi ham.  
Engashgandi, girdobga  
Tushib ketdi o'zi ham.  
Oldin boshi aylandi  
Va bo'g'ildi nafasi.  
Birpas dodladi, so'ngra  
Chiqmay ham qoldi sasi.  
Ikki begunoh go'dak,  
Betinim aylanardi.  
Balki ruhi ravoni  
Ko'k sari shaylanardi.  
Oh, yer aylanar edi  
Oftobning tegrasida.  
Aylanardi qo'shilib  
Ikki beayb rasida.  
Biri beshga kirgandi,  
Ikkinchisi kichikroq.  
Biri biyron so'zlardi,  
Kichkinasi chuchukroq.  
Otasi kelganda ham  
Aylanar ikki bola.  
Chor atrof qip-qizil qon,  
Go'yo tog'dagi lola.  
Ularning jajji ruhi  
Ketsa-da gar uzoqlab,

Vujudlari aylanar  
Bir-birini quchoqlab.  
To‘planishdi bir zumda  
Qo‘ni-qo‘shni, qarindosh.  
Tanlar titroqqa tushdi,  
Xuddi selday oqdi yosh.  
Dadaning telefoni  
Shu payt jiringlab qoldi.  
Sho‘rlik shoshib, qaltirab  
Zo‘rg‘a qo‘liga oldi.  
Ovoz keldi naryog‘dan:  
«Tabriklangiz, dadasi,  
Bajarildi, nihoyat,  
Xotiningiz va‘dasi.  
Do‘xtirlarga ming rahmat,  
Yelkamizdan tushdi tog‘,  
Zormandadan qutuldim,  
O‘zim esa soppa-sog‘».  
«Kasofat!»  
Shu so‘z uning  
Tomog‘iga tiqildi.  
Osmon gir-gir aylanib,  
Yerga gum-gurs yiqildi.  
Tillari ichga tortib,  
Vujud tushdi muzlarga.  
Ovoz keldi qaydandir:  
«Yetib oling bizlarga!  
Dada, dada, dadajon,  
Sizga bor bir mujdamiz:  
Endi bizlar ikkovmas,  
Endi bizlar uchtamiz.  
Jajji ukajonimiz  
Chorladi o‘zi tomon.

U xuddi sizga o'xshar,  
Xuddi sizdek mehribon!»  
Yashar edi er-xotin  
Shaharning bir chetida...

\* \* \*

O, o'quvchim, saboqdir  
Hayotning har bir oni!  
Rahmat, bo'ldingiz birpas  
Alisherning mehmoni.  
Siz bilan quvonchim bir,  
Siz bilan bir g'ussam ham.  
Aynan xuddi shu joyda  
Yakun topdi qissam ham.

**DAHRIYNING SOVG'ASI**

Yashar edi bir ayol  
Kambag'algina, nochor.  
Ammo iymoni sobit,  
Allohdan umidi bor.  
Bolalarin qoldirib  
Har kun ishga ketardi.  
Ishlab topgani zo'rg'a  
Ovqatiga yetardi.  
Bir kuni isitmalab  
Yotib qoldi bechora.  
Na yurishga holi bor,  
Na ishlashga bor chora.  
Ozib ketgan, ko'rsangiz,  
O'ylaysiz tirik murda.  
Uyida qolmagandi  
Hatto non ham bir burda.  
Soppa-sog' edi kecha,  
Bugun ne balo boqdi...  
Noilojlikdan ayol  
Radioga sim qoqdi.  
Shukr qilib ko'z tikdi,  
Bir mujda bo'lsa, shoyad.  
Allohdan madad so'rab  
Qoldirdi murojaat.  
Hattoki tahririyat  
Xodimlari achindi.  
Ammo bitta tinglovchi




Bu ahvoldan g'ijindi.  
U o'ta dahriy edi,  
Ishonmasdi Xudoga.  
Ko'zini parda qoplab,  
Hirs qo'ygandi dunyoga.  
Shu bois u ayolni  
Sinab bilmoqchi bo'ldi.  
Aniqrog'i, ustidan  
Mazax qilmoqchi bo'ldi.  
Kotibasin jo'natdi  
Supermarketga shoshib.  
Kotiba tezda qaytdi  
Bozordan to'lib-toshib.  
Sumkasi to'la go'shtga,  
Non, qatiq ila qaymoq,  
Turli xil shirinliklar  
Va qaynoqqina quymoq.  
Dori-darmon ayolga  
Ham issiqqina taom.  
Bolalarga o'yinchoq,  
Xullas, zo'r sovg'a-salom.  
Kotibaga dediki:  
«Tezda borib-qaytasan.  
Kimdan bu deb so'rasa,  
Shaytondan deb aytasan.  
Shunda ayon bo'lg'usi  
Allohga muhabbati.  
Iymoni necha pul-u  
Ixlosining qiymati».  
Sovg'ani olib ayol,  
Ko'klarga yetdi boshi.  
Yoqasini ho'l qildi  
Ko'zidan oqqan yoshi.

Shukr derdi tinmasdan,  
Qizni duo qilardi.  
Ming bor o'pib-o'rgilib,  
Yaxshiliklar tilardi.  
Qaytar chog'i kotiba  
Ayolga dedi: «Balkim,  
Bilishni xohlaydirlsiz  
Sovg'aning sohibi kim?»  
Ayol dedi: «Aslida,  
Bu muhim narsa emas.  
Iltijoyimni Alloh  
Eshitdi, shu menga bas.  
Allohim deganlarga  
Alloh soyasi tegar.  
Allohdan amr bo'lsa,  
Shayton ham bo'yin egar!»

# Muvozanat

*Durustboy o'sha kuni hovliga to'shak soldirdi. Dashtning musaffo havosini simirib-simirib, yulduzlarga tikildi. Ana Temir qoziq, ana uning atrofida aylanayotgan Yetti qaroqchi. Ko'zlari jimirlashib ketdi. Dunyo bunchalik suyimli, olam bunchalik keng va batartib. Yerning, osmonning muvozanati bormi? Menga qayta hayot baxsh etgan, karam ko'rsatgan kim o'zi?..*



## XUDOGA SHUKR!

Yaratganga shukrona aytib yashaydigan xalqimiz. Orzu qilib shukr deymiz. Armonda qolib shukr deymiz. Quvonganda shukronalar aytamiz, ranjib turib o'zingga shukr deymiz. Topib olib shukr deymiz, yo'qotib qo'yib yana shukur-ey deb o'zimizga tasalli beramiz.

Aymat qishlog'i xo'jalik markazidan 12 km uzoqlikda, tog' bag'rida joylashgan. O'tgan asrning 70 – 80-yillarida shaharga tushgan aymatlik avtobusdan keyin shuncha masofani yayov bosib o'tishi lozim edi. Onda-sonda o'tib qoladigan mototsiklchi yoki traktorchi xushi kelsa to'xtar, yo'qsa, orqada so'kinib qolaverardingiz. Asraqul akamning aytishicha, yo'lda ko'p aziyat chekkan aymatliklardan biri uyidagi mol-holi-yu mayizlarini sotib, yetmaganiga qarz-qavola qilib mototsikl olibdi.

– Xudoga shukr, – debdi u, – endi yayov yurmayman, birovning xizmatiga muhtoj ham bo'lmayman. Qolaversa, yo'lda bir-ikkitasini mindirib rahmatini eshitaman, duosini olaman. Yetkazganiga shukr!

Oradan biror hafta o'tib bizning qahramon mototsiklni katta bir daraxtga borib uribdi va o'zi to'rt-besh qadam nariga uchib ketibdi. Mototsikl qattiq shikastlanibdi. O'rnidan turib qarasa, o'zi soppa-sog'.

– Xudoga shukr, – debdi u boshidagi g'urrasini ushlab. – To'rt mucham butun, kelgan balo shu temirga kelsin, ishqilib.

Oradan chamasi bir oycha muddat o'tgach u qarz evaziga mototsiklini tuzattiribdi. Bu matoq menga bo'lmas ekan deb uni bozorga olib chiqibdi hamda yarim puliga zo'rg'a pullabdi. Pulni olgach:

– E, Xudoga shukur-ey, shu zormandadan qutuldim-ey, – degan ekan.

## **SAMIMIYLIKNING NOSAMIMIY IZHORI**

Bu voqeani menga Asraqul akam aytib bergandilar. Nurotadan borib, Buxoroda o'qib yurganlarida yurtdosh hamkursi kasalxonaga tushib qoladi. Ularning Aymat qishlog'idagi (Buxorodan 250 km uzoqlikda, qolaversa, o'tgan asrning telefon va mashinalar o'ta tanqis 60-yillarida) qalin o'rtog'i kasal ko'rishga keladi. Ko'ngil so'rab kelgan insonning daldasi faqatgina kasalxonaga tushgan odamgagina ma'lum. Bemor qishloqdan kelgan jo'rasini ko'rib yig'lab yuboradi. Uni bag'riga qattiq bosib hayajonda shunday deydi:

– Jo'rajon, katta rahmat senga, qancha mozorlarni bosib meni ko'rgani kelibsan, buni hech qachon unutmayman. Iloyim, sen ham bolnitsaga tush, men ham seni ko'rgani borayin.

## SHIRGURUCH

Uyda qachon shirguruch tayyorlansa, Asraqul aka aytib bergan ushbu voqea yodimga tushadi.

Uzoq yillar uchrashmagan do'sti mehmonga kelganida mezbon uni shirguruch (shir – forscha, sut degani) bilan siylaydi. Odatda, shirguruch katta lali tovoqqa (laganga) suzilib, uning o'rtasiga eritilgan sariyog' quyiladi. Tamaddi chog'i luqma o'sha sariyog'ga botirib yeyiladi. Mehmon ham bu taomni yaxshi ko'rar ekan, juda xursand bo'libdi. Taom o'rtaga qo'yilganida mezbon og'aynisidan o'pkalay ketibdi:

– Ey do'st, birodarligimiz qayerda qoldi, otam o'ldi, kelmading, bir, onam o'ldi, kelmading, ikki, ammam qazo qildi, xabar olmading, uch...

Mehmon qarasaki, do'sti har sanaganda barmog'i bilan tovoqning o'rtasidan o'ziga qarab chiziqcha tortyapti. O'rtadagi yog'ning hammasi uy egasi tomonga oqib ketmoqda. Mezbonning qitmiriligini sezib qolgan mehmon:

– Ey jo'rajon, hammasini eshitdim, hamdardman, ammo o'sha paytda bizning tomonlar mana bunday alg'ov-dalg'ov edi, – deya tovoqdagi shirguruchni barmog'i bilan o'rtadagi yoqqa aralashtirib tashlagan ekan.

## DO'STNI... SOTISH MUMKIN

Ajoyib kunlarning birida choshgoh mahali ishxonam («Xalq so'zi» gazetasi)ga qo'ng'iroq bo'lib qoldi. «Abbosxon bormi?» – so'radi kimdir. «Bosh muharririmiz Vazirlar Mahkamasida edi, kechirasiz, u kishini kim yo'qlayapti?» – deb so'radim.

– Men Abdulla akangizman, bu kim?

Shunda telefonning narigi chekkasidagi odam ulug' shoirimiz Abdulla Oripov ekanligini angladim va shoshganimdan: «Abdulla aka, men Esirgapman (guvohnomamdagi ismim), nima xizmat?» – dedim.

– E, bu senmisan, yaxshimisan? – birdan sensirashga o'tdi Abdulla aka. – Bolnitsadan telefon qilyapman, salgina shamolabman, shekilli, yangi she'rlarimni obormoqchi edim.

– Ob keling, Abdulla aka, – dedim, – ertagayoq bervoramiz.

Darhaqiqat, To'ra Sulaymonning iborasi bilan aytganda, o'sha paytlarda men ham tahririyatda «katta itlardan biri» edim. Qolaversa, u damlar Abdulla akaning qilichining dami juda o'tkir edi. Hech bir bosh muharrir uning oldiga ko'ndalang chiqa olmasdi.

Oradan yarim soatlar o'tgach, kompyuterxonadaligimda aytishdiki, xonamda meni Abdulla aka kutyapti ekan. Borsam, shoiri zamon qo'lini manglayiga qo'yib, uzun xonaning u chetidan bu chetiga borib kelayotgan ekan. Salomlashib, hol-ahvol so'rashgach Abdulla aka qo'lini devorga niqtab manaving yaxshi gap ekan dedi.

Men xonamga har xil hikmatlarni yozib qo'yar va ularni tez-tez almashtirib turardim. Bu safar devorda «Do'stni sotib olib bo'lmaydi, ammo... sotish mumkin» degan hikmat yozilgandi. Abdulla akani bezovta qilayotgan fikr shu ekan.

Nullas, she'rlarni gazetaga ertaga chop etish uchun olib qoldim, Abdulla aka ketayotganida telefoningni yozib ber dedi.

Oradan bir soatlar o'tgach u kishi telefon qilib qog'oz-qalam olishimni so'radi va quyidagi to'rtlikni aytib turdi:

*Dunyo keng, shataloq otish mumkindir  
Yoki xarsangtoshday yotish mumkindir.  
Esirgap aytganday, haqiqiy do'stni  
Sotib olib bo'lmas... sotish mumkindir.*

Nima deyishimni bilmay, bir muddat qotib qoldim. So'ngra tasannolar aytib, bu to'rtlikni nima qilish kerakligini so'radim. Boshqa she'rlar bilan birgalikda gazetaga berror dedi shoir. Xuddi shunday bo'ldi. Gazeta bosmaxonaga topshirilguncha Abdulla aka, adashmasam, 5-6 marotaba qo'ng'iroq qildi va har safar she'rlariga tuzatishlar kiritdi. Hozirgi to'rtlikka ham «Mu-toyiba» deb sarlavha qo'ydiridi va izoh berdi:

– Yangang o'qib odamlar chindan ham do'stni sotsa bo'lar-kan-da, mana, Abdulla shoir fatvo beribdi-ku deb o'ylashi mum-kin deyapti. Xalq biladi-da, xalq biladi, xalq dono!

Xayolimdan Abdulla aka «xalq» bilan ham maslahatlashib turar ekan-da degan fikr o'tdi va darhol tuzatishni kiritdim.

Hammasi ertasiga boshlandi. Telefonim o'sha kuni tinim-siz jiringladi; tanish-bilish, do'st-birodarlar tabriklashar hamda ulug' shoirning e'tiboriga tushganim bilan qutlashardi. Ayrimlar endi «o'sib» ketishim haqida karomatlar ham qilishardi. Albatta, bu kamina uchun juda yoqimli edi. Shu kuni bo'yim bir gaz o'sdi. Tashakkur bildirish uchun Abdulla akaga rosa telefon qildim, ammo go'shakning narigi tomonida sukunat hukmron. Chamam-da, Abdulla aka kasalxonadagi muolajalar bilan band edi.

Xullas, kechga tomon Abdulla akaning o'zi telefon qilib qoldi. Ovozidan kayfiyati chog' edi.

– Qalaysan, shoir, odamlar bezovta qilmayaptimi?

– E, Abdulla aka, bormisiz? Rahmat, aka, odamni mashhur qivordingiz. Tarixda qop ketadigan bo'ldim. (Darhaqiqat, bu



she'r keyinchalik shoirning kitoblaridan ham o'rin oldi). Bugun telefonim dam olmadi.

– Qo'yaver, bu yaxshi, bu yog'ini aytsang, bu yoqda men ham dam olganim yo'q, telefonlar, yo'qlovchilar, tabrik ustiga tabrik. Demak, biz yaxshi ish qilibmiz. Faqat bir narsaga kulgim qistaydi. Hol so'ragani kelgan ministrlar, akademiklar so'rashyapti: «Esirgap kim bu? Qaysi asrda yashab o'tgan alloma?» – Abdulla aka miriqib kuladi va qo'shimcha qiladi: – Men ularga Esirgap zamonamiz faylasuflaridan biri deb aytdim, qalay?

– Rahmat, Abdulla aka.

Shu payt xayolinga yana bir fikr keldi va ustozga murojaat etdim:

– Yaqinda Xorazmga borgandim, bir maqol o'rganib keldim. Aynan sizbop ekan, yaxshi narsa chiqishi mumkin.

– Nima ekan u, ayt-chi.

– Yetti marta emas, yetmish marta o'lchagin, ammo... Yoshulli aytgan joyidan kes!

Abdulla aka mazza qilib kuldi. Yonimda ushbu suhbatga guvoh bo'lib turgan taniqli jurnalist Shuhrat Jabborov ham qahqaha otib yubordi.

Kulisha-kulisha Abdulla aka bilan xayrlashdik.

Ertasi kuni Abdulla aka yana telefon qildi va qo'limga qog'oz-qalam olishimni aytdi. Ohista diktovka qila boshladi:

### **Kelinga**

*Mana, o'tib olding asal oyidan,*

*Endi suv ichgaysan turmush soyidan.*

*Yetti o'lchab bir kes, yetmish o'lchab kes,*

*Ammo kes... Yoshulli aytgan joyidan.*

– Ofarin, Abdulla aka, ofarin! – dedim. – Juda ajoyib! Nima qilamiz, gazetaga bosvoraymi?

– Shoshma, to‘rt-beshta bo‘lsin, birga beramiz.

Abdulla aka shunday dedi-yu, ammo to‘rtlik bu kunisiga «O‘zbekiston ovozi»da chiqib ketdi. Ma‘lum bo‘lishicha, Abdulla akaning «aybi» yangi she‘rni kasalxonaga kelgan Safar Ostonovga o‘qib bergani, xolos.

Bu to‘rtlik oradan bir oylar o‘tgach O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining birinchi ochilish yig‘ilishida ham ulug‘ shoirimiz tomonidan o‘qib berildi. Albatta, bu yerda urg‘u keliniga emas, Yoshullining maslahatiga amal qilishga qaratilgan edi!

Shu voqealardan keyin bilamanki, Abdulla Oripov qariyb bir yil juda ko‘p to‘rtliklar yozdi va shoirning bu javohirlarini «O‘zbekiston ovozi» har bir sonida bittalab berib bordi.

### «UNING AYOLI ISHLAMAYDI»

Yaqinda Hulkar qizimdan SMS oldim. «Dada, bir narsaga hayron qolaman, – deb yozibdi qizim. – Bir o'zingiz ishlab bizni qanday boqqansiz? Bitta oylikka to'rtta farzandni o'qitgansiz, ichirgansiz, yedirgansiz, kiydirgansiz... Biz kuyovingiz bilan ishlab, ming tejab-tergab, qizimga kecha zo'rg'a palto oberdim».

– Xudo bergan, qizim, Xudo bergan, – deyman unga. Lekin ichimdagi gapni unga aytmayman. Biz ham bitta emas, ikkita bo'lib ishlaganmiz demayman. Deyolmayman. Ishonmaydi, lof deb o'ylaydi. Xayol uzoqlarga olib qochadi...

«Men davlat idorasida 133 so'm oylik olardim, – deya ichimda qizim bilan gaplashaman, – keyinchalik u 150 – 200 ga ko'tarildi. Oylik olgan kunim uyga bozor qilsam, onang quvonish asnosida dakki berardi: «Kartoshkani qimmat opsiz, sabzi Qo'yliqda yarim bahosida sotilyapti, sholg'omning yupqa po'stlisidan oling, chiqitga kamroq chiqadi». Tabiiyki, bu gaplardan keyin bozor ham onangning zimmasiga tushadi. Chunki onang biladiki, mening boyvachchafe'lim bilan oyni ikkinchi yarmida qo'ni-qo'shnidan qarz ko'tarishga to'g'ri keladi. Uyimizda gilam bo'lmasa-da, sholchamiz bor edi, lekin to'rtta bolaning to'p-to'pidan keyin ham uyimiz ozoda turardi. Oshxonadan tortib balkongadovur chinniday yaraqlardi. Hamma narsa batartib edi, hozirgacha shunday.

Vaholonki, uyimizda cho'rimiz yo'q edi. O'sha sen, shuningdek, boshqalar ham peshonasiga «ishlamaydi» degan tamg'a bosgan onang bor edi.

Akangning kiyimini ukang, sening kiyimingni singling kiyib katta bo'ldi. Kiyimlarningning yamog'i bo'lishi mumkin, lekin kiri yo'q edi. Ichki kiyimlar qariyb sotib olinmas, mashinkada onangning o'zi tikardi. Nevaralar tug'ilganida onang bo'xchadan akangning bolaligidan qolgan eski kiyimlarini, garchand kennoying

burnini jiyirsa-da, chaqaloqqa kiydirgandi. Onang tikkan ko'rpacha-yu yostiqlar, darparda-yu dasturxonlar endilikda eskilik sarqiti bo'lib qaysidir tokchalarda yotibdi.

Vaholonki, ortiqcha kiyim sotib olishga bizning qurbimiz yetmasdi, tikuvchi-yu ko'rpachiga berishga oyligim kamlik qilardi.

Bilasan, uyimizdan mehmon arimasdi. Viloyatlardan yo'li adashib Toshkentga kelgan borki biznikida mehmon bo'lardi. Ular vaqt ham, imkoniyat ham tanlashmasdi, to'g'ri bostirib kelaverishardi. Yarim oqshom bo'lishiga qaramay, qarangki, xuddi mehmon kutib o'tirganday birpasda dasturxon bezalardi, qand-qurs, piroshka-somsa deganday... Dasturxondagi taom va shirinliklarning yarmi «Made in Mom», aniqrog'i, ishlamaydigan onangning «ishi» edi.

Chunki oshpaz yollashga mening oyligim yetmasdi.

Ukalaring bugun kiygan kiyimini maktabdan yirtib yoki kirchir qilib kelardi. Afsuski, o'shanda bizning shaxsiy tikuvchimiz ham, kir yuvish mashinamiz ham yo'q edi. «Ishlamaydigan» onang kiyimlarni tikib, yuvib, ertalabgacha quritib, dazmollab farzandlariga kiydirib, maktabga jo'natardi. Chunki ukangning ikkita ko'ylagi yo'q edi. Bor-yo'g'i bitta bo'lardi, uyam akasining eskisi.

«Ishlamaydigan» onang darsdan keyin to'rtta farzandining har biri bilan individual dars qilardi. Ko'zining nurini to'kib sizlarga ertaklar o'qib berardi, qayta-qayta mashqlar bajartirardi. Ana shularning hosilasi o'laroq hammalaring o'qib, kasb-hunarli bo'ldinglar. Ha, bugun ignaga ip o'tkazolmay qolgan onangning ko'z nurlari sizlarning bolaligingiz qat-qatlariga sochilib ketgan.

«Xudo bergan» degan so'zlarimning ma'nisiga endi tushungandirsan. Xudo menga boylik bermadi, Xudo menga sen aytgan «ishlamaydigan» onangni berdi! Onangga qo'shib hamma narsani in'om etdi menga Alloh!

Qator-qator farzandlar berdi! Ularning har biriga yarasha aql-idrok berdi. El-yurt O'rtasida obro'-e'tibor berdi, birovdan kam qilmadi.

Topganimga baraka ato etdi! Qator-qator to'ylar qildim, birin-ketin mashinalar mindim. Birovning qo'liga qarab qolmadim. Onang bilan shaharma-shahar, ijarama-ijara yurgan kunlarim evaziga Allohim qo'sha-qo'sha uylar berdi. Hammasiga sekin-sekin, sabr-qanoat bilan erishdik, ammo birovning haqiqatiga xiyonat qilmadik, kimsani ranjitmadik, yolg'on gapirmadik, Xudodan qo'rqdik. Men nimaiki martabaga erishgan bo'lsam, uning to'qson foizida qariyb bir umr «uy bekasi» tamg'asi ostida yashagan Onangning xizmatlari bor! Vaholonki, onang ham oliy ma'lumotli pedagog, bir muddat bog'chada tarbiyachi, maktabda o'qituvchi bo'lgan. Ammo hammasini tashlab, farzandlarining kelajagi uchun ana shu yo'lni tanladi, ya'ni o'zining sharafli muallimlik libosini yechib, «uy bekasi» degan jandani kiyvolib, oilaviy jamg'armamizga mendan-da ko'proq va samaraliroq ulush qo'shdi.

Shu tufayli «Uning ayoli ishlamaydi» degan gapni juda-juda yomon ko'raman.

**«SVOY»**

Karmanada Odiljon Aminjonov degan mashhur kishi bor. U uzoq yillar savdo va maishiy xizmat tizimida rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Juda dilkash inson. Bir kuni deng, qaysidir bir to'yg'a bordik. Tabiiyki, yaxshigina mayxo'rlik ham bo'ldi. Suhbat, latifabozlik qizigandan-qizidi. Biz ham ancha «qizib» qolgan ekanmiz, vaqt o'tganini ham bilmabmiz. O'sha oqshom Odiljonning mashinasida uning uyiga bordik. Kattagina hovli ekan, hovlidan hovliga o'tdik, nazarimda. Darvoqe, darvozani ochishi bilan 4-5 ta it oldimizga yugurib keldi. Kattakon it menga qarab irilladi. Odiljon uning nomini atab, «svoy-svoy» deb qo'ydi. Itlar jimgina tarqaldi. Xullas, mehmonxonaga kirdim-u uxlab qoldim. Tong otib-otmay uyg'onib ketdim. Boshim zirqirab og'rirdi. Stolning ustida turgan sovuq choyni ichib sal o'zimga keldim. Tashqariga chiqmoqchi bo'ldim. Hammayoq jimjit. Zog' ko'rinmaydi. Hovlining bir chekasiga tasmollab yurdim. Adashmabman, hojatxonada shu yoqda ekan. Hojatxonaning ichida tahoratxonasi ham bor ekan. Yuvinib-taranib eshikni ochdim-u shu zahoti yana yopdim. Chunki hojatxonada eshigi oldida 15 chog'li it turardi. Ko'zlarimga ishonmay eshikni qiya ochib, yana qaradim. Rostdan ham itlar! Jussasi mushukdayidan tortib bahaybat eshakdayi ham bor edi. Ozroq kutdim, bo'lmadi. Eshitarmikin degan umidda: «Odiljon, Odiljon!» – deb tovush berdim. Javob yo'q. Itlar ham qimir etmaydi. Ular meni kutishyapti, hoynahoy. Tang ahvolda qoldim. Hojatxonada ham uzoq turolmadim, nima bo'lsa bo'lar, balki, uy egalari uyg'onib qolar degan o'yda eshikni baralla ochdim, tashqariga birinchi qadamimni qo'ydim. Itlar hushyor tortdi, hammasining ko'zi menda. Ikkinchi qadamimdan keyin ular menga «koridor» ochdi – ikki tomonga ajralishdi. Odam siqqulik bu oraliqdan o'tishim kerak edi. Oldinga qarab yurishdan boshqa yo'l qolmagan edi. Yo o'tib ketaman, yo itlar meni shu yerda tilka-pora qiladi. Nihoyat, yo'lakka kirdim,

ohista qadam tashlayapman-u itlarning ko'ziga qarashga qo'rqaman. Og'ir-og'ir nafas olayotganim o'zimga seziladi. Siz Mixail Sholoxovning «Inson taqdiri» nomli hikoyasi asosida suratga olingan mashhur filmni ko'rgansiz. Unda kino qahramoni Sokolovni nemis ofitserlari aroq bilan «siylashadi». Esingizga tushdimi, Sokolov: «Men birinchisidan keyin zakuska qilmayman!» – deydi va ikkinchi qadahdan keyin ham zakuska qilmaydi. Sokolovning bu jasurligiga qoyil qolgan fashistlar unga bir buxanka non va sariyog' sovg'a qilishadi, bor kazarmangga ketaver deyishadi. Buxanka va yog'ni quchoqlab ortiga qaytayotgan Sokolov «Hozir otib tashlaydi, hozir orqamdan otib tashlaydi» degan o'y bilan jiqqa terga botib, eshikdan chiqib oladi. Itlar orasidan o'tyapman-u meni «Hozir tishlaydi, hozir tishlaydi» degan o'y bosgan. Bor-yo'g'i ikki daqiqalik muddat men uchun bir oyga cho'zildiyov o'ziyam. Bir amallab «koridor»dan o'tib oldim. Ammo ortga qarashga jur'at yo'q. Qadam bosish maromini ham tezlatib bo'lmaydi. Lekin sezyapmanki, ular meni qadamba-qadam kuzatib kelyapti. Uy egalari yotgan xonaning oldidan o'tyapman-u najot yo'q, baqirolmayman, kimdir chiqib qolishini, itlarni quvib solishini juda-juda istayapman. Men yotgan ayvongacha o'n qadamlar qoldi. Shu payt nimadir taraqlab ketdi, men endi tamom deb o'yladim. Birinchi bor jur'at etib ortga qaradim. Eng orqadagi kuchukbachcha bexosdan supadagi tog'orani tushirib yuborgan ekan, aybdorday bo'ynini qisib, javdirab turibdi. Nihoyat, bir amallab ayvonga yetib keldim va o'zimni shiddat bilan eshikka urdim. Eshikni ortidan yopib, yerga yiqildim. Biroz muddat yotgach oynadan hovliga qarasam, meni kuzatib kelgan «gvardiya»dan asar ham yo'q. Hovli jimjit. Bosh og'rig'idan asar ham qolmagan bo'lsa-da, tonggacha mijja qoqmadim.

Ertalab choy ustida oqshomgi voqeani Odiljonga aytib bersam, kulimsirab: «Men kelgan payt sizni ularga tanishtirgandim-ku, – dedi. – Yo'qsa, begonani qo'yishmaydi».

Nonushtadan keyin katta-kichik «svoy»larim bilan xayrlashib xonadonni tark etdim.

## OLAPAR

Sho'rolar zamonining xalq qadamini o'lchaydigan qonun-qoidalarini ko'p edi. O'tgan asrning 60-yillarida oilalarda bittadan ortiq mol saqlaganlarga yaxshigina soliq solinadigan bo'ldi. Bu qaror qishloq ahlini ancha dilgir qilib qo'ydi. Jo'jabirday jonga bitta mol nima bo'lardi? Ayniqsa, yeyishi-yu ichishi chorvachilikka bog'liq tog' qishloqlari ahli bundan juda norozi bo'ldi. Tekshiruvchilar kelishi oldidan qishloq odamlari ortiqcha mol-holini tog'dagi yashirin toshqo'ra va toshqo'tonlarda saqlaganligini elas-elas eslayman. Mayli, bu alohida mavzu. 70-yillarda kimning kuchugi bo'lsa, otib ketarmish degan mish-mish tarqaldi. Bizning hovlida ham o'ta aqlli sariq olaparimiz bor edi. Garchand yegani sarqit bo'lsa-da, olapar hovli qo'riqlashdan tortib har kuni kechqurun qishloqning uch yuzga yaqin ushoqmoli-ning ichidan bizning 20 – 30 ta qo'y-echkimizni bexato ajratib, uyga haydab kelishgacha bo'lgan barcha vazifalarni ado etardi. Ayniqsa, ukam Ne'matulla bilan juda inoq edi. Ne'matulla toqqa chiqsayam, xashak to'plash uchun pastga tushsayam, unga hamrohlik qilardi. Yolg'ondakam ukamni urmoqchi bo'lib qo'l ko'tarsangiz, sizga tashlanmoqchiday bo'lib qattiq irillardir. Hammaning hovlisida oqshom tovuqlarni qiyratib ketadigan tulki janoblari ham biznikiga yo'lolmasdi. Olapar juda sergak qorovul edi. Xullas, ro'zg'orimizda uning ham oilamiz a'zolari kabi o'z vazifalari, aniqrog'i, o'z o'rni bor edi.

Biroq... ana shunday sadoqatli itni, itlarni otish uchun «jal-lod» kelayotgan edi. Keldi ham! Xalq orasida «mantikris» deb nomlanuvchi «TOZ-8» miltig'ini ko'tarib Aymatga kelgan «jal-lod» qishloqning yarim kuchugini otib tashladi. Birdan hushyor tortib olaparni izlay boshladim. U hech qayerda yo'q edi. Keyin bilsam, Ne'matulla bu gapni allaqachon eshitib olaparni toqqa olib chiqib ketgan ekan. Bir yengil tortdim. Navbat Yorqul aka-



ning kuchugini otishga kelganida u itining ustiga yotib oldi: «Oldin Bahrom va Asraqulning kuchugini otasan, keyin menikini!» Ular mening akalarim edi. Xullas, ancha tortishuv va janjallardan keyin tog'dan Ne'matullani topib kelishdi. Ne'matulla uyga keldi, ammo olapar nimanidir sezgan, shekilli, ariq yoqalab katta tezlikda hovlining pastiga qarab chopib ketdi. Ammo «jallod» haqiqiy jallod ekan, ancha uzoqda yugurib borayotgan itni aniq mo'ljalga oldi. O'q ovozi dan keyin olapar yiqildi, lekin bir yumalab hovlining pastiga o'tib ketdi. Ham hovliga, ham chorboqqa eshigi bor dahlizdan o'tib, o'zi yotadigan uychaning oldiga keldi-yu bir akilab yiqildi. U yurgan yo'l, jumladan, dahliz ham qip-qizil qon edi. «Jallod» kelib so'nggi o'qni uning peshonasiga bo'shatdi. So'nggi o'qning ovozi hali-hanuz miyamda jaranglaydi. Yaxshiyamki, yangam zor-zor yig'layotgan Ne'matullani qo'rqmasin deb zo'rlab ichkariga olib kirib ketgan ekan.

O'shanda qishloqda birorta it qolmadi. Qolishi mumkin edi. Ammo kuchugidan ayrilganlar hammani birma-bir sotdi. Ha, itlar qolmagani bilan, afsuski, itfe'llilar... Shoshmang, itfe'llilar deb yozyapman-u o'zimni olaparning ruhi oldida noqulay sezyapman. Itlardagi fe'lning nimasi yomon?! Olapar ham it edi, ammo qani endi odamlarda shu itning fe'lidan bir chimdim bo'lsa!

## XURMANGNI SINDIR, SIGIRIM

Ulug' insonlar atrofida hamisha turfa xil gaplar yuradi. Bu hikoyat yoki mish-mishni kim qanday qabul qilishi esa butunlay boshqa gap.

Atoqli baxshi, el suygan xalq oqini Ergash Jumanbulbul o'g'li, aytishlaricha, oqinlikdan tashqari el orasida o'ta ilimli, fors va arab tilining mukammal bilimdoni sifatida ham dong chiqargan. Shu bilan birga, dami o'tkir tabib ham bo'lgan. Ilon, chayon, qoraqurt chaqqan kishilarni dam solib davolar ekan, aniqrog'i, dami bilan tanadan zaharning zahrini chiqarib yuborar ekan.

Asraqul akaning aytishicha, Ergash otani bilgan odamlar uning o'ta sho'x, hazilkash inson bo'lganligini ta'kidlashgan. Buni hatto u kuylagan dostonlardagi qahramonlar fe'l-atvoridan ham anglash mumkin.

Kunlardan bir kuni Ergash otaning oldiga bir ayol keladi.

– Mullo bova, sigirim tepadigan bo'lib qolgan, sog'aman desam, yoniga yo'latmaydi. Iltimos sizdan, bir dam solib bersangiz, zora, yaxshi bo'b ketsa, – deydi yozg'irib.

Ergash ota bu ayolning astoydil yozg'irishidan kulib qo'yadi-da, bir parcha qog'ozga nimalarnidir yozib, dam soladi va ayolga tutqazib, tumor qilib tikishini hamda sigirining shoxiga osib qo'yishini tayinlaydi. Ayol mullo bovasining aytganini qiladi va kechqurun sog'ishga borsa, ne ko'z bilan ko'rsinki, pishqirib yotgan sigir biram muloyim bo'b qopti. U to sog'ib bo'lguncha sigir nafaqat oyog'ini, hatto dumini ham qimirlatmaydi. Ayolning esa bu mo'jizani aytmagan odami qolmaydi, kimni ko'rsa yotig'i bilan tushuntiradi, hayratlanadi, odamlarni hayratlantiradi, bovani qayta-qayta duo qiladi.

Oradan yillar o'tdi. Bu orada mullo bova ham yorug' olamni tark etdi. Lekin undan yaxshi ishlar va savobli amallar qoldi. Ayolning sigiri esa hali ham o'sha-o'sha – yuvosh. Avliyoning o'zi mullo bovaning karomatlarini aytib charchamaydi.

Inson degani qiziq xilqat. Hamma sirli narsalarga qiziqadi, sababini bilgisi keladi. Bu safar ham shunday bo'ldi.

– Yanga, – dedi bittasi, – mullo bova tumorga nima deb yozgan?

– Bilmasam, o'qimabman ham quvonganimdan.

– Keling, yanga, bir o'qib ko'raylik-chi, nima degan ekan, qiziq-da.

– E, qo'ying, qayin, bu bir ilohiy narsa bo'lsa, yaxshisi, teginmaylik, – deyishga dedi-yu, ammo ayolning ichida ham bir qiziqish uyg'ondi: «Rostdan ham nima deb yozgan ekan-a?»

Ayol borib sigirning shoxidan tumorni yechib keldi. Uni ohista ochdilar. Uchburchak qilib buklangan qog'ozni tekislab ko'rsalar, yozuv o'chmabdi, ammo u arab alifbosida yozilgan edi – hech kimning «tishi o'tmadi». Qiziqishning kuchliligi shuncha-ki, qog'ozni ko'tarib qo'shni qishloqdagi Rahmatilla mulloning oldiga kelishdi.

Mullo xatni o'qib, kulib yubordi. Hamma uning og'ziga tikildi. Mullo ovoz chiqarib o'qidi:

*«Xurmangni sindir, sigirim,  
Egangni o'ldir, sigirim».*

Endi to'planganlarning barchasi qahqaha otib yuborishdi. Darvoqe, xurma – bu sigir sog'adigan idish. Xullas, ular kula-kula tarqalishdi va qog'ozni ayolga olib borib berishdi. Ayol uni tumor shaklida tikib, sigirning shoxiga ilib qo'ydi. Ammo...

Ha, ammo ayol ertaga ertalab xurmasini ko'tarib sog'ishga kelsa, sigir xuddi avvalgiday yoniga yaqinlashtirmas emish. Ayolning barcha harakatlari zoye ketibdi, bir qultum ham sut sog'ib ololmabdi.

## AVLIYONING O'GITI

Bir elda martabasi ulug' avliyo yashar ekan. Kunlardan bir kuni uning huzuriga bir yigit kelib, iltijo qilibdi:

– Hazratim, yordam bering, qo'shxotinlikdan dod, uyimda ham, ishimda ham halovat yo'q, ajalimdan oldin o'lib ketadigan-ga o'xshayman. Sizning maslahatingizga muhtojman, iltimos, yordam bering!

– Bu oilaviy ish-ku! Men oilaviy ishlarga aralashmayman, o'g'lim, – debdi avliyo. Yigit bosh egib chiqib ketibdi.

Oradan bir-ikki yil o'tgach yigit yana avliyoning huzuriga kelibdi va arz qilibdi:

– Hazratim, yordam bering, garchand ikkita xotinim bo'lsa-da, bolam yo'q, bir duo qiling, toki men ham farzandli bo'lay.

– O'g'lim, – debdi avliyo, – farzand ato etish – Allohning ishi, men Allohning ishiga aralashmayman.

Yigit yana mulzam bo'lib xonadondan chiqib ketibdi.

Oradan yana uch-to'rt yil o'tibdi. Yigit tag'in o'sha tanish avliyoning oldiga yo'l olibdi.

– Hazratim, endi yordam bermasangiz bo'lmaydi, sizning duolaringiz ijobat bo'layotganligini ko'rib turibmiz. Yaqinda vazirimiz ishdan ketdi. Men ko'pdan unga muovin bo'lib ishlab kelaman. Bir duo qilingki, meni vazir qilib tayinlashsin...

– E, bolam, – debdi avliyo, – vazir tayinlash – davlatning ishi, men davlatning ishiga aralashmayman.

Ne bir umidlar bilan kelgan yigitning hafsalasi yana pir bo'libdi va jahl bilan avliyoga debdi:

– Siz qanaqa avliyosiz, o'zi? Na u ishga aralashasiz, na bu ishga yordam berasiz!

– Jahling chiqmasin, bolam, – debdi avliyo. – Agar shu uchta ishga aralashmasang sen ham menga o'xshab avliyo bo'lasan...

### «IRGAKO'RDI»

Samarqand taraflarda ana shunday ibora ishlatiladi. Irga deyilganida, mening nazarimda, uying, hovlining, umuman, turmushning ro'zg'orga daxldor ko'zga ko'rinib-ko'rinmas, nozik jihatlari tushuniladi. Bu ibora asosan oilaviy munosabatlarda, ko'pincha ayollar va qizlar, ona-qiz, qaynona-kelin O'rtasida bo'lgan muloqotlarda ishlatiladi. Ayniqsa, yangi oila shakllanishida bu ibora birinchi o'ringa chiqadi. Hatto bu sovchilik xizmatining eng muhim, aytish mumkinki, asosiy tamoyilini ham belgilaydi. Sovchilikning muhim yumushlaridan biri «Irgako'rdi» hisoblanadi. Bu marosimda kuyov tomondan kayvoni xotinlar kelinning uyiga borishadi. Ataylab tekshirish-masa-da, ayyor kayvonilar ko'z qiri bilan irgalarni nazoratdan o'tkazadilar. Ayrimlari suv ichish bahonasida oshxonaga, qo'l yuvish uchun vannaga nazar solsalar, boshqa birlari turli sabablar bilan molxona, tandirxona, hatto hojatxonagacha borib ko'radilar. Ba'zi birlari o'tirgan joyida gilamning bir chetini ko'tarib qarashadi. Maqsad – oilaning ro'zg'or yuritish tutumini ko'rish.

Ma'lumki, xalqimiz azaldan ozodalikni, saronjom-sarishtalikni, orastalikni yaxshi ko'radi. Sarishtali uy – farishtali uy. Tabiiyki, bu sarishtalikning boshida hamisha ayollar turishgan. Ayol esa bo'lajak oila bekasining onasi, tarbiyachisi, murabbiyi. Qush uyasida ko'rganini qiladi. Inson saronjom-sarishtalikka ham, palakat yashashga ham o'rganadi. Oldin ko'z o'rganadi, keyin fe'l shunga moslashadi, alaloqibat peshona-da deb ko'nikishadi. Ayrim ayollar sirti yaltiroqlikka juda o'ch. Uyiga mehmon kelsa ham, u yoq-bu yoqni nomiga supirib-artib, dasturxonaga zo'r berishadi. Bizning kayvonilarimiz esa anoyi emas. Ovqat kelishi bilan dasturxoniga qarashadi – dog'i yo'qmi, kirmasmi, kosa-qoshig'ini ko'radi – yuvganda yog'i qolmaganmi,

uyning burchaklarini kuzatadi – bolalarning kiyim-kechaklari, o‘yinchoqlari pala-partish tiqib tashlanmaganmi, vassajuftli shiftni maqtab, shiftlardan tartanak uyasi axtaradi. Oshxonada qozonini, molxonada sigirini, hovlidagi kuchugini maqtay-maqtay oila tutumining manfiy va musbat tomonlarini miyada yozib boraverishadi. Hatto bolasining tuvagi qay holatda turganligigacha qolmaydi.

Ziyofat tugab, tugunchaklar tugilib, xayr-xo‘shlashganida ham qiz tomon kayvonilarning qaroridan bexabar bo‘ladi. Kayvonilarning kuyov bo‘lmishning uyiga tashrifi hamma narsani hal qiladi. «Qudamizning tutumidan aylanay», – deya suyunganlari-yu «Palakat ro‘zg‘or ekan», – deb ranjiganlari qancha.

Irgako‘rdining ahamiyati ham shunda. Bu oila qurilishida asosiy bosqichlardan biri sanaladi. Bu bo‘lajak kelinning oilani eplab ketish salohiyatini belgilab beruvchi eng zarur tadbirdir. Onasini ko‘rib qizini ol deb bejizga aytishmagan. Shu bois ilgari-lari oilaviy janjallar, qo‘ydi-chiqdilar deyarli bo‘lmagan.

Darhaqiqat, kelin ovqat qilishni bilmasa o‘rganadi, kir yuvishni, sigir sog‘ishni, xamir qilib, non yopishni ham bora-bora bilib olishi mumkin. Ammo qiz bola sarishtalikni bolalikdan o‘rganmasa, yomon! Ro‘zg‘or yuritish ilmini egallamas, er sho‘rlik ming topib kelgani bilan uyda baraka bo‘lmaydi! Irgaga e‘tiborsiz ayolning hovlisi palakat, uyi isqirt, ro‘zg‘ori beburd bo‘ladi. Bu ayol tarbiyalagan farzand ham yana shu holatni takrorlaydi.

Bu bir qadim dunyodir. Unda hamma narsa sinovdan o‘tgan, saragi sarakka, puchagi puchakka ajralgan. Jumladan, irgako‘rdi singari urf-odat-u taomillarimiz ham!

## DURUSTBOYGA DURUST BO'LMADI

Ayol har biri satilday-satilday siynasini selkillatib kelardi.

Durustboy ikki qo'li bilan uning ko'ksidan itaradi, dod solib boshini chayqaydi.

– Em, ema qol, – deydi ayol. – Bu sening rizqing-ku, axir.

Durustboy uyaladi:

– Yo'q, yo'q, men yosh bola emasman.

Ayol indamaydi, orqasiga o'girilib o'ttiz qadamcha yurgach ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Durustboy sergak tortadi: «Tushimmi bu, o'ngimmi?» Yuzlarini, burunlarini chimchilab ko'radi – joni og'riydi. O'n-o'n besh daqiqa shu holatda turgach qir oshib ketgan qo'ylarining orqasidan yugurgilaydi.

Durustboy o'sha paytda o'n beshda edi.

Oradan yillar o'tdi, tog'asi uning boshini ikkita qilib qo'ydi, kelinchagi «qo'ziladi».

Saraton kunlarining birida mizg'ib, xayolida yana o'sha ayol paydo bo'ldi. Tag'in ko'kragini tutdi. Durustboy beixtiyor uning ko'ksidan itardi. Panjalari siynasiga botib ketdi.

Bu voqeadan so'ng qancha vaqt o'tdi – Durustboy eslayolmaydi – qattiq og'rib qoldi. Na oyoq ishlaydi, na qo'l, tana falaj. Alloh unga faqatgina xona shiftiga qarab xayol surish imkoniyatinigina qoldirgan. O'shanda yigirma va o'ttiz oralig'idagi bu norg'ul yigitning xotiriga nimalar kelmadi. O'nga kirmasdan tog'dan o'tin tashidi, tezak terdi. Otasi vafotidan keyin onasi ham uni tog'asinikiga tashlab, turmush qurib ketdi. O'zi bilan singlisi Zubaydani ham olib ketgan. Durustboy ularni juda sog'inadi, kechalari yig'lab chiqadi. Tog'asi esa onasi va singlisi oldiga borishga qo'ymaydi. Ishla deydi, pul top, uylantiraman deydi. Durustboy ishlay-ishlay topib kelgan uncha-muncha pulni ham tog'asi ba'zan xarjlab qo'yadi.

Kunlar shu zaylda o'taveradi. Durustboy uzzukkun qo'yinging ortidan qolmaydi. Har qalay, katta enasining qiyin-qistovlari bilan tog'asining bo'g'ini bo'shadi. Ikki xotinni qishloqdagi Oq-bo'ta hukumatning eshigini «supurib» kelishga yubordi. Qarz-qavola bilan to'y ham bo'lib o'tdi.

...Endi ro'zg'orining kam-u ko'stini to'g'rileyman deb kecha-yukunduz ishlayotgan Durustboy shu ahvolda yotibdi. Yaqin orada do'xtir ham yo'q. Uzoqqa borishni cho'ntak ko'tarmaydi. Katta enasi shu atrofdagi qushnoch-u baxshilarni chaqirib qaratdi, choryorlarga shamlar yoqildi. Hatto qisir echkiga teskari mindirib hovli aylantirdi – naf bo'lmadi. Hamon o'sha-o'sha – tilidan kalima tushmaydi, o'zini ko'rgani kelgan chol-u kampirlarning gangur-gangurini eshitadi, xolos.

Kunlardan bir kuni qiziq voqea yuz berdi. Durustboy keyin hisoblab ko'rsa, to'shakka mixlanganining qirqinchi kuni ekan. Oldida tog'asi va yana uch-to'rt chol o'tirgandi. Xayol surib anglamabdi – qarasa, ular yo'q. Shu payt eshik ochilib, uch kishi kirib keldi. Bittasining qo'lida kitob – kattaligi xontaxtaday keladi. Ikkitasi esa sovutga o'xshash kiyimda, qo'llarida bahaybat, yaltiroq dudama. Qarasangiz, sirtida odamning aksi ko'rinadi. Ulardan biri Durustboyga yaqinlashib qo'lidagi dudamani unga qarab silkitdi. Durustboy shunda angladiki, uning ustida ham taxta, tagida ham. Tepadagi taxtaga sanchilgan dudamaning uchi uning bo'g'ziga tegib turibdi. U katta ariqning ustida yotar, ariq to'la qon edi. Durustboy ajali yetganligini tushundi, shu joyning o'zida uni xuddi qo'y kabi bo'g'izlashadi.

U yana tepaga qaradi. O'sha uch kimsaning birinchisi nuqul kitob varaqlardi. Har bir varaqni sinchkovlik bilan kuzatar, ahyon-ahyonda hovliga bir qarab qo'yardi. Vaqt imillab o'tardi. Kitobning ham sanoqli varaqlari qoldi. Shu payt hovlidan g'ala-g'ovur ovoz keldi:

– Tezroq bo'lsalaring-chi, namozga kechikypmiz.

Durustboy bir amallab hovliga qaradi. Hovli to'la odam edi – chol-kampir, xotin-xalaj, bola-baqra... Shunda Durustboyning



ko'zi o'ziga emchagini tutgan xotinga tushib qoldi. U ham Durustboydan ko'z uzmay turardi. Negadir uni chaqirmoqchi bo'ldi – ovozi chiqmadi. Ayol esa tund qiyofada to'daning ichiga kirib ketdi. Hovlidagilar yana jonlanib qolishdi, ichkaridagilarni shoshiltirdilar.

Nihoyat, kitob yopildi, qazo damlari ham yetib keldi, shekilli. Biroq kitob ushlagan kishi bosh chayqadi:

- Kitobda uning ismi yo'q ekan.
- Hovlidagi qo'zilaridan birini so'yinglar!

Fotiha qilishib, qo'zini qurbonlikka atashdi. Uning qonidan olib, Durustboyning manglayiga ikkita chiziq tortdilar. So'ngra apil-tapil narsalarini yig'ishtirdilar-da, indamasdan chiqib ketdilar. Yo Rab, ular eshikdan emas, devorni yorib o'tib ketishdi.

... Durustboy ko'zini ochganida tog'asi va o'sha chollar miriqib choy ho'plashardi. O'zlari bilan o'zlari ovora – unga boqishgani ham yo'q. Jiqqa terga tushgan Durustboy kaftlari bilan peshanasini artdi. Artdi-yu hayron qoldi – kaftlari qon edi.

- Tog'a, – deya oldi u zo'rg'a.

Tog'asi ham, chollar ham unga qarab qo'rqib ketishdi.

Uning qo'llari ham, kaftlari ham qon edi. Hammasi yopirilib bemor tepasida cho'nqayishdi. Tog'asi sochiq bilan manglayini, kaftlarini artdi. Hech joyi lat yemagan. Qon qayerdan paydo bo'ldi? Astag'furullo, astag'furullo deyishdi chollar. Qon – yorug'lik dedi tog'asi, tuzalish alomatidir, balki?

Durustboy bo'lgan voqeani aytib berdi. Chollar yoqa ushlashdi, kimdir yaktagini ko'tarib, ko'kragiga tufiab qo'ydi. Ikkitasi hovliga chiqib keldi – hech kim yo'q. Shunda Sori mulla aytdiki, turinglar, hovliga chiqaylik. Usup (Durustboyning tog'asi – Yusuf) sen qo'radagi qo'zini olib chiq. So'y, farishta-yu arvohlarning ruhiga bir duo qilaylik.

Qo'zini so'ydilar. Pishirdilar. Tamaddi qildilar. Shundan so'ng Sori mulla bir qiroat qildi, bir qiroat qildi – Durustboyning boshi aylanib, etlari jimirlab ketdi. Hamma ovmin qildi, Durust-

boy ham fotihaga qo‘l ko‘tardi. Chollarning astag‘furulloi endi boshlandi. Qirq kecha-yu qirq kunduz falaj bo‘lib yotgan qo‘llar fotihaga ko‘tarildi. So‘ng u qo‘llariga suyanib gavdasini ko‘tardi, oyoqlarini yig‘ishtirib oldi, chordona qurib o‘tirdi. Devorga suyanib turdi, hovliga chiqdi, o‘choq boshida kuymalanayotgan ke- linchagi uni ko‘rib yig‘lab yubordi. Durustboy qo‘shilib yig‘ladi. Ularning safiga katta enasi qo‘shildi. Durustboy nima qilishini bilmasdi. Faqat ko‘zlaridan yum-yum yosh oqar, jigarbandlarini quchoqlab-quchoqlab ingrardi.

– Yaratganning karomati bu, – dedi tog‘asi, – bo‘ldi, kiringlar ichkariga, bas qilinglar yig‘ini.

Durustboy o‘sha kuni hovliga to‘shak soldirdi. Dashtning musaffo havosini simirib-simirib, yulduzlarga tikildi. Ana Temir qoziq, ana uning atrofida aylanayotgan Yetti qaroqchi. Ko‘zlari jimirlashib ketdi. Dunyo bunchalik suyimli, olam bunchalik keng va batartib. Yerning, osmonning muvozanati bormi? Menga qayta hayot baxsh etgan, karam ko‘rsatgan kim o‘zi?..

Yana eski tashvishlar boshlandi – qish-yoz, kecha-yu kunduz qo‘y-qo‘zilar ortidan yugurgani-yugurgan. Kunlarga suyanib haftalar, oylarga osilib yillar o‘taverdi. Qizlarini chiqardi, kelin oldi.

Endi uning tashvishlari singlisi Zubaydaning boshiga tushdi. Uyam qirq kun kasal yotdi, oxiri qandaydir momolariga tava-tazarru qilib, qaysidir otinoyidan qo‘l oldi – baxshi-qushnoch bo‘ldi. Xuddi Durustboyga o‘xshab Zubayda ham bir o‘limdan qoldi. Jonini saqlash evaziga momolari unga zurriyot bermadi. Singlisi (mening opam Zubayda)ning gaplarini so‘zlayversa, uning o‘zi bir tarix, o‘zi bir tilsimot.

\* \* \*

Rosti gap, o‘n-o‘n besh yil muqaddam Zubayda opamning boshiga og‘ir kunlar tushganida katta shoirmi-ey, olimmi-ey bo‘lish ilinjida shaharma-shahar tentirab yurardim. Ko‘p narsalardan xabarim bo‘lmagan. Eshitganlarimga ishonmaganman. Opam ham menga

aytmagan. Aytib nima ham qilardi: yon-atrofidagi ko'rib-bilib turganlarning boshi garang-u men nima karomat ko'rsatardim.

Har qalay, bugun havoyi istaklarga qo'l siltab yetti qat osmondan tug'ilgan tuprog'imga qaytdim – opamning yonidaman. U o'tmish xotiralarini ezilib-ezilib so'zlaydi. Ko'nglim buzilib-buzilib tinglayveraman, tinglayveraman. Xotiralar u uchun og'ir, men uchun ham mahzun, ham maroqlidir.

«Endi tamom bo'ldim deb o'ylagandim. Joyimdan turolmayman. Tun bo'yi alahsirab chiqaman. Rahmatli pochchang ham, Bahromjon ham (do'xtir akam) boshimdan jilishmaydi. Uzoq-yaqin qarindoshlar ham birma-bir kelib-ketishmoqda. Enam-ku uzzukkun yonimda ko'zyosh to'kadi. Ko'zimga allambalolar ko'rinadi. Ukoldan badanlarim ilma-teshik bo'lib ketgan. Ichmagan dorim, olmagan muolajam qolmadi hisob. Hech qaysidan naf bo'lmadi. Oxiri uzoqdan bir mulla-tabib chaqirdilar. U meni qirq kun chillaga soldi. Qirqinchi kunimi-ey, bilmadim, bir qo'y buyurgan ekan, so'ydilar. Tabib qo'yning bir kosa qonini olib deraza raxiga – parda ortiga qo'yaniga ko'zim tushdi. Vujudimda allaqanday kuch paydo bo'ldi. Xudoning qudratini qarangki, bir yildirki qimirlamay yotgan odam sakrab turib deraza tomon otildim. Qarshiliklarga qaramay, kosadagi qonni to'la sipqordim. O'shandagi holatimni bir sezsangiz edi, ukaginam, shunchalik yengil tortdimki, go'yo oyoqlarim yerga tegmaydi – uchayotgandayman. Keyin tashqariga – hovliga chiqdim. Qo'yni so'yan joydagi qotib qolgan qonni yaladim, tuproqlari bilan qo'shib yedim. U shunchalik totli ediki, dunyoda hali bunaqa ne'matni tanovul qilgan emasman.

Tag'in ichkariga qaytib kirdim. Shunda ko'ksimga tomdan bir nur tushdi. Moviy nur. Ilkis tepaga qaradim. Oppoq libosda to'rt nafar qiz ko'rindi. Tanishdek tuyuldi, qayerda va qachon ko'rganman, eslayolmayman».

Zubayda opam hikoyasini to'xtatdi. Ancha muddat indamay o'tirdi. Bezovtalanib bir-ikki bor tomoq qirdim. Voqea qiziq edi,

tezroq eshitgim kelardi. Ammo ma'vuslanib o'tirgan opamni qistashga o'zimda jur'at topa olmadim. U choy damlash bahonasi-da dahlizga chiqib ketdi. Mening ko'z o'ngimda oq libosli o'sha to'rtta qiz qotib turardi. To'satdan «lenta» almashti – ro'paramda aftini burishtirib Hojiboy Tojiboev paydo bo'ldi:

– Tanimading-a?

– Yo'q, aka, tanimadim, eslolmayapman.

– Shu-da. Tanimaysan-da!

Eshik ochilib, opam kirib keladi. Diqqat bilan unga tikilaman. Ko'zlari qizaribdi – yig'labdi. Hayratlanaman. Tilim lol qotadi. Eshitgan voqealarning yuki qimirlatmay qo'yg'an.

– Nima bo'ldi, opa, mazangiz yo'qmi? – deyman zo'rg'a.

Qiziqish baribir ustunlik qiladi. Mavzuga qaytishga iymانب-gina yana ishora qilaman.

– Agar ularni eslay olmayotgan bo'lsangiz, aytmay qo'ya qoling, shartmas.

«Ha-ya, esim qursin, taniyolmadim ularni. Keyin o'zlari eslatishdi. Biz sen bilan o'n sakkiz yoshingda ham uchrashgandik deyishdi ular. Ammo sen bizning aytganlarimizni bajarmading – yo'limizga kirmading. Beshikdagi bolangning joni evaziga o'zing tirik qolding».

Momolarim-a, buncha beshafqat bo'lmasangiz. Jazoyingizning bunchalik qattiqligi tushiga kiribdimi opamning. Men uning oltmishga kirib bepusht o'tganligini endi angelayapman. To'g'ri, qayta turmush qurgan, o'gay bo'lsa-da, tuqqan farzandlaridan aziz va mehribon o'g'li, qizlari bor. Enam bechora hammamizdan ham ko'ra shu opamni o'ylay-o'ylay o'tib ketdilar yorug' olamdan. Bu qilmishlaringiz marhamatingizmi, mukofotingizmi, johillik yoki jazoyingizmi, aqlim yetmaydi.

«Endi bizdan boshqa marhamat kutma, aytganlarimizni bajar deyishdi. Odamlarga ayt, seni dovkar deb atashsin. O'zing beshikdagi boladan tortib uvada bilan tomog'iga suv tomizayotgan nuroniygacha sizlab gapirasan. Uydagilarga ayt, childirma

bilan bir oyna keltirishsin. Childirmaga hatto yasagan ustaning ham qo'li tegmagan bo'lsin. Yon-atrofigda dardmandlar ko'payib ketishdi. O'shalarga qara, davola. Childirma chalsang, biz kelib senga qarashib turamiz. Biz otangga bir tosh berganmiz. Hozir u Gavhar ammingning sandig'ida turibdi. Uni ol. Chayqab, dardmandlarga ichir.

Hamma mashmashalar keyin bo'ldi. Dastlab uydagilar, keyin qo'ni-qo'shnilar xatti-harakatlarimdan kula boshlashdi. Akamga childirma topib kelasiz dedim. Hadeganda olib kelavermadi. Momolarim esa tinch qo'yishmaydi. Turli muolajalarni bajarishni buyurishadi, akangga ayt, childirmani tezroq keltirsin deyishadi. Oxiri akamning oldida yig'ladim. Kattaqo'rg'onga o'zim boraman dedim. Xullas, akam ertasiga yangi childirma va oyna olib keldi. Buyumlarni to'rga – uyning burchagiga qo'ydilar. Men poygakda o'tiribman, lekin ko'zim childirmada, butun vujudim bilan unga intilyapman. Chidayolmadim, o'rnimdan turib qadam bosishimni bilaman, childirma uchib kelib qo'limga tushdi. Qo'rqib ketdim. Yuragim tushib qoldi (siljidi demoqchi, tabobatda bu bor gap). Tag'in tabib chaqirdilar. U uchta yo'ldan uchta tosh va otning kishanini topib, olovda qizdirishni buyurdi. Kishanni qidirmagan joyimiz qolmadi – yo'q. Shunda yana o'sha nur paydo bo'ldi va parilar ko'rinishdi. Dahlizdagi o'raga qara, kishan o'sha yerda dedilar. Dahlizimizda sabzi ko'milgan o'ra bor edi. Sabzi tugagach, o'raga hamma narsa tashlanavergan. Xo'jayinimga momolarim kishanni o'rada deyishyapti dedim. U ham meni aqldan ozgan-ga yo'ydi. Qarangki, kishan o'sha joydan topildi. Ularni qizdirib tepamda suv quygach, biroz o'zimga keldim».

So'ngra opam o'rnidan turib, ko'rpalarining qatida bir qog'oz olib menga tutdi. Bir parcha qog'oz. Qanaqadir yozuvlar bor. Bizning harflarga o'xshash harflar ham uchraydi. Arabchaga ham o'xshamaydi. Opamga qarab yelka qisdim: tushunmadim.

«Parilar o'z nomlarini yozdirishgan edi. Arabcha yozuvni bilmayman, ammo o'shanda o'ngdan chapga qarab yozganligim

esimda. Keyin uni Rahmatulla Maxsumga olib bordim, o'qiyolmadi. Abdusalom mullaga uchrashdim, uyam tushunmadi. Lekin o'zim o'qiyman: Sanam pari, Bo'g'in pari...»

Hech narsaga aqlim yetmaydi. Xuddi ertak tinglayotgandayman. So'ngra opamdan Gavhar ammaning sandig'idan topilgan toshni so'rayman. Xuddi tuxumga o'xshaydi, tosh emas, shisha tuxum. Faqat kichikroq, xuddi kaklikning tuxumiday. Shunda olimlarimizning yer yumaloq emas, tuxum shaklidir degan gaplari yodimga tushadi. Unga sinchiklab qaray boshlayman. Uch-to'rt joyida qandaydir belgimi-ey, harfmi-ey bor. Boyagi xatni olib solishtiraman. Undagi harflarga o'xshab ketadi.

«Bir kuni xo'jayinim bilan choy ichib o'tirgandik. Birdan piqillab yig'lab yubordim. O'zimni hech to'xtatolmayman. Xo'jayinim ham qo'rqib qoldi. Nima bo'ldi senga, nega yig'layapsan, biror joying og'riyaptimi deya u halak. Men esa battar yig'layman, osmonga ishora qilib, momolarimning bobosi o'ldi, Avliyo ota qazo qildi, qarang deyman. U to'rt tomonga alanglab hech narsani ko'rmaydi. Men esa kuzatib turibman: parilarim zor qaqqash bobosini so'nggi yo'lga kuzatishyapti. Chidab turolmayman, battar yig'layman. Pochchang esa aqldan ozibsan deb uydan chiqib ketdi».

Meni xayol domiga tortadi. O'qiganlarimni, eshitganlarimni, ko'rgan-bilganlarimni o'ylayman. Toz qishlog'idagi Ochil momo, aymatlik sinfdoshim (bor-yo'g'i uchinchi sinfni bitirdi) Muharram qushnoch, samarqandlik Hasan tabib, ilgirilar, baxshilar, turli gap-so'zlar-u tazyiqlar, bioquvvatli kishilar, haqiqiy folbinlar-u turfa nayrangbozlar ko'z oldimdan o'tadi. Dard joningga burov solib turganidan keyin, sho'ro davrining «yuksak cho'qqiga chiqqan bepul meditsinasi»ning ojiz-u notavonligini bilgandan so'ng, istaysanmi, istamaysanmi, ana shularning eshigini qoqib borasan. Agar shifo topsang to'rt-besh birodaringga aytasan ana shu tabibning qo'li yengil ekan deb. Aytmasang, o'zlari so'rab olishadi. Ishqilib, nayrangboziga uchramasang bo'lgani...

– Opa, siz qanaqa dardlarni davolaysiz? Muolajangizning boshlanishi qanday bo'lgan? – to'satdan xayolimga kelgan savoldan o'zimni tutib turolmadim.

«Bilasiz, Bahrom do'xtir. Shu atrofda o'ziga yarasha obro'-e'tibori bor. Bundan o'n-o'n besh yil ilgari ahvol yomon edi. Men tabiblik qilsam, ukamga yomon bo'lmasin deb yoniga bordim. Momolarim qo'yishmayapti, bu ishni qilsam sizga yomon gap-so'z bo'lmaydimi deb so'radim. «Hechqisi yo'q, opa, joningiz garovda ekan, qilavering, – dedi u yarim hazil, yarim chin qilib. – Topganingizdan berib tursangiz bo'ldi». Shu-shu boshlanib ketdi. Tomog'i, yuragi, buyragi og'riganlarni davolayman. Ayollarining kasalliklariga qarayman. Atrofdagi tuman va viloyatlardan odamlar kelib turishadi. Ularning kelishini oldindan sezaman. Hatto boshqa yoqqa mehmondorchilikka ketsam ham belgi beradi. Qaytib kelsam, uyga kimdir kelib ketgan bo'ladi. Bir kuni deng, Bo'g'in pari endi sen chiqqan va singanlarni ham davolaysan dedi. So'ng davolash usullarini ko'rsatdi, duosini o'rgatdi. Qizingga ayt dedi u keyin, oq tovug'ingning oyog'ini sindirdik, hovlida yotibdi, olib kelsin. Qizimni chaqirib voqeani tushuntirdim. Bekorlarni aytibsiz dedi u, hozirgina ko'rdim hovlida yuribdi. Olib kel, bo'lmasa, o'zim chiqaman dedim. U noiloj chiqib ketdi va hayratlanib oyog'i singan tovuqni olib kirdi. Shu-shu hozirgacha chiqqan va singanlarni ham davolayapman. Momolarim fol ochishga ham ruxsat berishgan.

– Sizni telba deb ustingizdan kulganlarida xafa bo'lmaganmisiz?

– Ilojim qancha. Xafa ham bo'lganman, yig'laganman ham. Bora-bora hammasi tushunishdi, ko'nikishdi. Bir kuni qayin ukam: «Checha, tomog'im og'riyapti, qarab qo'ying», – deb 20 tiyin tutyapti. Alam qildi. Men sizning pulingizga zormidim, qaramayman dedim. Rahmatli qaynonam kuzatib turgandi, nima-dandir jahli chiqdi. Qaramasa qaramasin, kel, tomog'ingni o'zim bosib qo'yaman deb muolaja qila ketdi. Ertasi kuni qaynonam-

ning bosh barmog'i likillab qoldi. Hech to'xtamaydi deng. Oxiri kechirim so'radi. Parilaringga qilgan ishim yoqmadi dedi. Tavbasini momolarimga yetkazdim. Qabul qilishdi».

– Parilaringizning qanoti bormi?

– Yo'q, ayroplanga o'xshagan yumaloqmi-ey, cho'ziqroqmi-ey bir narsada kelishadi.

– Opajon, bu charxi kajraftor betinim aylanib yotgani-yotgan. Bugun oftob shu'lasi tegib turgan joyga ertaga soya tushishi, zulmat cho'kishi mumkin. Erta-indin kimdir kelib: «Sen odamlarni aldayapsan, hech qanday parilar ham, momolaring ham yo'q, bor bo'lsa, bizga ko'rsat ularni», – desa, qanday isbot qilgan bo'lardingiz?

– Bilmasam, ukam. Odamlarni aldab iymonimni yutibmanmi.

\* \* \*

Endi gapni yana Durustboydan eshiting.

Durustboy bora-bora bularning barchasini unutdi. Ammo bir kuni institutda o'qiydigan o'g'li Abduhamid kelib qoldi. Ota, mazam yo'q dedi. Nega? Paxtada yurib bosinqiradim, shekilli. Nima bo'ldi? Uxlab yotganimda bahaybat bir ayol kelib ustimdan bosdi, sal bo'lmasa, nafasim qaytib ketay dedi. Sirdaryoda mashinamni avariya qilganimda ham shu ayol yo'limni to'sgandi.

Durustboyning ko'z o'ngiga tag'in o'sha ko'kragi satilday-satilday ayol keladi. Ichidagini sirtiga chiqarmaydi.

– Yotgan joying notozaroq bo'lgandir-da, hechqisi yo'q, adrasmon (isiriq) tutatib yuborsang, o'tadi-ketadi.

Lekin kechalari uning uyqusi qochib ketadi. Yotgan joyida o'ylaydi. Mening gunohlarimmi bu? Men nima gunoh qildimki, singlim qiynalsa, jigargo'sham azoblansa! Ey xotin, ey momolar, ularga teginmanglar, yaxshisi, meni olib ketinglar.

Ammo hech qanday aks sado bo'lmaydi.

Bularning bari holva ekan. Ikki yil burun dahshatli voqea sodir bo'ldi. To'qqizinchida o'qiydigan qizi o'zini tomdan tash-



ladi. Biror joyi lat yeyish tugul, qizarmagan ham. Onasi qizidan so'ragan ekan:

– Ko'pdan buyon bir xotin meni o'z huzuriga chaqiraveradi-chaqiraveradi. Shuning oldiga ketayotgandim. Pastdan meni yo'qlagan ovozingizni eshitib qoldim. Qolganini bilmayman, – deb javob beribdi.

Bir hafta o'tgach qizning o'ligini chayladan topib olishdi. U o'zini osib qo'ygan ekan. Kovushining ichida bir enlik xat qoldirgan: «Kechiring, ota, meni qo'yishmadi, men o'sha xotinning oldiga ketdim...»

Dod degan kim bo'ldi, faryod degan kim bo'ldi. Odamlarni g'am tutdi, qishloqni motam tutdi. Mayyitni qo'yib kelgan kechasi Durustboy toqqa chiqib ketdi. Uzoq yurdi. Bir tepalikka chiqib, samoga yuzlandi-da, qo'llarini cho'zib baqirdi:

– Hoy enag'ar xotin! Eshityapsanmi, tush pastga, oldimga kel. Nima niyating bor? Tinch qo'yananmi, yo'qmi? Senga nima kerak, o'zi? Seni emishim kerakmidi... tush pastga, emchaklaring bilan qo'shib yutib yuboraman. Nega indamaysan? Ehtimol, senga mana bu kerakdir, – u qo'llari bilan chotini ushlab ko'rsatdi. – Ma, ma, kesib ol, ye, to'y!

Baqiraverib uning ko'ngli bo'shadi, yig'lab yubordi.

Osmon uzoq, yer qattiq edi.

\* \* \*

Azizlar, buni badiiy hikoya deb o'ylamang, bu bo'lgan voqea. Durustboy mening tug'ishgan akam, hozir ham hayot. Sakkizta farzandi, o'nlab nevaralari bor. Besh vaqt namozini kanda qilmaydi. Bu voqealar haqida so'zlasangiz, hech narsa aytmaydi, Yaratganning ishi-da deb qo'ya qoladi. Bu voqealarni sharhlashga mening aqlim ham ojizlik qiladi. Shu tufayli nimaniki eshitgan bo'lsam, hammasini qog'ozga to'kdim.

Har qalay, Durustboyga durust bo'lmadi...

## AYMAT QISHLOG'IDAN TARALGAN SADO...

Alisher AYMATLI (Esirgap Boliev) ko'p yillar jurnalistika sohasida mehnat qildi. Tuman, viloyat, respublika gazetalarida faoliyat olib bordi. Bu maydonda doimo o'zining o'tli-shudliligi bilan ajralib turdi. Har bir katta-kichik maqolasida, albatta, elga aytar zarur gapi bo'lar edi. Kamina bir hamkasb sifatida uning publitsistik ijodiga tan berib, yozganlarini doimo dilim yayrab o'qib, zavqlanib kelganman. Ishonchim komil – jurnalistika sohasi Alisherday ehtirosli, tabiati tiyrak, dadil, to'g'riso'z ijodkorlar kuchi va shijoati bilan rivojlanadi, yuksaladi, elda nufuzi ortadi...

Bugunga kelib Alisher o'z shaxsiy ijodiy imkoniyatlarining yangi qirralarini namoyon etyapti. 2010 yili uning ko'pgina she'riy to'rtliklari va qatra-qatra hikmatli aytimlarni o'z ichiga olgan «Yurak mezonlari» to'plami nashr etildi. Oradan ikki yil o'tib xuddi shunday badiiy ijod namunalaridan tarkib topgan «Arslon uyasi» nomli ikkinchi kitobi yorug' olam yuzini ko'rdi.

Odatda, bir-ikki dastlabki kitobi bilan adabiyot maydonida ko'ringan qalam sohibini «yosh ijodkor» deb atash rasimga kirgan. Ammo ushbu atama Alisher AYMATLIga to'g'ri kelmaydi. Uning yuqoridagi kitoblaridan o'rin olgan to'rtliklari va hikmatli nasriy qatralari yetuk hayotiy tajribali, oqil, dono insonning dil so'zlaridir. Ham shaklan, ham mazmunan bu mitti hajmli asarlar ruhiy-ma'naviy jihatdan ancha balog'atga erishgan bir ijodkorning adabiyot maydoniga kirib kelganligidan dalolat beradi.

Alisher AYMATLI mashhur xalq baxshilari va oqinlari yashab ijod etgan muhitda dunyoga keldi. Uning o'z iborasi bilan aytganda, bobosi «Sarimsoq baxshi Ergash Jumanbulbul o'g'lining uzangidoshi» edi. Bolaligi mana shu ulug' baxshilarning do'mbiralari sirli va ma'noli sadolar taratgan muhitda shakllandi. Xalq dostonlari va termalari uni mahliyo etdi. Tomirida xalq shoirlarining qoni oqayotgan Alisher AYMATLI o'sha bolalik kunlaridan

boshlab og'zaki va yozma badiiy ijodga mehr-muhabbatli bo'lib o'sdi. Har birida bir dunyo hayotiy va ijodiy ma'nolar mujasamlangan baxshiyona termalar, ayniqsa, maftunkor edi. Alisher AYMATLIning kitoblaridan o'rin olgan to'rtliklarda ana shu ulug' ijodiy maktab ta'siri yaqqol sezilib turadi. Buni e'tirof etib shunday bir to'rtlikni bitgan:

*Ko'ksimdan bo'g'zimga bir so'z o'rmalar,  
Unga surkamadim o'sma, surmalar.  
El og'zidan terib olganlarim bu –  
Shu bois atadim uni TERMALAR...*

Alisher AYMATLIning ijodiy uyg'onishiga turtki bergan ikkinchi ibratli maktab hozirgi o'zbek she'riyatidagi ustozlar ijodidir. Alisher, ayniqsa, Abdulla Oripov she'riyatining chin muxlisi. Hatto shu ulkan shoir ta'sirida o'z to'rtliklarini yoza boshladi. Ustoz va shogirdni iliq-samimiy ijodiy hamkorlik bog'lab turadi. Abdulla Oripov Alisherdan (Esirgapdan) eshitgan bir necha hikmatli aytimlarni shu qadar nodir to'rtliklarga aylantirdiki, Alisher ularni hayrat bilan kutib oldi. Keyin u o'ylab ko'rdi: bunday iboralar, hikmatlar uning xotirasida, qalbida buloqday jo'sh urib turibdi. O'zi ham mashq qilib ko'rsa bo'lmaydimi? Xullas, ishga kirishdi. Ancha-muncha to'rtliklar yozdi. «Termalar» deb atalgan bu mitti asarlarda xalqchil yo'nalishdagi iste'dod porlab ko'rina boshladi.

Bugun Alisher AYMATLI ellikdan oshdi. Hayot nash'u namolarini va sinovlarini boshdan kechirgan oqil, dono inson u. Dunyo kezdi, necha ellar va xalqlar hayoti bilan tanishdi. An'anaviy terma yo'llarida zamonaning boy va murakkab nafasini ifodalovchi ko'plab to'rtliklar bitdi. Balladalar, hikmatli badialar, hikoyalar yaratdi. Ularni «Ko'ngil hikmatlari» deb atalgan yangi kitobida jamladi. Qo'lingizdagi ana shu yangi kitob Alisher AYMATLIning sanoq hisobida shunchaki uchinchi kitobi emas. Ushbu to'plam

bilan tanishgach ijodkorning ma'naviy va ijodiy jihatdan yangi dovonga ko'tarilganligiga guvoh bo'lamiz.

Alisher Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi Aymat qishlog'ida tug'ilgan. Bolaligi va o'spirinligi shu qishloqda kechgan. Adabiy ijodni niyat qilgach shu ona ostona hurmati o'ziga AYMATLI taxallusini tanladi. Bu qishloq unga faqat taxallus bermadi, balki ijodiy xayollariga parvoz, asarlari-ga mavzu va ma'no ham tuhfa etdi. Aymatliklar taqdiri, go'zal urf-odatlar, fikr-o'ylari, dunyoqarashi, maqsad-u intilishlari, orzu-armonlari uning nasriy va she'riy yaratmalari dunyosiga aylandi. Aymat qishlog'ining tarixi, ajdodlardan meros qolgan donishmandliklar, uning buguni va kelajagi bilan bog'liq o'ylar Alisher AYMATLIning yozganlari orqali butun yurtimizda sado bermoqda. Shu qishloq hayotidan olingan mavzu va masalalar asosida yaratilgan ko'pgina she'riy novellalar, xalqona hikoyalar «Ko'ngil hikmatlari» kitobining salmog'ini belgilab turibdi. Ushbu kitobda Alisher AYMATLI faqat to'rtliklar (termalar) va qatra nasriy aytimlar ijodkorigina emas, balki hozirgi adabiyotimizda yangicha ma'no va ohanglar bilan o'ziga xos jaranglab sado beradigan balladalar, betakror xalqona ruhli hikoyalar muallifi sifatida ham o'zligini namoyon eta olgan.

Aziz kitobxon! Kamina qanchalik ta'rif-u tavsif etmasin, «Ko'ngil hikmatlari» kitobining o'zi sizga ato etadigan lazzat va shavq-zavqning o'rnini bosa olmaydi. Xalqona hikmatlar, teran va hayotiy kuzatishlar, muallifning dono, sinchkov nigohi ilg'agan va kashf etgan ma'nolar-u manzaralar bilan bezangan ushbu to'plam hozirgi adabiyotning keng e'tibor va arzigulik hodisalaridan biri ekanligiga, yaxshisi, kitobni o'qib o'zingiz shaxsan ishonishingizni istar edik.

**Mixli SAFAROV,**

*adabiyotshunos,*

*O'zbekiston Respublikasida  
xizmat ko'rsatgan jurnalist*

## MUNDARIJA

Shoirning haqiqati.....	178	Sen donishsan.....	195
<b>TERMALAR</b>		Dilozor .....	196
Izhor .....	182	Og'ir yuk.....	196
Orzu .....	182	To'ti.....	196
Kalit.....	182	Beda .....	197
Yuk.....	183	Chelak .....	197
Toymasin .....	183	Muhojir.....	197
Hurriyat.....	183	Uchirma.....	198
Bilgin .....	184	To'r.....	198
Chigit .....	184	Nafs .....	198
Qaniydi.....	184	Ot.....	199
Vali.....	185	Bilmaski.....	199
Taroq .....	185	Taskin.....	199
Ko'mir.....	185	Qadam.....	200
Ko'rmaydi .....	186	Yo'l .....	200
Yiqar .....	186	Tushovdagi ot .....	200
Tavba .....	186	Musofir qo'shig'i.....	201
Maosh.....	187	Qishloq.....	201
Saqlar .....	187	Kengash.....	201
Yaxshi va yomon .....	187	Tuzalmas.....	202
Qismat.....	188	Manglay .....	202
Rahm .....	188	Ketar .....	202
Va'da .....	188	Hijrat.....	203
Maxsi .....	189	Davlat.....	203
Qulluq.....	189	Ish .....	203
Afsus .....	189	Tanglik.....	204
Kular .....	190	Omonlik .....	204
Vahm.....	190	Amaldor .....	204
Ketdi.....	190	Unutmang.....	205
Qasd .....	191	Kuygay.....	205
Tovush.....	191	Sabr .....	205
O'xshar.....	191	O'yin.....	206
Kim eshak?.....	192	Shayton.....	206
Qaynona .....	192	Tanishgay.....	206
Maqtar .....	192	Qattiq.....	207
Qaychi.....	193	Ko'tarolmas.....	207
Kosov.....	193	Xorijda.....	207
Omad .....	193	O'tar dunyo .....	208
Soya.....	194	Qaradim.....	208
Cho'pon.....	194	Yaxshi ekan .....	208
Sindirar.....	194	Dur.....	209
Sho'r.....	195	Chaqadi.....	209
Qismat.....	195	Unar .....	209
		Pichoq .....	210

Ustun.....	210	Lochin.....	225
Buyurmadi.....	210	Sinoat.....	225
Jazo.....	211	Sabr.....	225
Ajrata bil.....	211	Qizlar va konfet.....	226
Riyo.....	211	Bobo va nevara.....	228
Bilki.....	212	Bedavo dard.....	229
«Do'stlar».....	212	Iymon va ixlos.....	232
Egadi.....	212	Yuz dollar.....	237
Yoronlar.....	213	Donish o'giti.....	240
Bechora.....	213	Lo'li qiz hangomasi.....	243
Dunyo.....	213	G'iybat bandalari.....	248
Shirin.....	214	Choh.....	251
Yo'lga tushdim.....	214	Qizim hikoyasi.....	254
Tug'ilajak nabiramga.....	214	Ona suti.....	260
Oddiy maslahat.....	215	Bashar o'giti.....	264
Sotmas.....	215	Kim yaxshi?.....	268
Ko'rasan.....	215	Go'zallar.....	270
G'aflat.....	216	Faqirning boyligi.....	272
O'yla.....	216	Samuray.....	274
Vo ajab.....	216	Talaba va farishta.....	279
Tish.....	217	Go'rkov.....	283
Qarz.....	217	Machit hangomasi.....	287
Bo'm-bo'sh.....	217	Hikmat bilan ish tuting.....	290
Eshik.....	218	Hazrati Umar.....	294
Polvon.....	218	Sartarosh.....	296
Chumchuq.....	218	Temirchi.....	300
Omonat.....	219	Er va xotin qissasi.....	304
Mo'rt.....	219	Dahriyning sovg'asi.....	312
Maqtanchoq.....	219		
Ig'vo.....	220	MUVOZANAT	
Demadim.....	220	Xudoga shukr!.....	316
Alda dedi.....	220	Samimiylikning nosamimiy izhori..	317
Meng.....	221	Shirguruch.....	318
Hech qachon.....	221	Do'stni... Sotish mumkin.....	319
O'lchama.....	221	«Uning ayoli ishlamaydi».....	323
It.....	222	«Svoy».....	326
Nadomat.....	222	Olapar.....	328
Cho'p.....	222	Xurmangni sindir, sigirim.....	330
Arz.....	223	Avliyoning o'giti.....	332
Qo'rq.....	223	«Irgako'rdi».....	333
Iroda.....	223	Durustboyga durust bo'lmadi.....	335
Shoir.....	224	Aymat qishlog'idan	
Asalari.....	224	taralgan sado... ..	346
Er-xotin.....	224		

*Адабий-бадиий нашр*

**Алишер АЙМАТЛИ**

**КЎНГИЛ ҲИКМАТЛАРИ**

**Муҳаррир:** Абдулла ШАРОПОВ

**Бадиий муҳаррир:** Баҳриддин БОЗОРОВ

**Техник муҳаррир:** Алимардон АҶИЛОВ

**Саҳифаловчи:** Иномжон ЎСАРОВ

**Мусахҳиҳ:** Элбек ЖУМАНОВ

*Китобни безашда Шомирза Турдимов  
чизган расмлардан фойдаланилди.*

Нашриёт лицензияси: АI №134, 27.04.2009  
Теришга берилди: 10.06.2016 й.  
Босишга рухсат этилди: 23.06.2016 й.  
Офсет қоғози. Қоғоз бичими: 84x108<sup>1/32</sup>.  
Cambria гарнитураси. Офсет босма.  
Ҳисоб-нашриёт т.: 13. Шартли б.т.: 18,48.  
Адади: 1600 нусха.  
Буюртма №64

«АКАДЕМНАШР» нашриётида тайёрланди.  
100156, Тошкент шаҳри Чилонзор тумани 20<sup>А</sup>-мавзе 42-уй.

Тел.: (+99871) 217-16-77  
e-mail: info@akademnashr.uz  
web: www.akademnashr.uz

«PRINT LINE GROUP» ХК босмахонасида чоп этилди.  
100096, Тошкент шаҳри Бунёдкор шоҳкўчаси 44-уй.